[14] Hanson, B. Uiter Sifat/miqdoriy?: Uslubiy yaqinlashuv uchun asoslar. Qual Quant 42 , 97–111 (2008). DOI: 10.1007/s11135-006-9041-7.[11]

[15] Otakuzieva, Z.M. Development of information economy in Uzbekistan // Global Science and Innovations, 2023, Т. 4, №1. – 15 с.[3]

[16] Carbajal-De-Nova, C. Cobb-Douglas simulation: United States and Mexico // Technological Forecasting and Social Change, 2024, Т. 189, С. 122438.[12]

[17] Chen, Z. Digital economy, green innovation and high-quality development // Technological Forecasting and Social Change, 2025, №210, С. 128562.[4]

[18] Coyle, D., Nguyen, D. Digital economy: Measurement challenges and perspectives // Economics of Innovation and New Technology, 2019, Т. 28, №5, С. 460–477.

[19] Moravec, H. Robot: Mere Machine to Transcendent Mind. Oxford: Oxford University Press, 1998. – 214 с.[13]

[20] Kurzweil, R. The Singularity Is Near: When Humans Transcend Biology. New York: Viking, 2005. — 652 с.

[21] Druce, A. The AI Economic Singularity is Near // Druce.ai, 2025. [Электронный ресурс].[14]

[22] Fayyaz, A. Economic development impact of digital e-commerce // Iranian Economic Review, 2019, Т. 21, №2, С. 211–230.

[23] Sandberg, A. An overview of models of technological singularity // Academia.edu, 2013. — 13 стр.[15]

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA KUTUBXONA KONSORSIUMLARI ORQALI AXBOROT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH

1st Husniya Boysunova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
"Axborot kutubxona tizimlari" kafedrasi
tayanch doktoranti
Tashkent, O'zbekiston
husniya.librarian@gmail.com,
ORCID: 0009-0006-7051-8675

2nd Marat Rahmatullaev
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
"Axborot kutubxona tizimlari" kafedrasi
professori, texnika fanlari doktori
Tashkent, O'zbekiston
marat56@mail.ru,
ORCID: 0000-0003-2587-1120

Abstract. Ushbu maqolada kutubxona konsorsiumlarining raqamli transformatsiya jarayonida axborot infratuzilmasini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Xalqaro konsorsiumlar tajribasi asosida O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan modellar taklif qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, konsorsiumlar kutubxonalararo hamkorlikni kengaytirish, resurslardan birgalikda foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Keywords: Kutubxona konsorsiumlari, raqamli transformatsiya, axborot infratuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, elektron resurslar.

I. INTRODUCTION

Bugungi kunda raqamli transformatsiya barcha sohalar uchun strategik ustuvor yo'nalishga aylangan. Iqtisodiyot va muhandislik tarmoqlari qatori axborot-kutubxona sohasi ham chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mazkur jarayonda kutubxona konsorsiumlari axborot infratuzilmasini rivojlantirishning innovatsion mexanizmi sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekistonda kutubxonalararo hamkorlik, resurslarni integratsiyalash va elektron xizmatlarni joriy etishda konsorsiumlarning o'rni dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayon Prezident qarorlari va "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida izchil amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim, fan va madaniyat sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-axborot resurslaridan samarali foydalanish hamda innovatsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan islohotlar kutubxonalar faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu asosda, kutubxonalar faqatgina an'anaviy axborot manbai emas, balki zamonaviy bilim iqtisodiyotining faol ishtirokchisi sifatida shakllanib, raqamli kontentni yaratish, saqlash va taqdim etishda muhim strategik rolni bajarishi lozim.

Global miqyosda raqamli transformatsiya jarayonlari kutubxona faoliyatini tubdan o'zgartirib, ularni an'anaviy bilim saqlovchi maskanlardan raqamli bilim ekotizimining faol ishtirokchisiga aylantirmoqda. Bugungi kunda kutubxonalar sun'iy intellekt asosida axborot qidiruv va tahlil xizmatlarini taklif qilmoqda, bulutli texnologiyalar yordamida esa resurslarga tezkor va masofaviy kirishni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, ochiq ilmiy ma'lumotlar (Open Science) konsepsiyasining jadal rivojlanishi ilmiy hamjamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratib, kutubxonalarni global ilmiy axborot almashinuvida muhim bo'g'inga aylantirmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari bilan integratsiya esa kutubxonalarni nafaqat resurs markazi, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rsatib, ularning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda alohida kutubxonalar o'zining mavjud moddiy-texnik bazasi va moliyaviy imkoniyatlari bilan zamonaviy axborot ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti [1,2]. Xususan, elektron resurslarning yuqori narxi va murakkab litsenziyalash shartlari ularning keng doirada joriy etilishini cheklaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislar yetishmasligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Natijada, kutubxonalar oldida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, resurslarni birgalikda xarid qilish va ulardan samarali foydalanish orqali yagona bilim makonini shakllantirish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Konsorsiumlar esa ushbu ehtiyojlarga javoban barqaror hamkorlik mexanizmini yaratib, kutubxonalarni global axborot maydoniga faol integratsiyalash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda kutubxona konsorsiumlarining mavjud imkoniyatlari va istiqbollarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning raqamli transformatsiya sharoitidagi o'rnini ochib berishdan iborat. Xalqaro tajribalar o'rganilib, ilg'or amaliyotlar milliy sharoitga moslashtirilgan holda tahlil qilinadi. Shu asosda, kutubxona tizimini samarali rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va konsorsiumlar faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

II. THE IMPORTANCE OF SINGULARITY ECONOMY

Maqolada xalqaro kutubxona konsorsiumlari tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston kutubxonalarining mavjud infratuzilmasi o‘rganilib, iqtisodiy va tashkiliy muammolar aniqlashtirildi. Analitik va bibliometrik usullar, shuningdek, iqtisodiy modellashtirish yondashuvlari qo‘llanildi.

Xalqaro kutubxona konsorsiumlarini qiyosiy tahlil qilishda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: tashkiliy ta’minoti, moliyaviy ta’minoti, a’zolik shakli, xizmat turlari:

Tashkiliy va moliyaviy ta’minot:

1. Davlat tomonidan yaratilgan milliy markaz – INFLIBNET (Hindiston).

INFLIBNET – Hindiston Ta’lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, milliy miqyosda akademik axborot infratuzilmasini rivojlantirish, elektron resurslarga kirish va kutubxonalararo hamkorlikni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi. Ushbu model davlat asoschiligida, milliy axborotga ehtiyojlarni markazlashtirilgan tarzda qondirishga yo‘naltirilgan.

2. Markazlashtirilgan davlat dasturi (tiered tarmoq) – CALIS (Xitoy).

CALIS – Xitoyning oliy ta’lim kutubxonalari konsorsiumi bo’lib, markaziy davlat mablag‘i bilan ta’minlanadi va ko‘p bosqichli boshqaruv tuzilmasiga ega. Maqsad – akademik resurslarni integratsiya qilish va mamlakat bo‘ylab barcha foydalanishini ta’minlashdan iborat.

3. Nodavlat notijorat raqamli agentlik – Jisc (Buyuk Britaniya).

Jisc – Buyuk Britaniyada oliy va kasbiy ta’lim uchun raqamli ma’lumot va texnologiyalar agentligi; u asosiy mablag‘ni turli fondlardan oladi, qo‘shimcha daromad esa a’zolik obunalaridan shakllanadi. Jisc litsenziyalar bo‘yicha muzokaralar, milliy tarmoq infratuzilmasi va ochiq ilm-fan ekotizimini qo‘llab-quvvatlaydi.

4. Universitet va ilmiy muassasalar konsorsiumi– ANKOS (Turkiya).

ANKOS – universitet va ilmiy muassasalarni birlashtirgan professional assotsiatsiya-konsorsium bo‘lib, nodavlat, notijorat tashkilot hisoblanadi. ko‘plab nashriyotchilar bilan shartnomalar tuzadi, litsenziyalash jarayonlarini markazlashtiradi va a’zolar uchun trening hamda xizmatlar ko‘rsatadi. [3]

5. Xalqaro nodavlat, notijorat tashkilot – EIFL.

EIFL – rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlarda milliy kutubxona konsorsiumlarini qo‘llab-quvvatlaydigan notijorat tashkilot bo’lib u nashriyotchilar bilan litsenziyalar bo‘yicha muzokara olib boradi, ochiq kirish va mualliflik huquqi siyosatlarini ilgari suradi. [4,5]

6. Nodavlat, notijorat a’zolik asosidagi global kutubxonalar kooperativi – OCLC.

OCLC – dunyo bo‘ylab a’zo kutubxonalar kooperativi bo‘lib, ularga umumiy texnologik xizmatlar, hamjamiyat dasturlari va eng muhimi, WorldCat global katalogini taqdim etadi. Asosan a’zolar tomonidan foydalaniladigan umumiy xizmatlar (masalan, WorldCat va boshqa platformalar) orqali tushadigan to‘lovlardan moliyalashtiriladi.

7. Nodavlat, notijorat korporatsiya – WRLC

Vashington metropoliten hududidagi universitetlar kutubxonalari uchun xizmat ko‘rsatadigan a’zolik konsorsiumi sifatida 1987-yilda tashkil etilgan notijorat korporatsiya bo’lib, notijorat oliy ta’lim muassasalari uchun kutubxona hamkorligi va xizmatlarini ko’rsatishdan iborat.[6]

8. “ЭБС Лань” ta’lim tizimi qoshida tashkil etilgan “Консорциум СЭБ” — notijorat loyihaviy konsorsium [7]

“Консорциум СЭБ”ning boshqaruv infratuzilmasi “ЭБС Лань” tarkibida bo’lgani uchun, bu model platforma asosidagi loyihaviy konsorsium sifatida faoliyat yuritadi. Maqsad bir qancha sohaga oid elektron kutubxonalarni yagona platformada birlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat.

A’zolik shakli va resurslardan foydalanish modellari :

A’zolik shakli va xarajatlarni bo‘lishish modellari konsorsium a’zolari o‘zaro ijobiy va samarali hamkorlikni ta’minlash uchun qanday ishlashi mumkinligini ko’rsatadi. Dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarida bir nechta xarajatlarni bo‘lishish modellari aniqlangan.[8,9,10] Ushbu modellar mamlakatdan mamlakatga va mintaqadan mintaqaga farq qiladi, biroq hozirgi kunda eng keng tarqalgan o‘zgaruvchilar va parametrlar sifatida quyidagilar qo‘llaniladi: teng ulush, muassasa hajmi, kutubxona byudjeti, foydalanish darajasi, ilmiy faoliyat natijalari, tadqiqotlardan olingan mablag‘lar, kelishilgan tejalgan mablag‘larni bo‘lishish. Konsorsiumning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda a’zolik badallarini belgilash mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi global amaliyotda quyidagi 6ta xarajatlarni bo‘lishish modellari keng qo‘llaniladi:

1. FTE (Full-Time Equivalent) xarajatlarni bo‘lishish modeli: Bu model “foydalanish ehtimoli qanchalik katta bo‘lsa, to‘lov shuncha yuqori bo‘ladi” tamoyiliga asoslanadi. Universitetning hajmi (talaba va o‘qituvchilar soni) to‘g‘ridan-to‘g‘ri obuna to‘loviga ta’sir qiladi. FTE deganda talaba va professor-o‘qituvchilar soni to‘liq stavkali ekvivalent sifatida hisoblanadi (masalan, yarim stavkada o‘qiyotgan 2 talaba = 1 FTE).

Diapazonlari:
1. 1 – 1 500 FTE
2. 1 501 – 8 000 FTE
3. 8 001 – 17 000 FTE
4. 17 001 – 28 000 FTE
5. 28 000 dan ortiq FTE

Namuna: 1 200 talaba va 300 professor-o‘qituvchiga ega kichik universitet 1-diapazonga tushadi va eng past obuna to‘lovini to‘laydi. 25 000 FTE ga ega yirik

universitet 4-diapazonga tushadi va yuqori to‘lovni amalga oshiradi, chunki foydalanish hajmi katta bo‘lishi kutiladi. Bir tomondan bu adolatli xarajatlarni bo’lishish shaklidek ko’rinadi, chunki ko‘proq foydalanuvchi ko‘proq resursdan foydalandi. Lekin kichik va faol foydalanuvchilarga ega bo‘lgan universitetlar uchun foyda va to‘lov nisbatida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin.

2. To‘plam mazmuni va davriyligi asosida xarajatlarni bo‘lishish modeli: To‘plam mazmuni va davriyligiga asoslangan xarajatlarni taqsimlash modelida obuna to‘lovi foydalanuvchiga taqdim etiladigan kontent segmenti (masalan, arxiv: 1950–2009; joriy nashrlar: 2010–hozir) va qamrov davriga qarab belgilanadi. Qamrov davri kengaygan sari umumiy narx ortadi, konsorsiumdagi ishtirokchilar soni ko‘paygan sari esa iqtisodiy masshtab samarasi hisobiga har bir ishtirokchining ulushi kamayadi (masalan, 1–10, 11–25 va h.k. toifalar). Amaliy misol tariqasida, faqat 2010-yildan keyingi materiallarga kirish talab etilganda narx nisbatan past bo‘ladi; arxiv hamda joriy to‘plamga to‘liq kirish esa yuqoriroq narxni talab qiladi. Mazkur modelning ustunligi — to‘lovlarning real foydalanish hajmiga muvofiqlashtirilishi; kamchiligi — variantlar ko‘pligi narx siyosatini murakkablashtirib, shartnoma muzokaralarini cho‘zishi mumkin.

3. Jurnal va kitob to‘plamlari bo‘yicha xarajatlarni taqsimlash modeli – obuna narxi tanlangan resurs turiga (faqat jurnallar, faqat kitoblar yoki aralash portfel) hamda ishtirokchilar soniga muvofiq belgilanadi. Har bir a’zo muassasa o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, faqat jurnal to‘plamiga, faqat kitob to‘plamiga yoki har ikkala to‘plamga bir vaqtning o‘zida obuna bo‘lishi mumkin. Hisob-kitob mexanizmi quyidagicha: (i) portfel tarkibi tanlanadi; (ii) shu portfelga obuna bo‘lgan muassasalar soni aniqlanadi va umumiy narx ularning o‘rtasida taqsimlanadi. Masalan, 15 ta universitet jurnal to‘plamiga, 8 tasi kitob to‘plamiga, 5 tasi esa aralash portfelga obuna bo‘lsa, har bir guruh o‘z tanlagan to‘plam qiymatini o‘z ichida bo‘lib to‘laydi. Modelning afzalligi – moslashuvchanlik: har bir universitet faqat zarur resurslar uchun to‘lov qiladi.

4. Yagona qat’iy to‘lov modelida konsorsium bo‘yicha umumiy shartnoma qiymati barcha a’zo muassasalar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi; shu bois muzokara va boshqaruv jarayonlari soddalashadi va ma’muriy yuklama minimal bo‘ladi. Masalan, umumiy narx 100 ming dollar bo‘lsa va o‘nta a’zo mavjud bo‘lsa, har biri 10 ming dollardan to‘laydi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi — sodda va shaffofligi, byudjetni oldindan aniq rejalashtirish imkonini berishi hamda, odatda, kichik kutubxonalar uchun qulayligidir. Biroq model foydalanish hajmi va tashkilot miqyosi kabi farqlarni inobatga olmaydi, natijada katta va kichik a’zolar bir xil to‘lov qiladi. Shu sababli u, asosan, a’zolar o‘lchami va foydalanish darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan holatlarda tavsiya etiladi.

5. Gibrid (foydalanish + FTE + qat’iy minimal to‘lov) modeli konsorsium xarajatlarini adolat va boshqaruv soddaligi o‘rtasida muvozanatlashtiradi: avvalo ishtirokchilar ro‘yxati tasdiqlanadi va nashriyot bilan umumiy narx kelishiladi; so‘ng kelishilgan qiymatning ma’lum foizi barcha a’zolar o‘rtasida teng ulushlarda “minimal qat’iy to‘lov” sifatida taqsimlanadi, qolgan qismi esa a’zolarning to‘liq stavkaga tenglashtirilgan xodimlari (FTE) va real foydalanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ulushlanadi (masalan, teng yoki kelishilgan nisbatda). Yangi qo‘shilayotgan a’zolar mos keluvchi FTE ko‘lami va minimal foydalanish segmentiga tenglashtiriladi, shunda tizim izchilligi saqlanadi. Masalan, besh a’zodan iborat konsorsiumda umumiy qiymatning taxminan beshdan bir qismi teng taqsimlanib, qolgan qismi yarmiga-yarmi FTE va foydalanish bo‘yicha bo‘linishi mumkin. Modelning afzalligi — foydalanish va miqyos farqlarini inobatga olgani holda shaffof boshqaruvni ta’minlashi bo’lsa, kamchiligi — so‘nggi bir necha yil bo‘yicha foydalanish ma’lumotlarini yig‘ish va normallashtirish, shuningdek nisbatlar va minimal ulush foizini oldindan kelishishni talab etishidir. Ushbu yondashuv a’zolar hajmi va foydalanish darajasi sezilarli farq qiladigan konsorsiumlar uchun, hamda “ko‘p foydalangan — ko‘proq to‘laydi” prinsipini bosqichma-bosqich joriy etishda maqsadga muvofiqdir.

6. Fan yo‘nalishi bo‘yicha hisoblash: Ushbu modelda konsorsium to‘lovlari fan yo‘nalishlari (masalan, huquq, muhandislik, tibbiyot) kesimida FTE ko‘rsatkichi asosida taqsimlanadi: avvalo har bir yo‘nalish bo‘yicha bakalavr, magistr, PhD va fakultet shtat birliklari yig‘indisi aniqlanadi, so‘ng kelishilgan FTE diapazonlari va ishtirokchi muassasalar soniga tayangan tarif qo‘llanadi. Umumiy shartnoma qiymati yo‘nalishlar uchun oldindan belgilangan bazaviy ulushlarga (masalan, tibbiyotga ko‘proq, muhandislik va huquqqa nisbatan kamroq) ajratilib, har bir yo‘nalish ichida a’zolarga ularning FTE ulushi proporsiyasida taqsimlanadi; yakuniy badal esa ushbu yo‘nalishlar kesimidagi ulushlar yig‘indisidan shakllanadi. Yondashuvning ustunligi — predmetga mos taqsimot va resurslar uyg‘unligini oshirishi (tibbiyotga ehtiyoji yuqori bo‘lgan universitet ko‘proq to‘laydi); cheklovi — yo‘nalishlar bo‘yicha aniq FTE hisob-kitobi hamda bazaviy ulushlar bo‘yicha kelishuv zarurligi. Model ixtisoslashuv darajasi yuqori bo‘lgan muassasalarda va resurslar yo‘nalishlar bo‘yicha segmentlangan holatlarda qo‘llash uchun maqbuldir.

Konsorium taklif etadigan xizmat turlari

- Kollektiv litsenziyalash va qo‘shma xarid — nashriyotchilar bilan markazlashtirilgan muzokaralar orqali narx va shartlarni maqbullashtirish, takror xaridlarni kamaytirish.
- Litsenziyalash va narxlash — qat’iy yagona to‘lov, to‘liq stavkaga tenglashtirilgan xodimlar (FTE) asosida, foydalanish ko‘rsatkichiga tayanadigan va gibrid modellardan foydalanish; yangilash va bekor qilish tartiblarini standartlashtirish.
- Elektron resurslarni boshqarish — mualliflik huquqi va litsenziya ma’lumotlarini, kirish huquqlarini, yangilanishlarni yagona tartibda yuritish.
- Yagona qidiruv va kirish — turli manbalarga bitta qidiruv oynasi orqali murojaat qilish, havolani yo‘naltiruvchi xizmat orqali to‘liq matnga o‘tish, yagona kirish tizimi bilan barqaror masofaviy kirishni ta’minlash.

- Kutubxonalararo xizmat (abonent va hujjat yetkazib berish) — resurslarni tezkor almashish uchun yagona tizim va to‘lov tartiblarini joriy etish.
- Yagona kutubxona platformasi (integratsiyalashgan kutubxona tizimi) — kataloglash, aylanma (sirkulyatsiya) va elektron resurslarni boshqarishni yagona bulutli platformada birlashtirish va qo‘llab-quvvatlash.
- Yig‘ma elektron katalog va metama’lumot standartlari — MARC21/Dublin Core asosida sifatli bibliografik yozuvlarni ta’minlash va tizimlararo moslikni yo‘lga qo‘yish.
- Institutsional repozitoriy va ochiq kirish — ilmiy ishlarni ochiq saqlash va taqdim etish, indekslashni kuchaytirish va ochiq kirish siyosatini (Open Access) qo‘llab-quvvatlash.
- Konsorsium darajasidagi tahlil va asosiy ko‘rsatkichlar — COUNTER kabi standartlarga tayangan holda “foydalanish birligi uchun xarajat”, qamrov va boshqa mezonlarni muntazam monitoring qilish hamda ehtiyojlarni tahlillash.

Kadrlar salohiyati va texnik qo‘llab-quvvatlash — doimiy trening va malaka oshirish kurslarini taqdim etish, yagona xizmat ko’rsatish portali orqali murojaat va so’rovlarni samarali boshqarish.

III. XULOSA

O‘zbekistonda konsorsiumlarni shakllantirishda moliyaviy manbalar yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi va kadrlar malakasi kabi muammolar mavjud.[11] O‘zbekiston sharoitida kutubxona konsorsiumi raqamli transformatsiyaning strategik drayveri bo‘lib, resurslardan qo‘shma foydalanish, markazlashtirilgan litsenziyalash va yagona raqamli infratuzilma orqali xarajatlarni optimallashtiradi hamda xizmatlar sifatini oshiradi. Kutubxonalar o‘rtasida konsorsium va mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilganda, birinchi navbatda moliyaviy samaradorlik ta’minlanadi: xalqaro va mahalliy nashriyotlarning ilmiy resurslariga obunada xarajatlar optimallashtiriladi, takror xaridlar kamayadi va qo‘shma obuna mexanizmlari orqali mablag‘lar adolatli taqsimlanadi. Shu bilan birga, ilmiy va ta’limiy natijalar sezilarli yaxshilanadi: tadqiqotchilar global tajriba va manbalarga tezkor kirish orqali ilmiy maqolalar tayyorlaydi, nufuzli jurnallarda nashrlar soni ortadi, ilmiy metrik ko‘rsatkichlar mustahkamlanadi, o‘qitish jarayoni esa yuqori sifatli resurslar va metodik ko‘mak bilan boyiydi. Axborot texnologiyalari va xizmatlar sifati jihatidan, jahonning yetakchi ekspertlari tomonidan tahrirlangan elektron resurslarga barqaror kirish yo‘lga qo‘yiladi, tezkor navigatsiya vaqtni tejaydi, elektron kataloglar va yagona ma’lumotlar bazasi asosida integratsiyalashgan axborot muhiti shakllanadi.

Konsorsium raqamlashtirish va axborot infratuzilmasini rivojlantirishni tezlashtiradi: noyob ilmiy-adabiy merosni saqlashga qaratilgan raqamlashtirish loyihalari qo‘llab-quvvatlanadi, zamonaviy texnologiyalar asosida xizmatlar avtomatlashtiriladi va integratsiyalashgan tizimlar joriy etiladi. Hududlararo tenglik tamoyili kuchayib, barcha viloyatlardagi kutubxonalar bir xil ilmiy-ta’limiy imkoniyatlarga ega bo‘ladi, kam rivojlangan hududlardagi muassasalarning o‘sishi rag‘batlantiriladi. Axborot savodxonligi va madaniyati yuksaladi: foydalanuvchilar, ayniqsa yoshlarda, raqamli resurslar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi va ilmiy-axborot xizmatlaridan foydalanish madaniyati mustahkamlanadi. Nihoyat, milliy va xalqaro hamkorlik kengayadi: EIFL, IFLA, Erasmus+ kabi platformalar orqali grantlar va resurslar jalb qilinadi, xorijiy konsorsiumlar bilan tajriba almashish, qo‘shma loyihalar, seminar va konferensiyalar yo‘lga qo‘yiladi; foydalanuvchi ehtiyojlariga tayanib tahliliy xizmatlar, tavsiya tizimlari, intellektual qidiruv va kontent tahlili kabi innovatsion xizmatlar bosqichma-bosqich joriy etiladi.

[1] Lapo M, Rakhmatullaev M. PROBLEMS AND PROSPECTS OF INFORMATION INTEROPERABILITY OF ACADEMIC LIBRARIES IN CENTRAL ASIA University Library at a New Stage of Social Communications Development. Conference Proceedings, 2024, No. 9 UniLib NSD-2024 STRATEGIC PARTNERSHIP ISSN 2707-0476Creative Commons Attribution 4.0 International https://doi.org/10.15802/unilib/2024_318415

[2] Rakhmatullaev, M., & Hedrich, A. (2023). Academic Libraries of Uzbekistan: Challenges and Development Prospects. Slavic & East European Information Resources, 24(4), 242–257. https://doi.org/10.1080/15228886.2024.2312686

[3] Bulut, B., Uğur, H., Gürdal, G., Holt, İ., Çukadar, S., Akbayrak, E. H., & Çelebi, M. K. (2013). ANKOS Publisher Application System and its impact on the e-Resource Evaluation Process. Serials Review, 39(1), 29–36. https://doi.org/10.1016/j.serrev.2013.01.002

[4] https://www.eifl.net/

[5] Kupryte, R., Segbert-Elbert, M., & Bernal, I. (2005). The EIFL.net Initiative: Access and management of Electronic Resources by library consortia in developing and transition countries. Serials Review, 31(4), 256–260. https://doi.org/10.1016/j.serrev.2005.09.001

[6] https://www.wrlc.org/

[7] Анастасия Привалова (2021). Консорциум сетевых электронных библиотек: опыт 280 вузов России и стран СНГ. «INFOLIB» ахборот-кутубхона журнали. №2 (26), 30–33. https://einfolib.uz/source/wp-content/uploads/2021/07/2021230.pdf . https://doi.org/10.47267/2181-8207/2021/2-056

[8] Cukadar, S., Tuglu, A., & Gurdal, G. (2012). New Electronic Resources Management System for the ANKOS Consortium. The Journal of Academic Librarianship, 39(6), 589–595. https://doi.org/10.1016/j.acalib.2012.11.011

[9] Erdogan, P., & Karasözen, B. (2009). Portrait of a consortium: ANKOS (Anatolian University Libraries Consortium). The Journal of Academic Librarianship, 35(4), 377–385. https://doi.org/10.1016/j.acalib.2009.04.008

[10] Karasozen, B., & Lindley, J. A. (2004). Perspectives on . . . The impact of ANKOS: Consortium development in Turkey. The Journal of Academic Librarianship, 30(5), 402–409. https://doi.org/10.1016/j.acalib.2004.06.008

[11] Rakhmatullaev, M. A. (2022). The information library infrastructure of Uzbekistan: The three-level management model. Scientific and Technical Libraries, 1, 103–118. https://doi.org/10.33186/1027-3689-2022-1-103-118

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY ERP TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISH VA TADBIQ ETISH

1st Bozorov Ubaydullo Baxshulloyevich
Menejment va marketing kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

2nd Axmedov Nurshod Murodovich
Infokommunikatsiya injiniringi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Tashkent, O‘zbekiston
axmedov.n.m@gmail.com

Abstract. **Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy ERP tizimlari ahamiyati, ularning ishlab chiqilishi dolzarbligi tadqiq qilingan. Jumladan raqamli texnologiyalardan foydalangan holda milliy ERP tizimi dasturiy maxsuloti ishlab chiqilgan, dasturiy maxsulotning arxitekturasi taklif etilgan va tizimli modeli ishlab chiqilgan. Milliy dasturiy maxsulotini elektron tijorat negizida foydalanuvchilarga taqdim etishda oldindan xarid qilish moduli ishlab chiqildi hamda funksional modeli orqali ilgari surildi. Bunda dasturning iqtisodiy samaradorligiga alohida e’tibor qaratildi.**

Keywords: monolit arxitektura, mikroservisli arxitektura, ERP tizimi, blokcheyn, Elektron pullar, Fiskal cheklar, elektron hisobvaraq-fakturalar, Elektron kapital harakati

I. KIRISH

Jahonda Raqamli 2025 hisobotlari va tahlillarining keng to‘plami dunyoning 230 dan ortiq mamlakat va hududlarida raqamli xatti-harakatlarning chuqur o‘rganilishini o‘z ichiga oladi .

Ushbu hisobotlar boy ma'lumotlar, tendentsiyalar va tushunchalar bilan to'ldirilgan bo'lib, odamlar hamma joyda internet, mobil telefonlar, ijtimoiy media va elektron tijoratdan qanday foydalanayotgani hamda sotuvchilar ushbu qimmatli auditoriyaga erishish uchun raqamli texnologiyalardan qanday foydalanishini tushunishga yordam beradi.

Raqamli 2025 hisobotlari 2025-yilda O‘zbekiston aholisi raqamli qurilmalar, onlayn platformalar va ulangan xizmatlardan qanday foydalanishini tushunishga yordam berish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar, tushunchalar va tendentsiyalarni o‘z ichiga oladi .

Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko’tarilishi bosqichida barcha sohalarda keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi. Axborot texnologiyalarining rijojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimi ham yangi bosqichga ko’tarildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PF-6079-son Farmonida “Elektron tijorat va elektron to’lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash; raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog‘i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko’lamlarini oshirish va hokazolar” amalga oshirish belgilab berilgan .

“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi: moliyaviy hisobotning yagona standartlarini ishlab chiqadigan va tasdiqlaydigan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblangan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi (keyingi o‘rinlarda — MHXS fondi) bilan bitim tuzsin; “

Shunga ko’ra raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda Xalqaro buxgalteriya stadartlari asosida ishlaydigan dasturiy ta’minot platformalarini ishlab chiqish va ham elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish masalalari sohasida mavjud muammolarini hal etish masalalarini o’rganish hamda amaldagi elektron tijorat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

II. MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish masalalarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari qator xorijiy mutaxassislar, xususan, A.Krensel, J.Chetkuti, V.Tanzi, P.Dernberg, K.Friden, D.Xardest, D.Robert tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Rossiya tadqiqotchilardan S.K.Ilichev, A.V.Koren, I.P.Meleshenko, A.A.Tedeev, L.V.Frolova, R.Ye.Xusnetdinovlarning ilmiy ishlarida elektron tijoratni tashkil etish masalalari ayrim davlatlar misolida atroflicha tadqiq qilingan.

Milliy iqtisodchi olimlardan M.I.Alimardonov, A.V.Vahobov, A.S.Jo’raev, T.S.Malikov, Sh.A.Toshmatov, B.Toshmurodova, B.R.Sanaqulova, N.X.Haydarovlar elektron tijorat tizimini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida elektron tijorat mexanizmlarini takomillashtirishga ham taaluqli bo’lgan masalalarning ma’lum bir jihatlari o’rganilgan.

Lekin yuqorida keltirilgan mualliflar O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda elektron tijorat

infratuzilmasini takomillashtirish masalalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, bu boradagi mavjud muammolar hamda xalqaro tajriba yaxlit tizimli tarzda tadqiq etilmagan va ularni takomillashtirish yuzasidan konseptual takliflar ishlab chiqilmagan.

III. RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Raqamli iqtisodiyot – bu innovatsion g'oya. Ushbu fikr Jahon banki tomonidan 2016-yil "Jahon taraqqiyoti haqida ma'ruza – 2016: raqamli dividendlar" ma'ruzasida ma'lum qilingan. Ushbu tadqiqot xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Internet tezligining 10 foizga o'sishi mamlakat YaIMning o'sishiga ham ta'sir qiladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Ookla ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshigacha bo'lgan o'n ikki oy ichida O'zbekistonda mobil internetga ulanishning o'rtacha tezligi 10,15 Mbit/s (+69,8 foiz) ga oshgan. Ayni paytda Ookla ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'rnatilgan internetga ulanish tezligi xuddi shu davrda 10,20 Mbit/s (+22,5 foiz) ga oshgan . Demak, Internet tezligi 2 baravar oshadigan bo'lsa, YaIM hajmi 13–14 foiz ortishiga erishish mumkin. Soliq ma'murchiligida onlayn-NKT hamda raqamlashtirishning boshqa faol mexanizmalarini joriy etish orqali taksi (https://t.me/soliqnews/14899), dori (https://t.me/soliqnews/15136)vositalari kabi iste'mol bozorlarining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyati yaratilgan. Endilikda tahlillarda yirik chakana savdo sohasi ham qamrab olinmoqda.

Raqamlashtirishdan ko'zlangan maqsad – noqonuniy aylanmalar hajmini qisqartirish, biznes jarayonlarining shaffofligini oshirish, shunigdek, davlat va iste'molchilar manfaatlarini samarali himoya qilishdan iborat

Raqamli iqtisodiyotga olimlar turlicha yondashuvlar va ta'riflar berilgan:

- V. Ivanov. Raqamli iqtisodiyot – bu bizning voqeligimizni to'ldiruvchi virtual muhit deb ta'rif bergan .
- R. Mesheryakov. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan iqtisodiy ishlab chiqarish deb ta'rif bergan.
- A. Kuntsman. Raqamli iqtisodiyot ma'lumot va ma'lumotning moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan tavsiflanadigan zamonaviy iqtisodiyot turidir.
- R. K. Asanov. Raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni electron tijorat orqali tarqatish asosida: "elektron mahsulotlarga ixtisoslashgan biznes ishlab chiqarish jarayonlarini va pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, shuningdek, Internet texnologiyalardan foydalangan holda mijozlar bilan ishlash va ularni boshqarish bilan shug'ullanadi.

Raqamli iqtisodiyot tarkibiga elektron hukumat, elektron biznes, elektron kommersiya, raqamli iqtisodiy munosabatlar, turizm sohasida biznes qiluvchi kompaniyalar, raqamli banklar, raqamli arxivlar,virtual korxonalar, kriptovalyutalar – electron pullar, ijtimoiy tarmoqda marketing xizmatlaridan foydalanish, blokcheyn texnologiyasini joriy etish, korxonalarning raqamli "cho'ntak"lari, raqamli dividentlar va boshqalar kiradi.

Raqamli iqtisodiyot yo'nalishlari bigdata, sun'iy intellekt, blokcheyn, kvant texnologiyalari, ishlab chiqarish texnologiyalari, sanoat Interneti, robototexnika, simsiz aloqa, virtual reallik kabilardan iborat.

Turizm sohasida biznes - nima uchun sayyohlik agentligining ish jarayonini avtomatlashtirish kerak? Buning sabablari ko'p. Birinchidan, xodimlarning ish yuki qo'l mehnatidan sezilarli darajada kamayadi, shuning uchun ish beruvchi xodimlar xarajatlarini tejashga qodir. Ikkinchidan, shartnomalar, narxlar ro'yxati va sayohat vaucherlarini to'ldirishda inson xatosi xavfi kamayadi, bu esa ish beruvchining xatoni tuzatish uchun keyingi xarajatlariga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, bu nafaqat xodimlarning ishini kuzatish, balki real vaqt rejimida kompaniyaning umumiy moliyaviy holatini baholash uchun ajoyib vositadir. Bir nechta sayyohlik agentliklari ofislarida esa sayyohlik agentligini avtomatlashtirish juda muhim element hisoblanadi.

Elektron tijorat – bu kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalarini va shu kabi operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan biznes jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi[1].

Elektron tijoratga quyidagilar kiradi:

- Elektron ma'lumot almashish (Electronics
- Data Interchange, EDI);
- Elektron kapital harakati (Electronic Funds
- Transfer, EFT);
- Elektron savdo (inglizcha e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing (e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug'urta xizmatlari (e-insurance).

Elektron tijorat texnologiyalari tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, bu ishlab chiqaruvchilarga ham, iste'molchilarga ham vositachilarsiz ishlashga imkon beradi. Bunga eng maqbul narx takliflari va guruhli xaridlarni qidirishni kengaytirish orqali erishiladi. Elektron tijoratning shahar va mintaqaviy darajadagi muvaffaqiyati

mahalliy korxonalar va iste'molchilar elektron savdoni qanday qabul qilishiga bog'liq.

Biroq, elektron tijoratda kishilarning mijozlar bilan bevosita aloqasi yuz bermaydi. Mijozlar, shuningdek, onlayn tranzaksiyalar xavfsizligi haqida qayg'uradilar va, odatda, avvaldan ma'lum bo'lgan chakana sotuvchilarga sodiq qoladilar. Internet-do'konda tovarlarga buyurtma berish misolida elektron tijorat tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

Bunda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi:

Birinchi qadam – onlayn katalogni ko'rib chiquvchi xaridor mahsulotni tanlashga qaror qiladi. Uning kompyuteri yoki mobil qurilmasi brauzer orqali do'kon joylashgan server bilan o'zaro aloqa o'rnatiladi.

Ikkinchi qadam – server foydalanuvchi so'rovini qabul qilib, uni buyurtmalarni qayta ishlash tizimidagi menejerga yuboradi.

Uchinchi qadam – menejer bazada tovarlarning mavjudligi to'g'risida so'rov yuboradi. Agar mahsulot yo'q bo'lsa, u holda ishlab chiqaruvchiga so'rov yuboriladi, omborga yetkazib berish vaqti aniqlanadi,shundan so'ng mijozga aniq ma'lumotlar beriladi.

To'rtinchi qadam – agar tovarlar zaxirada bo'lsa,do'kon xodimi arizani ko'rib chiqishni davom ettiradi.

Beshinchi qadam – operatsiyani amalga oshirish uchun so'rov bilan moliya tizimiga murojaat qilish mijoz tomonidan to'lovni amalga oshirish.

Oltinchi qadam – moliyaviy tizim mijozning hisobvarag'idagi vaziyatga (mablag' yetishmasligi, nosoz karta va boshqalar) bog'liq holda tranzaksiyani amalga oshirishga imkon beradi yoki bloklaydi.Agar operatsiya muvaffaqiyatli bo'lsa, menejer ushbu bitimni tasdiqlaydi va serverga xabar beradi.

Yettinchi qadam – server xaridorga to'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi, buyurtmaga ishlov berish uchun qabul qilinganligi to'g'risida xabar yuboradi.

Sakkizinchi qadam – buyurtma mijozning manziliga jo'natish uchun tovarlar saqlanadigan omborga yuboriladi.

To'qqizinchi qadam – logistika bo'limi tovarlarni xaridorga yetkazib beradi.

O'ninchi qadam – ombordan buyurtma yuborilgandan so'ng, server mijozga elektron pochta yoki telefon orqali (SMS) tovarlar yetkazilganligi to'g'risida xabar yuboradi.

Ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, Dasturiy maxsulotlarni ishlab chiqish hamda sotish bo'yicha Birinchi o'rinda Microsoft kompaniyasi turadi. Umuman olganda bunday kompaniyalarning soni ko'p bo'lib, ularning umumiy daromada aylanmasi 1-rasmda keltirilgan.



Fig. 1. Eng yirik texnologiya kompaniyalarining bozor kapitallashuvi

Ushbu rasmdan bunday milliy mahsulotning ishlab chiqilishi mamlakat iqtisodiy rivojiga naqadar ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin.

IV. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY ERP MAHSULOTINI ISHLAB CHIQISH

Ushbu tadqiqot doirasida milliy dasturiy tizim ishlab chiqildi: ARUS Account - Sayohat va turizm kompaniyalari hisobi va boshqaruvi uchun dasturiy ta'minot — to'liq biznes jarayonlarini boshqarish va boshqarishni soddalashtirish uchun IT-dasturiy ta'minot. ARUS Account sayohat va turizm kompaniyalari uchun to'liq ERP, boshqaruv va buxgalteriya yechimi hisoblanadi.

ERP (korxona resurslarini rejalashtirish) - bu korxona resurslarini rejalashtirish. ERP - bu biznesning barcha jabhalarini, jumladan, moliya, inson resurslari, ishlab chiqarish, ta'minot zanjiri, xizmatlar, xaridlar va boshqa sohalardagi jarayonlarni boshqarishga yordam beruvchi dasturiy tizim. ERP tizimi ba'zan "korxona markaziy tizimi" deb ataladi. Hisobotlarni tezda yopish uchun moliya bo'limiga ERP tizimi kerak. Savdo bo'limi mijozlarning barcha buyurtmalarini boshqarish uchun kerak. Logistika bo'limi mijozlarga to'g'ri mahsulot va xizmatlarni o'z vaqtida yetkazib berish uchun barqaror ERP dasturiy yechimiga tayanadi. Kreditorlik qarzlarini boshqarish etkazib beruvchilarga to'g'ri va o'z vaqtida to'lash uchun ERP tizimiga muhtoj. O'z vaqtida qaror qabul qilish uchun menejment kompaniya faoliyati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish qobiliyatiga muhtoj. Va banklar va aktsiyadorlar aniq moliyaviy hisobotni talab qiladilar, shuning uchun ular ERP tizimi tomonidan taqdim etilgan ishonchli ma'lumotlar va tahlillarga tayanadilar.

ERP yechimlarining biznes uchun ahamiyati ularni amalga oshirish sur'atlarining ortib borayotgani bilan ko'rsatilgan. G2 ma'lumotlariga ko'ra, "Prognozlarga ko'ra, 2026 yilga kelib ERP yechimlari global bozorining hajmi 78,4 milliard dollarga etadi; 2019 yildan 2026 yilgacha yillik yillik o'sish sur'ati 10,2% ni tashkil qiladi ".

- Shu jumladan ARUS account dasturi quyidagi vazifalarni bajaradi:
- Bronlash - Operatsiyalar - Buxgalteriya;
- Sayohat paytida noutbukdan foydalangan holda biznesni masofadan kuzatish;

- Biznes jarayonining barcha faoliyatini nazorat qilish;
- Biznesni yuritish juda samarali;
- Hech qanday to’siqlarsiz biznes operatsiyalarini oshirish;
- Kundalik, haftalik, oylik, choraklik, yarim yillik va yillik daromadlar to’g'risida hisobot tuzish orqali biznesni o’z-o’zini tekshirish;
- ROI ni hisoblash - tizimdan avtomatik ravishda investitsiyalarni qaytarish, hisobotlarni to’g'ri shakllantirish;
- Intellektual hisob-kitob tizimi - har bir mijoz va etkazib beruvchilarning tegishli bronlari uchun hisob-fakturalar, vaucherlarni yaratish uchun bron ma'lumotlarini avtomatik ravishda chiqaradi;
- ARUS Account System biznesni avtomatlashtirish yechimini tanlash orqali biznesni rivojlantirish.

A. Milliy ERP mahsuloti arxitekturasi

Ishlab chiqilgan dasturning funksionlligi va qo’llanilish doirasi ko’p jihatdan dasturning arxitekturasi bilan bog’liq bo’lib, arxitekturaning strukturasi asosida butun tizimning samaradorligini aniqlash mumkin bo’ladi. Zamonaviy dasturiy mahsulotlar asosan ikki xil turdagi arxitektura asosida quriladi. Ular monolit arxitektura va mikroservisli arxitekturalarga bo’linadi.

Zamonaviy veb-ilovalar mikroservis arxitekturasi atrofida qurilgan, bu uslub dasturni xizmatlar to’plami sifatida tuzatadi. Har bir bunday xizmat imkon qadar avtonom bo’lib, muayyan vazifani bajarish uchun zarur va ma'lum bir jamoa tomonidan qo’llab-quvvatlanadi. Ushbu arxitektura sizga biznes ehtiyojlariga asoslangan ilovalarni yaratishning modulli printsipini qo’llash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, agar ehtiyojlar o’zgarsa, biznesga ta'sir qilmasdan har doim bir yoki bir nechta xizmatlarni, masalan, veb-server yoki so’rovlarni qayta ishlash serverini o’zgartirishingiz mumkin.

ARUS Account dasturi mikroservisli arxitekturaga ega dastur bo’lib ko’plab modullardan iborat. Har bir modul aniq bir vazifani bajaradi va markaziy boshqaruv bloki asosida birlashtiriladi. ARUS account dasturining umumiy arxitekturasi 2-rasmda keltirilgan.



Fig. 2. ARUS account dasturining umumiy arxitekturasi

Arus account dasturiy muhitini elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirishda tutgan o’rnini baholashda dastlab ushbu dasturning funksional modelini shakllantirish lozim bo’ladi. Funktsional model tizimning ishlashi (funktsiyasi) xususiyatlarini va uning maqsadini ichki va tashqi elementlar bilan birgalikda o’rganish uchun mo’ljallangan.

Funktsiya - har qanday tizimning eng muhim xususiyati, uning maqsadi, nima uchun yaratilganligini aks ettiradi. Bunday modellar birinchi navbatda funktsional parametrlar bilan ishlaydi. Ushbu modellarning grafik tasviri oqim sxemalaridir. Ular belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlar tartibini (funktsional diagramma deb ataladi) aks ettiradi. Funktsional model mavhum modeldir.

Arus account dasturi asosiy uchta vazifani ya’ni funksiyani bajaradi va uning funksionalligi shu funksiyalar atrofida shakllanadi. Arus account dasturining funksional modeli 3-rasmda keltirilgan.

ARUS hisobini sotish bizning o’z brendimizdagi onlayn-do’konimiz orqali amalga oshiriladi, chunki bizning tadqiqotlarimiz natijasida bu usul eng maqbul deb topildi. Umuman olganda, dasturiy mahsulotlar turli yo’llar bilan amalga oshirilishi mumkin, masalan:

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish. Bu to’g‘ridan-to’g‘ri mijozlarga maxsus savdo guruhlari yoki mijozlarga xizmat ko’rsatish agentlari orqali sotishni o’z ichiga oladi. To’g‘ridan-to’g‘ri sotish sotuvchi va xaridor o’rtasida mustahkam aloqa o’rnatishga yordam berishi bilan birga, qimmat va vaqt talab qilishi ham mumkin.
- Resellerlar orqali sotish. Bunga mahsulotni oxirgi foydalanuvchilarga sotadigan ishonchli uchinchi tomon sotuvchilari bilan hamkorlik kiradi. Ushbu usul mijozlar bazasini kengaytirish va yangi bozorlarga kirishning samarali usuli bo’lishi mumkin.
- Ijtimoiy tarmoqlarda sotish. Bu Facebook, Instagram va Twitter kabi ijtimoiy media platformalari orqali mahsulotni ilgari surish va sotishni o’z ichiga oladi. Bu usul katta auditoriyani qamrab olishning tejamkor usuli bo’lishi mumkin, lekin boshqarish uchun ham vaqt talab qilishi mumkin.

Ushbu usullarning barchasi o’zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega bo’lsada, biz bir necha sabablarga ko’ra ARUS hisobimizni o’z brendimizdagi onlayn-do’konimiz orqali sotishga qaror qildik.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda raqamli dunyoda electron tijoratni samarali tashkil qilish hamda elektron tijorat chegaralarini kengaytirish uchun turli xil mavjud muammolarni hisobga olish kerak, masalan:

- elektron tijorat qatnashchilarining axboroti va moliyaviy resurslar xavsizligi;



Fig. 3. Arus account dasturining funksional modeli

- elektron tijorat tizimi bo'ycha tovarlar va xizmatlar sotuvchilar soliqqa tortish bazasini tartibga solish, monitoringi va hisob-kitobini yuritish;
- elektron tijorat tizimlarni tan olish uchun tijorat axborot reklama maydonlarni hujjatlar aylanmasi tizimlari va xavfsiz to'lov tizimlari bilan ta'minlash;

Internetdan aholi foydalanishni kengaytirish uchun sharoitlarni yaratish hamda raqamli texnologyalarni joriy etish (internet xizmatlari uchun narxlarni pasaytirish va h.k.);

elektron tijorat ishtirokchilarning biznes jarayonlarning elektron shaklda aniq meyoriy va texnik jihatlarni ishlab chiqish bazasiga ishonchni oshirish muammolari mavjud.

Ushbu muammolarni yechishda bugungi kunda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari orqali elektron tijoratni rivojlantirish, asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun birinchi navbatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talab etiladi bu bo'yicha yurtimizda juda ko'plab ishlar olib borilmoqda tadqiqot ishimizda raqamli iqtisodiyotni hamda elektron tijoratni tashkil etish bo'yicha yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan bir qancha qaror va farmonlarni keltirib o'tganmiz.

Tadqiqot ishimizning raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat infratuzilmasidan foydalanishning nazariy asoslari qismida quydagi ishlar amalga oshirildi:

- elektron tijorat infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari yoritib berildi;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirishda o'ziga xos jihatlari to'liqligicha ochib berildi;
- elektron tijoratni rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalar to'liqligicha tahlil qilib kerakli ma'lumotlar ochib berildi;
- Elektron tijorat infratuzilmasi asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari qismida quydagi vazifalar bajarildi:
- raqamli iqtisodiyot biznes modellari va ularning qo'llanilishi bo'yicha biznes modellar tahlil qilib o'tildi hamda taqdiqod ishida foydalanildi;
- raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat mexanizmlari tahlil qilindi hamda tadqiqod ishida joriy qilindi;
- elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmlari atroflicha o'rganib chiqildi.

Dasturiy maxsulotlar tadbiqida elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish qismida tadqiqotning asosiy qismi hisoblanib bunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari kompaniyalari tomonidan elektron tijorat asosida o'zining dasturiy maxsulotlarini taqdim etishlari hamda shu paytgacha olgan daromadlari statistikasi keltirib o'tildi. Bu orqali esa raqamli iqtisodiyot negizida dasturiy maxsulot ishlab chiqildi va elektron tijorat modellari orqali sotish jarayonlari yo'lga qo'yildi jumladan:

- Raqamli iqtisodiyot negizida Arus account dasturiy maxsulotini ishlab chiqildi hamda dasturiy maxsulotning ishlash modeli hamda mexanizimi taqdim etildi;
- Arus account dasturiy maxsulotini elektron tijorat vositalari asosida tadbiq etish bo'yicha tavfsiyalar taqdim etildi.

Bugungi raqamli dunyoda dasturiy maxsulotlarni ishlab chiqish hamda ularni elektron tijorat infratuzilmalari orqali taqdim etish rivojlanib bormoqda bu holatda jamiyatdagi mavjud muammolarni raqamli iqtisodiyot asosida hal qilish dolzarb masala hisoblanadi olib borilgan tadqiqot ishida aynan shu muammolarni yechish maqsad qilib qo'yilgan. Ishlab chiqilgan Arus dasturi tashkilot va kompaniyalarning muammolarini yechishga qaratilgandir.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son qarori

[3] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar” to’g‘risidagi 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son qarori.

[4] R.O. Xolbekov. Xalqaro buxgalteriya hisobi –T. : “ Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi” – 2021, 138 bet.

[5] Quickbooks in the classroom. Copyright © Intuit Canada Limited, 2013. All rights reserved. https://www.intuiteducation.ca/

[6] И. А. Гасаншин. «Цифровая экономика» – М.: Горячая линия, 2019. – С. 54–55.

N. A. Jurayeva, F. Xalimova. “Xalqaro Turizm Bozori”. O’quv qo’llanma.-T.: TDIU, 2020. - 119 bet.

ISSUES OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF THE PUBLIC PROCUREMENT SYSTEM IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY

1st Djalalov Jamoliddin Muzafarovich
Senior teacher,
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Tashkent, Uzbekistan
jamoldjalalov@gmail.com

2nd Nasirova Zulfiya Khudaiberganovna
Assistant,
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Tashkent, Uzbekistan
zulfiyanosirova10517@gmail.com

Abstract. **Digitalization processes in the field of public administration in the Republic of Uzbekistan are aimed not only at public procurement, but also at increasing the digital potential of all institutions and departments. For the effective implementation of these processes, it is important to create a solid digital infrastructure and management systems.**

Keywords: Uzbekistan, state, process, procurement, digital infrastructure, digital technology, efficiency.

I. INTRODUCTION

In recent years, the rapid development of digital technologies worldwide has had a significant impact not only on the private sector, but also on all sectors of the public administration system. The formation and deepening of the digital economy allows for the implementation of principles such as transparency, accountability, efficiency and speed in financial management. In particular, the introduction of digital technologies in such important areas as public procurement, which are related to budget funds, is becoming an integral part of the modern public administration strategy[2].

The formation and development of the digital economy has a profound impact on all sectors of the public administration system, including public procurement (i.e., the system of procurement of goods, services and works by the state). Today, public procurement is not only a means of distributing economic resources, but also an important institution that is of strategic importance in the digital transformation of the state.

Digital technologies play an important role in increasing the transparency, efficiency and accountability of public procurement processes, reducing bureaucratic obstacles, and minimizing corruption.

II. ANALYSIS OF LITERATURE ON THE SUBJECT

So‘nggi yillarda xalqaro amaliyotda sug‘urta kompaniyalari raqamli transformatsiyani strategik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida qabul qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi va AQShda sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatining deyarli barcha bosqichlarini raqamlashtirib, mijozlarga onlayn polis rasmiylashtirish, elektron shartnomalar tuzish, mobil ilovalar orqali xizmatlardan foydalanish imkonini bermoqda [4]. OECD hisobotlariga ko‘ra, sohada raqamli yechimlardan foydalanish nafaqat kompaniyalar samaradorligini oshiradi, balki moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5].

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Moliya vazirligi huzuridagi sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarda elektron polislarni joriy etish, yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va raqamli xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan [6]. Bugungi kunda ayrim sug‘urta kompaniyalari mobil ilovalar orqali xizmatlarni taqdim etishni yo‘lga qo‘ymoqda, mijozlarga elektron shartnomalar taklif qilmoqda hamda ayrim jarayonlarda blokcheyn texnologiyalarini sinovdan o‘tkazmoqda [7]. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, sohaga oid raqamli yechimlar hali yetarli darajada keng tatbiq qilinmagan. Masalan, yagona integratsiyalashgan axborot tizimi to‘liq shakllanmagan, onlayn xizmatlar sifati yetarlicha yuqori emas, shuningdek, kadrlar salohiyatida ham sezilarli bo‘shliqlar mavjud [8].

Ilmiy adabiyotlarda sug‘urta sohasining raqamli transformatsiyasi ko‘plab nuqtai nazarlardan o‘rganilgan. Shapiro [9] o‘z tadqiqotida raqamli texnologiyalar sug‘urta kompaniyalarining biznes-modelini tubdan o‘zgartirib, ularni xizmat ko‘rsatishdan mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikka asoslangan tizimga o‘tkazishini ta’kidlaydi. Smith va Jones [10] esa raqamli yechimlar orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlarni avtomatlashtirish va mijozlar tajribasini yaxshilashni asosiy ustunlik sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Mahalliy tadqiqotchilar orasida Karimov [11] sug‘urta bozorida raqamli infratuzilmaning rivojlanish zarurligini yoritgan bo‘lsa, Raxmonov [12] asosan axborot xavfsizligi va kiberxavflar bilan bog‘liq muammolarga e’tibor qaratadi. Shuningdek, Ergashev [13] sug‘urta kompaniyalari tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bozorning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta’sir qilishi haqida ilmiy xulosalar beradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzuning dolzarbligi ikki asosiy omil bilan izohlanadi. Birinchidan, sug‘urta bozorining raqamli transformatsiyasi moliya sektorining

barqarorligi va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ikkinchidan, O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bo‘yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Shu boisdan, ushbu maqola doirasida milliy sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va undan foydalanish darajasi tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi hamda istiqbolli yo‘nalishlar belgilab beriladi.

Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini ilmiy asoslangan holda baholash, ularning bozor samaradorligiga ta’sirini o‘rganish hamda sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada xalqaro va mahalliy tajribalar solishtirilib tahlil qilinadi, mavjud statistik ma’lumotlar o‘rganiladi va raqamli texnologiyalarning sug‘urta sohasiga ta’sir mexanizmlari yoritib beriladi.

II. Metodologiya

Sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini ilmiy asosda baholash murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Shu bois mazkur tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlarning uyg‘unlashuviga asoslanadi. Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, taqqoslama yondashuv, dinamik ko‘rsatkichlarni o‘rganish, sifat va miqdoriy baholash usullari birgalikda qo‘llandi [14].

Birinchi bosqichda tadqiqotning nazariy asosi shakllantirildi. Bunda sug‘urta bozorida raqamli transformatsiya jarayonlarini yorituvchi xorijiy va milliy ilmiy manbalar, jumladan xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilmiy maqolalar va tahliliy sharhlar o‘rganildi [15]. Ushbu manbalar sug‘urta kompaniyalarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi, InsurTech rivojlanishi, raqamli xavfsizlik, axborot texnologiyalarining samaradorlikka ta’siri kabi masalalarni nazariy jihatdan asoslashga yordam berdi.

Ikkinchi bosqichda ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Tadqiqot uchun asosiy ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi hisobotlari, Markaziy bank statistik ma’lumotlari, yirik sug‘urta kompaniyalarining yillik hisobotlari, shuningdek, Jahon banki va OECD kabi xalqaro moliya institutlarining rasmiy nashrlari orqali yig‘ildi [16]. Ushbu ma’lumotlar asosida raqamli texnologiyalar joriy etilishining amaliy ko‘rsatkichlari – elektron polislar soni, onlayn xizmatlardan foydalanuvchilar ulushi, kompaniyalarning raqamli xizmatlarga yo‘naltirgan investitsiyalari, raqamli mahsulotlar soni va ularning qamrovi kabi indikatorlar o‘rganildi.

Uchinchi bosqichda tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda bir nechta turli yondashuvlardan foydalanildi:

- Dinamik tahlil orqali so‘nggi 5–7 yil davomida sug‘urta bozorida kuzatilgan raqamli ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, tendensiyalari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi [17].
- Taqqoslama tahlil yordamida O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi xalqaro amaliyotdagi ilg‘or tajribalar bilan solishtirildi. Bunda Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Germaniya tajribasi qiyosiy o‘rganildi [18].
- Tarkibiy tahlil yordamida sug‘urta kompaniyalari faoliyatida qo‘llanilayotgan texnologiyalar (mobil ilovalar, onlayn polislar, elektron arxivlar, blokcheyn tizimlari)ning ulushi va samaradorligi baholandi [19].
- SWOT-tahlil orqali esa raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi kuchli va zaif tomonlar, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, ularning strategik rivojlanishdagi o‘rni belgilandi [20].

To‘rtinchi bosqichda sifat tahlili amalga oshirildi. Bunda sug‘urta sohasi bo‘yicha mutaxassislar va kompaniya xodimlari bilan suhbatlar, ekspert intervyulari hamda tahliliy maqolalar asosida sifat ko‘rsatkichlari yig‘ildi [21]. Respondentlar fikrlariga tayangan holda mijozlar uchun raqamli xizmatlarning qulayligi, mavjud muammolar, texnologik infratuzilma yetishmovchiligi va kadrlar tayyorlashdagi bo‘shliqlar o‘rganildi. Shu tarzda, statistik ko‘rsatkichlar sifat tahlili bilan uyg‘unlashtirildi.

Beshinchi bosqichda integratsiyalashgan yondashuv qo‘llanildi. Ya’ni, nazariy asoslar, statistik ko‘rsatkichlar va ekspert mulohazalari bir tizimda birlashtirilib, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining umumiy bahosi shakllantirildi. Bunday yondashuv sug‘urta bozorida raqamli transformatsiya jarayonlarini nafaqat raqamlar orqali, balki sifat omillari nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish imkonini berdi [22].

Shunday qilib, mazkur tadqiqot metodologiyasi sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalar joriy etilishining murakkabligini hisobga olgan holda, turli metod va yondashuvlarning kompleks qo‘llanishiga asoslanadi. Bu esa natijalarni yanada chuqur, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan foydali ko‘rinishda olish imkonini yaratdi.

III. Natijalar va Muhokama

Tadqiqot doirasida olingan ma’lumotlar sug‘urta bozori faoliyatining raqamli transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy tendensiyalarni batafsil yoritib berdi. Avvalo, tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi turlicha bo‘lib, bu ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarida ham sezilarli tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Yirik kompaniyalar onlayn xizmatlar, mobil ilovalar, elektron shartnomalar, sun’iy intellekt asosida risklarni baholash tizimlari va blokcheyn texnologiyalaridan faol foydalanayotgan bo‘lsa, kichik va o‘rta sug‘urta kompaniyalarida bu jarayon ancha sust kechmoqda. Shu sababli, bozor raqobati tobora keskinlashib, texnologik ustunlikka ega kompaniyalar tezroq rivojlanayotganini ko‘rish mumkin [23].

Ekonometrik model va natijalar. Sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiyasi va ularning moliyaviy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida panel ma’lumotlarga asoslangan ekonometrik model ishlab chiqildi. Model quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$Y_{it}=\beta_0+\beta_1X_{1it}+\beta_2X_{2it}+\beta_3X_{3it}+\beta_4X_{4it}+\epsilon_{it}$$

Bu yerda:

Y – sug‘urta mukofotlari hajmi (kompaniya moliyaviy samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida),

X_1 – raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi,
X_2 – xizmat ko‘rsatish tezligi indeksi,
X_3 – mijozlar soni,
X_4 – kompaniya aktivlari hajmi.

Model natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Mustaqil o‘zgaruvchilar	Koeffitsient (β)	Standart xato	t-statistika	P-qiymat
X_1 – Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi	0.42	0.08	5.25	0.000
X_2 – Xizmat ko‘rsatish tezligi indeksi	0.31	0.12	2.58	0.012
X_3 – Mijozlar soni	0.27	0.10	2.70	0.009
X_4 – Aktivlar hajmi	0.18	0.09	2.00	0.048
Konstanta (β_0)	1.12	0.35	3.20	0.001
R^2	0.71	-	-	-

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish (X_1) sug‘urta mukofotlari hajmiga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda ($\beta=0.42$; $p<0.01$). Bu kompaniyalarda raqamli tizimlarning rivojlanishi mijozlar bazasini kengaytirish va xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish orqali tushumlarni sezilarli ravishda ko‘paytirishini anglatadi. Xizmat ko‘rsatish tezligi indeksi ham ijobiy ahamiyatli natija berdi ($\beta=0.31$; $p<0.05$), bu esa raqamli jarayonlar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezlashgani sug‘urtaga bo‘lgan talabni oshirayotganini ko‘rsatmoqda. Aktivlar hajmining ham ta’siri mavjud ($\beta=0.18$; $p<0.1$), biroq u raqamli texnologiyalar ta’siriga nisbatan ancha past.

Olingan natijalar sug‘urta kompaniyalari faoliyatida raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Birinchidan, raqamli texnologiyalar mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. Onlayn polis rasmiylashtirish, elektron imzo, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosida risk baholash jarayonlari sug‘urta xizmatlarining tezkorligini oshirib, iste’molchilarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi [24].

Ikkinchidan, operatsion xarajatlarni qisqartirishda raqamli texnologiyalar samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Masalan, chatbotlar yordamida mijozlarga xizmat ko‘rsatish inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirmoqda, hujjatlarni blokcheyn asosida yuritish esa firibgarlik xavfini keskin pasaytiradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida yaratilgan modellar risklarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi, bu esa mukofotlarning adolatli shakllanishiga va kompaniyalar moliyaviy barqarorligining ortishiga yordam bermoqda [25].

Uchinchidan, tahlillar xalqaro tajribalar bilan hamohang tarzda O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham raqamli transformatsiya jarayonining jadallashayotganini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan davlatlarda (AQSh, Germaniya, Yaponiya) raqamli texnologiyalar sug‘urta mukofotlari hajmi va qamrovini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash tendensiyalar kuzatilmoqda. Biroq, kichik kompaniyalar uchun moliyaviy va texnologik resurslarning cheklanganligi sababli bu jarayon sustroq kechmoqda, natijada bozor raqobatida katta tafovutlar yuzaga kelmoqda [26].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni bermoqda:

1. Raqamli texnologiyalar sug‘urta mukofotlari hajmiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
2. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va ularning qoniqishi darajasi sug‘urta bozorida raqobatning muhim omiliga aylanmoqda.
3. Aktivlar hajmi muhim bo‘lsa-da, uning ta’siri texnologik omillarga nisbatan pastroq.
4. Kichik sug‘urta kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning raqamli transformatsiyaga moslashuvchanligini oshirish zarur.

Shunday qilib, sug‘urta bozori kelgusida yanada barqaror va raqobatbardosh bo‘lishi uchun davlat tomonidan raqamli infratuzilmani kengaytirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va kichik kompaniyalarni texnologik transformatsiyaga jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim [27].

IV. Xulosa va Tavsiyalar

Tadqiqot davomida sug‘urta bozori faoliyatining raqamli transformatsiya jarayonlari chuqur o‘rganildi va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari raqamli texnologiyalarni qanchalik tez va samarali joriy etsa, ularning moliyaviy natijalari ham shunchalik yuqori bo‘lmoqda. Ekonometrik tahlil asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish sug‘urta mukofotlari hajmiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani, mijozlar soni va xizmat ko‘rsatish tezligi esa ushbu jarayonning muhim qo‘shimcha omillari ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, aktivlar hajmi ham kompaniyalar samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir etayotgan bo‘lsa-da, texnologik omillar ustuvor ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

Raqamli texnologiyalar – barqarorlik omili. Sug‘urta kompaniyalarida raqamli transformatsiya moliyaviy natijalar va bozor raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Onlayn xizmatlar, mobil ilovalar va elektron shartnomalar sug‘urta xizmatlarining tezligi va sifati oshishiga olib kelmoqda.

1. Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar o‘zgarishi. Raqamli platformalar mijozlarga qulaylik yaratib, ularning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini kuchaytirmoqda. Bu esa xizmatlardan foydalanish darajasining ortishiga xizmat qilmoqda.
2. Xarajatlarni kamaytirish imkoniyati. Chatbotlar, blokcheyn va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar operatsion xarajatlarni qisqartiradi, firibgarlik xavfini kamaytiradi va risk baholashda aniqlikni oshiradi.
3. Bozor ichidagi tafovutlar. Yirik kompaniyalar raqamli transformatsiyaga tezroq moslashayotgan bo‘lsa, kichik va o‘rta kompaniyalarda resurs cheklanganligi sababli bu jarayon sekinroq bormoqda. Natijada bozor ichida raqobat teng emas holat yuzaga kelmoqda.
4. Xalqaro tajribaga mos rivojlanish. O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlangan davlatlar tajribasi bilan

hamohang tarzda raqamli texnologiyalarni joriy etmoqda, ammo milliy sharoitda ayrim to‘siqlar saqlanib qolmoqda.

Tavsiyalar:

1. Davlat siyosati darajasida:

- Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish lozim.
- Raqamli infratuzilmani kengaytirish, xususan, sug‘urta kompaniyalari uchun blokcheyn platformalari va elektron ma’lumotlar almashinuvi tizimlarini yaratish maqsadga muvofiq.
- Kichik va o‘rta sug‘urta kompaniyalari uchun soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar berish orqali ularning raqamli transformatsiyaga moslashuvchanligini oshirish zarur.

2. Sug‘urta kompaniyalari darajasida:

- Kompaniyalar raqamli xizmatlarga investitsiyalarni ko‘paytirishi, mobil ilovalar va mijozlarga qulay onlayn platformalarni joriy etishi zarur.
- Sun’iy intellekt asosidagi analitik tizimlarni rivojlantirish orqali risk baholashni yanada aniqlashtirish va mukofot stavkalarini adolatli belgilash imkoniyatini kengaytirish mumkin.
- Mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan sug‘urta mahsulotlarini taklif etish raqobatbardoshlikni oshiradi.

3. Ilmiy-tadqiqot va ta’lim darajasida:

- Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish, natijalarni amaliyotga tatbiq etish lozim.
- Ta’lim muassasalarida sug‘urta bozorida raqamli transformatsiyaga oid maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish mutaxassislar malakasini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar sug‘urta kompaniyalari uchun nafaqat xizmat sifatini oshirish vositasi, balki bozorning umumiy samaradorligi va barqarorligini ta’minlovchi muhim strategik omil hisoblanadi. Shunday ekan, sug‘urta kompaniyalari uchun transformatsiyani tezlashtirish, davlat uchun esa qulay sharoit yaratish va rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim. Raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish orqali O‘zbekiston sug‘urta bozorining raqobatbardoshligi ortadi, moliyaviy barqarorlik ta’minlanadi va xalqaro maydonda yangi imkoniyatlar ochiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] PwC. (2021). Top Insurance Industry Issues. PricewaterhouseCoopers International Limited.
[2] OECD. (2022). Digital Transformation in Insurance Markets. Organisation for Economic Co-operation and Development.
[3] Schanz, K.-U. (2020). The Global InsurTech Landscape 2020. The Geneva Association.
[4] European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA). (2021). Annual Report on Insurance Trends. Frankfurt am Main.
[5] OECD. (2021). Insurance and Inclusive Growth. OECD Publishing, Paris.
[6] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi. Toshkent.
[7] ALSKOM Sug‘urta kompaniyasi. (2022). Yillik hisobot. Toshkent.
[8] World Bank. (2021). Uzbekistan: Financial Sector Assessment. Washington, D.C.
[9] Shapiro, C. (2020). Digital Insurance: Business Models and Transformation. Journal of Financial Services, 15(3), 45–60.
[10] Smith, J., & Jones, M. (2021). The Role of Digital Technologies in Insurance Efficiency. International Journal of Insurance Studies, 28(2), 112–130.
[11] Karimov, B. (2021). “Sug‘urta bozorida raqamli infratuzilmani rivojlantirish masalalari.” Moliyaviy tahlil jurnali, №2, 65–72.
[12] Raxmonov, A. (2022). “Sug‘urta faoliyatida axborot xavfsizligi muammolari.” Oliy ta’limda iqtisodiy tadqiqotlar, №4, 87–94.
[13] Ergashev, D. (2022). “Sug‘urta kompaniyalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.” Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №1, 101–110.
[14] Saunders, M., Lewis, P., & Thornhill, A. (2019). Research Methods for Business Students (8th ed.). Pearson Education.
[15] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W. W. Norton & Company.
[16] Jahon banki. (2021). Uzbekistan: Financial Sector Assessment. Washington, D.C.
[17] Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2020). Basic Econometrics (6th ed.). McGraw-Hill Education.
[18] OECD. (2022). Digital Transformation in Insurance Markets. Paris: OECD Publishing.
[19] Schanz, K.-U. (2020). The Global InsurTech Landscape 2020. The Geneva Association.
[20] Kotler, P., & Keller, K. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
[21] Creswell, J. W. (2018). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches (5th ed.). SAGE Publications.
[22] Yin, R. K. (2018). Case Study Research and Applications: Design and Methods (6th ed.). SAGE Publications.
[23] Shapiro, A. & Varian, H. (2022). Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. Harvard Business School Press.
[24] Deloitte Insights. (2023). The Future of Insurance: Technology-Driven Transformation. Deloitte Research Report.
[25] PwC. (2022). Insurance 2025: Redefining the Industry with Digital Technologies. Pricewaterhouse Coopers Global Report.
[26] OECD. (2021). Digital Transformation in Financial and Insurance Services. OECD Publishing.
[27] Karimov, U. (2024). “O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va istiqbollari.” Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 4(2), 112-128.

ТИЖОРАТ БАНКЛАР ФАОЛИЯТИДАГИ ЛИКВИДЛИЛИК РИСКИНИ БОШҚАРИШ

Tajenov Salamat Kayratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri
Toshkent, O'zbekiston

Аннотация: Мақолада асосан тижорат банкларининг ликвидлилигини таъминлаш, банкларнинг ликвидлилик рискини бошқариш даражасини такомиллаштириш хакида айтиб ўтилган

Калит сўзлар: банк ликвидлилиги, ликвидлилик риски, тижорат банклари, инвестиция портфеллари, соф фоизли спрэд ва соф фоизли маржа

Тижорат банкларининг етарли даражада ликвидли бўлиши улар орқали ўтадиган тўловларнинг узлуксизлигини таъминлаш имконини беради. Ўз навбатида, тижорат банкларининг ликвидлилигини таъминлаш банкларнинг ликвидлилик рискини бошқариш амалиётини такомиллаштириш заруратини юзага келтиради.

Ҳозирги даврда халқаро миқёсда тижорат банклари фаолиятидаги ликвидлилик рискини бошқаришни такомиллаштиришга қаратилган активлар бўйича даромадлар билан пассивлар бўйича харажатлар ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш, ликвидлиликни стресс-тестлашни такомиллаштириш, кредит ва инвестиция портфелларини бошқаришнинг сифатини ошириш, соф фоизли спрэд ва соф фоизли маржа кўрсаткичларининг меъёрий даражаларини таъминлаш, банклар депозит базасининг етарлилигига эришиш, баланслашмаган ликвидлилик муаммосининг юзага келишига йўл қўймаслик сингари йўналишларда фундаментал тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ўзбекистонда тижорат банклари фаолиятидаги ликвидлилик рискини бошқариш амалиётини такомиллаштириш масаласи муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, тижорат банкларида трансформация риски мавжудлиги уларнинг ликвидлилигига салбий таъсир кўрсатмоқда; Базель қўмитасининг банкларнинг ўз капитали ва қарз мажбуриятлари ўртасидаги нисбатни белгилаш бўйича талаби республика банк амалиётига жорий этилмаган; муддати ўтган кредитлар миқдорининг катта эканлиги туфайли йирик тижорат банкларида ликвидлилик муаммоси кескинлашмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришбўйича Ҳаракатлар стратегиясида «банкларнинг капиталлашув даражаси ва депозит базасини ошириш, уларнинг молиявий барқарорлиги ва ишончлигини мустаҳкамлаш» [45] вазифалари қўйилганлиги мамлакат банкларининг ликвидлилигини таъминлаш долзарб масала эканлигидан далолат беради.

Иқтисодчи олимларнинг тижорат банклари фаолиятидаги ликвидлилик рискини бошқариш хусусидаги илмий-назарий қарашларини қиёсий таҳлил қилиш натижалари кўра:

тижорат банклари фаолиятидаги ликвидлилик риски икки ҳолатда, яъни банкнинг вакиллик ҳисобрақамларида ортиқча пул маблағларининг тўпланиб қолиши ёки етмай қолишида намоён бўлади;

банк активлар ва пассивларининг сифати, активлар ва пассивларнинг муддатлари ва суммалари бўйича номувофиқлик даражаси, бошқарув қарорларининг даражаси ва сифати, банкнинг имижи, мамлакатдаги сиёсий вазият, қимматли қоғозлар бозори ва банкларараро кредит бозорининг ривожланганлиги, пул-кредит индикаторларининг ҳолати тижорат банклари фаолиятидаги ликвидлилик рискининг омиллари ҳисобланади;

тўловлар оқими ўртасидаги фарқни таҳлил қилиш усулининг камчилиги шундаки, олинган таҳлил натижаси статик бўлиб, тўловлар оқимининг динамикаси, мавсумийлиги ва интенсивлигини ҳисобга олмайди ва хаказо.

тижорат банкларининг ликвидлилик рискига учта ташқи омил ва бешта ички омил асосий таъсир қилувчи омиллар ҳисобланади.

[45] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – 32-б

Ташқи омилар	Марказий банк очиқ бозор сиѐсати
	Пруденциал меъѐрлар
	Марказий банк дисконт кредитлари
Ички омиллар	Ликвидли активлар/Транзакцион депозитлар
	Пул оқимлари кирими/Пул оқимлари чиқими
	Молиялаштириш мавжуд суммаси/ Молиялаштириш зарур суммаси
	Банк менежменти сифати
	Ликвидли активлар/Жорий соф чиқим

Ҳар бир омилнинг таъсир даражасига тўғри баҳо бериш улар салбий таъсирининг олдини олишга қаратилган қарорларни тўғри ва тезкорлик билан қабул қилиш имконини беради. Тараққий этган мамлакатларда тижорат банкларининг ликвидлилигини таъминлашда юқори ликвидли қимматли қоғозлар, шу жумладан, Ҳукуматнинг қимматли қоғозлари муҳим аҳамиятга эга. Мазкур мамлакатларда Ҳукуматни қимматли қоғозларнинг йирик эмитенти эканлиги тижорат банкларига мазкур қимматли қоғозларни сотиб олган ҳолда ликвидлиликни таъминлаш имконини беради.

Парибас банк (Франция) активлари таркиби[46] , фоизда

Активлар таркиби	2019	2020	2021	2022	2023
Нақд пуллар ва «Ностро» вакиллик ҳисобрақамларидаги пуллар	5,7	6,7	7,7	9,1	9,1
Қимматли қоғозларга қилинган инвестициялар	52,1	47,2	46,9	44,6	44,7
Берилган кредитлар	33,7	36,4	36,6	38,7	38,4
Ҳисобланган фоизлар	6,1	5,9	6,4	5,0	5,4
Асосий воситалар ва номоддий активлар	1,4	1,7	1,7	1,9	1,8
Бошқа активлар	1,0	2,1	0,7	0,7	0,6
Активлар - жами	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**

Жадвал маълумотларига кўра, Парибас банк активларининг умумий ҳажмида қимматли қоғозларга қилинган инвестициялар ва кредитлар асосий салмоқни эгаллайди. Ушбу икки активнинг жами активлар ҳажмидаги салмоғи, 2023 йил 1 январь ҳолатига кўра, 83,1 фоизни ташкил этди. Бу эса, биринчидан, Парибас банкнинг асосий фаолият йўналишларидан бирини кредитлаш эканлиги билан, иккинчидан, банкнинг қимматли қоғозлар ѐрдамида амалга ошириладиган инвестицион операцияларини ривожланганлиги билан изоҳланади.

Шуни таъкидлаш лозимки бугунги кунда Тижорат банклари фаолиятидаги баланслашмаган ликвидлилик муаммосини ҳал этиш учун муддати ўтган кредитларнинг мўътадил даражаси, ушбу кредитларнинг йўл қўйиш мумкин бўлган чегаравий даражаси ва кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари бўйича меъѐрий талабларга эришишни таъминлаш, тижорат банкларининг жорий ликвидлилиги бўйича меъѐрий талабни бажариш ва активлар рентабеллигининг мўътадил даражасига эришган ҳолда активлар ва жалб қилинган маблағларнинг муддатлари ва суммалари ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш лозим хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. – М.: КНОРУС, 2016. 2.Жуков Е.Ф. Общая теория денег и кредита. – М.: 1995. – С. 85.;

2.Бобакулов Т.И. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари. // Ўзбекистон Республикасида қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришда банк тизимининг роли. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2015.

3.Йўлдошев О.А. Ўзбекистон Марказий банкининг тижорат банклари фаолиятини тартибга солиш амалиѐтини такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 18 б.

[46] Annual Reports. www.paribas.com сайти маълумотлари

TOG’-KON SANOATI RAQAMLI IQTISODIY TRANSFORMATSIYANI TARAQQIY ETTIRISHDA JAHON TAJRIBASI

Xaydaraliyev Elbek Farxod o‘g‘li
Olmaliq Kon metallurgiya kombinati yetakchi mutaxassis
Tashkent, O‘zbekiston
x.e.f.23081991@mail.ru

Annotatsiya— ***Mazkur ilmiy ish tog‘-kon sanoatining raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini jahon tajribasi asosida chuqur nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida tog‘-kon sanoati eng ko‘p transformatsiyaga uchrayotgan strategik tarmoqlardan biridir. Raqamli texnologiyalar — sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things), katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va dron texnologiyalari — tog‘-kon kompaniyalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, Avstraliya, Kanada, Chili, Janubiy Afrika kabi davlatlarda tog‘-kon sanoati raqamli yechimlarni faol joriy etib, eksport hajmini kengaytirishga, mehnat unumdorligini oshirishga va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga erishmoqda. Ekonometrik tahlillar shuni isbotladiki, tog‘-kon sanoatida raqamli texnologiyalarga qilingan investitsiyalar bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari xavfsizlikni oshirish orqali avariya va baxtsiz hodisalar sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli ushbu tadqiqot tog‘-kon sanoatida raqamli transformatsiyani chuqur o‘rganish, jahon amaliyotini tahlil qilish va O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.***

Kalit so‘zlar— raqamli transformatsiya, tog‘-kon sanoati, jahon tajribasi, investitsiya, innovatsiya, ekonometrik tahlil.

KIRISH

XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida raqamli transformatsiya jarayonlari e’tirof etilmoqda. Dunyo xo‘jaligi tizimida tobora chuqurlashib borayotgan raqamli iqtisodiyot jarayonlari sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Shu nuqtayi nazardan, tog‘-kon sanoati global iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, ko‘plab davlatlar yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va eksport daromadlarida salmoqli ulushni tashkil etuvchi tarmoq sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda tog‘-kon sanoatining raqamli transformatsiyasi global miqyosda tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Sun’iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili, blokcheyn, 3D modellashtirish, raqamli geologiya xaritalari va avtomatlashtirilgan transport tizimlari kabi innovatsion yechimlar ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan mehnat xavfsizligini ta’minlash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Avstraliya, Kanada, Chili, Janubiy Afrika, Braziliya kabi mamlakatlarda tog‘-kon sanoati raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli modellarini shakllantirib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, xalqaro eksport salohiyatini kengaytirish va global bozor talablariga moslashish imkoniyatlarini yaratmoqda. Masalan, Avstraliyada **Rio Tinto** kompaniyasining “Mine of the Future” dasturi, Kanadada “Digital Mining Innovation Hub” tashabbusi, Chilida esa “Smart Mining” loyihalari raqamli texnologiyalarni sanoatga tatbiq etish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni namoyon qilmoqda.

Tog‘-kon sanoatining raqamli transformatsiyasi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy xavfsizlik, ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiy yechimlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi investitsiya muhitini yaxshilash, yangi texnologiyalarni jalb qilish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun tog‘-kon sanoatida raqamli transformatsiyani chuqur o‘rganish, jahon tajribasini tahlil qilish va milliy sharoitlarga mos strategiyalar ishlab chiqish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki ushbu tarmoq mamlakatning sanoat salohiyatini belgilovchi asosiy drayverlardan biri hisoblanadi.

Shu sababli, ushbu ilmiy ishda tog‘-kon sanoatida raqamli iqtisodiy transformatsiyaning nazariy asoslari, jahon tajribasi, metodologik yondashuvlar hamda

ekonometrik tahlillar keng ko‘lamda o‘rganilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

1. ***Nazariy yondashuvlar***. Brynjolfsson va McAfee (2017) raqamli transformatsiyani ishlab chiqarishning yangi paradigmasi sifatida talqin etadi. Raqamli texnologiyalar – avtomatlashtirish, IoT, sun’iy intellekt – tog‘-kon jarayonida ishlab chiqarish omili sifatida kapital va mehnatga qo‘shimcha resursga aylanmoqda.

2. Jahon amaliyoti

- Avstraliya (Rio Tinto): “Mine of the Future” loyihasi doirasida avtonom yuk mashinalari qo‘llanilib, ishlab chiqarish 15% ga, xavfsizlik 25% ga oshirilgan.

- Kanada (Goldcorp): elektrlashtirilgan shaxta texnikasi yordamida karbon chiqindilari 70% ga qisqartirilgan.

- Chili (Codelco): IoT sensorlari yordamida samaradorlik 20% ga oshirilgan.

- Xitoy: raqamli texnologiyalar yordamida xomashyo tannarxi 12% ga kamaygan.

3. ***Rivojlanayotgan mamlakatlar muammolari***. Jahon banki (2022) ta’kidlashicha, Afrika va Markaziy Osiyoda investitsiya yetishmasligi, IT-mutaxassislar kamligi va infratuzilma zaifligi raqamli transformatsiyaning asosiy to‘siqlaridir. O‘zbekistonda ham PQ-4856 qarorida raqamlashtirish strategiyasi belgilangan bo‘lsada, amaliyot bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

METODOLOGIYA

1.Ma’lumotlar bazasi
Vaqt oralig‘i: 2010–2023 yillar.

Tanlov: 5 ta yirik kompaniya (Rio Tinto, BHP, Vale, Codelco, Anglo American).

Manbalar: yillik hisobotlar, McKinsey va Deloitte tahlillari, Jahon banki ma’lumotlari.

2. Ekonometrik model

$Y_{it}=\alpha+\beta_1X_{it}+\beta_2P_{it}+\beta_3L_{it}+\beta_4E_{it}+\mu_i+\epsilon_{it}$
Y_{it} : ishlab chiqarish hajmi (mlrd.$)
X_{it} : raqamli texnologiyalarga investitsiya (mln.$)
P_{it} : resurs narxi indeksi
L_{it} : ishchi kuchi samaradorligi
E_{it} : energiya xarajatlari

1.Statistika usullari
Panel regressiya (Fixed va Random effects)

Hausman testi

Korrelyatsion tahlil

Vizualizatsiya (trend va scatter-grafiklar)

TAHLIL VA NATIJALAR

1.Deskriptiv natijalar.

2010-yilda o‘rtacha raqamli investitsiya 50 mln. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu 450 mln. dollarga yetgan.

1-Jadval.



Rio Tinto va BHP kompaniyalari raqamlashtirishga eng ko‘p mablag‘ yo‘naltirgan (yiliga o‘rtacha 1 mlrd. dollar).

2-jadval



Ishlab chiqarish hajmi esa o‘rtacha 2,5 barobar o‘sdi.

2. Korrelyatsion natijalar.

Investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida r = 0,62.

Investitsiyalar va xavfsizlik ko‘rsatkichlari (avariya soni) o‘rtasida r = -0,47 (ya’ni avariya kamayadi).

3-jadval



3. Panel regressiya natijalari.

- β1 = 0,35 (p<0,01): raqamli investitsiya 1% ga oshganda ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 0,35% ga o‘sadi.
- β2 = 0,41 (p<0,05): resurs narxlari oshsa ishlab chiqarish hajmi ham ortadi.
- β3 = 0,18 (p<0,01): ishchi kuchi samaradorligi o‘sishi ishlab chiqarishga ijobiy ta’sir qiladi.
- β4 = -0,12 (p<0,05): energiya xarajatlarining oshishi salbiy ta’sir qiladi.

4.Amaliy misollar

Rio Tinto (Avstraliya): avtonom yuk mashinalari har yili 20 mln. dollar tejash imkonini berdi.

Codelco (Chili): IoT sensorlari yordamida shaxtalardagi havo sifatini real vaqtda kuzatish orqali avariya xavfi 30% ga kamaydi.

Goldcorp (Kanada): elektr texnikasiga o‘tish natijasida yonilg‘i xarajatlari yiliga 5 mln. dollarga qisqardi.

Vale (Braziliya): AI yordamida rudaning sifatini tahlil qilish jarayonida ishlab chiqarish samaradorligi 10% ga oshgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tog‘-kon sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlari jahon miqyosida iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Avstraliya, Kanada va Chili tajribasi asosida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish hajmini oshirish, tannarxni pasaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ekonometrik tahlillar raqamli texnologiyalarga investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida sezilarli darajada musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, raqamli yechimlardan foydalanish mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda xavfsizlikni mustahkamlaydi va ishlab chiqarishda inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ushbu tajriba dolzarbdir. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarda strategik choralarni ko‘rish zarur:

1.Raqamli texnologiyalarga investitsiyalarni ko‘paytirish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish;

2.Avtomatlashtirilgan va aqlli konchilik texnologiyalarini joriy etish, bu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

3.Mehnat xavfsizligini mustahkamlash maqsadida sun’iy intellekt va IoT yechimlaridan foydalanish;

4.Ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun raqamli monitoring va nazorat tizimlarini rivojlantirish;

5.Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash orqali raqamli transformatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash.

Umuman olganda, tog‘-kon sanoatining raqamli iqtisodiy transformatsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, O‘zbekiston uchun ham jahon tajribasini inobatga olgan holda, milliy tog‘-kon tarmog‘ida bosqichma-bosqich raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish zarur.

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd*. Harvard Business Review Press.

2. McKinsey & Company (2020). *The Future of Mining: Digital Transformation in Resources*.

3. Deloitte (2021). *Tracking the Trends 2021*.

4. World Bank (2022). *Digital Development in Resource-Rich Economies*.

5. Rio Tinto Annual Reports (2010–2023).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4856 qarori, 2020-yil 5-oktabr.

AVTOMATLASHTIRISH, AXBOROTLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH

Xodjayev S.,
“Uzinfocom” MChJ departament rahbari,
TATU dotsenti, I.F.F.D. (PhD)
saidakmal.xodjayev@uzinfocom.uz

Annotatsiya: Maqolada so‘nggi davrlarda faol qo‘llanilayotgan atamalar - avtomatlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirish tushunchalari qiyosiy tahlil qilingan. Ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, yagona uzluksiz jarayonning bosqichlari ekanligi va intellektuallashtirish jarayonlari uchun asos yaratishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: avtomatlashtirish, axborotlashtirish, raqamlashtirish, intellektuallashtirish, sun’iy intellekt

Kirish. Rivojlanishning zamonaviy bosqichi zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalarida zamonaviy texnologiyalarni jadal keng joriy etish bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida qayd etilganidek “Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda” [1].

Zamonaviy davrni o‘ziga xos “raqamlashtirish poygasi” sifatida ta’riflash mumkin. Buning isboti sifatida ko‘plab sohalarni raqamlashtirish dasturlari qabul qilinayotgani, ilg‘or texnologiyalar nafaqat bevosita ishlab chiqarishga, balki jamoat boshqaruviga ham joriy etilayotgani, tadqiqot va texnik ishlanmalar uchun mablag‘ ajratilayotgani kabi omillarni keltirish mumkin [1-jadval].

Shu munosabat bilan avtomatlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirish tushunchalari kundalik hayotda, o‘quv va ilmiy adabiyotda, me’yoriy hujjatlarda qo‘llanilishi tobora faollashib bormoqda. Biroq bugungi kunga qadar mamlakatimizda ko‘rsatilgan tushunchalarning yagona yahlit ilmiy-kontseptual model bilan asoslangan hamda me’yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan ta’riflari mavjud emas.

1-jadval

2020-22024-yillarda turli sohalarni raqamlashtirish borasida eng yuqori darajada qabul qilingan hujjatlar

№	Daraja	Sanasi va raqami	Nomi
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni	03.01.2024-yildagi PF-1-sonli	Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
2		14.10.2024-yildagi PF-157-sonli	Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori	03.09.2020-yildagi PQ-4818-sonli	Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
4		23.02.2021 yildagi PQ-5000-sonli	Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida
5		23.10.2021 yildagi PQ-5265-sonli	Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

6		10.12.2021 yildagi PQ-42-sonli	Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
7		2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-sonli	Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
8		01.05.2023 yildagi PQ-140-sonli	Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
9		28.12.2023 yildagi PQ-415-sonli	Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
10		01.02.2024 yildagi PQ-51-sonli	Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
11		26.02.2024 yildagi PQ-87-sonli	Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
12	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qarori	17.12.2020 yildagi 794-sonli	O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
13		14.08.2023 yildagi 371-sonli	Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida qishloq xo‘jaligida suv hisobini yuritish tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
14		29.12.2023 yildagi 725-sonli	Baholash faoliyati sohasida xizmatlar sifatini oshirish, o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmini rivojlantirish hamda ekspertiza jarayonlarini tartibga solish va raqamlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Baholash to‘g‘risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o‘tkazish mexanizmini tasdiqlash haqida” 2008-yil 28-iyuldagi 161-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida
15		12.09.2024 yildagi 570-sonli	Birja savdolariga ilg‘or axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
16		07.12.2024 yildagi 820-sonli	Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
17		18.12.2024 yildagi 848-sonli	Maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida

Shuning uchun, bugungi kunga kelib avtomatlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirish tushunchalarini ilmiy tahlil qilishning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati ortib bormoqda.

Qiyosiy tahlil.

Avtomatlashtirish. So‘nggi izlanishlar natijalariga ko‘ra avtomatlashtirish - insonni ilmiy va texnologik jarayonlarda ishtirok etishdan to‘liq ozod qilish yoki ushbu ishtirok etish darajasini yoki bajarilgan vazifalarning mehnat sarfini sezilarli darajada kamaytirish maqsadida vazifalarni tezroq, samaraliroq va natijadorroq bajarishga imkon beradigan turli texnik vositalar va matematik usullardan foydalanadigan ilmiy va texnologik taraqqiyot yo‘nalishidir [2].

Tarix. “avtomatlashtirish” so‘zi lotin tilidan olingan “avtomatik” so‘zidan olingan bo‘lib “o‘z-o‘zidan harakatlanadigan” degan ma’noni anglatadi. “Avtomatlashtirish” atamasi 1940-yillarda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi kontekstida foydalanishga kiritilgan va xom ashyoni avtomatik qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun turli mexanizmlar va mashinalardan foydalanish bilan bog‘liq jarayonlarga nisbatan qo‘llanilgan.

Avtomatlashtirishning birinchi shakllari inson mehnatini bug‘ mashinalari bilan almashtirish bilan bog‘liq edi. Keyingi yillarda avtomatlashtirish texnologiyalari keng tarqaldi va ishlab chiqarish sharoitida aniq vazifalarni bajarish uchun maxsus mashinalar va uskunalar paydo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda “avtomatlashtirish” atamasi axborotni avtomatik qayta ishlash va texnologik jarayonlarni boshqarish uchun kompyuter tizimlari va dasturlarini qo‘llash jarayonini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, avtomatlashtirish turli sanoat va biznesning samaradorligi va natijadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [3].

Qo‘llash sohalari. Quyidagilar avtomatlashtiriladi [4]: ishlab chiqarish jarayonlari; loyihalash (ishlab chiqarish majmualari, sanoat inshootlari va boshqalar); tashkilot, rejalashtirish va boshqarish (korxona, sanoat va boshqalar doirasida); ilmiy tadqiqotlar; tibbiy va texnik diagnostika; biznes jarayonlari; dasturlash jarayonlari, muhandislik hisob-kitoblari; texnologik, energiya va transport jarayonlari.

Avtomatlashtirish tizimlarining asosiy turlari: avtomatik boshqaruv tizimi; ilmiy tadqiqotlarning avtomatlashtirilgan tizimi; texnologik jarayonlarni

boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi; avtomatlashtirilgan eksperimental kompleks; moslashuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimi; avtomatlashtirilgan operatsion boshqaruv tizimi hamda avtomatlashtirilgan rejalashtirish tizimi.

Avtomatlashtirish, eng oddiy holatlarni hisobga olmaganda, muammoni hal qilishda kompleks tizimli yondashuvni talab qiladi. Avtomatlashtirish tizimlari tarkibiga turli xil sensorlar, kirish va chiqish moslamalari, kontrollerlar, boshqaruv moslamalari, aktuatorlar, kompyuterlar kiradi.

Avtomatlashtirish yo'nalishlarining asosiy turlari. Avtomatlashtirilgan tizimlarning maqsadlari, vazifalari va qo‘llanilish sohalariga ko‘ra avtomatlashtirishning bir necha yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

texnik yo'nalishi texnologik jarayonlarni inson ta’minlay olmaydigan tezlik, aniqlik, ishonchlilik va samaradorlik bilan tashkil etishga imkon beradi, shuningdek, turli xil texnik funktsiyalarni bajaradigan avtomatik qurilmalar va tizimlarni ishlab chiqish va yaratish bilan bog‘liq;

iqtisodiy yo‘nalish operatsion xarajatlarni kamaytirish va mahsulot hajmi va sifatini oshirish orqali dastlabki xarajatlarni tezda qoplashga imkon beradi;

ijtimoiy yo‘nalish insonning xarakterini o‘zgartirish va ish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi;

sanoat yo‘nalishi ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek mahsulot sifatini yaxshilashga imkon beradi;

axborot yo‘nalishi axborotni qayta ishlash va uzatish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi, masalan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratish.

Avtomatlashtirish darajasi, birinchi navbatda, ma’lum bir ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiy samaradorlik va texnik maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra, qo‘lda, yarim avtomatik, operator bilan avtomatik, operatorning minimal aralashuvi bilan avtomatik va to‘liq avtomatik avtomatlashtirish darajalari farqlanadi.

Qo‘lda avtomatlashtirish - ishlab chiqarish operatsiyalarini operator tomonidan hech qanday avtomatlashtirish moslamalarini ishlatmasdan, avtomatlashtirishning turli usullarini qo‘llamasdan to‘liq qo‘lda bajarish.

Yarim avtomatik avtomatlashtirish - avtomatlashtirish moslamalari yordamida ishlab chiqarish operatsiyalarini yarim avtomatik tarzda bajarish. Yarim avtomatik avtomatlashtirishda inson funktsiyalari nazorat va umumiy boshqaruv bilan cheklanadi.

Operator bilan avtomatik avtomatlashtirish - tizimning ko‘pgina vazifalarni avtomatik bajarishi, ammo operator hali ham jarayonga jalb qilingan va zaruriy xollarda aralashishi nazarda tutiladi.

Operatorning minimal aralashuvi bilan avtomatik avtomatlashtirish - tizim tomonidan deyarli to‘liq vazifalarni avtomatik ravishda bajarish, operator minimal operatsiyalarga jalb qilingan.

To‘liq avtomatlashtirish - barcha asosiy va yordamchi ishlab chiqarish maydonlarini, shu jumladan boshqarish va boshqarish tizimini to‘liq avtomatlashtirish. Tizim to‘liq avtonom bo‘lib, operator ishtirokisiz barcha muammolarni hal qilishga qodir. To‘liq avtomatlashtirishda inson funktsiyalari faqat uskunaning ishlashini kuzatish va asbob-uskunalar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bilan cheklanadi [5].

Avtomatlashtirishning afzalliklari. Ishlash va sifatni yaxshilash: avtomatlashtirish qo‘l mehnatini yo‘q qilish yoki minimallashtirish, vazifalarni bajarish tezligi va aniqligini oshirishga imkon beradi, natijada ishlash va xizmat sifati yaxshilanadi. Avtomatlashtirish, shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarni qamrab olish orqali ishlab chiqarishdagi biznes-jarayonlarni boshqarishning aniqligini oshirishga imkon beradi, shuningdek avtomatlashtirilgan kompyuter uskunalari bir vaqtning o‘zida jarayonning sifati va hisoblashning aniqligini buzmasdan bir nechta texnologik operatsiyalarni amalga oshirishi imkoniyatini yaratadi.

Xarajatlarni kamaytirish: avtomatlashtirish ish haqi va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga, xatolar va kamchiliklarni kamaytirishga imkon beradi.

Moslashuvchanlikning ortishi: avtomatlashtirilgan tizimlar o‘zgaruvchan talablar va sharoitlarga osongina moslasha oladi, bu esa tashkilotlarga bozor o‘zgarishlari va mijozlar talablariga tezda javob berishga imkon beradi.

Xavfsizlik: avtomatlashtirish qo‘l mehnati bilan bog‘liq jarohatlar va ish joyidagi favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirishga yordam beradi, bu ayniqsa xavfli va zararli moddalar bilan ishlashda muhim bo‘lishi mumkin.

Ish muhitini yaxshilash: avtomatlashtirish ish muhitini shovqin, tebranish va boshqa salbiy ta’sirlar bilan bog‘liq qo‘lda ishlash holatlarida sezilarli darajada yaxshilashi mumkin [6].

Axborotlashtirish tushunchasi ko‘rib chiqilayotgan atamalar ichcida eng yahshi o‘rganilgan va tahlil qilingani bo‘lib shu nomdagi qonun ham qabul qilinganligi ham buni tasdiqlaydi [7].

Unga ko‘ra: “axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni”dir.

Shuningdek, ko‘rsatilgan qonun bilan axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari, axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, axborot resurslari va axborot tizimlarining huquqiy rejimi kabi masalalarga oydinlik kiritilgan.

Raqamlashtirish - zamonaviy qarashlarga ko‘ra mavjud jarayonlarni o‘zgartirish, yangi imkoniyatlar yaratish va samaradorlikni oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni hayot va biznesning turli sohalariga joriy etish jarayoni bo‘lib, bunda ma’lumotlarni elektron formatga o‘tkazishning o‘zi bilan cheklanilmaydi. Raqamlashtirish jarayonlarni avtomatlashtirish, sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, bulutli hisoblash va boshqa raqamli innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi, natijada biznes

modellari va faoliyatining raqamli o‘zgarishiga olib keladi [8, 9].

Raqamlashtirish jarayonlariga quyidagilar kirishi mumkin:

1. Ma’lumotlarni raqamli formatga o‘tkazish: ma’lumotlar qayta ishlash va boshqarish uchun analog ma’lumotlarni (masalan, qog‘oz hujjatlarni) elektron fayllarga aylantirish;

2. Jarayonlarni avtomatlashtirish: joriy va ko‘p qaytariluvchi vazifalarni bajarish uchun dasturiy ta’minot va robotlardan foydalanish, bu bilan ish vaqtini, xato ehtimolini kamaytirish va xodimlarga yanada murakkab vazifalarga e’tibor qaratish imkonini berish;

3. Yangi texnologiyalarni joriy etish: ko‘proq ma’lumotli qarorlar qabul qilish va yangi qiymat takliflarini yaratish uchun sun’iy intellekt (SI), narsalar interneti (IoT) va ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalardan foydalanish;

4. Tizimlarni birlashtirish: ichki aloqalarni yaxshilash va ma’lumotlar bilan uzluksiz ishlash uchun turli xil axborot tizimlari va dasturlarini birlashtirish.

5. Biznes modellarini o‘zgartirish: nafaqat mavjud jarayonlarni raqamlashtirish, balki mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi kanallarini yaratish, xizmatlarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ularning mohiyatini o‘zgartirish.

Keltirilgan tahlillarning natijalarini jadval ko‘rinishida tavsif qilindi (2-jadval).

2-jadval

Avtomatlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirish tushunchalarining solishtima jadvali

№	Xususiyat	Tushuncha		
		avtomatlashtirish	**axborotlashtirish**	**raqamlashtirish**
1	**Ta’rif**	muntazam vazifalar va jarayonlarni bajarish uchun axborot tizimlari va dasturiy ta’minotdan foydalanish, qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni kamay-tirishga qaratilgan ilmiy-texnologik taraqqiyot jarayoni	yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni	mavjud biznes jarayonlarni o‘zgar-tirish, yangi imkoniyatlar yaratish va samaradorlikni oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni hayot va biznesning turli sohalariga joriy etish jarayoni
2	**Maqsad**	Amaliyotlarni bajarish samaradorligi, tezligi va aniqligini oshirish, xatolarni kamaytirish va xarajatlarni kamaytirish	Qaror qabul qilish uchun ma’lumotlardan samarali foydalanishni ta’minlash, ma’lumotlar ochiqligini oshirish va kommunikatsiyalarni yaxshilash	Biznes jarayonlarni o‘zgartirish, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, mijozlar va etkazib beruvchilar bilan munosabatlarni takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish
3	**Misollar**	Ombor hisobini yuritish tizimlarini joriy etish, hujjat aylanishini avtomatlashtirish, ishlab chiqarishda robotlardan foydalanish	Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM), elektron kutubxonalar, bilimlarni boshqarish tizimlarini joriy etish	Mobil ilovalarni ishlab chiqish, bulutli xizmatlarga o‘tish, katta ma’lumotlar tahlilini joriy etish, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi biznes modellarini yaratish

Xulosa. Keltirilgan omillardan kelib chiqqan xolda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ko‘rib chiqilgan tushunchalar insonlar faoliyatining barcha jabhalarini kompyuterlashtirishning turli bosqichlarini tavsiflovchi atamalardir.

2. Aqliy faoliyatni talab etmaydigan kuhdalik va ko‘p marta takrorlanadigan jarayonlarni avtomatlashtirishdan so‘ng, odatda qaror qabul qilishni soddalashtirishga qaratilgan axborotlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

3. Navbatdagi qadam - raqamlashtirish davomida biznes jarayonlarni optimallashtirish va yangi biznes modellarni yaratish bilan bir qatorda katta ma’lumotlarni yig‘ish hamda tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi.

4. Vujudga kelgan imkoniyatlar o‘z navbatida, yangi jarayon - **intellektuallashtirish**ga o‘tilishiga, ya’ni sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “‘Raqamli O‘zbekiston - 2030’’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Автоматизация // Internet tarmog‘idan ma’lumotlar // https://znanierussia.ru/articles/%D0%90%D0%B2%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F // murojaat sanasi: 2025-yil 21-avgust.

3. Никитин Н.С. История научных исследований в области автоматизации производства. «Киберленинка» (2019). // https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-nauchnyh-issledovaniy-v-oblasti-avtomatizatsii-proizvodstva // murojaat sanasi: 2025-yil 21-avgust.

4. Клокотов И.Ю. Автоматизация технологических процессов. «Киберленинка» (2019). // https://cyberleninka.ru/article/n/avtomatizatsiya-tehnologicheskih-protsessov // murojaat sanasi: 2025-yil 21-avgust.

5. Тахиров П.М. Сущность, основные положения и цели автоматизации. scienceforum.ru (2020). // https://scienceforum.ru/2021/article/2018025339 // murojaat sanasi: 2025-yil 21-avgust.

6. Волик Б. Г., Юркевич Е. В. АВТОМАТИЗА́ЦИЯ. Большая российская энциклопедия. // https://znanierussia.ru/articles/%D0%90%D0%B2%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F // murojaat sanasi: 2025-yil 21-avgust.

7. O‘zbekiston Respublikasining qonuni 11.12.2003 yildagi 560-II-sonli “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni.

8. Васильева О. Чем отличается автоматизация от цифровизации? Основные заблуждения // https://www.itweek.ru/digitalization/article/detail.php? ID=227648 // 09.10.2023 // murojaat sanasi: 2025-yil 26-avgust.

9. Клевец А. Чем цифровизация отличается от автоматизации // https://finacademy.net/materials/article/cifrovizaciya-i-avtomatizaciya // 17.12.2021 // murojaat sanasi: 2025-yil 26-avgust.

O‘ZBEKISTON MISOLIDA RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘ZARO TA’SIRI

Xojiyeva Nazokat Davronbekovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
“Menejment va marketing” kafedrasi v,b.,dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli va yashil iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda milliy iqtisodiyotga ta’siri yoritilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlik tamoyillari asosida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilindi. Xususan, O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va yashil energetika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘rganildi. Shuningdek, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, raqamli va yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasi ilmiy asosda yoritildi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, raqamlashtirish, innovatsiya, ekologik barqarorlik, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, yashil energetika, xalqaro tajriba.

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot dunyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari sifatida maydonga chiqmoqda. Raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish imkonini bersa, yashil iqtisodiyot ekologik muvozanatni saqlash, energiya samaradorligini ta’minlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston ham mazkur jarayonlardan chetda qolmagan holda, iqtisodiy siyosatini zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida olib bormoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” [47] strategiyasi raqamli transformatsiyani jadallashtirishni ko‘zda tutsa, “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi[48] energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan. Ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro ta’siri O‘zbekiston iqtisodiyotida yangi imkoniyatlar, innovatsion yechimlar va samaradorlik omillarini shakllantirmoqda. Shu bois O‘zbekiston misolida raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro ta’sirini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Mazkur maqolada raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi, ularning milliy iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini mavzusida jahonda va O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan bir qancha olimlar va ilmiy tadqiqotchilar mavjud bo‘lib, ulardan Jan vom Brocke, Thomas Puschmann, Karen Bakker, Michael Greenstonelarni ilmiy ishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Ular an’anaviy iqtisodiyotga tayanib qolmay, balki blokcheyn, IoT, AI, katta ma’lumotlar, fintech kabi zamonaviy texnologiyalarni yashil iqtisodiyot bilan bog‘lab tadqiq qiladi. Bu mavzuda mamlakatimizdagi olim va tadqiqotchilardan Ibodulla Xotamov, Yahyo Najmiddinov, Shoh-Jaxon Xamdamov, Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovichlarning ilmiy ishlarida O‘zbekiston shaharlarida barqaror rivojlanish va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan raqamli iqtisodiyotning roli hamda ahamiyati o’rganilmoqda lekin shunga qaramasdan, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning samarali modellarini ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha ilmiy takliflar yetarlicha o’rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro ta’siri, ularning milliy iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi hamda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar o‘rganildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil (jahon tajribasi va milliy amaliyot solishtirildi), statistik tahlil (rasmiy ma’lumotlar va hisobotlar asosida), hamda kontent-tahlil (hukumat hujjatlari, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari) usullari qo‘llandi. Shuningdek, O‘zbekiston misolida amalga oshirilayotgan “raqamli transformatsiya” va “yashil energetika” dasturlarining o‘zaro uyg‘unligi amaliy jihatdan tahlil qilindi.

[47] https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf

[48] https://lex.uz/uz/docs/-7245895

Muhokama va natijalar.

Raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot aslida bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Raqamlashtirish ekologik muammolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, **“**aqlli energetika tizimlari”, sun’iy intellekt asosida resurslarni boshqarish, raqamli monitoring platformalari va blokcheyn asosida uglerod izini nazorat qilish kabi texnologiyalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bevosita qo‘llanilmoqda. Yashil iqtisodiyot esa raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun yo‘nalish beradi. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish nafaqat texnologik, balki ekologik jihatdan ham maqbul bo‘lishi lozim. Shunday qilib, raqamli va yashil iqtisodiyot o‘zaro uyg‘unlashgan holda, iqtisodiy jarayonlarni samarali va ekologik barqaror shaklda tashkil qilish imkonini beradi.

Raqamli va yashil iqtisodiyotning uyg‘unlashuvi milliy iqtisodiy rivojlanishga bir nechta yo‘nalishlarda hissa qo‘shmoqda: - Ishlab chiqarish samaradorligi ya’ni, raqamli texnologiyalar yordamida energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish mumkin. - Energiya xavfsizligi bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini boshqarishda raqamli platformalarning qo‘llanilishi energiya mustaqilligini oshiradi.

- Innovatsion tadbirkorlik - startaplar va raqamli xizmatlar “yashil biznes”ni qo‘llab-quvvatlab, yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

- Xalqaro raqobatbardoshlik ya’ni, ekologik standartlarga javob beruvchi va raqamli texnologiyalarni qo‘llagan milliy mahsulotlar jahon bozorida yuqori talabga ega bo‘ladi. Natijada, raqamli va yashil iqtisodiyot uyg‘unligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli va yashil iqtisodiyot yo‘nalishida qator islohotlar amalga oshirilmoqda:

- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi – davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya va qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni maqsad qilgan.

- “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” konsepsiyasi (2019–2030) – qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashni ko‘zda tutadi.

- “Yashil makon” umummilliy loyihasi – ekologik barqarorlikni ta’minlash va atmosfera sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

- Xalqaro tashabbuslar – O‘zbekiston 2020 yilda BMT Bosh Assambleyasida “Markaziy Osiyo uchun yashil energetika zonasi” tashabbusini ilgari surdi va hozirda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Mazkur strategik islohotlar nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki raqamli transformatsiyani ham qo‘llab-quvvatlab, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlamoqda.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot yo‘nalishlari davlat strategiyasining muhim ustunlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning samaradorligini oshirish bilan birga, atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish imkonini bermoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyot ulushi 2,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich **3 % dan oshdi**. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida esa 2030-yilga borib ushbu ulushni 7-8 % gacha yetkazish maqsad qilingan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida davlat xizmatlarining **60 % dan ortig‘i onlayn shaklga o‘tkazildi**, bu esa qog‘oz sarfini sezilarli kamaytirib, ekologik barqarorlikka hissa qo‘shmoqda.

1-jadval

Raqamli va yashil iqtisodiyot statistik ko’rsatkichlari

Yo‘nalish	Statistik Ko‘rsatkichlar
Chiqindilardan energiyaga	2027gacha — 4.7M tonna chiqindi → 2.1 mlrd kVt·soat
Qayta tiklanuvchi maqsad	2030ga — 40 % → 54 %; 25 mrd m³ gaz tejash, 34 mln tonna CO_2 kamaytirish
Qayta tiklanuvchi quvvat	2023da – 5166 MW (~24.4 % umumiy); 2024da – 3500 MW yangi stansiyalar
IT eksporti	2025 — 1 mlrd USD; 2030 maqsadi — 5 mlrd USD
Internet ulanishi	2025 — Internet: 98 %; 4G/3G qamrovi: 100 %
e-Gov ko‘rsatkichlari	EGDI: 2022 – 0.7265 (69-o‘rin), 2024 – 0.7999 (63-o‘rin); portal: 675 xizmat, 2.5M foydalanuvchi
Digital Inclusion loyihasi	25 000 ish o‘rni, 6 000 yosh mutaxassis, IT infratuzilmasi kengaytirildi
ICT sohasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari	2023 – 2.1 % GDP; eksport: 344M USD; kompaniyalar: 1 652; xodimlar: 26 000

O‘zbekistonda chiqindilardan energiya ishlab chiqarish yo‘nalishida 2027 yilgacha 4,7 mln tonna chiqindi qayta ishlanib, 2,1 mlrd kVt·soat elektr ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2030 yilga borib 40 % o‘rniga 54 % ga yetkazilishi kutilmoqda. Bu natija 25 mlrd m³ tabiiy gazni tejash va 34 mln tonna CO_2 chiqindilarini kamaytirishga olib keladi. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, 2019–2023 yillarda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari **4 baravarga oshirildi**. 2023-yilda quyosh va shamol elektr stansiyalaridan olingan energiya hajmi **3 mlrd kVt-soat**dan ortdi. Strategik maqsadlarga ko‘ra, 2030-yilgacha elektr energiyasining 30 % qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi rejalashtirilgan.

Raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro ta’siri ayniqsa energiya sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, **“aqlli tarmoqlar” (smart grid), raqamli monitoring** tizimlari va **IoT texnologiyalari** elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste’molini samarali boshqarishga xizmat qilmoqda. Bu nafaqat energiya tejash, balki uglerod chiqindilarini kamaytirishga ham olib keladi.

2030 yilgacha O‘zbekistonda raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘sishi milliy iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Jahon banki va BMT prognozlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish yalpi ichki mahsulotni (YaIM) har yili o‘rtacha 1,5–2% ga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan energetika va transport sohalariga investitsiyalar 2030 yilga borib 15–20 mlrd AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha iqtisodiy samaradorlik keltirishi taxmin qilinmoqda. Milliy iqtisodiyot uchun eng katta ta’sirlar quyidagilar bo‘lishi kutilmoqda:

1.Energetika samaradorligi – qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2030 yilga qadar 30–35% ga yetishi rejalashtirilmoqda, bu esa import qilinadigan energiya resurslariga qaramlikni kamaytiradi.

2.Raqamli transformatsiya – elektron tijorat hajmi ikki baravar o‘sib, kichik va o‘rta biznesning global bozorga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

3. Ish o‘rinlari yaratish – yashil energetika va IT sohasida yuz minglab yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

4.Ekologik barqarorlik – chiqindilarni qayta ishlash hajmining 40% ga yetishi va karbonat gaz chiqindilarini keskin kamaytirish rejalashtirilgan.

Umuman, raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro uyg‘unlashuvi O‘zbekistonning 2030 yilgacha barqaror va innovatsion rivojlanishini ta’minlab, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini sezilarli oshiradi.

O‘zbekistonda raqamli va yashil iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlar sifatida milliy rivojlanishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotni jadallashtirsa, yashil iqtisodiyot esa raqamli sohada yangi innovatsion echimlarga talabni kuchaytirmoqda.

Xulosa.

Raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi zamonaviy milliy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas omillaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayonlari energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida barqarorlikni ta’minlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston misolida olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi tashabbuslarni samarali qo‘llab-quvvatlash mumkin. Masalan, energiya tejamkor qurilmalar, “aqlli shahar” loyihalari, elektron hukumat tizimlari hamda raqamli monitoring mexanizmlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki ekologik barqarorlikni ham mustahkamlamoqda.

Demak, raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro ta’siri mamlakatimizning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishda, ya’ni barqaror rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu ikki yo‘nalishning integratsiyasi O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyot konsepsiyasida asosiy ustuvorliklardan biri sifatida shakllanmoqda.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4477 qarori. — Toshkent, 2019.

3.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. https://stat.uz

4.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari. https://www.mf.uz

5.Jahon banki. Uzbekistan Economic Update. World Bank, 2023. https://www.worldbank.org

6.United Nations Development Programme (UNDP). “Green Economy Transition in Uzbekistan.” UNDP Report, 2022.

7.OECD. “Digital Transformation in Central Asia: Opportunities and Challenges.” OECD Report, 2021.

8.Xodjayev, Sh. & Karimov, A. “Raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotning integratsiyasi: O‘zbekiston tajribasi.” — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 2023.

9.International Energy Agency (IEA). “Renewables 2023.” Paris: IEA, 2023.

10. UNCTAD. “Digital Economy Report 2023.” Geneva: United Nations, 2023.

11. Ismoilova, G., Feruza, N., Khadjieva, N., & Shaislamova, M. (2019, November). Creating a robust ICT Base for the digital economy. In *2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-4). IEEE.

12. Davronbekovna, X. N. (2024). O ‘ZBEKISTON TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI INNOVATSION FAOLIYATINI JORIY HOLATINI BAHOLASH. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 290-302

ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING O‘ZBEKISTON 2030 TARAQQIYOT STRATEGIYASINING KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Zukhurova Nargiza Abdusattarovna
AKT sohasida iqtisodiyot kafedrasi,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston energetika sanoati korxonalarini raqamlashtirish metodologiyasining asoslari va uning “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasidagi konseptual xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda energetika sohasida raqamli transformatsiya zaruriyatlari, xorijiy va mahalliy tajribalar hamda Delphi usuli asosida mutaxassislar fikri o‘rganildi. Maqolada raqamlashtirish orqali energiya tizimini modernizatsiya qilish, aqlli tarmoqlar va avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng integratsiya qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan asoslangan. Delphi usulida o‘tkazilgan so‘rov natijalari raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda qo‘llanildi va bu jarayonning 2030 yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlar bilan uyg‘unligi ko‘rsatib berildi. Tahlil va natijalar O‘zbekiston misolida energetika sektorida raqamli transformatsiya amaliyotining samarali modelini taklif qiladi. Xususan, 2020–2025 yillarga oid ma’lumotlar asosida raqamli texnologiyalarni joriy etish energetika tizimida samaradorlikni oshirib, yo‘qotishlarni kamaytirishi hamda “yashil energetika” ulushini sezilarli ravishda ko‘paytirishi kutilmoqda. Maqola yakunida energiya sohasi raqamlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilib, ushbu jarayonning O‘zbekiston 2030 taraqqiyot strategiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish; energetika sektori; raqamli transformatsiya; O‘zbekiston 2030 strategiyasi; aqlli tarmoqlar; Delphi usuli; qayta tiklanuvchi energiya; energetika samaradorligi.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon miqyosida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jadal kirib bormoqda. Xususan, energetika sektori raqamlashtirish (digitization) orqaligina samaradorlik va barqarorlikni sezilarli oshirishi mumkinligi ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlangan. Energetika sohasida raqamli transformatsiya deganda, ishlab chiqarishdan tortib iste’molchgacha bo‘lgan jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish, aqlli tarmoqlar (smart grids) joriy etish, real vaqt rejimida nazorat va boshqaruv tizimlarini qo‘llash tushuniladi. Bunday yondashuv energiya ta’minotining ishonchliligini oshirib, tannarxni pasaytiradi hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ayni vaqtda mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi va quvvati tez o‘sib bormoqda: masalan, so‘nggi 8 yil ichida elektr ishlab chiqarish 38% ga oshib, 2024 yilda 81,5 mlrd kVt·soatga yetdi. Shu bilan birga, xususiy sektorning ulushi ham ortib, yangi quvvatlarning muhim qismi xususiy-investitsion loyihalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (2024 yilga kelib umumiy quvvatning 24% xususiy ishlab chiqaruvchilarga, qayta tiklanuvchi manbalar ulushi esa 16% ga yetdi). Bu ko‘rsatkichlar energetikada raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv tizimlariga talab yuqori ekanini anglatadi.

O‘zbekiston energetika infratuzilmasi ancha yil xizmat qilgan bo‘lib, tarqatish tarmoqlarida elektr yo‘qotishlari darajasi hamon yuqori. 2024 yil holatiga, elektr taqsimot tizimidagi texnik yo‘qotishlar qariyb 13% ni tashkil etmoqda, bunda tarmoqlar aktivlarining yarmidan ko‘pi 30 yildan ziyod eskirganligi asosiy sabab sifatida ko‘rsatilmoqda. Bu esa energiya ta’minotida uzilishlar va samarasizlikka olib keladi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Jahon banki ko‘magida 2025–2030 yillarda 150 mingta “aqlli” elektr hisoblagich hamda 4 mingta ma’lumot uzatish konsentratorlarini o‘rnatish orqali elektr taqsimlash tarmoqlarini avtomatlashtirish belgilangan. Shu kabi chora-tadbirlar natijasida 2030 yilga borib elektr tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni amaldagi ~14% dan 8–9% gacha kamaytirish ko‘zda tutilgan.

Raqamlashtirish nafaqat tarmoqlar, balki ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini ham qamrab oladi. O‘zbekistonda 2020 yildan boshlab butun mamlakat bo‘ylab iste’molchilar uchun aqlli hisoblagichlar o‘rnatish loyihalari boshlandi. Masalan, tabiiy gaz ta’minotida Avtomatlashtirilgan gaz hisobini nazorat qilish tizimi (“ASUHG”) doirasida 3,546,148 ta smart-gaz hisoblagich o‘rnatish rejalashtirilib, 2022 yil mart holatiga uning 78% (2,68 mln dona) o‘rnatildi. Mamlakat bo‘yicha gaz ta’minotida aqlli hisoblagichlarni to‘liq joriy etish 2022 yil noyabriga qadar yakunlandi. Elektr energiyasi sohasida ham shunga o‘xshash tarzda, xalqaro moliyaviy institutlar yordami bilan 1,4 milliondan ortiq aqlli elektr

hisoblagichlari bosqichma-bosqich o‘rnatildi (masalan, Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida dastlab rejalashtirilgan 1 mln o‘rniga 1,4 mln ta elektr hisoblagich o‘rnatildi). Bu choralar iste’molni aniq hisobga olish, noqonuniy ulanish va yo‘qotishlarni qisqartirish imkonini bermoqda.

Raqamlashtirish tashabbuslari davlat sektori bilan bir qatorda xususiy sektor ishtirokini ham talab etmoqda. O‘zbekiston hukumati energetika sohasiga xususiy investitsiyalarni faol jalb qilmoqda va ayrim yo‘nalishlarda davlat monopoliyasini qisqartirishga kirishgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida energetika ta’minoti xizmatlarini bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish va davlat tasarrufida faqat magistral tarmoqlar hamda strategik xavfsizlikka oid sohalarni qoldirish belgilangan. Bu esa elektr va gaz taqsimlash xizmatlarida xususiy kompaniyalar ishtirokini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini joriy etish orqali raqamli texnologiyalarni tezroq tatbiq etishga yordam beradi. Darhaqiqat, xalqaro investorlari ishtirokida qiymati $26 mlrd dan ziyod energetika loyihalari amalga oshirilayotgani, jumladan quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi mahalliy sanoatni ham raqamlashtirish jarayoniga tortmoqda.

O‘zbekiston rahbariyatining strategik maqsadlarida energetika sohasini raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi. 2020 yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi barcha tarmoqlarda, xususan energetikada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, 2023 yil 11 sentyabrda tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri energetika sohasiga oid raqamlashtirish vazifasi qo‘yilgan: “barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirish” hamda energetika tizimini qo‘shni davlatlar tarmoqlari bilan integratsiyalash orqali barqaror ishlashini ta’minlash. Bu maqsad kelgusida energetika korxonalarining barcha hisob-kitob va monitoring amaliyotlari elektron tizimlar orqali yuritilishini anglatadi. Energetika vazirligi matbuot xizmati ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatda energetika sohasidagi raqamlashtirish loyihalari doirasida bir nechta axborot tizimlari va platformalar ishga tushirilmoqda, jumladan, yoqilg‘i-energetika majmuasini boshqarish uchun yagona raqamli platforma yaratish ishlari boshlangan. Ushbu platforma kelgusida sohaga oid barcha ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish, shaffoflikni ta’minlash imkonini beradi.

Yuqoridagi omillar energetika sohasida raqamlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va O‘zbekistonning uzoq muddatli strategik rejalaridagi o‘rnini aniqlashni dolzarblashtiradi. Ushbu maqolaning maqsadi – energetika korxonalarini raqamlashtirish bo‘yicha kompleks metodologiyani taklif etish va uning O‘zbekiston 2030 taraqqiyot strategiyasidagi konseptual ahamiyatini ochib berishdan iborat. Buning uchun, birinchidan, soha bo‘yicha mavjud ilmiy-adabiyotlar tahlil qilinadi va xorijiy tajribalar ko‘rib chiqiladi. Ikkinchidan, tadqiqotda Delphi usuli qo‘llanilib, energetika sohasi mutaxassislaridan raqamli transformatsiya ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha fikr-mulohazalar olindi. Учинчидан, 2020–2025 yillarga oid statistik ma’lumotlar va amaliy natijalar asosida raqamlashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy samarasiga baho berildi.

Adabiyotlar sharhi

Raqamlashtirish va raqamli transformatsiya tushunchalari so‘nggi yillarda akademik adabiyotlarda keng o‘rganilmoqda. Raqamli transformatsiya – raqamli texnologiyalarning (IoT, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va h.k.) biznes jarayonlarga joriy etilishi natijasida yuzaga keladigan sifat o‘zgarishlaridir. Energetika sohasida raqamli transformatsiya konsepsiyasi ba’zan “Energy 4.0” deb ham ataladi, ya’ni sanoatning to‘rtinchi inqilobi tamoyillarini energetikaga tatbiq etish. Xalqaro energetika agentligi (IEA) hisobotlariga ko‘ra, energetika sektoriga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish natijasida energiya samaradorligi oshishi, barqarorlik ko‘rsatkichlari yaxshilanishi va energiya xavfsizligi mustahkamlanishi kutiladi. Masalan, AQSH Energetika vazirligi tadqiqotlari aqlli hisoblagichlar (AMI) joriy etilishi hisobga olish aniqligini oshirib, kompaniyalarning operatsion xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishini tasdiqlagan. Shuningdek, raqamlashtirish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tizimga samarali ulash, real vaqt rejimida balanslash va talabni prognozlash imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar energetika tizimlarini raqamlashtirish bo‘yicha maxsus dasturlar qabul qilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqida 2020 yilga borib aksar mamlakatlar aholining 80% dan ortig‘ini aqlli elektr hisoblagichlar bilan qoplashga erishdi. Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya kabi davlatlarda smart grid texnologiyalari keng tatbiq etilib, elektr tarmoqlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv va kuzatuv tizimlari joriy etilmoqda. Ushbu tajribalar energetika tizimining raqamli boshqaruvi elektr energiyasini uzatish va taqsimlashdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, avariyali o‘chishlarning oldini olish hamda iste’molchilar uchun yangi xizmat turlarini (dinamik tariflar, iste’molni masofadan nazorat qilish va boshqalar) joriy etishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Masalan, Hindiston hukumati 2025 yil oxirigacha 250 mln dona aqlli elektr hisoblagichini o‘rnatishni maqsad qilgan bo‘lib, bu orqali 2030 yilgacha elektr o‘g‘riligi va yo‘qotishlarini ikki baravarga kamaytirishni rejalashtirmoqda. Yevropada esa 2016–2020 yillarda 182 millionta aqlli hisoblagich o‘rnatilib, $37,8 mlrd investitsiya kiritildi.

Akademik manbalarda energetikani raqamlashtirish jarayonida bir qancha yo‘nalishlar alohida ta’kidlanadi:

Aqlli elektr tarmoqlar (Smart Grids): Bu – ikki tomonlama aloqa va real-vaqt rejimidagi boshqaruvga ega bo‘lgan elektr tarmoqlari bo‘lib, ularda markazlashtirilgan SCADA tizimlari, sensor va IoT qurilmalari yordamida yuklamalarni optimallashtirish, avariyalarni aniqlash va izolyatsiya qilish avtomatik tarzda amalga oshadi. Aqlli tarmoqlar konsepsiyasi

elektr taqsimoti tizimlarida katta o‘zgarish yasaydi: an’anaviy bir yo‘nalishli energiya oqimi o‘rniga ikki yo‘nalishli (iste’molchi ham energiya yetkazib beruvchi bo‘lishi mumkin, masalan, tomorqa quyosh panellari orqali) oqim yuzaga keladi. Bu esa tizimni murakkablashtirsa-da, raqamli boshqaruv vositalari bilan samarali muvozanatlashtiriladi.

Avtomatlashtirilgan hisoblash va monitoring tizimlari (AMI): Energetika korxonalarida iste’molchilar bilan hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish uchun aqlli hisoblagichlar va ularning tarmoq orqali markaziy bazaga ulanishi katta ahamiyatga ega. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, AMI joriy etilishi natijasida billing (hisob-kitob) aniqligi va shaffofligi oshadi, xizmat ko‘rsatish xarajatlari qisqaradi (manual o‘qish zarurati yo‘qoladi). O‘zbekistonda ham elektr va gaz taqsimotida bunday tizimlar bosqichma-bosqich joriy qilindi. Xususan, “Khududgazta’minot” AJ gaz taqsimoti bo‘yicha 2 milliondan ortiq smart-hisoblagichni o‘rnatib, ularni markaziy avtomatlashtirilgan nazorat tizimiga ulaganligi ma’lum qilingan. Natijada iste’molchilar uchun masofadan to‘lov qilish, balansni ko‘rish kabi qulayliklar paydo bo‘ldi, ta’minotchi uchun esa yo‘qotishlarni kuzatish va qarzdorlikni kamaytirish imkoni tug‘ildi.

Yoqilg‘i-energetika kompleksida ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt: Raqamlashtirish natijasida katta hajmdagi ma’lumotlar (masalan, har bir transformator yoki quvurni kesimidagi yuklama, har bir iste’molchining soatlik iste’moli va h.k.) shakllanadi. Bu ma’lumotlarni tahlil qilish energetika tizimini optimallashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Dunyo tajribasida sun’iy intellekt va mashina ta’limi algoritmlari energiya iste’molini prognozlash, uskunalarning nosozligini oldindan aniqlash (predictive maintenance), obnovlyaemy manbalar generatsiyasini bashoratlash kabi masalalarda qo‘llanmoqda. O‘zbekiston ham bu borada qator qadamlar qo‘ymoqda – so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat energiya tizimini optimallashtirish maqsadida ilg‘or raqamli platforma ishlab chiqmoqda. Ushbu platforma katta ma’lumotlarni tahlil qilish va mashina ta’limi algoritmlaridan foydalangan holda energiya iste’moli va ta’minotini optimallashtiradi hamda butun tizim samaradorligini oshiradi. Boshqacha aytganda, yaqin yillarda O‘zbekistonda yagona “raqamli energetika platformasi” shakllanib, u orqali real vaqt rejimida energetika balansini boshqarish, avariyalarni prognoz qilish, talab va taklifni uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilish: Raqamli texnologiyalar “yashil energetika” rivojida ham muhim rol o‘ynaydi. Quyosh va shamol elektr stansiyalari ishini barqaror tutish uchun ularni yagona tarmoqqa integratsiya qilish jarayonida intellektual boshqaruv tizimlari kerak bo‘ladi. Misol uchun, ishlab chiqarish jadvalini ob-havo ma’lumotlariga asoslangan holda oldindan rejalashtirish, energiya saqlash tizimlarini (batareyalarni) avtomatik boshqarish, ortiqcha quvvatni boshqa hududga yo‘naltirish kabi funksiyalar raqamli dasturiy ta’minot yordamida amalga oshadi. O‘zbekiston 2019 yilda qabul qilgan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risida”gi Qonun va unga mos ravishda boshlangan loyihalar doirasida bir qator yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishini DXSh asosida amalga oshirmoqda. Xalqaro tajribaga tayangan holda aytish mumkinki, bunday keng ko‘lamli PPP loyihalarida tizim operatori va xususiy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida ma’lumot almashish, ishlab chiqarishni real vaqtda monitoring qilish va nazorat qilish uchun albatta raqamli integratsion platforma bo‘lishi talab etiladi. Masalan, Masdar kompaniyasi tomonidan Samarqand va Jizzax viloyatlarida qurilgan umumiy 511 MVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari 11 mingdan ortiq harakatlanuvchi trackerlarga ega bo‘lib, ushbu obyektlar raqamli SCADA platformasi orqali masofadan nazorat qilinadi.

- Energetika obyektlarida kiberxavfsizlik: Raqamlashtirish jarayonida barcha tizimlar tarmoq orqali bog‘lanib borar ekan, ularning kiberxavfsizligi masalasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda energetika infratuzilmasi – “tanqidiy infratuzilma” bo‘lgani bois, kiberhujumlar xavfi doimiy tahlil qilinishi lozimligi ta’kidlanadi. Shuning uchun ko‘plab mamlakatlar “aqlli tarmoqlar” xavfsizligi uchun alohida standartlar va himoya protokollarini joriy qilgan (masalan, IEC 62351 standarti, NIST Smart Grid Interoperability Framework va boshqalar). O‘zbekiston uchun ham bu yo‘nalish dolzarb; chunki raqamli energetika platformasi yoki masofaviy boshqaruv tizimlarida uzilish yoki buzilish sodir bo‘lsa, butun energiya ta’minoti xavf ostida qolishi mumkin. Shu bois taraqqiyot strategiyasida energetika sohasida raqamlashtirish bilan birga kiberxavfsizlik strategiyasini ham ishlab chiqish zarurati borligi ayrim mahalliy ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, energetika sanoati korxonalarini raqamlashtirish keng qamrovli va ko‘p jihatli jarayondir. Uning ilmiy-nazariy asoslari “raqamli iqtisodiyot”, “Energiya 4.0”, “aqlli tarmoqlar” kabi konseptual tushunchalarga borib taqaladi. O‘zbekiston sharoitida esa raqamli transformatsiya nafaqat texnologik, balki institutsional va strategik jarayon sifatida ko‘rilmoqda. Quyida tadqiqot metodologiyasi va natijalari taqdim etilib, aynan O‘zbekiston misolida ushbu jarayon qanday kechayotgani va 2030 yilgacha qanday yo‘l xaritasi taklif etilayotganiga to‘xtalib o‘tiladi.

Tadqiqot usullari

Ushbu tadqiqotda kombinatsiyalashgan ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Birinchidan, adabiyotlar va hujjatlar tahlili usuli orqali energetika sohasini raqamlashtirishga oid mahalliy va xorijiy manbalar, strategik hujjatlar va dasturlar o‘rganildi.

Ikkinchidan, tadqiqotning asosiy metodologik vositasi sifatida Delphi usuli qo‘llanildi. Delphi usuli – bu ekspertlar bilan bir necha bosqichli anonim so‘rov o‘tkazish orqali ularning ma’lum masala yuzasidan fikrini jamlash va konsensusga erishish metodidir. Mazkur tadqiqot uchun energetika sohasida

raqamlashtirishga aloqador 15 nafar ekspert tanlab olindi. Ular tarkibiga Energetika vazirligi huzuridagi axborot texnologiyalari bo‘limi mutaxassislari, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “Milliy elektr tarmoqlari” AJ texnik xodimlari, sohaga innovatsiyalarni joriy etish bilan shug‘ullanuvchi xususiy IT kompaniya vakillari hamda energetika bo‘yicha olimlar kiritildi. Delphi so‘rovi 2024 yil davomida 3 bosqichda o‘tkazildi:

1-bosqich: Ekspertlarga ochiq savollar bilan murojaat qilindi. Savollar mazmuni energetika korxonalarini raqamlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari, duch kelinayotgan asosiy to‘siqlar va kutilayotgan natijalar haqida edi. Masalan, “Energetika tizimini raqamlashtirishda Sizningcha eng ustuvor yo‘nalishlar qaysilar?”, “Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilayotgan omillar nimalar?” kabi savollar berildi. Ekspertlar yozma ravishda o‘z javoblarini taqdim etdi.

2-bosqich: Dastlabki javoblar tahlil qilinib, ular asosida yopiq test shaklidagi savollar va rating jadvali tuzildi. Jumladan, 10 ga yaqin yo‘nalish (aqlli tarmoqlar, hisoblagichlar, raqamli platformalar, kiberxavfsizlik, kadrlar tayyorlash va h.k.) ajratib olinib, har bir ekspertdan ularni 1 (minimal ahamiyatli) dan 5 (juda ahamiyatli) gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholash so‘raldi. Shuningdek, birinchi bosqichda tilga olingan muammolar ham xuddi shunday baholatildi. Ikkinchi raund natijalariga ko‘ra, har bir band bo‘yicha o‘rtacha ball va dispersiya hisoblandi.

3-bosqich: Uchinchi bosqichda ekspertlarga ikkinchi bosqich yakunlari (anonym tarzda umumlashtirilgan holda) taqdim etildi va baholash natijalariga aniqlik kiritish uchun yana bir bor o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqish taklif qilindi.

Delphi usuli natijalarini Kendall uyg‘unlik koeffitsienti (W) yordamida tahlil qildik. Uchinchi raund natijalarida W ≈ 0.78 ga teng bo‘lib, bu ekspertlar orasida yetarli darajadagi uyg‘unlik mavjudligini ko‘rsatdi (0.7 dan yuqori bo‘lishi kuchli konsensusni anglatadi). Demak, ajratilgan ustuvor yo‘nalishlar ro‘yxati va ularning nisbiy ahamiyati bo‘yicha ekspertlar fikri bir joyga yaqinlashdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda statistik tahlil usullari qo‘llanilib, 2020–2025 yillar davomidagi ba’zi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot doirasida olingan Delphi so‘rovi natijalari O‘zbekiston energetika sektorini raqamlashtirish jarayonida eng ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qildi. Quyida 1-jadvalda ekspertlar bahosiga ko‘ra eng muhim deb topilgan raqamli transformatsiya yo‘nalishlari keltirilgan.

Jadval 1.

Delphi usuli yordamida aniqlangan energetika sohasini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlari (1–5 ballik shkala bo‘yicha baholar)

Yo‘nalish	Delphi balli	Izoh (mazmuni)
Aqlli elektr tarmoqlar (smart grid texnologiyalari)	4,9 (juda yuqori)	Elektr energiyasini taqsimlash va uzatishda real vaqt rejimida avtomatik boshqaruv, SCADA tizimlari orqali optimallashtirish; avariyalarning oldini olish va yo‘qotishlarni kamaytirish.
Avtomatlashtirilgan hisoblash infratuzilmasi (AMI)	4,8	Elektr va gaz iste’molini masofadan turib hisobga olish, billing tizimini avtomatlashtirish hamda iste’molchilar uchun onlayn xizmatlarni joriy etish.
Raqamli energetika platformasi va AI	4,6	Yagona markazlashgan platforma orqali katta ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, sun’iy intellekt va mashina ta’limi yordamida ishlab chiqarish-iste’molni muvozanatlashtirish, samaradorlik va prognozlashni yaxshilash.
Qayta tiklanuvchi energiya integratsiyasi	4,5	Quyosh va shamol stansiyalarini energetika tizimiga ulashda aqlli inverterlar, prognozlash dasturlari va energiya saqlash tizimlarini boshqarish.
Kiberxavfsizlik va axborot himoyasi	4,3	Energetika tizimining raqamli infratuzilmasini kiberxurujlardan himoya qilish, axborot xavfsizligi protokollarini joriy etish, rezerv tizimlar yaratish.
Raqamli savodxonlik va kadrlar tayyorlash	4,2	Raqamli transformatsiyani boshqarish uchun mutaxassislar tayyorlash, mavjud xodimlarning IT malakasini oshirish, yangi texnologiyalar bo‘yicha treninglar tizimini yo‘lga qo‘yish.

Manba: mualliflar tomonidan o‘tkazilgan Delphi so‘rovi natijalari

.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, ekspertlar eng ustuvor yo‘nalish sifatida aqlli elektr tarmoqlarni (smart grid) e’tirof etganlari ko‘rinadi (o‘rtacha 4,9 ball). Bu tabiiy – chunki elektr taqsimlash va uzatish tizimini raqamli boshqaruvga o‘tkazish energetika tizimining negizini tashkil etadi. Smart grid joriy etilishi bilan hududlararo energiya oqimini optimallashtirish, balanslash, favqulodda holatlarda qisqa fursatda tiklash imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida bu masala ayniqsa dolzarb, sababi 2030 yilga kelib aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 1,7 baravarga oshishi (yillik iste’mol ~135 mlrd kVt·soatga yetishi) prognoz qilinmoqda. Bu o‘sishni qondirish uchun yangi quvvatlarni qurish bilan birga, mavjud tarmoqlarni aqlli boshqaruv ostida samarador ishlashini ta’minlash zarur.

Ikkinchi o‘rinda avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlari (AMI) turibdi. Ekspertlar fikricha, aynan hisob-kitob va o‘lchash tizimini raqamlashtirish eng tez samara beradigan va aholiga bevosita ta’sir

etadigan yo‘nalishdir (4,8 ball). Chunki oddiy iste’molchi raqamli transformatsiya “mevasini” eng avvalo qo‘lidagi aqlli hisoblagich va uning qulayliklari orqali his etadi. O‘zbekistonda bu borada qisqa muddat ichida katta ishlar qilindi: 2022 yil oxiriga kelib Toshkent shahri va barcha viloyatlarda aholi uchun gaz hisoblagichlarini to‘liq “aqlli” turlarga almashtirish yakunlandi; elektr energiyasi bo‘yicha esa, qishloq joylarda ham bosqichma-bosqich elektron hisoblagichlar o‘rnatishga o‘tildi. Natijada, 2023 yildan boshlab iste’molchilarning asosiy qismi shaxsiy kabinet yoki mobil ilova orqali o‘z energiya iste’molini kuzatish va to‘lovlarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi. Bu transformatsiyaning ijtimoiy-ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi – iste’mol madaniyatining oshishi, energiyani tejashga bo‘lgan qiziqishning ortishi kabi samara kutilmoqda.

Ekspertlar uchinchi muhim yo‘nalish sifatida raqamli platforma va sun’iy intellektni (4,6 ball) ko‘rsatdilar. Bu ancha yangi tushuncha bo‘lib, ilgari energetika kabi konservativ soha uchun noodatiy edi. Endilikda esa, energetika kompaniyalari ham o‘zlarini “ma’lumotlar kompaniyasi” deb e’tirof etmoqda – ya’ni ular uchun mavjud uskuna va tarmoqlardan kelayotgan ulkan hajmdagi ma’lumotlar qimmatli aktiv hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarni qayta ishlash orqaligina haqiqiy raqamli transformatsiya sodir bo‘ladi. O‘zbekiston Energetika vazirligining 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan kontsepsiyasida ham elektr energiyasi hisobini nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish va yagona elektron baza yaratish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Tadqiqotimiz davomida aniq bo‘ldiki, agar mavjud ma’lumotlar (hisoblagich o‘qishlari, transformatorlardagi sensorlar, GIS tizimlaridagi ma’lumotlar va boshqalar) yagona platformaga integratsiya qilinsa, undan juda ko‘p foydali tahliliy natijalar olish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida ayrim yirik zavodlarning energiya samaradorligini real vaqt rejimida nazorat qilish va ularni optimallashtirish imkoni ham paydo bo‘ladi. Masalan, mahalliy kimyo va metallurgiya korxonalarida energiya sarfi xalqaro me’yorlardan 1,5–2 baravar yuqori ekani qayd etilgan bo‘lib, 2030 yilgacha sanoatda energiya samarasizligini 10–15% ga kamaytirish rejalashtirilmoqda. Bunga erishishda aqlli monitoring tizimlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Delphi natijalarida keyingi pog‘onalarni qayta tiklanuvchi energetika integratsiyasi (4,5 ball) va kiberxavfsizlik (4,3 ball) egalladi. O‘zbekiston 2030 yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatining kamida yarmisini quyosh, shamol va gidro manbalaridan olishni maqsad qilgan. Dastlabki rejada bu ko‘rsatkich 40% deb belgilangan bo‘lsa-da, keyinchalik yangi maqsad 50% ga ko‘tarildi. Bunday ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun albatta raqamlashtirish asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirning o‘zida xalqaro investorlar ishtirokidagi quyosh va shamol stansiyalari zamonaviy distant monitoring tizimlari bilan jihozlanmoqda (masalan, yuqorida tilga olingan 511 MVt quvvatli quyosh stansiyalari TrinaTracker kompaniyasining raqamli SCADA tizimi bilan boshqarilmoqda). Kelgusida, mamlakat bo‘ylab tarqalgan ko‘plab quyosh va shamol stansiyalari yagona dispetcherlik markaziga ulanib, ob-havo sharoitlari va kun vaqtiga qarab optimal rejimda boshqarilishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi manbalar taqchilligi davrida (masalan, tunda yoki shamolsiz paytlarda) energetika tizimining barqaror ishlashi uchun akkumulyatorli energiya saqlash tizimlari (Battery Energy Storage Systems – BESS) joriy etilishi kutilmoqda. Bunday BESS loyihalari ham muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ularni boshqaruvchi aqlli algoritmlar va dasturiy ta’minot kerak bo‘ladi. Xulosa qilish mumkinki, “yashil energetika” taraqqiyoti ham bevosita raqamli texnologiyalarga tayanadi.

Kiberxavfsizlik borasida esa, ekspertlar raqamlashtirishning ajralmas qismi sifatida qaramoqda. Hozirda Energetika vazirligi va uning tizimidagi korxonalarda axborot tizimlarini kiberhujumlardan muhofaza qilish bo‘yicha davlat talablariga mos chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2022–2023 yillarda davlat organlari uchun kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yangi standartlar va markazlashtirilgan monitoring tizimi joriy etildi. Energetika – milliy xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq soha bo‘lgani sababli, bu yerda har qanday raqamli yechimlar ishonchli himoya bilan birga olib borilishi kerak. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ekspertlar nazarida O‘zbekistonda energetika raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirishda eng katta xatar – bu kiberxavfsizlikka yetarlicha e’tibor qaratmaslik bo‘lishi mumkin. Shu bois, har bir yangi joriy etilayotgan tizim (hisoblagichlar, SCADA, boshqaruv panellari va h.k.) tegishli shifrlash, identifikatsiya va hujumlarga qarshi himoya mexanizmlariga ega bo‘lishi shart. Xo‘sh, bu sohada nimalar qilinyapti? Ma’lum bo‘lishicha, 2024 yil yakunida O‘zbekiston hukumati 2025–2030 yillarda amalga oshiriladigan sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini ham tasdiqladi, unda energetika sohasida sun’iy intellekt joriy etish bilan birga kiberxavfsizlik masalalari ham qamrab olingan. Ya’ni, raqamli taraqqiyot va axborot xavfsizligi bir yo‘nalishda olib borilmoqda. Bu ijobiy hol.

Ekspertlar ta’kidlagan yana bir muhim jihat – bu kadrlar malakasi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida odam omili, ya’ni ushbu texnologiyalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar millionlab aqlli hisoblagichlar o‘rnatilgach, ularni yuritish, ma’lumotlarini tahlil qilish bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasa, kutilgan samaraga erishish qiyin. Shu bois Delphi ishtirokchilari energetika sohasidagi xodimlarni qayta tayyorlash, IT yo‘nalishlarda yangi kadrlarni jalb etish masalalariga alohida urg‘u berishdi (4,2 ball). Hozirda Energetika vazirligi tuzilmasida raqamli transformatsiya bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘linmalar faoliyat yuritmoqda. 2022 yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida energetika sohasiga mo‘ljallangan IT kurslari yo‘lga qo‘yildi. Bundan

tashqari, Bir million dasturchi loyihasi doirasida energetika tizimidan ham yoshlar ishtirok etmoqda. Ammo bu yetarli emas – sohada chuqur bilimli texnolog-muhandis va data-tahlilchilar armiyasini shakllantirish zarur. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlar o‘rtasida IT sohasini rivojlantirish, har yili 15 ming nafar iqtidorli yoshlarni xalqaro talablarga mos dasturlash va raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha o‘qitish vazifalari qo‘yilgan. Bu kelgusida energetika kabi tarmoqlarga ham yangi raqamli avlod kirib kelishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillar yakunida, O‘zbekiston energetika sanoati korxonalarini raqamlashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy natijalarga erishilganini qayd etish mumkin:

Energetika sohasida raqamlashtirish mamlakatning 2030 yilgacha mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismidir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yashil energetika ulushini oshirish (2030 yilga borib jami ishlab chiqarishda 50% gacha), energiya samaradorligini ikki baravarga yaxshilash, tarmoq yo‘qotishlarini 2 baravardan ko‘proqqa qisqartirish (masalan, tarqatish tarmog‘ida 12–14% dan 6–7% gacha) kabi yirik maqsadlarga erishish real ko‘rinmoqda. Demak, raqamlashtirish strategik ko‘rsatkichlarning “bajaruvchi mexanizmi” sifatida xizmat qilmoqda.

2020–2025 yillar davomida allaqachon muayyan natijalarga erishildi. Xususan, mamlakat bo‘yicha gaz ta’minoti 100% raqamli hisoblagichlarga o‘tdi, elektr tarmoqlarida esa aholining katta qismi aqlli hisoblagichlar bilan qamrab olindi. Bu orqali hisob-kitob intizomi yaxshilandi, yoqilg‘i va elektr energiyasi uchun to‘lov yig‘imi sezilarli oshdi (qarzdorlik kamaydi). Shuningdek, 2023 yilda ilk raqamli podstansiya qurilib ishga tushirildi (Jizzax viloyati Zafarobod podstansiyasi, 220 kV) – bunda zamonaviy mikroprotsessorli himoya va avtomatika, raqamli o‘lchash uskunalari joriy etilib, obyekt boshqaruvi to‘liq kompyuter tizimiga o‘tkazildi. Bu – elektr uzatish infratuzilmasini yangilashdagi muhim qadam.

Raqamli transformatsiya jarayonida xususiy sektor ishtiroki kengaydi. Avvalo, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida xorijiy kompaniyalar (Masdar, Total Eren, ACWA Power va boshq.) faol ishtirok etib, o‘zlarining eng yangi raqamli echimlarini O‘zbekistonga olib kirmoqda. Masalan, 2024 yilda tarmoqqa ulangan 500 MVt dan ortiq quyosh fotoelektr stansiyalarida dunyoning ilg‘or “aqlli inverter”lari, harakatlanuvchi panellar va ular uchun IoT nazorat tizimlari o‘rnatildi. Xususiy sektor ishtiroki faqat generatsiya bilan cheklanmay, taqsimlash va xizmat ko‘rsatish sohalariga ham kirib kelmoqda: 2023 yildan boshlab ayrim hududlarda elektr energiyasini hisobga olish va tariffikatsiya xizmatlarini xususiy IT kompaniyalar amalga oshirmoqda (DXSh asosida). Strategiyaga muvofiq, yaqin yillarda gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini to‘liq xususiy operatorlar bajarishi ham nazarda tutilgan. Bu jarayon raqamlashtirishni tezlashtirishi mumkin, chunki xususiy operatorlar daromadini oshirish uchun yo‘qotishlarni kamaytirishga va xizmatni yaxshilashga intiladi, buning yo‘li – raqamli texnologiyalarni qo‘llash ekanligi aniq.

Albatta, raqamli transformatsiya katta investitsiyalar talab qiladi. Jahon banki hisob-kitobiga ko‘ra, faqat elektr taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya va raqamlashtirish uchun 2020–2030 yillarda O‘zbekistonga taxminan $3 mlrd mablag‘ zarur bo‘ladi. Shu jumladan, 6000 km past kuchlanishli tarmoqlarni yangilash, 1200 ta transformatorni almashtirish, yuqorida aytilgan 150 ming aqlli elektr hisoblagich va 4000 ta konsentratorni o‘rnatish kabi ishlarga $150 mln miqdorida investitsiya kiritilishi belgilangan (Jahon banki va REPN hamkorligida). Umuman olganda, elektr tarmoqlarini to‘liq yangilash va raqamli tizimlarga o‘tkazish uchun 5 yil davomida $4 mlrd atrofida investitsiya yo‘naltirilishi rejalashtirilgan. Qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha esa 2030 yilgacha $10–12 mlrd investitsiya kutilmoqda (shu jumladan, ushbu loyihalardagi raqamli komponentlar uchun). Bu raqamlar raqamlashtirish iqtisodiy jihatdan ham yirik tashabbus ekanini ko‘rsatadi. Biroq investitsiyalarning qaytimi yuqori bo‘lishi kutilmoqda: masalan, elektr tarmoqlarida yo‘qotishlarning har bir foizga kamayishi yiliga o‘nlab million AQSh dollariga teng tejamkorlikni beradi. Shuningdek, yirik investitsiyalar jalb qilinishi mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantiradi – masalan, 2021 yilda Toshkentdagi Texnopark korxonasida mahalliy brend ostida “Osten” aqlli gaz hisoblagichlari ishlab chiqarila boshlandi va bir yil ichida 1 milliondan ortiq mahsulot ishlab chiqarildi. Bu O‘zbekistonda yangi tarmoq – elektron o‘lchash priborlarini ishlab chiqarish sanoati – rivojlanayotganini anglatadi.

Yuqoridagi tahlil komponentlari asosida aytish mumkinki, O‘zbekiston energetika sanoatida raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar 2030 yil strategik maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya energetika tizimining samaradorlik darajasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Quyida keltirilgan rasmda O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan quyosh energetikasi obyektlaridan birining ko‘rinishi tasvirlangan bo‘lib, bunday zamonaviy stansiyalar integral raqamli boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan.

Delphi so‘rovi va boshqa tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2030 yilgacha O‘zbekiston energetika sohasida raqamli transformatsiyaning quyidagi kutilayotgan natijalari ro‘yobga chiqishi mumkin:

Energetika raqamlashtirish aholining hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Eng oddiy misol – avvallari elektr yoki gaz hisobini topshirish uchun navbat kutish, uyma-uy yurish amaliyoti bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu ishlar masofadan bajarilmoqda. Bu vaqt va resurs tejamidir. Yana bir jihat – raqamli tizimlar energiya taqsimotida adolat va shaffoflikni oshiradi. Masalan, avval kimdir noqonuniy ravishda qarzdor bo‘lib ham elektrdan foydalanaverar, boshqasi esa vaqtida to‘lardi; endi smart tizim qarzdorning elektrini avtomatik uzib qo‘yadi, bu esa har bir fuqaroni to‘lovga mas’uliyatli qilishga undaydi.

Kelgusida, energetika xizmatlari bo‘yicha “yagona darcha” onlayn portal yaratilishi rejalangan bo‘lib, unda fuqarolar elektr, gaz, suv kabi barcha kommunal xizmatlar uchun yagona platforma orqali hisob-kitob qilishi mumkin bo‘ladi (ayrim hududlarda sinov tariqasida bunday tizim yo‘lga qo‘yilgan). Bularning bari raqamli transformatsiya samarasidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda energetika sanoatini raqamlashtirish bo‘yicha boshlangan ishlar jadal davom etmoqda va dastlabki natijalar ijobiy. Albatta, duch kelinayotgan qiyinchiliklar ham yo‘q emas: yirik investitsiya talab etilishi, ayrim eski uskunalarning moslashuvi qiyinligi, kadrlar malakasini oshirish zarurati va h.k. Ammo davlat darajasida qabul qilingan siyosiy qarorlar (2030 strategiyasi kabi) va xalqaro moliyaviy institutlar ko‘magidagi loyihalar bu to‘siqlarni yengib o‘tishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, raqamlashtirish bo‘yicha aniq indikatorlar belgilangan va ular muntazam monitoring qilinmoqda. Masalan, 2025 yilga borib elektr energiyasidagi yo‘qotishlarni 10% dan pastga tushirish bo‘yicha oraliq maqsad belgilandi – bu bajarilsa, 2030 yilda 8–9% ko‘rsatkichga yetish osonlashadi. Shunday ekan, oldinda turgan vazifalar aniq va ularga erishish uchun ilmiy yondashuvga asoslangan kompleks metodologiya zarur.

Bizning tadqiqot doirasida taklif etilgan metodologiya va Delphi natijalari shu yo‘nalishda amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Xususan, Energetika vazirligi uchun raqamlashtirish loyihalarini rejalashtirishda ushbu ustuvor yo‘nalishlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish tavsiya etiladi. Masalan, aqlli tarmoqlarni joriy etish dasturlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida komponentlarni kiritish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini rejalaganda ularning tarmoqqa integratsiyasi uchun zarur bo‘ladigan raqamli vositalarni oldindan ko‘zda tutish kabi takliflar ishlab chiqildi.

O‘tkazilgan tadqiqot yakunlari shuni ko‘rsatadiki, energetika sanoati korxonalarini raqamlashtirish O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u sohaning ilmiy-nazariy va amaliy rivojlanishiga yangi impuls bermoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida energetika tizimining samaradorligi, barqarorligi va shaffofligi sezilarli darajada oshadi, bu esa mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va aholining turmush farovonligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodologik yondashuv (Delphi usuliga asoslangan holda) energetika sohasini raqamlashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyat omillarini va xavf-xatarlarni aniqlash imkonini berdi. Asosiy ilmiy-nazariy xulosalar va tavsiyalarni quyidagicha jamlash mumkin:

1.Energetika raqamlashtirishning ilmiy asoslari: Raqamli transformatsiya konsepsiyasi energetika sohasida qo‘llanishida o‘ziga xoslikka ega. An’anaviy energetika tizimi fizik qonuniyatlar va markazlashgan boshqaruvga tayanib kelgan bo‘lsa, raqamlashtirish uni kiber-fizik tizimga aylantirmoqda. Bu esa energetikani o‘rganishda faqat energetik muhandislik emas, balki axborot texnologiyalari, tizimli tahlil, boshqaruv nazariyasi kabi ilmiy yo‘nalishlarni ham integratsiya qilishni talab etadi.

2.Bizning tahlillar bunga yaqqol ishonch hosil qildi – masalan, 40–50% “yashil energiya” ulushiga erishish uchun elektr tarmoqlarini avtomatlashtirish va aqlli boshqaruv talab etiladi, aks holda noaniq xususiyatga ega quyosh/shamol generatsiyasi tizim barqarorligini buzishi mumkin.

3.Delphi usuli natijalari va ustuvor yo‘nalishlar: Ekspertlar konsensusiga ko‘ra, O‘zbekiston energetika raqamli transformatsiyasining eng muhim yo‘nalishlari sifatida aqlli tarmoqlar, avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlari, yagona raqamli platforma, qayta tiklanuvchilar integratsiyasi va kiberxavfsizlik belgilandi (1-jadval).

4.Amaliy yutuqlar va tajribalar: 2020–2025 yillarda olingan natijalar raqamlashtirishning “ertega” emas, balki bugungi kundagi foydasini namoyon etdi. Aqlli hisoblagichlar tufayli milliardlab so‘mlik qarzdorliklar undirilmoqda, gaz va elektr ta’minotidagi yo‘qotishlar pasaymoqda, iste’molchilarga interaktiv xizmatlar paydo bo‘lmoqda.

5.Tizimlashtirilgan boshqaruv va monitoring zarurati: Raqamlashtirish jarayonining o‘zi ham doimiy monitoring va tahlilni talab qiladi. Bizning tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘ldiki, ayrim loyihalar bo‘yicha aniq statistik ko‘rsatkichlarni topish qiyin – masalan, elektr tarmoqlarida aqlli hisoblagichlar qamrovi foizi, real yo‘qotishlar statistikasida tafovutlar mavjud. Masalan, yil yakunida “aqlli hisoblagichlar soni/ulushi”, “raqamli boshqaruvga o‘tkazilgan podstansiyalar soni”, “to‘plangan ma’lumotlar bazasi hajmi va undan foydalanuvchi tashkilotlar soni” kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinishi lozim.

Xulosa

Energetika sohasini raqamlashtirish – bu texnologik yangilanishdan tashqari, boshqaruv madaniyati va ish jarayonlarining ham transformatsiyasidir. O‘zbekiston misolida ushbu jarayon davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanib, amaliy natijalar bilan mustahkamlanmoqda. Raqamli transformatsiya energetika korxonalariga inson omili ta’sirini kamaytirib, qaror qabul qilishda aniqlik va tezkorlik beradi, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa pirovard natijada mamlakatning energetik mustaqilligini kuchaytiradi va “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga o‘tishni tezlashtiradi.

O‘zbekiston misolida energetika sanoati korxonalarini raqamlashtirish metodologiyasini shakllantirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki – raqamli transformatsiya aniq strategik maqsadlar bilan bog‘langan holda olib borilgandagina muvaffaqiyatga erishadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi esa shu maqsadlarni belgilab bergan yo‘ldir. Endigi vazifa shu yo‘ldan og‘ishmasdan, ilmiy yondashuvga tayangan holda raqamli energetika sari qadam tashlashdir. Bu

yo‘lda erishilgan har bir kichik yutuq 2030 yilda ulkan muvaffaqiyatlar yig‘indisiga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balbaa, M.E., Abdurashidova, M.S. *Digitalization Processes in the Energy Complex of Uzbekistan*. EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies, 10(3), 91–94 (2023). DOI: 10.36713/epra12767eprajournals.com

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-158-son (11.09.2023). *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida*. Lex.uz rasmiy hujjati

3. International Energy Agency (IEA). *Solar Energy Policy in Uzbekistan: A Roadmap – Context of renewable energy in Uzbekistan*. IEA Report, 2021

4. World Bank Press Release. *Uzbekistan to Invest in Modernizing Electricity Distribution Networks with World Bank Support*. May 15, 2025worldbank.org

5. UzDaily. *Over 2.68 million "smart" gas meters installed in Uzbekistan*. 09.03.2022

6. (English edition). *Residents of Uzbekistan owe over 500 billion soums for gas*. 16.10.2021

7. The Times of Central Asia – Jalolova, S. *Uzbekistan Aims for 50% Green Energy by 2030 in Major Power Expansion*. 05.02.2025

8. (English). *Uzbekistan to launch the first digital substation in 2023*. 28.10.2021 (Photo: Ministry of Energy)

9. PV-Tech – Yuen, S. *Masdar connects 511 MW solar projects to Uzbekistan’s grid*. 14.03.2024 (Image: TrinaTracker)

10. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. *2030 yilgacha O‘zbekistonni elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi* (2020). Rasmiy hujjatdan iqtiboslar

11. Uzbekistan Embassy in France. *By 2030, Uzbekistan plans to export 10–15 billion kWh of electricity to Europe* (News article). 2024 y.

12. Lex.uz – Qaror PF-6079-son. *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*. 05.10.2020

13. Khududgazta’minot AJ press-relizi. *Gaz ta’minoti tizimiga avtomatlashtirilgan nazorat va hisob tizimi joriy etilmoqda*, 2022 y. (Uzdaily ma’lumotlari)

14. Jahon Banki hisobotlari. *Uzbekistan Energy Sector Transformation – Progress Report* (2023). (Elektr tarmoqlardagi yo‘qotishlar va investitsiyalar bo‘yicha)

15. Fiorentini, Pietro (Italia). *Smart gas meters for Uzbekistan*. Press release, 2021. (Osten smart hisoblagichlari ishlab chiqarilishi)

POCHTA ALOQASI XIZMATLARINI TAQDIM ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jurayev Lazizjon
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Tashkiliy nazorat boshqarmasi boshlig‘i
Toshkent, O‘zbekiston
l.juraev@tuit.uz

Saburova Shohista
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Jismoniy yuridik shaxslarining murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi yetakchi mutaxassisi
Toshkent, O‘zbekiston
shohistasaburovaa@gmail.com

Abstrakt. Maqolada pochta aloqasi xizmatlarini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Pochta tizimida elektron hujjatlar aylanishi, elektron raqamli imzo, onlayn kuzatuv, elektron to‘lovlar, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan logistika kabi innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston pochta tizimining raqamli transformatsiyasi, xalqaro tajriba bilan taqqoslash, mavjud muammolar va rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pochta aloqasi, raqamli texnologiyalar, elektron pochta, logistika, elektron to‘lov, raqamli transformatsiya.

Kirish

Bugungi kunda pochta aloqasi xizmatlari jamiyat infratuzilmasining muhim qismi sifatida mamlakat iqtisodiyotida va ijtimoiy hayotda alohida o‘rin tutadi. An’anaviy pochta xizmatlari qog‘oz asosidagi xatlar, paketlar va posilkalarni yetkazib berish bilan cheklanib qolgan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida ushbu sohada tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, elektron to‘lov tizimlari, jo‘natmalarni onlayn kuzatish imkoniyati, elektron hujjatlar aylanishi, mobil ilovalar va tezkor logistika tizimlari mijozlar uchun sifatli va samarali xizmatlarni taqdim etmoqda.

Xozirda mamlakatimizda xam ham pochta aloqasi tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

2020-yil 5-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlari rahbarlari ishtirokida “Milliy pochta tizimini isloh qilish masalasi” yuzasidan yig‘ilish o‘tkazilib, Milliy pochta tizimini rivojlantirish, bozorda raqobatbardosh korxonaga aylantirish hamda Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni yuqori o‘rinlarda bo‘lishini ta'minlash maqsadida Milliy pochtani qo‘llab-quvvatlash yuzasidan Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlariga tegishli topshiriqlar berildi Mazkur yig‘ilishda belgilab berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4921-son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror bilan Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan, jumladan:

- xat-xabar tashish va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirish;
- elektron tijorat bozoridagi faoliyatni rivojlantirish;
- xizmatlar bozoridagi pochta aloqasi faoliyatini rivojlantirish.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ va boshqa operatorlar tomonidan elektron platformalar yaratilib, xalqaro standartlarga mos xizmatlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Biroq ushbu tizimni to‘liq raqamlashtirish uchun hali ham yechimini kutayotgan masalalar mavjud.

Ayni vaqtda pochta aloqasi xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati bir qator muammolar bilan bog‘liq:

1. Xizmat ko‘rsatish sifati – an’anaviy usullar orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarda tezkorlik yetarli emas, ba’zan mijozlar jo‘natmalar holati haqida ma’lumot olishda qiyinchiliklarga duch keladilar.
2. Logistika va kuzatuv – jo‘natmalarni yo‘qotish yoki kechikish xavfi mavjud, mijozlar uchun esa yetkazib berish jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatlari cheklangan.
3. Huquqiy va normativ baza – pochta xizmatlarida elektron raqamli imzo, elektron hujjatlar aylanishi va elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish bo‘yicha ba’zi normativ-huquqiy cheklovlar mavjud.
4. Aholining raqamli savodxonligi – ko‘plab mijozlar hali ham elektron xizmatlardan to‘liq foydalanish ko‘nikmasiga ega emas.
5. Texnologik infratuzilma – pochta bo‘limlari va logistik markazlarning texnik bazasi barcha hududlarda teng darajada emas.

O‘z o‘zidan yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

• Elektron hujjatlar aylanishi va raqamli imzo: hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish, ularni tezkor va ishonchli tarzda yuborish va qabul qilish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat vaqtni, balki xarajatlarni ham sezilarli kamaytiradi.

• Onlayn kuzatuv tizimi: jo‘natmalarni maxsus QR-kod yoki GPS asosida kuzatish orqali mijozlar real vaqt rejimida posilkaning qayerda ekanini bilish imkoniga ega bo‘ladilar.

• Elektron to‘lovlar: mijozlar onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron hamyonlar orqali pochta xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshira oladilar va bu o‘z navbatida xizmatlarni tezkor va qulay qiladi.

• Mobil ilovalar: pochta xizmatlari uchun maxsus mobil dasturlar yaratilishi natijasida mijozlar o‘z telefonlari orqali jo‘natmalar yuborish, kuzatish va to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

• Logistik jarayonlarni avtomatlashtirish: zamonaviy skanerlar, robotlashtirilgan saralash markazlari va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar orqali jo‘natmalarni tez va aniq qayta ishlash mumkin.

• Xalqaro integratsiya: xalqaro pochta tarmoqlari bilan integratsiyalashgan elektron tizimlar yordamida import-eksport jo‘natmalarining tezkorligini oshirish.

Raqamli texnologiyalarni pochta tizimida qo‘llash natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

• mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi oshadi;

• pochta xizmatlarining shaffofligi va ishonchliligi ta’minlanadi;

• jo‘natmalarni yo‘qotish va kechiktirish ehtimoli kamayadi;

• davlat organlari va biznes subyektlari uchun qulay elektron hujjat almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi;

• xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik ortadi;

• xizmatlarning geografiyasi kengayadi, chekka hududlarda ham sifatli xizmat taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Masalan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida pochta xizmatlari ko‘plab raqamli imkoniyatlar orqali onlayn savdo va elektron tijorat rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Xususan, Xitoyda “China Post” va Germaniyada “Deutsche Post DHL” raqamli xizmatlarni kengaytirib, mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish tizimini yaratgan.

Yana shuni aytish joizki, bugungi kunda bir qator fintech, marketpleys va logistika kompaniyalari bir nechta yo‘nalishlarni faol rivojlantirayotganligida logistika va pochta xizmatlari ham ulushi sezilarli albatta. Pochta aloqasining keng quloch yoygan tarmog‘i tovar va mahsulotlarni Respublikamizning eng chekka burchaklarigacha yetkazish va olis hududlarda yashovchilar uchun elektron tijoratdan foydalanishga keng yo‘l ochib beradi.Respublikamizning milliy pochta operatori “O‘zbekiston pochtasi” AJ ning bugungi kunda 14 ta hududiy filiali, 21 ta tumanlararo pochta aloqasi, 143 ta hududiy pochta aloqasi, 1804 ta pochta aloqasi bo‘limi, shahar va tumanlarda 1414 dan ortiq yetkazib berish punktlari mavjud bo‘lib bu o‘z navbatida respublikamizda elektron tijorat uchun qulay infratuzilmani yaratadi. (1-rasm)

1-rasm.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz bozoriga xorijiy tadbirkorlarning kirib kelishi bizning tadbirkorlarimizga jahon bozorlarida raqobatlashish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistonda elektron tijoratga Visa va Mastercard to‘lov tizimlari ham faol joriy etilmoqda. Bu tadbirkorlarga mijozlardan xalqaro to‘lovlarni qabul qilish va o‘z bizneslarini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Munozara

Pochta aloqasi xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon nafaqat xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi, balki butun sohaning raqobatbardoshligini ham oshiradi. O‘zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirilganda, ayrim yo‘nalishlarda ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Jumladan, texnologik infratuzilmaning barcha hududlarda bir xil rivojlanmaganligi, aholining raqamli savodxonligi pastligi va normativ-huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi tizimning modernizatsiya jarayonida to‘siq bo‘lib turibdi.

Biroq xalqaro tajriba (Xitoy, Germaniya kabi mamlakatlarda) ko‘rsatmoqdaki, mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari va avtomatlashtirilgan logistika xizmat ko‘rsatishda sifatli yechimlar taqdim etmoqda. O‘zbekiston pochta tizimi ham bu yo‘nalishlarni bosqichma-bosqich joriy etib, elektron tijorat bozorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, fintech va logistika kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, xalqaro integratsiyani kengaytirish tizimni yanada rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash sohaning samaradorligi, shaffofligi va mijozlarga qulayligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hujjatlar aylanishi, onlayn kuzatuv tizimlari, elektron to‘lovlar, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan logistika xizmat ko‘rsatish sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga imkon beradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy pochta tizimining raqamli transformatsiyasi uchun asos bo‘lib, xalqaro standartlarga moslashish, elektron tijoratni rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida barcha pochta xizmatlarini yagona elektron platformaga integratsiya qilish, xalqaro kuzatuv tizimlarini joriy etish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va texnologik infratuzilmani mustahkamlash lozim. Ushbu chora-tadbirlar pochta aloqasi xizmatlarini zamonaviy, tezkor va mijozlarga yo‘naltirilgan tizim sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishda raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni beradi:

- xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish;
- samaradorlik va shaffoflikni ta’minlash;
- mijozlar uchun qulaylik yaratish;
- elektron tijoratni rivojlantirish;
- xalqaro standartlarga integratsiyani kuchaytirish va hokazo.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pochta aloqasi xizmatlarini samaradorligini yanada yaxshilash uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- barcha pochta xizmatlarini yagona elektron platformaga integratsiya qilish;
- xalqaro kuzatuv tizimlarini joriy etish;
- pochta xizmatlarida mobil ilovalarni ommalashtirish;
- raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha aholiga o‘quv dasturlari tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Pochta aloqasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”, 2022 yil.

МОДЕЛЬ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Ли Дмитрий Эдуардович
Соискатель
Ташкентский университет информационных технологий имени мухаммад ал-Хоразмий
Ташкент, Узбекистан
d.lee@bucheon.uz

Ахмедова Камола
Студент
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммад ал-Хоразмий
Ташкент, Узбекистан
axmedovakamola31@gmail.com

Абдулазизова Эзоза
Студент
Ташкентский университет информационнқх технологий имени Мухаммад ал-Хоразмий
Ташкент, Узбекистан
axmedovakamola31@gmail.com

Развитие Индустрии 4.0 оказывает существенное влияние на интеграцию цепочек создания стоимости. Скорость этой трансформации различается в зависимости от отраслей промышленного производства и оказывает влияние на малых и средних предприятий, углубляя разрыв в развитии в разных регионах мира. В этом случае малых и средних предприятий обрабатывающей промышленности стран оказываются втянутыми в среду стремительной трансформации, которая, в свою очередь, сложна и неизвестна во всех своих измерениях. На основе исследования, в различных отраслях промышленности, была оценена текущая степень технологического развития и степень трансформации, в которой они находятся. В результате исследования было выявлено, что компании этого типа сталкиваются с серьезным дефицитом знаний о технологиях, которые можно было бы разработать, внедрить или интегрировать в различные функциональные области. Это незнание оказывается основным препятствием для трансформации. Именно поэтому в данной статье представлены предварительные результаты текущего исследовательского проекта, в рамках которого разрабатывается модель процесса технологической трансформации. Эта модель позволяет малым и средним предприятиям определить, какие продукты они могут внедрять, исходя из потребностей в добавленной стоимости в различных функциональных областях, и выбрать путь трансформации в сторону Индустрии 4.0.

Ключевые слова — индекс ИКТ; малых и средних предприятий; Технологическое развитие; Промышленное развитие; Индустрия 4.0

IX. ВВЕДЕНИЕ

Цифровая трансформация производственных систем и ускоренные темпы развития четвёртой промышленной революции требуют горизонтальной интеграции продуктов и процессов, поддерживаемой сетями взаимодействия, в которых рабочие и цифровые технологии охватывают различные области производственного предприятия [1]. Скорость этой трансформации различается в зависимости от отраслей промышленного производства и по-разному влияет на малых и средних предприятий (МСП), углубляя разрыв в развитии в разных регионах мира.

По данным аналитических компаний, пропасть в цифровизации компаний в странах весьма значительна [2] и рискует увеличиться в ближайшие годы в связи с ускоренным развитием Индустрии 4.0. Поэтому в настоящее время рекомендуется государственным и частным инициативам поддерживать малый бизнес в использовании технологических решений в своей деятельности [3].

На основе применения своего условного индекса цифровизации со стороны аналитических компаний было проведено сравнительное исследование по развитии цифровой трансформации в МСП. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в развивающихся стран самовосприятии компаний присутствует нехватка знаний о доступных технологиях, о процессах их внедрения и о технологическом потенциале для их бизнеса [3].

В дополнение к этому отсутствию знаний и сосредоточению, наблюдается, что имеется слабая связь между потенциалом технологического развития и местной обрабатывающей промышленностью, оставляя на втором плане технологическое обновление малых и средних производственных компаний.

В этом смысле проявляется нехватка стратегий технологического обновления, ориентированных на промышленные МСП, и нехватка инвестиций в повышение конкурентоспособности на основе инноваций и технологических преобразований, учитывая, что этот сектор не является востребованным сектором для развития цифровых технологий по сравнению с другими секторами.

С этой точки зрения, учитывая скорость процесса трансформации и недостаточную осведомленность компаний о решениях, которые необходимо принять, необходимо знать, какие конкретные технологические продукты входят в состав Индустрии 4.0, а также предоставить информацию о путях внедрения и

взаимодополняемости технологий, которые промышленные МСП могли бы внедрить и инициировать процесс трансформации в направлении Индустрии 4.0.

Чтобы оценить текущее состояние технологического развития МСП, было проведено исследование с использованием индекса InTICs® [5], разработанного исследовательской группой GIS (Grupo de Ingeniería de Software) в качестве инструмента оценки. Индекс определяет уровень технологического развития каждой отрасли в зависимости от внедренных ею в настоящее время программных, аппаратных и инфраструктурных продуктов, выполняющих конкретные задачи. В данном случае продукты, распределенные по функциональным областям каждой компании, были оценены с целью выявления технологий, внедренных в каждой компании, в соответствии с добавленной стоимостью каждой функции.

В результате детального анализа каждой функциональной области в каждой компании и дифференциации продуктов и внедрения каждой технологии разрабатывается модель процесса, которая упрощает внедрение технологий для технологической трансформации малыми и средними предприятиями. Разрабатываемая модель процесса основана на результатах оценки цифровых технологий по функциональным областям, чтобы каждая компания могла получить информацию о технологиях, установленных и используемых ею в различных функциях, и определить потребности во внедрении технологий для проведения повторной конверсии.

X. Обзор работ

A. *Материалы и методы*

Для проведения анализа уровня технологического развития по функциональным областям было проведено исследование с использованием индекса InTIC® [6], который структурирован на основе технологических продуктов, дифференцированных на 3 компонента цифровых технологий: программное обеспечение, оборудование и инфраструктура, сгруппированных в соответствии со спецификой каждого типа технологий и внедренных в функциональных областях, где эти технологии выполняют определенные задачи в отраслях [5].

Ниже перечислены общие функциональные области, по которым структурирована типичная компания, разрабатывающая различные функции.

- *Логистика*: включает в себя логистические задачи, как на въезде, так и на выезде.
- *Производство*:включает операцию деятельности.
- *Продажи*: эта область включает в себя функции маркетинга и продаж.
- *Управление*: эта область включает в себя вспомогательные функции инфраструктуры и человеческих ресурсов компании.
- *Бухгалтерский учет и финансы*: эта область также является частью деятельности компании по поддержке инфраструктуры.
- *Инжиниринг*: эта область включает в себя деятельность по разработке технологий, то есть функции из продукта и процесс проектирования.
- *Закупки*: включает улучшения в коммуникациях, которые приводят к сокращению цикла покупки и более выгодным ценам.

После того как технологические продукты идентифицированы на пересечении с каждой функциональной областью, индекс генерирует трехуровневую оценку, взвешивая каждый продукт в соответствии со степенью его разработки с точки зрения времени, в течение которого каждый из них находится на рынке, что позволяет различать компании, на каком уровне они находятся в соответствии с внедренной технологией:

- *Базовый уровень* для тех компаний, у которых старые технологии.
- *Средний уровень* для тех компаний, которые имеют средне современные технологии.
- *Продвинутый уровень* для компаний, обладающих передовыми технологиями.

Индекс включает 74 продукта цифровых технологий в различных функциональных областях, из которых 20 относятся к базовому уровню, 30 – к среднему, а 24 – к продвинутому. Не все продукты, входящие в продвинутый уровень, относятся к последнему поколению, но они необходимы для интеграции и функционирования других. Таким образом, из набора продуктов продвинутого уровня, определяющего индекс, были выделены технологические продукты, составляющие Индустрию 4.0.

На рисунке 1 представлены частные продукты индекса, которые в совокупности составляют подмножество продуктов Индустрии 4.0. Эта тема изучалась и была представлена на различных конференциях [7].



Рис. 1. продукты цифровых технологий для Индустрии 4.0

Структура индекса позволяет оценить установленные продукты, относящиеся к

продвинутому уровню в каждой функциональной области компании, а также 11 продуктов, относящихся к подмножеству Индустрии 4.0.

XI. Результаты и обсуждение

Для анализа уровня технологического развития по функциональным областям было проведено исследование с использованием индекса InTICs®. Для примера можно анализировать пункт, в котором население составляет 2 миллиона жителей, и 7000 промышленных предприятий различных секторов обрабатывающей промышленности, большинство из которых МСП.

Результаты анализа компаний показывает, что 62,50% опрошенных отраслей находятся на базовом уровне, 35,00% — на среднем и 2,50% — на продвинутом. Аналогично, из общего числа компаний 67,50% внедрили некоторые продукты Индустрии 4.0, и только одна компания продвинутого уровня содержит 10 (из 11) продуктов Индустрии 4.0, что означает, что из всех опрошенных отраслей только одна полностью относится к этому сегменту.

На основе этого глобального анализа уровня развития опрошенных компаний был проведен детальный анализ подмножества технологий Индустрии 4.0 для каждой функциональной области во всех компаниях, где было обнаружено наличие какого-либо из этих продуктов.

Таким образом, анализируя каждую область, можно заметить, что в функциях «Закупки» анализируемые компании имеют 30 продуктов Индустрии 4.0.

В сфере «Логистика» компании внедрили 34 продукта Индустрии 4.0.

Что касается направления «Продажи», компании внедрили 54 продукта Индустрии 4.0.

Что касается продуктов, внедренных в области «Управление», компании внедрили 53 продукта Индустрии 4.0.

Что касается области «Бухгалтерский учет и финансы», компании внедрили 42 продукта Индустрии 4.0.

В сфере «Инжиниринг» на предприятиях внедрено 42 продукта Индустрии 4.0.

Анализируя эти данные, можно отметить, что продукты, внедренные во всех областях деятельности опрошенных компаний, относятся к области кибербезопасности, далее следуют облачные вычисления, а на третьем месте — Интернет вещей. Эти три продукта практически не упоминаются, а остальные восемь встречаются крайне редко.

Таким образом, если 67% опрошенных компаний имеют какой-либо продукт Индустрии 4.0, среди которых выделяются те, которые применяются в кибербезопасности, облачных вычислениях и Интернете вещей и распределены в различных функциональных областях каждой компании, можно утверждать, что процесс внедрения технологий осуществляется путем заключения контрактов на услуги по существующим технологиям, которые не подразумевают собственные разработки, в то же время интеграция с другими компонентами, которая могла бы повысить их производительность, не обнаружена. Примером того, что ожидается обнаружить, может быть случай сетей Интернета вещей с датчиками для сбора собственных данных, которые обрабатываются с помощью программного обеспечения для больших данных для анализа и алгоритмов машинного обучения при принятии решений.

Этот анализ позволяет нам сделать вывод о низком уровне внедрения технологий Индустрии 4.0, отсутствии трансверсальной интеграции продуктов в различные функциональные области, а также о том, что внедряемые продукты приобретаются или предоставляются по контракту. Гипотеза данного исследования подтверждается высоким уровнем неосведомленности малых и средних промышленных предприятий о доступных технологиях и процессе интеграции, требующем их внедрения.

XII. Предлагаемое решение

Для управления процессом внедрения и интеграции технологий предлагается предварительная версия модели процесса, которой может следовать промышленное предприятие малого и среднего бизнеса, чтобы начать идентификацию продукта, что позволит ему начать технологическую трансформацию (ТТ).

Модель состоит из 11 подпроцессов, которые выполняются последовательно, а результат каждого подпроцесса представляет собой входную информацию для следующего.

На рисунке 9 показана модель, где каждый процесс представлен кругом, а содержащиеся в них потоки связаны прямоугольником с его именем. Стрелки указывают поток информации между потоками.

Рис. 9. Модель технологической трансформации

Предлагаемая модель основана на анализе существующих функциональных областей компании [6], позволяет оценить технологии, внедренные в каждой области, определить ключевую функциональную область, проанализировать и определить цели технологической трансформации (ТТ) организации и ключевой области. После определения целей модель позволяет определить технологические продукты, которые необходимо внедрить, разработать или интегрировать, что, в свою очередь, определяет стратегии разработки, внедрения или интеграции продуктов цифровых технологий [5].

Модель рассматривает каждый цикл как континуум, в котором каждая отрасль может начать, когда она решит, что ей требуется технологическое обновление для повышения своей производительности.

Определение процессов модели основано на индексной схеме InTICs®, которая позволяет проанализировать организацию по её функциональным областям и оценить конкретные и эффективные продукты цифровых технологий, внедрённые ею в реальном контексте использования для каждой функции. Таким образом, каждый процесс Модели описан ниже.

1. Анализ функциональных зон компании

Этот процесс инициирует Модель технологической трансформации с определения функциональных областей типичной компании в соответствии с индексом ИКТ, в котором они различаются по менеджменту, бухгалтерскому учету и финансам, инжинирингу, закупкам, логистике, производству и продажам.

2. Оценка существующих цифровых технологий в организации по функциональным областям (технологические активы)

Продукты ИКТ для организации оцениваются на основе анализа индекса в зависимости от того, относятся ли они к набору аппаратных, программных или инфраструктурных продуктов по функциональной области. Эти продукты ИКТ обозначены в Модели как технологические активы [9]. То есть, продукты ИКТ, имеющиеся в организации в её функциональных областях. Использование индекса позволяет определить, какие продукты находятся в эксплуатации, и оценить уровень развития компании.

3. Определение ключевых функциональных областей (KFA – Key Functional Area)

В качестве следующего процесса Модель предлагает определить ключевую функциональную область для каждой компании в соответствии со следующими вариантами:

3.1. Определение основной сферы деятельности предприятия

Анализ центральной сферы деятельности компании, в которой она производит продукцию и которая определяет её миссию в рамках отрасли. «Основная сфера деятельности» определяет основное направление производственной и коммерческой деятельности компании. Это может быть бизнес, в котором компания была основана, или бизнес, в рамках которого её деятельность развивалась с течением времени. [10]

3.2. Определение уровня технологического развития каждой области деятельности компании

Определение основного направления деятельности позволяет оценить конкретные продукты цифровых технологий, входящие в его состав, и уровень развития конкретных технологий, чтобы определить влияние ИКТ на производительность основного направления деятельности. Оценка может быть выполнена с помощью индекса InTICs®, используя конкретный срез рассматриваемого направления.

3.3. Обнаружение области с большим потенциалом

Оценка направлений деятельности компании, а также определение основного направления деятельности и уровня его технологического развития позволяет выявить направление, имеющее наибольший потенциал развития с учетом его уровня или вклада в основное направление деятельности.

Другими словами, если основная бизнес-область имеет приемлемый уровень развития, превышающий средний уровень развития остальных областей, или существует функциональная область, которая ограничивает потенциал производительности основной бизнес-области из-за своего низкого уровня развития, последняя будет представлять собой область с наибольшим потенциалом, учитывая, что её технологическое обновление будет способствовать росту производительности основной бизнес-области компании. В рамках этого подпроцесса разрабатываются экономические и технологические показатели, позволяющие оценить и выделить различные области, которые могут обладать наибольшим потенциалом.

С помощью этих трех вариантов Модель позволяет определить ключевую функциональную область как наиболее важную область или область с наибольшим потенциалом для инициирования процесса технологической трансформации.

4. Определение целей технологической трансформации (ТТ) для организации

На основе определения KFA определяются цели технологической трансформации для организации в целом. В рамках этого процесса компания определяет цели, которые необходимо достичь в рамках технологического развития всей компании, связанные с приобретением собственных технологий или разработок, интеграцией существующих технологий, обучением персонала или внедрением новых профилей, а также другими аспектами, затрагивающими организацию в целом.

5. Определение целей технологической трансформации (ТТ) для ключевой функциональной области

Определение целей технологической трансформации для всей организации обеспечивает необходимую основу для последующего процесса, включающего определение целей технологической трансформации для ключевой функциональной области (KFA), выбранной в процессе 3.3. В этом процессе компания определяет цели, которые необходимо достичь с точки зрения технологического развития для конкретной области в соответствии с определениями общих целей.

6. Выбор ИКТ для внедрения

6.1. Определение инфраструктурных продуктов или услуг

Этот подпроцесс позволяет определить, какие конкретные инфраструктурные продукты или услуги компания будет внедрять в соответствии с целями ТТ, предусмотренными KFA, и целями ТТ организации в целом. Это различие позволяет внедрять технологии в соответствии со следующими критериями:

6.1.1. Осуществлять

Внедрить новые технологические продукты, отсутствующие в KFA. Например, развернуть новую сеть для Интернета вещей.

6.1.2. Интегрировать

Интеграция существующих продуктов с новыми продуктами и/или услугами. Например, интеграция новой сети Интернета вещей с существующим

программным обеспечением для обработки данных о запасах.

6.2. Определение аппаратных продуктов или устройств

Этот подпроцесс позволяет определить, какие конкретные продукты, включая оборудование или устройства, компания будет внедрять в соответствии с целями TT KFA и целями TT организации в целом. Это различие позволяет внедрять продукты в соответствии со следующей дискриминацией:

6.2.1. Осуществлять

Внедрить новые технологические продукты, отсутствующие в KFA. Например, использовать ноутбуки для повышения производительности.

6.2.2. Интегрировать

Интегрируйте существующие продукты с новыми. Например, интегрируйте ноутбуки в сеть передачи данных, установленную для обработки данных.

6.3. Определение программных продуктов

Этот подпроцесс позволяет определить, какие конкретные программные продукты компания будет внедрять, исходя из целей внедрения KFA и целей внедрения организации в целом. Это различие позволяет внедрять продукты в соответствии со следующими критериями:

6.3.1. Развивать

Собственная разработка программного обеспечения, отсутствующего в KFA.

6.3.2. Осуществлять

Внедрите программное обеспечение, разработанное на основе закупленных пакетов или продуктов, уже имеющихся на рынке. Например, внедрите программное обеспечение для управления запасами.

6.3.3. Интегрировать

Интеграция существующего программного обеспечения с новыми приложениями или программными продуктами. Например, интеграция существующей веб-страницы с новой разработкой транзакционной веб-страницы.

7. Начало процесса разработки, внедрения или интеграции

Этот процесс позволяет начать внедрение, интеграцию или разработку продуктов, определенных в предыдущем пункте.

8. Оценка

После завершения разработки внедренные, разработанные и/или интегрированные ИКТ оцениваются уже как новые технологические активы, и начинается новый цикл процесса TT.

Выводы

В данной статье представлены результаты опроса, который показал, что значительное число компаний, независимо от уровня их технологического развития, используют продукты кибербезопасности или услуги облачных вычислений для поддержки различных функций своей компании. Внедрение этих продуктов позволяет утверждать, что компании используют технологические услуги и не знают о возможностях других продуктов или их трансверсальной интеграции для улучшения остальных внедрённых ими технологий.

Из этой высокой степени неосведомленности в качестве предлагаемого решения была выявлена предварительная структура Модели процесса технологической трансформации, которая разрабатывается в рамках исследовательского проекта и позволяет малым и средним компаниям отрасли узнать о доступных технологиях и встать на путь трансформации в сторону Индустрии 4.0 на основе анализа технологических продуктов по функциональным областям компании.

[1] Ministerio de Ciencia y Tecnología: Industria 4.0: Escenarios e impactos para la formulación de políticas tecnológicas en los umbrales de la Cuarta Revolución Industrial. Ed. Ministerio de Ciencia, Tecnología e Innovación Productiva. (2015). Available from http://www.infoplc.net/files/documentacion/industria4/infoPLC_net_0000038319.pdf

[2] CEPAL. (2021). "Datos y hechos sobre la transformación digital". Séptima Conferencia Ministerial sobre la Sociedad de la Información de América Latina y el Caribe. Available from https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/46766/1/S2000991_es.pdf

[3] Ferraz, Joao Carlos, Torracca, Julia, Urraca Ruiz, Ana, Britto, Jorge, and Schmidt, Henrique. (2021). "Argentina-vs.-Brasil-La-travesia-por-la digitalizacion". Banco Interamericano de Desarrollo - Instituto para la integración de América Latina y el Caribe. Available from https://publications.iadb.org/publications/spanish/document/Argentina-vs.-Brasil-La-travesia-por-la-digitalizacion.pdf

[4] Cámara de la Industria Argentina del Software (CESSI). (2022). "Informe Observatorio Permanente de software y servicios informáticos OPSSI 2012. Available from http://www.cessi.org.ar/opssi

[5] Del Giorgio, Horacio René, and Mon, Alicia. (2019). "Las TICs en las Industrias". Ed Universidad Nacional de La Matanza. Available from https://indicetics.unlam.edu.ar/it/pdf/Las_TICs_en_las_Industrias.pdf

[6] Mon, Alicia and Del Giorgio, Horacio René (2020). "Evaluation of Information and Communication Technologies towards Industry 4.0". International on Industry 4.0 and Smart https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050921003355

[7] Mon, Alicia and Del Giorgio, Horacio René (2021). "Analysis of Industry 4.0 Products in Small and Medium Enterprises". International Conference 4.0 and Smart https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050922002988

[8] Mon, Alicia and Del Giorgio, Horacio René. (2019). “Análisis de la conformación industrial del partido de La Matanza”. Universidad Nacional de La Matanza. Observatorio Social. Available from https://observatoriosocial.unlam.edu.ar/descargas/19_Sintesis_146.pdf

[9] Camisón, César, and Forés, Beatriz. (2010). Knowledge absorptive capacity: New insights for its conceptualization and measurement. Journal of Business Research, 63(7), 707-715

[10] Augier, Mie, and Teece, David. (2018). "The Palgrave Encyclopedia of Strategic Management". Springer. Available from https://link.springer.com/referenceworkentry/10.1057/978-1-137-00772-8_51

RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA YASHIRIN IQTISODIYOT QISQARTIRISH YO‘LLARI

Xodjayev Abdulxay Xasanboyevich
TATU, mustaqil tadqiqotchi

Bugungi kunda yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining 2025 yil uchun hisobotiga ko'ra, jahon iqtisodiyotining uchdan bir qismi soyada qolmoqda. Bu holatni keltirib chiqarayotgan qator salbiy omillar qatoriga nisbatan yuqori soliq yuki, iqtisodiyotning yetarli darajada raqamlashtirilmagani, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan ma’muriy to‘siqlar, shuningdek, davlat organlaridagi korrupsiyaning yuqori darajasi kiradi. Ushbu maqolada biz raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuqoridagi salbiy omillarni bartaraf etish usullarini batafsil ko'rib chiqamiz. Boshlashdan oldin “Yashirin iqtisodiyot nima, raqamli texnologiyaning bunga qanday aloqasi bor?

Yashirin iqtisodiyot - bu jamiyat va davlatdan yashirin, davlat nazorati va buxgalteriya hisobidan tashqaridagi iqtisodiy faoliyat. Ya'ni, bu jamiyat fuqarolari o'rtasidagi mavjud davlat qonunlari va jamoat qoidalarini chetlab o'tib, o'z-o'zidan rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlardir. Ushbu biznesning daromadlari yashirin va soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyat emas.

Iqtisodiyotdagi raqamli texnologiyalar - bu zamonaviy iqtisodiyot sharoitida elektron biznes tuzilmalarining optimal ishlashini ta'minlaydigan texnik yangiliklar va innovatsiyalar. McKinsey mutaxassislaridan iborat global ekspertlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqot, iqtisodiyotning bevosita raqamli transformatsiyasisiz yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirib bo‘lmasligini isbotladi.

Diplomats are trained in identifying risks, securing accounts, and managing digital communication ethically and securely.

D. B. Experiential Learning

Simulations: Trainees respond to hypothetical crises, crafting digital messaging strategies in real-time scenarios.

Case Studies: Real-world analyses of successful (and failed) digital diplomacy campaigns illustrate best practices and pitfalls.

Mentorship and Peer Review: Learning is enhanced through feedback from experienced practitioners and collaborative peer assessments. [21]

E. C. Assessment and Continuous Development

Assessments include rhetorical analysis, campaign pitches, and performance evaluations using hypothetical engagement metrics. Training programs must also evolve with emerging technologies such as AI, AR, and new social media trends. [26]

Best Practices for Training Design:

– Combine theory and practice

– Foster teamwork

– Emphasize cultural adaptability

– Utilize data for communication strategy refinement

VI. CONCLUSION

Digital platforms have become indispensable in modern diplomacy, reshaping the methods by which states engage with the global community. Through digital rhetoric, diplomats can promote national interests, build relationships, counter misinformation, and enhance transparency. However, the digital landscape is also fraught with risks—ranging from cyber threats to cultural miscommunication.

To meet the demands of this new era, diplomats must master digital rhetorical strategies rooted in ethos, pathos, and logos while actively engaging audiences and leveraging analytics. Integrating these skills into formal diplomatic training programs ensures that the next generation of diplomats is prepared for the complexities of digital discourse.

In a world where influence is often measured by online presence and narrative control, diplomacy must continue to adapt—harnessing the power of digital platforms not just to communicate, but to connect, persuade, and lead.

REFERENCES:

[1] Adler E, Pouliot V (2011) International practices. International Theory 3(1): 1–36.

[2] Alesina, A., Tabellini, G. (2007) Bureaucrats or politicians? Part I: A single policy task. American Economic Review 97(1): 169–179.

[3] Aristotle. (2007). Rhetoric. (G. A. Kennedy, Trans.). Oxford: Oxford University Press. (pp. 37–65)

[4] Barnett, M., Finnemore, M. (2004) Rules for the World: International Organizations in Global Politics. Ithaca and London: Cornell University Press.

[5] Bayram, A.B., Ta, V.P. (2019) Diplomatic chameleons. Negotiation and Conflict Management Research 12(1): 23–40.

[6] Bearce, D.H., Bondanella, S. (2007) Intergovernmental organizations, socialization, and member-state interest convergence. International Organization 61(4): 703–733.

[7] Berridge, G.R., James, A. (2003) A Dictionary of Diplomacy (2nd edn). Basingstoke: Palgrave Macmillan.

[8] Bhatia, V. K. (1993). Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. London: Routledge. (pp. 97–123)

[9] Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press. (pp. 56–110).

[10] Eckhard, S., Jorn, E. (2016) International bureaucracies and their influence on policymaking: A review of empirical evidence. Journal of European Public Policy 23(7): 960–978.

[11] Eggins, S. (2004). An introduction to systemic functional linguistics (2nd ed.). Continuum International Publishing Group.

[12] Finnemore, M. (1996) Norms, culture, and world politics: Insight from sociology’s institutionalism. International Organization 50(2): 325–347.

[13] Finnemore, M., Sikkink, K. (2001) Taking stock: The constructivist research program in international relations and comparative politics. Annual Review of Political Science 4(1): 391--416.

[14] Firbas, J. (1992). Functional sentence perspective in written and spoken communication. Cambridge University Press.

[15] Friedrich, P. (2016). World Englishes and peace linguistics: Their contribution to English for diplomatic purposes. In P. Friedrich (Ed.), English for Diplomatic Purposes. Short Run Press Ltd.

[16] Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics (Vol. 3, pp. 41–58). New York: Academic Press.

[17] Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. New York: Anchor Books. (pp. 84–112)

[18] Herriman, J. (2011). Themes and theme progression in Swedish advanced learners’ writing in English. Nordic Journal of English Studies, 10(1), 1–28.

[19] Hofstede, G. (1984). Culture's Consequences: International Differences in Work-Related Values. SAGE Publications. (pp. 45–70)

[20] Jacobson, H.K. (1967) Deriving data from delegates to international assemblies: A research note. International Organization 21(3): 592–613.

[21] Jing, W. (2015). Theme and thematic progression in English writing teaching. Journal of Education and Practice, 6(21), 178–187.

[22] Jordan, A., Tuman, J.P. (2018) Explaining expulsions of U.S. diplomatic personnel from Latin America, 1991–2016. Latin American Public 9(2): 238–257.

[23] Nations. London: Palgrave Macmillan, pp. 75–93.

[24] Kennedy, G. A. (1991). Aristotle on Rhetoric: A Theory of Civic Discourse. New York: Oxford University Press. (pp. 37–65)

[25] Keohane, R.O. (1969) Institutionalization in the United Nations General Assembly. International Organization 23(4): 859–896.

[26] Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. (pp. 3–27)

[27] Lebovic, J., Saunders, E. (2016) The diplomatic core: The determinants of high-level US diplomatic visits, 1946–2010. International Studies Quarterly 60(1): 107–123.

[28] Mattern, J. B. (2005). Why 'Soft Power' Isn't So Soft: Representational Force and the Sociolinguistic Construction of Attraction in World Politics. Millennium: Journal of International Studies, 33(3), 583–612.

FIZIK MASALALARNI AVTOMATLASHTIRISH JARAYONIDA MATEMATIK MODELLAR, DASTURIY VOSITALAR VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

line 1: Nazirov Kamoliddin Xusnitdinovich
line 2: assistent
(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU)
line 4: Toshkent, O‘zbekiston
line 5: nazirov@tuit.uz

line 1: Jumanov Anvar Alisherovich
o‘qituvchi
(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyi)
line 4: Toshkent, O‘zbekiston
line 5: anvar_jumanov@gmail.com

line 1: Axmadov Majidjon Ashraf o‘g‘li
assistent
(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU)
line 4: Toshkent, O‘zbekiston
line 5: m.axmadov@tuit.uz

***Abstract*— Mazkur maqolada fizik masalalarni avtomatlashtirish jarayoni bosqichlari keng tahlil qilinadi. Avtomatlashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida matematik modellashtirish, algoritm ishlab chiqish, dasturiy modellashtirish, hisoblashni avtomatlashtirish, natijalarni vizualizatsiya qilish va sun’iy intellekt integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Har bir bosqichning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi qo‘llanilishi hamda kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi. MATLAB va Python kabi dasturiy vositalarning imkoniyatlari, shuningdek mashinaviy o‘rganish algoritmlarining afzalliklari misollar bilan asoslanadi. Tadqiqot natijalari fizika ta’limini zamonaviy darajaga olib chiqish va ilmiy izlanishlarda samaradorlikni oshirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.**

Keywords*— *avtomatlashtirish, matematik modellashtirish, dasturiy vositalar, sun’iy intellekt, vizualizatsiya, fizika masalalari.

XXXII. INTRODUCTION (*HEADING 1*)

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar sohasida avtomatlashtirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Xususan, fizika fanida murakkab masalalarni an’anaviy usullarda qo‘l mehnati bilan yechish ko‘plab vaqt va kuch talab qiladi, natijada ta’lim jarayonida samaradorlik pasayadi. Shu sababli fizika masalalarini avtomatlashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylanib, nafaqat o‘quv jarayonida, balki ilmiy-tadqiqot va sanoat sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Avtomatlashtirish jarayoni bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi: matematik modellashtirish, algoritm ishlab chiqish, dasturiy modellashtirish, hisoblashni avtomatlashtirish, natijalarni vizualizatsiya qilish va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish [1,2,3]. Har bir bosqich jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi va ularning uyg‘unlashuvi natijada samarali ilmiy yechimga olib keladi. Mazkur maqola aynan ushbu bosqichlarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga, ularning ta’lim va ilmiy faoliyatdagi ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Fizik masalalarni avtomatlashtirish jarayoni zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Bugungi kunda fizika fanini o‘qitish, uni ilmiy tadqiqotlarda qo‘llash va ishlab chiqarishdagi real jarayonlarni modellashtirishda avtomatlashtirilgan yondashuvsizlikni tasavvur qilish qiyin [4-5]. Chunki fizika qonunlari murakkab matematik tenglamalar bilan ifodalanadi, ularni qo‘l mehnati bilan yechish esa katta vaqt va resurs talab etadi. Ayniqsa, murakkab tizimlarni tahlil qilish, ko‘p parametrli modellarni ishlab chiqish va real sharoitlarga moslashtirishda insoniy omil ko‘plab cheklovlarga ega. Shu bois fizika masalalarini avtomatlashtirish zarurati ilmiy hamjamiyat va ta’lim muassasalarida tobora ortib bormoqda [6,7,8,9]. Avtomatlashtirish deganda faqatgina kompyuter dasturlarida hisob-kitob qilish emas, balki masalani to‘liq yechish jarayonini bosqichma-bosqich tizimlashtirish nazarda tutiladi. Bu bosqichlar matematik modellashtirish, algoritm ishlab chiqish, dasturiy modellashtirish, hisoblashni avtomatlashtirish, natijalarni vizualizatsiya qilish va sun’iy intellekt integratsiyasini o‘z ichiga oladi. Har bir bosqich o‘ziga xos vazifani bajaradi va ularning

uyg‘unlashuvi butun jarayon samaradorligini belgilaydi.

Jarayonning birinchi va eng muhim bosqichi bu matematik modellashtirishdir. Fizik hodisalarni matematik shaklga keltirmasdan turib ularni avtomatlashtirish mumkin emas. Chunki kompyuter uchun masalaning aniq formulasi va matematik ifodasi zarur. Matematik modellashtirishda fizik qonunlar asos qilib olinadi, ular orasidagi bog‘lanishlar tenglamalar ko‘rinishida yoziladi. Masalan, mexanikadagi Nyutonning ikkinchi qonuni $F = m \cdot a$ ko‘plab jarayonlarni ifodalashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Elektr zanjirlarda Kirxgof qonunlari, issiqlik o‘tkazishda Fourier qonuni, elektromagnit maydonlarda esa Maksvell tenglamalari model sifatida ishlatiladi. Modellashtirish jarayonida shuningdek, chegaraviy va boshlang‘ich shartlar aniqlanadi, bu esa masalani real sharoitlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Masalan, aylanma harakat dinamikasida inertsiya momenti va aylanish momenti orasidagi bog‘lanish $M = J \cdot \varepsilon$ tenglamasi orqali ifodalanadi, bu tenglama keyinchalik kompyuter dasturlarida asosiy model bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich algoritm ishlab chiqishdir. Matematik model tayyor bo‘lgach, uni yechish uchun aniq yo‘l tanlash lozim bo‘ladi. Algoritm — bu bosqichma-bosqich bajariladigan amallar ketma-ketligi bo‘lib, u natijaga qanday erishilishini belgilaydi. Fizik masalalarda ba’zan analitik yechim mavjud bo‘ladi, ba’zan esa faqat sonli usullar orqali natija olinadi. Masalan, oddiy differensial tenglamalar ko‘pincha analitik shaklda yechiladi, biroq ko‘p parametrli, nolinear tizimlarda faqat sonli usullar qo‘llanilishi mumkin. Shu sababli, masalani yechish uchun Eyler usuli, Runge-Kutta usullari, iteratsion metodlar, matritsali yechimlar yoki optimallashtirish algoritmlari tanlanadi. Algoritm ishlab chiqishda uning aniqligi, tezligi va barqarorligi muhim hisoblanadi. Masalan, sonli usullarda qadam uzunligi juda katta tanlansa, natija aniq chiqmaydi, juda kichik tanlansa esa hisoblash juda ko‘p vaqt oladi. Shu bois optimal algoritm tanlash jarayoni muhim bosqich hisoblanadi.

Keyingi bosqich dasturiy modellashtirishdir. Matematik model va ishlab chiqilgan algoritm endi dasturiy kodga aylantiriladi. Bu bosqichda MATLAB, Python, Maple kabi dasturiy muhitlar keng qo‘llaniladi. MATLAB matematik hisob-kitoblar, matritsalar bilan ishlash, grafik chizish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Python esa bugungi kunda eng mashhur dasturlash tillaridan biri bo‘lib, ochiq manbali, bepul va juda ko‘p kutubxonalarga ega. Masalan, NumPy kutubxonasi sonli hisoblashlar uchun, SymPy ramziy hisoblashlar uchun, Matplotlib esa grafik vizualizatsiya uchun juda qulay. Maple dasturi esa analitik yechimlarni olish, tenglamalarni ramziy shaklda yechish va ularni chiroyli matematik ifodalar ko‘rinishida taqdim etishda keng qo‘llaniladi. Dasturiy modellashtirishda kodning optimalligi, tushunarli yozilishi va tezkor ishlashi muhim omillardan hisoblanadi.

Hisoblashni avtomatlashtirish bosqichi dasturiy modellashtirishdan keyin keladi [10]. Bu bosqichda foydalanuvchi faqat dasturga boshlang‘ich parametrlarni kiritadi, natijalar esa avtomatik tarzda hisoblanib chiqadi [11,12,13,14,15]. Masalan, aylanish dinamikasida massa, radius va burchak tezlanish qiymatlari berilganda, dastur inertsiya momenti va aylanish momentini darhol hisoblab beradi. Agar foydalanuvchi parametrlarni o‘zgartirsa, natijalar ham shunga mos ravishda qayta hisoblanadi. Bu inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va hisoblash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Ayniqsa, ko‘plab variantlarni tekshirish talab etiladigan hollarda bu bosqichning samarasi juda yuqori bo‘ladi.

Natijalarni vizualizatsiya qilish bosqichi ham



Fizik masalalarni avtomatlashtirish jarayoni

jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Chunki olingan natijalarni faqat sonli qiymatlar shaklida taqdim etish talabalar va tadqiqotchilar uchun ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Natijalarni grafiklar, jadvallar yoki animatsiyalar orqali ko‘rsatish esa ularni tushunishni osonlashtiradi, tahlil qilish imkonini beradi va ta’lim jarayonida motivatsiyani oshiradi. Masalan, aylanish momentining burchak

tezlanishga bog‘liqligi grafik ko‘rinishda chizilganda, uning to‘g‘ri chiziqli proportsionalligi yaqqol ko‘rinadi. Yoki tebranish jarayonini animatsiya orqali ko‘rsatish talabalar uchun tajriba natijasini virtual kuzatish imkonini beradi. Natijalarni vizualizatsiya qilish ilmiy maqolalarda ham muhim o‘rin tutadi, chunki grafiklar va diagrammalar yordamida murakkab natijalarni qisqa va aniq ko‘rsatish mumkin.

Jarayonning eng zamonaviy va istiqbolli bosqichi bu sun’iy intellekt integratsiyasidir. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari hisoblash jarayonlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, neyron tarmoqlar yordamida turli shakldagi jismlarning inertsiya momentlarini tezkor aniqlash mumkin. Bunda dastlab ko‘plab misollar yordamida model o‘qitiladi, keyin yangi parametrlar kiritilganda natija juda tez va aniq chiqadi. Sun’iy intellekt shuningdek, talabalar tomonidan bajarilgan masalalarni avtomatik baholash, xatolarni aniqlash va ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda ham qo‘llaniladi. Mashinaviy o‘rganish yordamida natijalarni optimallashtirish, prognoz qilish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash mumkin. Bu esa fizika fanida ilmiy-tadqiqot ishlarini sezilarli darajada tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Shu tarzda fizika masalalarini avtomatlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va ularning har biri umumiy natija uchun muhim ahamiyatga ega. Matematik modellashtirish asosiy poydevor bo‘lsa, algoritm ishlab chiqish jarayonni yo‘lga qo‘yadi, dasturiy modellashtirish uni kompyuter muhitiga olib chiqadi, hisoblashni avtomatlashtirish natijalarni tezlashtiradi, vizualizatsiya jarayonni tushunarli qiladi, sun’iy intellekt esa butun jarayonni yanada samarali va ilg‘or qiladi. Bu yondashuv nafaqat ta’lim tizimida, balki ilmiy tadqiqotlarda, sanoatda va ishlab chiqarishda ham keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, fizika masalalarini avtomatlashtirish jarayoni bugungi kunda zamonaviy fan va texnologiyaning ajralmas qismiga aylangan. U talabalarga bilimlarni samarali o‘zlashtirishda yordam beradi, o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradi, ilmiy-tadqiqot ishlarini tezlashtiradi va sanoatda murakkab jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Har bir bosqichning o‘z vazifasi va o‘rni mavjud bo‘lib, ularning uyg‘unlashuvi natijani mukammal qiladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi kelajakda fizika ta’limi va ilm-fanida mutlaqo yangi ufqlarni ochib berishi shubhasiz.

REFERENCES

[1] Breck, D. W. (1974). Zeolite Molecular Sieves: Structure, Chemistry, and Use. New York: Wiley.

[2] Chapra, S. C., Canale, R. P. (2015). Numerical Methods for Engineers. New York: McGraw-Hill Education.

[3] Kreyszig, E. (2011). Advanced Engineering Mathematics. Hoboken: Wiley.

[4] MathWorks. (2023). MATLAB Documentation. MathWorks Inc.

[5] Oliphant, T. E. (2015). Guide to NumPy. Continuum Press.

[6] Downey, A. (2016). Think Python: How to Think Like a Computer Scientist. Green Tea Press.

[7] Axmadov, M., Asfandyorov, M. (2023). Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o‘qitish. Markaziy Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2(10), 90–92.

[8] Karimov, X. N., Asfandyorov, M. M., Ahmadov, M. A. (2023). Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o‘qitishini rivojlantirish. Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi materiallari to‘plami, 113-bet.

[9] Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

[10] Bishop, C. M. (2006). Pattern Recognition and Machine Learning. Springer.

[11] Press, W. H., Teukolsky, S. A., Vetterling, W. T., Flannery, B. P. (2007). Numerical Recipes: The Art of Scientific Computing. Cambridge University Press.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022). “Raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent.

[13] Raxmatullaeva, M., Ahmadov, M. (2025). Fizika va kimyo fanlarini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvlar. Interpretation and researches, №4 (50).

[14] Nazirov, K., Ahmadov, M., Alimov, A. (2025). Fizika fanini fanlararo bog‘lanish asosida o‘qitishda kimyo fanining o‘rni. Talqin va tadqiqotlar, №1 (59).

[15] Karimov, X., Djalalov, T., Ochilova, O., Ahmadov, M. (2025). Fizikadan laboratoriya ishlarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish. Interpretation and researches, 9(55-1).

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA KENGAYTIRILGAN REALLIK VA GOLOGRAMMA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

1st Nuraliev Fakhriddin
Televizion va media texnologiyalar kafedrasi mudiri
Tashkent University of Information Technologies Named after Muhammad Al-Khwarizmi
Tashkent, Uzbekistan
0009-0003-9760-3712

2nd Xolmırzayeva Azıza
Axborot tizimlari muhandisligi talabası
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
Samarqand, O‘zbekiston
turkkoluaziza@gmail.com

3rd Obuxov Vadim
Kompyuter muhandisligi va suniy intellekt kafedrasi assistent
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Farg‘ona, O‘zbekiston
0009-0003-9760-3712

4rd Giyosov Ulugbek
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Samarqand, Uzbekistan
0000-0002-9419-5392

Abstract: Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan — kengaytirilgan reallik (AR) va gologramma texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida AR ilovalari hamda 3D golografik vizualizatsiyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion dars modullari ta’lim amaliyotida sinovdan o‘tkazildi. Maqolada AR va gologrammalarning o‘quvchilarning mavzuni anglash darajasi, darsga bo‘lgan qiziqishi va o‘quv faoliyatiga jalb qilinishiga qanday ta’sir ko‘rsatgani raqamli tahlillar yordamida batafsil yoritilgan. Olingan natijalar ushbu texnologiyalar orqali o‘qitish samaradorligini sezilarli oshirish, murakkab matematik tushunchalarni osonroq vizual tarzda tushuntirish, shuningdek, ta’lim jarayonini interaktivlashtirish imkoniyatini berishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, kengaytirilgan reallik va gologramma vositalarining o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi, ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ham ilmiy asosda isbotlab berdi.

Keywords: matematika, kengaytirilgan reallik, gologramma, innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar, o‘quv samaradorligi

XXXIII. KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirish, ularni mustaqil fikrlashga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, an’anaviy o‘quv uslublarida qiyinchilik tug‘diradigan murakkab tushunchalarni oson va tushunarli qilib yetkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Matematika fani aynan shunday fanlardan biri bo‘lib, ko‘plab mavzular abstrakt va tasavvur qilish qiyin bo‘lgan tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bunday sharoitda kengaytirilgan reallik (Augmented Reality – AR) va gologramma texnologiyalari matematika ta’limini jonlantirish, uni interaktiv, ko‘rgazmali va qiziqarli qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kengaytirilgan reallik vositalari yordamida o‘quvchilar murakkab matematik obyektlarni real makon bilan uyg‘unlashtirib ko‘rishlari, golografik tasvirlar esa mavzularni 3D ko‘rinishda namoyish etish orqali o‘quvchilarda chuqurroq tushuncha shakllanishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishda AR va gologramma texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida ushbu texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan o‘quv modullarining o‘quvchilarning bilim darajasi, darsdagi faolligi hamda mavzuni anglash qobiliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, an’anaviy dars uslublari bilan taqqoslab, AR va gologramma texnologiyalarining afzalliklari ham ko‘rib chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi — matematika fanini o‘qitishda kengaytirilgan reallik va gologramma texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlash va ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan holatdagi ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

XXXIV. METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda matematika fanini o‘qitish jarayonida kengaytirilgan reallik (AR) va gologramma texnologiyalarining samaradorligini baholash maqsadida eksperimental yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni

kvazi-eksperimental uslubga asoslangan bo‘lib, ikki guruh (eksperimental va nazorat) o‘rtasidagi taqqoslashga tayanadi.

1-rasm. Darslarda VR qo‘llash

Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatidagi uchta umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Har bir maktabdan 2 ta sinf tanlab olindi: biri nazorat guruhi, ikkinchisi esa eksperimental guruh sifatida belgilandi. Eksperimental guruhga AR ilovalari va gologrаfik qurilmalar asosida tayyorlangan vizual dars materiallari taqdim etildi. Nazorat guruhi esa odatdagi an’anaviy metodikalar asosida ta’lim oldi.

Eksperimental darslar uchun “GeoGebra AR”, “Merge Cube” va “HoloLens 2” kabi kengaytirilgan reallik ilovalari va qurilmalardan foydalanildi [3], [6]. Gologrаfik tasvirlar 3D grafik muhitda ishlab chiqildi va dars mavzulariga moslashtirildi. Darslar “Kasrlar ustida amallar”, “Ko‘p o‘lchamli figuralar” va “Grafiklar bilan ishlash” kabi mavzularni o‘z ichiga oldi.



2-rasm. Hexagonal pyramid

Har bir dars ikki bosqichdan iborat bo‘ldi:

- Vizualizatsiya bosqichi — mavzuga oid AR yoki gologrammalar orqali tushuntirishlar berildi.
- Amaliy bosqich — o‘quvchilar maxsus topshiriqlar va savol-javoblar orqali mavzuni mustahkamlashdi.

Tadqiqotda bir necha turdagi ma’lumotlar yig‘ildi:

- Test natijalari — har ikkala guruhga dars oldidan va darsdan so‘ng testlar o‘tkazildi. Bu orqali bilim darajasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi [2], [5].
- So‘rovnoma — eksperimental guruh o‘quvchilariga AR va gologrammalar bo‘yicha psixologik va motivatsion ta’sirini baholovchi 15 ta savoldan iborat so‘rovnoma tarqatildi [7].
- Kuzatuv — har bir dars davomida o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning faol ishtirok etish darajasi va texnologiyalarga bo‘lgan munosabat kuzatildi [1], [9].
- Intervyu-sinf o‘qituvchilari bilan o‘tkazilgan intervyular orqali texnologik yechimlarning amaliyotga tatbiqi va qulayligi tahlil qilindi [8].

Yig‘ilgan ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida tahlil qilindi. Test natijalarining statistik o‘zgarishi t-test usuli bilan baholandi. So‘rovnoma va intervyu natijalari esa kontent-tahlil metodi yordamida umumlashtirildi [4], [10].

Metodologik yondashuv, eksperiment dizayni va tahlil usullari maqola natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu metodologiya matematika fanini o‘qitishda kengaytirilgan reallik va gologrammalarning haqiqiy samaradorligini ko‘rsatish imkonini beradi.

Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining neyrokognitiv asoslari va matematik ta’limdagi ta’siri

Zamonaviy neyroilm tadqiqotlari kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining matematik ta’limga ta’sirini miyaning biologik jarayonlari darajasida tushuntirish imkonini beradi. AR va virtual reallik texnologiyalari fazoviy fikrlash, vizualizatsiya, uzoq muddatli xotira, jalb qilinish va motivatsiyaning oshishini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilarning o‘rganishini yaxshilashga yordam beradi.

Neyroilm tadqiqotlariga ko‘ra, AR texnologiyalari yordamida taqdim etilgan matematik material miyaning turli qismlarini bir vaqtda faollashtiiradi. Visual-fazoviy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun mas'ul bo‘lgan occipital va parietal korteks hududlari AR muhitida matematik obyektlarni idrok etishda yuqori faollik ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, abstrakt matematik tushunchalarni konkret tasvirlarga bog‘lash jarayonini osonlashtiradi.

Kognitiv yuklanish nazariyasi va AR texnologiyalari

Kognitiv yuklanish nazariyasiga asoslangan va foydalanuvchi-markazli yondashuvda ishlab chiqilgan AR platformalari matematik ta’limda ayniqsa samarali bo‘lmoqda. Kognitiv yuklanish nazariyasi bo‘yicha, o‘quvchilarning ish xotirasi cheklangan sig‘imga ega bo‘lib, ma’lumotlarni bir vaqtda qayta ishlash qobiliyati ham cheklangan.

AR texnologiyalari ushbu muammoni hal qilishda quyidagi yo‘llar bilan yordam beradi:

- Ichki kognitiv yuklanishni kamaytirish - murakkab matematik tushunchalarni vizual elementlar yordamida soddalashtirish
- Tashqi kognitiv yuklanishni optimallashtirish - ortiqcha ma’lumotlarni yo‘q qilish va muhim elementlarga e'tiborni qaratish
- O‘quv kognitiv yuklanishini oshirish - yangi bilimlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan aqliy jarayonlarni kuchaytirish

Fazoviy fikrlash va geometriya o‘qitish

AR texnologiyalari geometrik obyektlarni vizualizatsiya qilish orqali matematik o‘rganishni

kuchaytirishi mumkin. Fazoviy fikrlash qobiliyati matematik muvaffaqiyatning muhim prediktorlaridan biri hisoblanadi. AR muhitida o‘quvchilar:

- Uch o‘lchamli shakllarni turli burchaklardan ko‘rish
- Geometrik transformatsiyalarni real vaqtda kuzatish
- Murakkab fazoviy munosabatlarni tushunish
- Mental rotatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda miyaning fazoviy ma’lumotlarni qayta ishlashdan mas'ul bo‘lgan hududlari faol ishtirok etadi, natijada geometriyaga oid tushunchalar chuqurroq o‘zlashtriladi.

Zamonaviy AR platformalari va matematik ta’lim

2024-2025 yillardagi so‘nggi tadqiqotlar AR texnologiyalarining matematik ta’limdagi qo‘llanilishi yangi bosqichga o‘tganini ko‘rsatmoqda. EDU-MAT COPERNICUS kabi innovatsion ta’lim platformalari AR ni Sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari bilan integratsiya qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika va geofan o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Narrativ asosidagi AR ta’limi

Zamonaviy AR platformalarida matematik tushunchalar hikoyalar va o‘yin elementlari orqali taqdim etilmoqda. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- O‘quvchilarning emotsional jalb qilinishi
- Motivatsiyaning oshishi
- Matematik tushunchalarning hayotiy kontekstda ko‘rsatilishi
- Interdistsiplinar yondashuvning amalga oshirilishi

Real vaqt ma’lumotlardan foydalanish

Zamonaviy AR sistemlari real vaqt ma’lumotlarini matematik masalalar bilan birlashtiradi. Masalan, ob-havo ma’lumotlari statistika darslarida, geografik ma’lumotlar koordinata tizimi o‘rganishda qo‘llanilmoqda. Bu o‘quvchilarga matematikaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi va fanlararo aloqalarni mustahkamlaydi.

AR texnologiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

So‘nggi tadqiqotlar AR texnologiyalarining matematik ta’limdagi samaradorligini aniq raqamlar bilan tasdiqlamoqda. Ushbu texnologiyalarni joriy etgandan so‘ng o‘quvchilarning matematik fanlardan o‘tish darajasi 68% dan 85% gacha oshgan, shuningdek, o‘quvchilarning sinf ishtirokchiligi va matematikaga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada yaxshilangan.

Meta-tahlil natijalari

2016-2023 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqotlarning meta-tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

- AR yordami bilan ta’lim olgan o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari sezilarli darajada yuqori
- O‘quvchilarning AR-asosli ta’limga bo‘lgan munosabati ijobiy
- Uzoq muddatli xotira ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi
- Matematik tushunchalarga bo‘lgan tushunishning chuqurlashishi

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi

AR texnologiyalari yordami bilan o‘qitishning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik fandagi tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri alohida o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, AR muhitida matematik masalalar bilan ishlash:

- Analitik fikrlashni rivojlantiradi
- Muammolarni hal qilish strategiyalarini diversifikatsiya qiladi
- Hipotezalarni tekshirish ko‘nikmalarini shakllantiiradi
- Matematik dalillar bilan ishlash qobiliyatini oshiradi

Madaniy kontekst va AR texnologiyalari

AR va VR vositalarini madaniy javobgar pedagogikalar orqali matematik ta’limda qo‘llanish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Turli madaniy muhitlarda o‘qiyotgan o‘quvchilar uchun AR texnologiyalarini moslashtiirish quyidagi jihatlarni hisobga olishni talab qiladi:

Madaniy adaptatsiya

- Mahalliy matematik an'analarni AR muhitiga kiritish
- O‘zbek matematik olimlarining yutuqlarini AR orqali namoyish etish
- Milliy ornamentlar va naqshlardan geometriya darslarida foydalanish
- Mahalliy kontekst va masalalarni AR tasvirlariga kiritish

Til va kommunikatsiya xususiyatlari

AR interfeyslari o‘zbek tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘ng-chapdan yozilish yo‘nalishi
- Matematik terminlarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari
- Audio qo‘llab-quvvatlash va ovozli tushuntirishlar
- Madaniy kontekstga mos keluvchi tasviriy elementlar

Texnik infratuzilma va joriy etish strategiyalari

AR texnologiyalarini maktablarda samarali qo‘llash uchun quyidagi texnik shartlar ta’minlanishi zarur:

- Yuqori o‘tkazuvchanlikka ega internet aloqasi (kamida 50 Mbps)
- Zamonaviy mobil qurilmalar (ARCore/ARKit qo‘llab-quvvatlovchi)
- Bulutli hisoblash xizmatlariga kirish imkoniyati
- Ma’lumotlarni saqlash uchun yetarli xotira hajmi

Kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari

Sun’iy intellekt va AR integratsiyasi

Kelajakda AR texnologiyalari Sun’iy intellekt algoritmlari bilan birlashtirilib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan matematik ta’lim muhiti yaratiladi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Adaptiv o‘rganish algoritmlari
- O‘quvchi harakatlarini real vaqtda tahlil qilish
- Individual o‘rganish traektoriyalarini yaratish
- Xatolarni aniqlash va tuzatish tizimlari

Kvant hisoblash va AR

Kvant hisoblash texnologiyalarining rivojlanishi AR ga asoslangan matematik ta’lim tizimlarida yangi imkoniyatlar ochadi:

- Murakkab matematik modellarni real vaqtda hisoblash
- Yuqori aniqlikdagi 3D vizualizatsiya
- Ko‘p o‘lchamli ma’lumotlarni qayta ishlash
- Katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish

XXXV. NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar kengaytirilgan reallik va gologramma texnologiyalarining matematika fanini o‘qitish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida olib borilgan taqqoslash asosida quyidagi asosiy farqlar aniqlangan:

Avvalo, test sinovlari orqali o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi o‘lchandi. Eksperiment oldidan har ikki guruh o‘quvchilari o‘rtacha 100 ballik tizimda taxminan 48–52 ball to‘plashdi. Darslar tugagach, nazorat guruhining o‘rtacha natijasi 63 ballga oshgan bo‘lsa, eksperimental guruhda bu ko‘rsatkich 82 ballga yetdi. Bu esa kengaytirilgan reallik va golografik vizualizatsiya orqali tushunchalarni yanada aniq va esda qolarli tarzda tushuntirish imkonini berganligini anglatadi [3], [5].

3-rasm. VR va AR texnologiyalari

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa geometriya, koordinata tekisligi va uch o‘lchamli shakllarni tasavvur qilishda AR ilovalari va gologrammalar o‘quvchilarga katta yordam berdi. “Merge Cube” va “GeoGebra AR” dasturlari yordamida shakllarni aylantirish, tilimlash va bo‘laklash amaliyotlari orqali o‘quvchilar mavzuni jonli tajriba asosida o‘zlashtirishdi [6].

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, eksperimental guruh o‘quvchilari dars jarayonida yuqori darajadagi faollik namoyon etdilar. Ularning 78 foizi dars davomida savolga javob berdi yoki mustaqil ishlarda qatnashdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 52 foizni tashkil etdi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Darsdan keyingi so‘rovnomada eksperimental guruh o‘quvchilarining 88 foizi kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan darslarni yoqimli va qiziqarli deb topdi [7].

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha, o‘quvchilarning 83 foizi “AR texnologiyalari mavzuni tushunishni yengillashtirdi” degan fikrni bildirgan. 76 foizi esa “agar boshqa fanlarda ham shunday texnologiyalar bo‘lsa, men ko‘proq o‘rganishga harakat qilardim” deya ijobiy javob qaytargan. Bu esa AR va gologrammalar o‘quvchilarda mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytirishini ko‘rsatadi [1], [4].

Intervyular orqali olingan natijalarga ko‘ra, tajriba ishtirokchisi bo‘lgan matematika o‘qituvchilari yangi texnologiyalarning dars o‘tish jarayonini soddalashtirishi, ayniqsa murakkab tushunchalarni oddiy va aniq ko‘rsatishda yordami katta ekanligini ta’kidlashgan. Ba’zilar esa bu texnologiyalar yordamida darslar interaktiv va zamonaviy bo‘lishi sababli o‘quvchilarda ijobiy kayfiyat shakllanishini alohida ta’kidladilar [8].

Yuqoridagi natijalar asosida aytish mumkinki, kengaytirilgan reallik va gologrammalar matematika ta’limida o‘quvchining vizual idroki va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda sezilarli ta’sirga ega. Mazkur texnologiyalar orqali o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirishda nafaqat bilim olish, balki uni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshiradi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantiradi [2], [9].

Tahlil natijalariga asoslanib, AR va gologramma texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilishi ta’lim jarayonini raqamlashtirish bilan birga, uni interaktiv va samarali holga keltirishga xizmat qiladi. Shu sababli, matematika fani bo‘yicha pedagoglar va maktab rahbarlariga bunday texnologik yondashuvlarni sinfga tatbiq etishni tavsiya etish mumkin [10].

XXXVI. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari asosida aniqlangan dalillar kengaytirilgan reallik (AR) va gologramma texnologiyalarining matematika ta’limiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Bu texnologiyalar orqali ta’lim jarayonining interaktivligi, tushunarliligi va o‘quvchilarni jalb qilish darajasi ortgan. Muhokama bo‘limida ushbu natijalarning chuqur tahlili, ularning boshqa ilmiy manbalar bilan taqqoslanishi va umumiy xulosalar keltiriladi.

Avvalo, o‘quvchilar tomonidan AR va golografik texnologiyalar yordamida o‘rganilgan mavzular an’anaviy usullarga nisbatan tezroq va samaraliroq o‘zlashtirilgani kuzatildi. Bu natijalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda ham qayd etilgan. Jumladan, A. Karimov va X. Usmonovlarning tadqiqotlarida AR texnologiyalarining fazoviy tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirishda va ularni o‘quv jarayoniga jalb qilishda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi [3].

Bizning tadqiqotda olingan so‘rovnoma va test natijalari orqali AR texnologiyalarining darsni tushunishga va eslab qolishga bo‘lgan ta’siri tasdiqlandi. Shu bilan

birga, ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda ham, xususan, P. Milgram va F. Kishino tomonidan ishlab chiqilgan “reallik-kengaytma kontinuumi” modelida, o‘quv jarayonida virtual elementlarning mavjudligi o‘quvchining diqqatini jamlash va bilimni chuqurroq egallashiga yordam berishi ko‘rsatilgan [4].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, AR va gologrаfik qurilmalar o‘quvchilarga murakkab matematik formulalarni vizual ko‘rinishda idrok etish imkoniyatini yaratadi. Bu jihat ayniqsa geometriya, statistik grafiklar va algebraik funksiyalarni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Bunga o‘xshash xulosani S.Akramovning ishida ham uchratish mumkin, u o‘z tadqiqotida AR yordamida o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiya va qiziqishning oshganini ko‘rsatgan [2].

Biroq, ushbu texnologiyalarni ta’limga joriy etishda ba’zi muammolar mavjud. Jumladan, ayrim maktablarda texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, AR qurilmalarining yuqori narxi va o‘qituvchilarning yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emasligi, bu texnologiyalarning keng joriy qilinishiga to‘sqinlik qilmoqda [5]. Bu holat boshqa ilmiy manbalarda ham ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, J. Lee va R. Billinghurst tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda texnologik resurslar bilan ta’minot darajasi o‘qitish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan [6].

Shunga qaramay, tajriba davomida o‘qituvchilarning fikrlari AR texnologiyalarining samaradorligi haqida ijobiy bo‘ldi. Ularning ta’kidlashicha, bu vositalar yordamida darslar yanada jonli, interaktiv va zamonaviy bo‘lib qoladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va jamoaviy ishlarga jalb qilishda AR texnologiyalarining ahamiyati katta [7].

o‘quvchilarga katta yordam beradi, tushunishni osonlashtiradi va vizual idrokni kuchaytiradi [1], [3].
AR va gologrаfik vositalar orqali taqdim etilgan ta’limiy kontent o‘quvchilarda yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Tajriba natijalarida bu holat test va so‘rovnomalar orqali aniqlandi. Natijalar shuni tasdiqladiki, ushbu texnologiyalar an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ko‘proq e’tibor va yodda saqlash samaradorligini ta’minlaydi [4], [6].
Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan ham bu texnologiyalarga bo‘lgan munosabat ijobiy bo‘lib, ular ushbu vositalarning ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini yuqori baholadilar. Bu holat kelajakda AR texnologiyalarini ta’lim tizimiga keng miqyosda joriy etish uchun asos bo‘la oladi. Biroq, texnologiyalarni to‘liq joriy etishda texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning malaka yetishmovchiligi kabi bir qancha muammolar ham mavjud [5], [8].
Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Kengaytirilgan reallik va gologramma texnologiyalari matematika ta’limida samaradorlikni oshiradi va zamonaviy o‘quv yondashuvlarini rivojlantiradi;
- Bu texnologiyalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi [2], [7];
- AR vositalaridan foydalanishda texnik va pedagogik infratuzilmani kuchaytirish, xususan, o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish zarur [8], [9];
- Davlat miqyosida raqamli ta’lim strategiyalariga ushbu texnologiyalarni kiritish, ayniqsa chekka hududlardagi maktablarni texnik jihozlash orqali teng imkoniyatlar yaratish muhim [10].

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlanganki, AR texnologiyalarini o‘qituvchilar orasida ommalashtirish uchun malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar o‘tkazish lozim. Bu masalaga E. Bekmurodov o‘z maqolasida to‘xtalib, texnologiyalarni joriy etishda inson resurslarini tayyorlash va texnik qo‘llab-quvvatlash muhimligini alohida urg‘ulagan [8].

Shuningdek, bu texnologiyalar faqatgina shahar maktablarida emas, balki qishloq hududlaridagi ta’lim muassasalarida ham joriy qilinishi kerak. Bunda davlat dasturlari, xususan, raqamli ta’lim konsepsiyasi doirasida infratuzilmani yangilash va texnik vositalar bilan ta’minlash zarur [9].

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot kengaytirilgan reallik va gologramma texnologiyalarining matematika ta’limiga samarali integratsiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu texnologiyalar zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralishi va kelajakda barcha bosqichlardagi ta’lim muassasalarida keng tatbiq etilishi lozim. Ularning o‘quvchilarni motivatsiyalash, chuqur bilim berish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir [10].

XXXVII. Xulosa

Ushbu ilmiy maqolada matematika fanini o‘qitishda kengaytirilgan reallik (AR) va gologramma texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va natijalari chuqur o‘rganildi. O‘tkazilgan tajriba va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ular ayniqsa murakkab mavzularni o‘zlashtirishda

Xulosa qilib aytganda, kengaytirilgan reallik va gologramma texnologiyalari zamonaviy ta’limda yangi bosqichni boshlab berdi. Ular nafaqat matematika, balki boshqa fanlar bo‘yicha ham ta’lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu texnologiyalarning samarali joriy etilishi uchun davlat, ta’lim muassasalari va mutaxassislar hamkorligida aniq strategik dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

References

[29] Abdullaeva, D. (2022). Raqamli texnologiyalar yordamida fanlarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti. Varaq: 35-42. [1]

[30] Allayarov, M. (2020). Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining ta’limdagi roli. Innovatsion Pedagogika jurnali, 3(2), 75-80. Varaq: 77-78. [2]

[31] Bekmurodov, Z. & Xamidova, N. (2021). STEM yo‘nalishida AR texnologiyalaridan foydalanish. O‘zbekiston Ta’lim Jurnali, 4(5), 110-116. Varaq: 113-114. [3]

[32] Chinorov, A. (2023). Matematika o‘qitish samaradorligini oshirishda vizual texnologiyalarning ahamiyati. Ta’lim va Texnologiyalar, 7(1), 45-51. Varaq: 48-49. [4]

[33] G‘aniyev, U. (2019). Raqamli ta’limning imkoniyatlari va muammolari. Toshkent: Oliy ta’lim markazi. Varaq: 29-34. [5]

[34] Jabborov, D. (2022). Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Ilmiy-Amaliy Jurnal, 9(3), 58-63. Varaq: 60-62. [6]

[35] Karimova, R. (2021). Gologrаfik texnologiyalar orqali o‘quv motivatsiyasini oshirish yo‘llari. Zamonaviy Ta’lim, 11(2), 22-27. Varaq: 24-25. [7]

[36] Nazarov, B. (2023). Ta’limda AR texnologiyalarini joriy etishning texnik shartlari. Innovatsion Texnologiyalar, 5(1), 87-93. Varaq: 89-90. [8]

[37] Salimov, Q. (2020). Pedagog kadrlar uchun AR platformalarda ishlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti. Varaq: 14-18. [9]

[38] Xudoyqulov, T. (2023). Maktablarda raqamli transformatsiya strategiyasi. Raqamli O‘zbekiston, 2(4), 38-44. Varaq: 40-42. [10]

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR
DIGITAL TRANSFORMATION IN THE EDUCATION SYSTEM: TRENDS, CHALLENGES AND PROSPECTS
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕНДЕНЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

[1]*Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich*
“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi mudiri, texnika fanlari doktori, professor, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: (+99871) 238-65-61
f.nuraliev@tuit.uz

[2]*Inoyatov Mirzayor Baxtiyor ug‘li*
“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi assistent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: (+99899) 841-08-10
mirzayorinoyatov1997@gmail.com

[3]*Ibodullayev Sardor Nasriddin o‘g‘li*
“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: (+99897) 383-77-17

Annotatsiya — Ushbu maqola zamonaviy ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning dolzarbligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta’lim sohasidagi raqamli innovatsiyalarning samaradorligini, ularning yutuqlari va duch kelgan muammolarini tahlil qilish, shuningdek, ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. So‘nggi besh yil ichida nashr etilgan xalqaro miqyosdagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli innovatsiyalar ta’limning sifatini oshirish, individual yondashuvni amalga oshirish va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda katta potentsialga ega. Ayniqsa, R-funksiya yordamida murakkab shakldagi obyektlarni geometrik modellashtirish texnologiyalari ta’limda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq, bu jarayon texnik infratuzilma yetishmovchiligi, pedagoglarning raqamli kompetentligining pastligi va didaktik jihatdan asoslangan kontentning yetishmasligi kabi to‘siqlar bilan hamroh bo‘lmoqda. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish va ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xulosa qilib aytganda, ta’limda raqamli o‘zgarish nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki butunlay yangi pedagogik paradigma va barqaror rivojlanish strategiyasini talab qiladi.

Kalit so‘zlar — raqamli ta’lim, ta’lim innovatsiyalari, raqamli kompetentlik, geometrik modellashtirish, R-funksiya, ta’lim texnologiyalari, aralash ta’lim.

A. *I. Kirish*

Zamonaviy jamiyatni “raqamli sivilizatsiya” deb ataladigan bo‘lsa, bu hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Ilg‘or raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga chuqur kirib borayotgani dunyoda qaror topgan tendentsiyadir [1]. Ta’limda raqamli innovatsiyalarning dolzarbligi pandemiya davrida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi, bu voqea an’anaviy ta’lim usullarining cheklovchanligini ko‘rsatib, global ta’lim tizimini favqulodda raqamlashtirishga majbur qildi [2].

Ushbu mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat texnologik jihatlarni, balki pedagogik, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni qamrab olgan kompleks hodisadir. So‘nggi besh yil ichida o‘tkazilgan tadqiqotlar sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (big data), virtual reallik (VR) va bulutli texnologiyalarning ta’limga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan [3], [4]. Ayniqsa, R-funksiya asosida murakkab geometrik shakllarni modellashtirish texnologiyalari ta’lim sohasida yangi metodologik yondashuvlarni taklif etmoqda [21]. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik tadqiqotchilar raqamli vositalarning o‘quv motivatsiyasi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirishdagi ijobiy ta’sirini qayd etishadi [5]. Biroq, innovatsiyalarning samarali integratsiyasi uchun ularning faqat ijobiy tomonlari emas, balki duch kelinadigan muammolar ham chuqur tahlil qilinishi kerak.

Ushbu maqolaning maqsadi – so‘nggi yillardagi ilmiy ishlanmalar asosida ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalarning integratsiyasi jarayonini tahlil qilish, uning imkoniyatlari va to‘siqlarini aniqlash, shuningdek,

ularni yengish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

B. II. Muammoning qo‘yilishi

Ta’lim tizimiga raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayoni bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Asosiy muammo shundaki, texnologik rivojlanish sur’ati va pedagogik jarayonlarning unga moslashish sur’ati o‘rtasida keskin nomuvozanatlik mavjud [6]. Bu nomuvozanatlik quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Pedagogik muammo:** Ba’zi o‘qituvchilar an’anaviy “tayanch-taxta” usullarga o‘rganib qolgan bo‘lib, ular yangi raqamli vositalardan foydalanishda va ularni o‘quv dasturiga organik ravishda integratsiya qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda [7].
2. **Texnik muammo:** Maktab va oliygohlarning aksariyati, ayniqsa qishloq joylarda, tezkor internet, zamonaviy kompyuterlar va maxsus dasturiy ta’minot bilan ta’minlanmagan [8].
3. **Didaktik va metodik muammo:** Raqamli resurslarning ko‘pligi ularning sifati va pedagogik asoslanganligi haqidagi savolni keltirib chiqaradi. Ko‘p hollarda, onlayn platformalar va elektron resurslar an’anaviy darsliklarning oddiy raqamli nusxasidan iborat bo‘lib, interfaollik va individual yondashuv imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmaydi [9].
4. **Psixologik va ijtimoiy muammo:** Raqamli bo‘linish (digital divide) tufayli ijtimoiy-tabaqaviy farqlar kuchayishi, shuningdek, o‘quvchilarning ko‘z salomatligi va psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [10].

Shu sababli, ushbu muammolarni tizimli yondashuv bilan o‘rganish va ularning yechimlarini ishlab chiqish dolzarbligini kasb etadi.

C. III. Tadqiqot usullari va nazariy asoslar

Ushbu tadqiqotning nazariy asosini konstruktivizm, kognitivizm va konektivizm kabi zamonaviy ta’lim nazariyalari tashkil etadi, ular bilimning faol qurilishi, axborotni qayta ishlash va tarmoqlar orqali o‘rganish tamoyillarini ta’kidlaydi [11].

Tadqiqotda **tizimli tahlil usuli** qo‘llanilib, ta’lim tizimi raqamli innovatsiyalar kontekstida butunlikda, uning tarkibiy qismlari (pedagog, o‘quvchi, mazmun, texnologiya) o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilgan. Shuningdek, **qiyosiy tahlil usuli** yordamida turli mamlakatlarning (AQSh, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya) tajribalari va ularning O‘zbekiston tizimidagi qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi. **R-funksiya usuli** yordamida murakkab geometrik shakllarning matematik modellari ishlab chiqilishi va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi imkoniyatlari o‘rganildi [21]. Ma’lumotlarni yig‘ish uchun **adabiyotlarni tahlish usuli** qo‘llanilib, 2019-2024 yillarda nashr etilgan, Scopus, Web of Science kabi nufuzli ma’lumotlar bazalariga indekslanuvchi 21 ta ilmiy maqola, monografiya va hisobotlar tahlil qilindi.

Настоящее исследование посвящено анализу зарубежных практик — прежде всего Австралии, Финляндии, Франции и США — по формированию медийной и информационной грамотности средствами публичных библиотек. Особое внимание уделяется стратегиям и программам, реализуемым в этих странах, а также их вкладу в социализацию, обучение и цифровое включение различных слоев общества.

II. Анализ исследований и публикации

В исследовании профессора Б. Ганиевой и других авторов подчеркивается, что развитие библиотечного сектора тесно связано с развитием информационных технологий и процессами хранения и представления научных результатов. Библиотеки служат не только центрами сбора и распространения информации, но и играют важнейшую роль в проведении научных исследований и сохранении культурного наследия. Научные исследования в области библиотековедения и информатики охватывают широкий спектр направлений [1,2]. Проблема формирования медийной и информационной грамотности (МИГ) на протяжении последних десятилетий активно исследуется в рамках информационной науки, педагогики, библиотековедения и медиапедагогики. В условиях цифровизации общества понятия «медийная грамотность» и «информационная грамотность» всё чаще рассматриваются в совокупности, как единое целое — медийно-информационная грамотность,

термин, предложенный ЮНЕСКО и получивший широкое распространение в международной научной среде.

Согласно определению ЮНЕСКО, МИГ включает в себя способность получать, анализировать, критически оценивать и создавать информацию в различных формах и через разные каналы. Эти навыки рассматриваются как основа активного гражданства, участия в демократических процессах и обеспечения устойчивого развития общества [3].

Как подчеркнули Ирландские философии УилямКрайст и У. Джеймс Поттер, что библиотеки, особенно публичные, играют важнейшую роль в продвижении медиа- и информационной грамотности [4]. Кроме того, американский ученый и педагог, работающий в области медиаобразования Рене Хоббс считает, что библиотеки обладают уникальным потенциалом для интеграции МИГ в общественное пространство благодаря открытому доступу к информации и возможности организации обучающих мероприятий для всех категорий населения [5].

Страной-лидером в сфере медиа образования является Австралия, где с 1990 года медиа образование школьников – обязательная составляющая учебного процесса. Формирование медиа культуры происходит или путем изучения интегрированных предметов (английский язык, искусство, технологии), или через внедрение специальных программ в старших классах («MediaStudies» и другие). К процессу активно приобщаются как школьные библиотеки, так и учреждения высшего образования. Как отмечает в своей статье Н. Усманова и Б. Ганиева в Университете Маккуори (MacquarieUniversity) в Сиднее студенты могут получить степень «бакалавр искусств» (BachelorofArts) с возможностью дальнейшего продолжения обучения, а также изучения комбинированных курсов. Развитием медиа образования в Австралии занимается Австралийское управление по вопросам коммуникации и средств массовой информации (ACMA) [6]. Этот правительственный орган отвечает за обеспечение работы средств массовой информации и коммуникации для всех австралийцев. Управление контролирует и регулирует четыре сферы: телекоммуникации, радиовещание, радиосвязь и Интернет [7]. Кроме того, в Австралии в настоящее время реализуется программа ALIA (AustralianLibraryand Information Association), направленная на поддержку библиотек в деле цифрового образования населения [8].

Большой опыт по формированию медиа грамотности населения имеет Финляндия. Она была одной из первых европейских стран, которая внесла медиа образование в школьный учебный план. Изменения в младшей средней школе состоялись в 1970 году, а в средней старшей школе – в 1977 году. Для распространения медиа образования в Финляндии создана мощная нормативно-правовая база. Это правительственные и национальные программы, Стратегия знаний для общества, План развития образования и исследований на 2007-2012 годы, Концепция медиа образования, которая объединяет различные общественные секторы (образовательную систему, культурный сектор, молодежь, СМИ, потребителей информации, сферу здравоохранения и т. д.). Согласно стандартам соответствия, медиа и информационная грамотность в Финляндии рассматриваются не только как овладение ИКТ-компетенциями, творчество, критическое мышление и самообразование, но и как важная общественная компетенция, формированием которой нужно заниматься еще с раннего детства.

Финляндия – одна из немногих стран мира, которая имеет правительственный орган медиа образования. Вопросами формирования медийных навыков, создания безопасной медиа среды занимается Национальный аудиовизуальный институт (KAVI) и его отдел медиа образования и аудиовизуальных медиа (MEKU). Сегодня формированием медиа культуры жителей Финляндии занимается большое количество организаций и учреждений. Кроме школ, медиа образование заняло весомое место в работе с молодежью, в библиотечном обслуживании, в начальном воспитании детей. Важная роль в этом процессе отводится также и неправительственным организациям. Так, Финское общество медиа образования – организация, имеющая целью проведение многопрофильных исследований и практик медиа образования. Участие в деятельности общества принимают учителя, работники детской и молодежной сферы, библиотекари, воспитатели, представители средств массовой информации и культуры, исследователи и студенты [9].

Финляндия имеет разветвленную сеть библиотек с высоким уровнем посещаемости, эффективным использованием технологий и информационных сетей. По данным Министерства образования и культуры, по состоянию на 2018 год в Финляндии действовало 854 публичных библиотек. Роль библиотек Финляндии в области медиа образования определяется пятью основными направлениями деятельности, а именно: поддержкой информационной грамотности, медиа грамотности, игровой грамотности, навыков работы с социальными медиа и знанием авторских прав. Стоит отметить, что медиа образование детей и молодежи является важной частью ежедневной работы библиотек. Библиотекари предоставляют посетителям рекомендации по поиску и управлению информацией, работе с веб-сервисами. Они также проводят игровые вечера для детей и молодежи, а также учебные ИТ-курсы [10].

Во Франции действует программа CLEMI (Centrepourl'ÉducationauxMédiaset à l'Information), где библиотеки взаимодействуют с образовательными учреждениями в рамках медиапедагогических инициатив [11]. В то время в США, согласно исследованиям Американской библиотечной ассоциации (ALA), библиотеки активно включаются в обучение населения цифровой и информационной

грамотности через локальные инициативы и партнёрские проекты [12].

На постсоветском пространстве проблема МИГ также получает научное освещение. В частности, в работах В.В. Гридина, Е.С. Полат, А.В. Федорова рассматриваются теоретические и методические аспекты формирования медийной культуры в образовательной среде и в деятельности библиотек. Также анализируются подходы к подготовке библиотечных специалистов к работе в условиях цифровой трансформации.

В Узбекистане вопросы медийной и информационной грамотности становится объектом научно-практического анализа. Однако ряд документов, включая Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан, Пять инициатив Президента и Концепцию развития системы народного образования, подчёркивают важность цифровой трансформации образования и формирования у молодёжи критического мышления. Современные исследования в области библиотечного дела в Узбекистане также указывают на необходимость интеграции МИГ в деятельность публичных библиотек [13].

Таким образом, анализ литературных источников свидетельствует о высокой значимости формирования медийной и информационной грамотности как на глобальном уровне, так и в контексте национального развития. Зарубежный опыт, в частности библиотечные практики Австралии, Финляндии, Франции и США, представляет собой ценный ресурс для адаптации и внедрения в Узбекистане, с учётом местных социально-культурных и образовательных условий.

III.Методологический подход исследования

В настоящем исследовании применён сравнительно-сопоставительный метод, который позволил проанализировать зарубежный опыт формирования медийной и информационной грамотности в образовательной и библиотечной сферах. Выбор данного подхода обусловлен необходимостью выявления не только общих тенденций в развитии медиаграмотности, но и специфических особенностей её внедрения в различных странах. Сравнительный анализ обеспечивает возможность объективнойоценки степени институциональной поддержки,масштабов практического применения и эффективности реализуемых моделей, а также определения тех элементов зарубежного опыта, которые могут быть адаптированы и использованы в национальной образовательной и библиотечной практике Узбекистана.

Страна	Год внедрения медиа образования	Ключевые программы/организации	Роль библиотек	Особенности
Австралия	1990 – обязательный предмет	ACMA, ALIA , Media studies	Поддержка цифрового образования населения	Медиаобразование интегрировано в школьные предметы и вузы
Финляндия	1970 – младшая школа 1977 – старшая школа	KAVI, MEKU, «Стратегия знания»	Обучение в ИКТ, медиаграмотностью, работа с молодежью	Сильная нормативная база, массовое участие общества
Франция	1983 – созданные CLEMI	CLEMI (Centre pour l’Education aux Medias et a’ l’Information)	Сотрудничество с образовательными учреждениями	Фокус на медиапедагогике и критическое мышления
США	Активизация через ALA	ALA (American Library Association)	Инициатива цифровой и информационной грамотности	Партнерства библиотеки и сообщества
Узбекистан	2000 – начало обсуждение в научном дискурсе	Ассоциация библиотек, университетские проекты	Первый проекты по МИГ в вузах и публичных библиотеках	Опыт заимствуется у зарубежных стран

Таблица № 1. Сравнительный анализ зарубежного опыта по формирования МИГ

Анализ представленных данных позволяет сделать вывод о том, что во всех рассмотренных странах формирование медийной и информационной грамотности рассматривается как стратегическая задача образовательной политики и библиотечной практики. При этом характерной особенностью Финляндии и Франции является государственная институционализация

медиаграмотности, тогда как в США и Австралии ключевая роль принадлежит профессиональным сообществам и неправительственным организациям. Для Узбекистана важным является использование этого опыта как методологической основы, что открывает возможности для разработки национальной модели, сочетающей государственные инициативы и профессиональные практики.

IV. Результаты исследования

В ходе сравнительного исследования зарубежного опыта (Австралия, Финляндия, Франция, США) было выявлено, что:

- медиаграмотность в этих странах имеет институциональную поддержку на государственном уровне;
- библиотеки активно вовлечены в реализацию образовательных программ, способствуя развитию критического мышления и цифровых навыков;
- каждая страна имеет уникальные модели (например, CLEMI во Франции или ACMA в Австралии), которые можно адаптировать к местным условиям.

Вместе с тем анализ ситуации в Узбекистане показывает, что формирование медийной и информационной грамотности находится на стадии становления. Первые шаги связаны с внедрением медиапедагогических подходов в высших учебных заведениях и публичных библиотеках, что создаёт основу для дальнейшего развития национальной стратегии.

Таким образом, полученные результаты подтверждают необходимость комплексного подхода: сочетания государственной политики, образовательных инициатив и активной роли библиотек.

V. Заключение и практические рекомендации

Проведённый сравнительный анализ зарубежного опыта (Австралия, Финляндия, Франция, США) показал, что формирование медийной и информационной грамотности (МИГ) в современных условиях рассматривается как стратегический приоритет образовательной и культурной политики. Особая роль при этом отводится библиотекам, которые выполняют функцию посредника между системой образования и обществом, способствуя развитию цифровых компетенций, критического мышления и медиакультуры.

В зарубежной практике чётко прослеживается тенденция к интеграции МИГ в национальные образовательные стандарты и программы, а также активное межсекторальное взаимодействие библиотек с образовательными учреждениями, неправительственными организациями и государственными структурами. Для Узбекистана характерен этап активного становления институциональной базы медиаграмотности, при этом библиотеки постепенно начинают выполнять функцию центров просвещения в данной сфере. Однако выявляется необходимость адаптации лучших зарубежных практик с учётом национальных социально-культурных особенностей.

На основание проведенного анализа представляются целесообразным сформулировать следующие рекомендации:

1. Разработать национальную стратегию по формированию медийной и информационной грамотности, где библиотеки выступят в качестве ключевых факторов данного процесса.

2. Интегрировать основы медиаграмотности в образовательные программы высших учебных заведений, особенно в подготовку будущих библиотечно-информационных специалистов.

3. Организовать систему повышения квалификации для библиотечных работников, направленную на развитие цифровых и педагогических компетенций в области МИГ.

4. Активизировать партнёрские проекты между библиотеками, образовательными организациями, средствами массовой информации и общественными объединениями.

5. Использовать современные мультимедийные форматы (инфографика, цифровые платформы, онлайн-курсы) как инструменты популяризации медиаграмотности среди различных возрастных и социальных групп.

Использованиелитературы:

[1] 1. Ganieva B., JorakhonovaKh.,Usmanova N., Umaralieva F. Analysis of Scientific Research in the Library Sphere// ENVIRONMENT. TECHNOLOGY. RESOURCES. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. – 2025. – Vol. 1. – P. 229–234.

[2] 2. Б. И. Ганиева. Опыт создания электронных библиотек музыкальных произведений в развитых зарубежных странах//Экономика и социум, 75-78. 05 (120) 2024.3. Ганиева Б.И., Усманова Н.Р. Медиа образование в контексте подготовки библиотечных специалистов. 05 (120) 2024.

[3] 3. UNESCO, 2011.

[4] 4. Christ, William & Potter, W.. (2006). Media Literacy, Media Education, and the Academy. Journal of Communication. 48. 5 - 15. 10.1111/j.1460 2466.1998.tb02733.x.

[5] 5. Хоббс, Р., Моен, М., Тан, Р. иСтегер, С. (2022). Оценка внедрения методов обучения медиаграмотности в школах: точки зрения заинтересованных сторон сообщества. Обучение, медиа и технологии , 49(2), 170–185. https://doi.org/10.1080/17439884.2022.2151621

[6] 6. UsmanovaN., GanievaB., UmaralievaF., JorakhonovaKh. Basics of Media Literacy Formation for Library Specialists//ENVIRONMENT. TECHNOLOGY. RESOURCES. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. – 2025. – 8 июня.

[7] 7. Bazarkina D. Yu. (2016) Elementymediaobrazovaniya v evropeiskoisistemepredotvrashcheniyaekstremizmaiterrorizma [Elements of media education in the European system for the prevention of extremism and terrorism]. Media. Informatsiya. Kommunikatsiya [Media. Information. Communication], 17, pp. 37-43.

[8] 8. Gudilina S. I., Lomakina T. Yu. (2016) Kompetentnostnyipodkhod v professional'nomobuchenii v aspektemediaobrazovaniya [Competency-based approach in vocational training in the aspect of media education]. Media. Informatsiya. Kommunikatsiya [Media. Information. Communication], 18, pp. 86-90.

[9] 9. Media Literacy Now \[Электронныйресурс]. – Watertown, MA : Media Literacy Now.

[10] 10. Zhilavskaya I. V. (2019) Mediino-informatsionnayagramotnost' imediaobrazovaniegrazhdan [Media and information literacy and media education of citizens].

Mezhdunarodnyeotnosheniyaiobshchestvo [International Relations and Society], 1 (4), pp. 14-18.

[11] 11. Баррио, А.,&Бурдэ, Ж. (2020). Уровникомпетенций EMI. Documentation &Bibliotheques, 66(4)

[12] 12. Сцена на экране библиотеки: Кино- и медиаграмотность в школах, колледжах и сообществах. Иллюстрированное издание Рене Хоббс (автор), Лиз Делориерс (автор), ПэмСтигер (автор)

[13] 13. Рахимова, Ф. Н. Мультимедиа воситалариасосидаталабаларнингижтимоий педагогик фаолиятинитакомиллаштириш :дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / Рахимова ФерузаНажмиддиновна. – [Ташкент], [2022].

[14] 14. Гендина, Н. И. Информационная и медиа грамотность, информационная культура личности: ведущие международные и российские тенденции подготовки человека к жизни в информационном обществе [Электронный ресурс] / Н. И. Гендина. – Режим доступа: http://bit.ly/1NlVQr3.

[15] 15. Олефир, С. В. Медийная и информационная грамотность пользователей библиотек и библиотечных специалистов / С. В. Олефир // Вестник культуры и искусств. – 2017. - № 4 (52). – С. 24–29.

[16] 16.Е А. Бондаренко. Медиаграмотность и информационная культура в современной российской школе [Електронний ресурс] / А. Бондаренко Е – Режим доступу до ресурсу: http://mic.org.ru/new/239-mediagramotnost-i-informatsionnaya-kultura-v-sovremennoj-rossijskojshkole

[17] 17.Mullins, K., & Boyd-Byrnes, M.-K. (2024). Academic Librarians’ Contribution to Information Literacy Instruction and Learning. College&ResearchLibraries, 85(3), 423–441.

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR

TATU(AKTSI) dotsenti
N. Xasanova

Annotatsiya: Mazkur maqola ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ta’siri, ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni, samaradorlikni ta’minlash hamda o‘qituvchi va talabalarga yaratadigan yangi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli transformatsiya jarayonining mohiyati, asosiy tamoyillari, afzallik va muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda onlayn ta’limning rivojlanishi, LMS va “Kundalik.com [3]” kabi platformalarning joriy etilishi, ta’limning kelajagi va istiqboldagi raqamli yechimlar haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ta’lim tizimi, onlayn ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayoni, innovatsiyalar, raqamli platformalar, elektron darsliklar, ta’lim resurslari, tendensiyalar.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению процесса внедрения цифровых инноваций в систему образования. Рассматривается влияние цифровых технологий на учебный процесс, их роль в повышении качества образования, обеспечении эффективности и создании новых возможностей для преподавателей и студентов. В работе проанализирована сущность и основные принципы цифровой трансформации, а также её преимущества и проблемы. В исследовании приведены выводы о развитии онлайн-образования, внедрении LMS-систем и платформы «Kundalik.com [3]», а также перспективах цифровых решений в будущем образовании.

Ключевые слова: цифровая трансформация, система образования, онлайн-образование, цифровые технологии, образовательный процесс, инновации, цифровые платформы, электронные учебники, образовательные ресурсы, тенденции

Abstract: This article is devoted to the study of the implementation of digital innovations in the education system. It examines the impact of digital technologies on the learning process, their role in improving education quality, enhancing efficiency, and creating new opportunities for teachers and students. The paper analyzes the essence and key principles of digital transformation, as well as its advantages and challenges. The study provides insights into the development of online education, the introduction of LMS platforms and “Kundalik.com [3],” and the future prospects of digital solutions in education.

Keywords: digital transformation, education system, online learning, digital technologies, educational process, innovations, digital platforms, e-textbooks, educational resources, trends

Bugungi globallashuv davrida inson hayotining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Jamiyat rivojida ta’lim tizimi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, chunki bilimli va malakali avlodni tayyorlash har bir davlatning kelajagini belgilaydi. An’anaviy ta’lim usullari ko‘plab foydali jihatlarga ega bo‘lsa-da, bugungi axborot oqimlari shiddatini hisobga olganda ular yetarli emas. O‘quvchilar tezkor ma’lumot olish, interaktiv tarzda bilimlarni o‘zlashtirish va mustaqil izlanish imkoniyatiga intilmoqda. Shu bois ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etish zaruriyati tobora kuchayib bormoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, resurslardan samarali foydalanish va o‘qituvchi–o‘quvchi–ota-ona o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa zamonaviy o‘quv tizimining asosiy talablaridan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

Nazariy tahlil – raqamli ta’lim bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hamda rasmiy davlat hujjatlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

Taqqoslash metodi – Janubiy Koreya, Finlyandiya va AQShdagi raqamli ta’lim tajribalari O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan solishtirildi.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish – “Kundalik.com”, ZiyoNET va LMS platformalariga oid foydalanuvchilar soni va qamrov ko‘rsatkichlari jadval asosida tahlil qilindi.

Kuzatuv va umumlashtirish – raqamli innovatsiyalarning afzalliklari va muammolari kuzatuv asosida aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Natijada, tadqiqot sifat jihatidan deskriptiv (tasviriy) bo‘lib, ta’lim tizimidagi mavjud raqamli yechimlarning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilindi.

Asosiy qism

1. Ta’limdagi global raqamli tendensiyalar

So‘nggi yillarda dunyo ta’limida raqamli transformatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Masalan, Janubiy Koreya [9] maktablari 2011-yildan boshlab bosqichma-bosqich elektron darsliklar tizimiga o‘tdi. Finlyandiya esa “raqamli pedagogika” konsepsiyasini ishlab chiqib, o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlariga moslashgan ta’lim dasturlarini yaratmoqda. AQShda esa Coursera [7], Udemy, EdX [8] kabi massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) talabalarga dunyoning eng yaxshi universitetlari darslarini tinglash imkonini /berdi.

Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini qulaylashtiradi,

balki ta’limning ochiqligini, sifatini va teng imkoniyatlarini ta’minlaydi.

2. O‘zbekiston tajribasi: milliy platformalar va innovatsiyalar

O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi yo‘lida sezilarli ishlar qilinmoqda. Xususan:

“Kundalik.com [3]” – maktab ta’limida o‘quvchilarning baholari, dars jadvali, uy vazifalari va davomatini onlayn kuzatish imkonini beradi. Bu ota-onalarning farzand ta’limiga yanada faol jalb etilishiga yordam berdi.

ZiyoNET [4] – elektron kutubxona, darsliklar, ilmiy maqolalar va o‘quv materiallarini o‘z ichiga olgan yagona ta’lim portali.

OTMlarda LMS tizimlari – Moodle, Google Classroom va Canvas platformalari orqali masofaviy ta’lim kurslari tashkil etilmoqda.

Elektron darsliklar va video-darslar – darslarni interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkonini bermoqda.

Yo‘nalish	2020-yil	2024-yil
Maktablarning internetga ulangan qismi	65%	95%
“Kundalik.com” foydalanuvchilari	4 mln	8 mln+
ZiyoNET elektron kutubxonasi foydalanuvchilari	1,2 mln	3,5 mln
LMS platformalaridan foydalanuvchi OTMlar	15 ta	60+ ta

1-jadval. O‘zbekistonda ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish (qisqa ko‘rsatkichlar)

3. Raqamli ta’limning afzalliklari va muammolari

Hozirgi davrda raqamli ta’lim ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Uning eng asosiy afzalliklaridan biri – masofadan turib o‘qish imkoniyatining mavjudligidir. Bu, ayniqsa, geografik jihatdan uzoq hududlarda yashovchi yoki turli sabablarga ko‘ra an’anaviy darslarga qatnasha olmaydigan o‘quvchilar uchun katta qulaylik yaratadi. Shuningdek, raqamli ta’lim shaffof baholash tizimini shakllantirish va tezkor aloqa o‘rnatish imkonini beradi, bu esa o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlaydi.

Yana bir muhim afzallik – o‘quv jarayonining individuallashtirilishi. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishi va bilim darajasidan kelib chiqib, mustaqil sur’atda ta’lim olishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli ta’lim resurslardan tejamkor foydalanishga yordam beradi, ya’ni qog‘oz, joy va vaqt kabi an’anaviy resurslarga ehtiyoj kamayadi.

Biroq, raqamli ta’lim jarayonida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Avvalo, internet tezligi past bo‘lgan hududlarda ta’lim imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bu teng ta’lim olish huquqiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Onlayn muhitning o‘zi esa o‘quvchilarni chalg‘itishi mumkin, chunki ular ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa tashqi omillarga berilib, ta’lim jarayonidan uzoqlashadi. Yana bir muammo – raqamli qurilmalarning hamma uchun mavjud emasligi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin.

Afzalliklar	Kamchiliklar
Masofadan o‘qish imkoniyati	Internet tezligi past hududlarda qiyinchilik
Shaffof baholash tizimi	O‘qituvchilarning raqamli savodxonligi pastligi
Tezkor aloqa	Ko‘p vaqt ekran qarshisida o‘tirish salbiy ta’sir qiladi
Resurslarga keng kirish	Raqamli qurilmalar yetarli emas
Individuallashtirilgan ta’lim	Moliyaviy xarajatlar yuqori

2-jadval. Ta’limda raqamli innovatsiyalarning afzallik va kamchiliklari

4. Kelajak istiqbollari

Ta’limni raqamlashtirish jarayonida yangi imkoniyatlar

Ta’lim tizimini raqamlashtirish nafaqat mavjud muammolarni hal qilishga, balki ilgari mavjud bo‘lmagan yangi imkoniyatlarni ham yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Avvalo, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari o‘quv jarayonini yanada individuallashtirish imkonini beradi. Virtual tutorlar yordamida talabalar bilim darajasiga qarab moslashtirilgan darslar tavsiya etiladi va bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari fanlarni chuqurroq o‘rganish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan, laboratoriya tajribalarini simulyatsiya qilish orqali murakkab jarayonlarni xavfsiz va interaktiv tarzda amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasi ta’lim hujjatlarining ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U diplom va sertifikatlarning haqiqiyligini tekshirish imkonini berib, sohada korrupsiya va soxtalashtirish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim imkoniyat – gamifikatsiya. Bu usul ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritib, uni

qiziqarli va motivatsion shaklga keltiradi. Natijada, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ortadi va ular bilimlarni samaraliroq o‘zlashtira boshlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli innovatsiyalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular ta’limni shaffof, samarali va ochiq qiladi. O‘zbekiston tajribasi ham bu yo‘lda sezilarli natijalarni ko‘rsatmoqda. Biroq internet infratuzilmasini yanada kengaytirish, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va barcha hududlarni raqamli qurilmalar bilan ta’minlash kabi vazifalar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Kelajakda sun’iy intellekt, VR va blokcheyn kabi texnologiyalar ta’limning butunlay yangi bosqichiga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 'Рақамли Ўзбекистон – 2030' стратегияси.

[2] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорлари ва таълимга оид норматив ҳужжатлар.

[3] Kundalik.com [3] расмий сайти. URL: https://www.kundalik.com (дата обращения: 01.09.2025).

[4] ZiyoNET [4] электрон портали. URL: https://www.ziyonet.uz (дата обращения: 01.09.2025).

[5] UNESCO [5]. Education and Digital Transformation. Paris: UNESCO, 2022.

[6] OECD [6]. Digital Education Outlook. Paris: OECD Publishing, 2023.

[7] Coursera [7]. Annual Report 2024. URL: https://www.coursera.org (дата обращения: 01.09.2025).

[8] EdX [8]. Annual Report 2024. URL:https://www.edx.org (дата обращения:

01.09.2025).

[9] Ministry of Education, Republic of Korea. Smart Education Policy Report. Seoul, 2021..

INDIVIDUALLASHTIRILGAN MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich
Professor, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
maksadkhan@mail.ru

Bekmuxammedov Bunyodbek Nurmuxammad o‘g‘li
Doktorant, Qo‘qon davlat universiteti
bekmuhammedovb@gmail.com

Kushmanoa Mahbuba Abdunabiyevna
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
mahbuba.kushmanova@gmail

Anotatsiya: **Maqola masofaviy ta’limni har bir o‘quvchining individual “fikrlash uslubi”ga moslashtirish (differensiallash) metodikasiga bag‘ishlangan. Unda an’anaviy kurslarning shaxsiy xususiyatlarni hisobga olmasligi muammosi yoritilib, “fikrlash uslubi”ni idrok, xotira va miya faoliyati omillari asosida aniqlash usuli taqdim etilgan, shuningdek masofaviy ta’lim muassasalari tasnifi, differensial yondashuvning amaliyoti va maxsus kurs tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.**

Kalit so‘zlar: **Individual masofaviy ta’lim, differensiallash, fikrlash uslubi, psixologik testlash, masofaviy kurs tuzilmasi.**

KIRISH

. So‘nggi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida masofaviy o‘qitish konsepsiyasini shakllantirishga zamin yaratdi. 1970-yillarda bu g‘oya nazariy jihatdan ishlab chiqila boshlagan bo‘lib, dastlabki ilmiy ishlarda masofaviy kurs tarkibi darslar majmuasi, nazorat-savollar to‘plami va ma’muriy xizmatlardan iborat deb ko‘rsatilgan. Uning keng ko‘lamli amaliy rivojlanishi esa 1990-yillarda Internet texnologiyalarining ommalashuvi bilan bog‘liq. Internet platformalari o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqot imkonini yaratib, ta’lim jarayonida tezkorlik, qulaylik va interaktivlikni ta’minladi. Shunga qaramay, o‘tgan 30 yil davomida masofaviy kurslarning tuzilmasi sezilarli darajada yangilanmadi.

Hozirgi vaqtda masofaviy ta’lim tizimlarida moslashuvchanlik ko‘proq talabaning boshlang‘ich bilim darajasi yoki kurs tuzilmasiga asoslangan bo‘lsa-da, individual xususiyatlarni hisobga olish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan. Foydalanuvchi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar asosida kontentni differensiallashtirish ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli sifatida qaraladi. Bu jarayonda samaradorlik talabaning o‘quv motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasidagi dinamik o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

Masofaviy ta’lim bilan shug‘ullanuvchi muassasalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Faqat nazariy ishlanmalarni ishlab chiquvchilar.
2. Maxsus kurslarni taklif qiluvchi tijorat tashkilotlari (masofaviy elementlar faqat testlarda qo‘llaniladi).
3. Disklar, televideniye va boshqa vositalar orqali material yetkazuvchi hamda lokal dasturlar yaratadigan muassasalar.
4. To‘liq onlayn formatda faoliyat yurituvchi, zamonaviy texnologiyalar asosida kurslar taklif etuvchi muassasalar. Ushbu guruhning atigi 10–15 foizi individual yondashuvni qo‘llaydi.

Ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi guruh muassasalarida differensial yondashuvni dasturiy vositalar orqali joriy etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Metodologiya. Ta’lim sifatini oshirish pedagogik texnologiyalarni dasturiy joriy etish orqali amalga oshiriladi, chunki ko‘plab muassasalar masofaviy kurslarga ega. Shu bois o‘quv jarayoniga katta o‘zgarishlarsiz metodika ishlab chiqish zarur. Bu metodika formal mezonlarga asoslanib, foydalanuvchi bilan kurs o‘rtasida axborotni moslashtirish algoritmini o‘z ichiga oladi.

Metodikaning asosiy elementi – differensiallash mezoni. An’anaviy ta’limda tafakkur turlari qo‘llanilsa-da, masofaviy formatda kuzatish va suhbat metodlari murakkabligi sabab bu usul mos emas. Shu bois “shaxsning psixologik xususiyatlari” – bilish va ayrim fiziologik xususiyatlar majmuasiga tayaniladi. Ushbu ishning vazifasi – ularni birlashtiruvchi va kursni differensiallashtiruvchi metodika yaratish.

Masofaviy ta’limning maqsadi – Davlat standarti asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Normativ hujjatlar tahliliga ko‘ra, besh asosiy didaktik metod tavsiya etiladi: axborot-reseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot metodlari. Umumiy tashkiliy xususiyatlar – ta’limning uzluksizligi, ochiqlik, individual yondashuv, markazlashtirilgan boshqaruv va tyutorlar tizimi.

Hozirda differensiallash tayyorgarlik darajasi yoki darslik tuzilishiga asoslanadi, biroq masofaviy ta’limda bu jarayon yanada murakkab, chunki talaba bilan bevosita tanishuv amalga oshmaydi. Shuning uchun tayyorgarlik, qiziqishlar, kasbiy yo‘nalish va ilg‘or talabalar uchun yondashuv kabi tashqi differensiallash turlari kurs loyihasida aks etishi lozim.

Masofaviy kurs uch komponentdan iborat:

Mazmun – HTML5, CSS3, JavaScript (React, Angular) asosida, SCORM/xAPI va Responsive Design bilan.

Ma’lumotlar bazasi – MySQL, PostgreSQL, MongoDB, bulut texnologiyalari orqali.

Interfeys va integratsiya – REST API, GraphQL, ORM (Hibernate, Sequelize), LTI, microservices va containerization texnologiyalari bilan.

Tahlil natijasida masofaviy kurslarga oid ishlanmalar uch turga ajratildi:

Individual ishlanmalar – kursning dasturiy jihatini optimallashtiruvchi kichik algoritmlar.

Guruhiy ishlanmalar – bilim nazorati yoki qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar, odatda bir loyiha doirasida qo‘llaniladi.

Tizimli ishlanmalar – yirik kompaniyalar yaratgan universal yechimlar (AWS, GCP, Azure).

Masofaviy kurslar quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflanadi: funksional vazifasi, ishlash muhiti, foydalanuvchi soni, gipermedia imkoniyatlari.

Psixologik jihatdan talabaning fikrlash uslubi differensial yondashuv uchun muhim mezon sifatida tanlandi. Uni aniqlashda uch omil hisobga olinadi: idrok turi (fazoviy yoki xususiyatga asoslangan), xotira turi, miyaning yetakchi yarim shari. Bu omillar asosida shaxsning individual bilish uslubi aniqlanadi.

Natijalar. Fikrlash uslubini aniqlash metodikasi va jadvali ishlab chiqildi hamda dasturiy integratsiyasi rejalashtirilgan. Testlarning maqsadi, o‘tkazish tartibi va qayta ishlash algoritmlari tavsiflangan. Ushbu yondashuv asosida demo kurs – “Telekommunikatsiya tizimlari va jahon axborot resurslari” yaratilgan. Kurs WWW muhitida ishlaydi, MySQL/PostgreSQL, MongoDB bazalari, REST API, GraphQL va Node.js/Django/ASP.NET Core texnologiyalaridan foydalanadi.

Foydalanuvchi rollari – Administrator, O‘qituvchi, Foydalanuvchi, Mehmon sifatida belgilangan. Kurs interaktiv multimedia elementlari bilan boyitilgan.

1 - jadval: Masofaviy kursning tuzilishi.

Jarayon	Blok	Bo‘lim
Tanishuv va psixologik test jarayoni	Tanishuv	Dastur haqida Psixologiya haqida Aloqalar Ro‘yxatdan o‘tish Sinov mashg‘uloti
	Psixologik test	Psixologik test o‘tkazish
O‘quv jarayoni	O‘qitish	Ta’lim jarayoni
Bilimni nazorat qilish jarayoni	Bilim nazorati	Bilimni tekshirish
Xizmat	Xizmat va tavsiyalar	Parolni unutdim Lug‘at Adabiyot Elektron adabiyot Mening yutuqlarim Lug‘at bilan ishlash Reyting
	O‘qituvchi uchun	To‘liq ro‘yxat Savollar ro‘yxati Yangi savol Savolni tahrirlash Individual savol Administratorlik

Kursda foydalanuvchilar to‘rtta statusga ega: Administrator, O‘qituvchi, Foydalanuvchi va Mehmon. Har birining vakolatlari va cheklovlari aniqlangan. Kurs mazmuni gipermatnli elektron darslik ko‘rinishida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda havolalar, adabiyotlar ro‘yxati, glossariy, rasm va jadvallar mavjud. Ayrim ma’ruzalar foydalanuvchilar guruhiga moslashtirilgan interaktiv multimedia elementlari, video va animatsiyalar bilan to‘ldirilgan (HTML5, CSS3, JavaScript asosida).

Masofaviy ta’limda ikki asosiy jarayon ajratiladi: ta’lim jarayoni va bilimni nazorat qilish jarayoni, hamda qo‘shimcha sifatida psixologik testlash. Bu jarayonlar kursning turli bo‘limlarida amalga oshiriladi.

Psixologik testlash 4 blokdan iborat bo‘lib, ular orasidagi vaqt cheklovi erkin. Test ro‘yxatdan o‘tganidan keyin istalgan vaqtda topshirilishi mumkin, minimal testlar soni – 4 ta, uchta testda vaqt limiti (kamida 3 daqiqa). Natijalar foydalanuvchiga to‘liq ko‘rinmaydi, chunki testning maqsadi – differensial yondashuvni belgilash. Jarayon ixtiyoriy, testlarga faqat bir marta javob beriladi (barcha savollar tugallanmagan bo‘lsa, ikkinchi urinish ruxsat etiladi).

Xulosa. Masofaviy ta’limning samaradorligini oshirishda individual yondashuvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchining psixologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan differensiallashtirilgan metodika ta’lim sifatini oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi hamda o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Taklif etilgan metodologiya asosida kurslarni moslashtirish imkonini beruvchi psixologik testlash tizimi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, masofaviy kurslarning zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilishi, ma’lumotlar bazasi va integratsiya mexanizmlarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining barqarorligi va moslashuvchanligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

[1] [1]. Якубов М.С. “Катта масштабли об’ектлар электрон ҳужжат айланиш тизимини тизимли таҳлили: системный анализ системы электронного документооборота крупных об’ектов.” *Молодой специалист*, no. 2, 2023, pp. 43–55.

[2] [2]. Якубов М.С. “Та’лим соҳасида электрон ҳужжат айланиш тизимини жорий этишнинг о‘зига хос хусусиятлари: specific characteristics of the implementation of the electronic document circulation system in the field of education.” *Молодой специалист*, no. 2, 2023, pp. 45–53.

[3] [3]. Якубов М.С. “Та’лим тизимида электрон хужжат айланишини такомиллаштириш омиллари.” *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali*, vol. 3, 2023, pp. 145–149.

[4] [4]. Yakubov M.S. “Katta masshtabli ta’lim sohasi elektron hujjat almashinuvi texnik va tashkiliy ta’minoti.” *Barqarorlik va Yetakchi*

Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali, vol. 3, no. 12, 20 Dec. 2023, pp. 163–170.

[5] [5]. Bekmuxammedov B. “The development strategy and importance of online education system.” *DTAI–2024 1.DTAI*, 2024, pp. 436–439.

[6] [6]. Якубов М.С. “Та’лим тизимида электрон хужжат айланишини ташкил этиш тамойиллари.” *Pedagogs*, no. 54, 2024, pp. 113–118.

[7] [7]. Mansurova M.Y. Bekmukhammedov Bunyodbek, and Jumaboev Behzod. “Optimizing workforce dynamics: a comparative analysis of regional.” *JournalNX*, vol. 10, no. 3, 2024, pp. 1–7.

[8] [8]. Якубов М.С. “Та’лим тизимида структуралашган ма’лумотлар алмашинувининг о‘зига хос нусусиятлари.” *Iqro Indexing*, vol. 8, no. 2, 2024, pp. 247–254.

[9] [9]. Bekmuxammedov B.N., Fayzullayev Sh.Sh. “Online ta’limda sun’iy intelektning qaror qabul qilishga va online ta’limga tasiri.” *Journal of IQRO – ЖУРНАЛ ИQРО – IQRO JURNALI*, vol. 12, no. 1, 2024, pp. 102–110.

[10] [10]. Бекмухаммедов Б., Тохтасинов А. “Разработка моделей дистанционного обучения в системе непрерывного профессионалного образования.” *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, vol. 3, no. 1, 2025, pp. 99–105.

[11] [11]. Бекмукхаммедов Б. “Artificial intelligence and machine learning technologies in forming online education systems.” *Международный мултидисциплинарный журнал исследований и разработок*, vol. 1, no. 3, 2025, pp. 230–235.

[12] [12].Yakubov M.S. and Bekmukhammedov B.N. “Shaxsga yo‘naltirilgan onlayn ta’lim tizimida sun’iy intelektni qo‘llash.” *Al-Farg’oniy avlodlari*, vol. 1, no. 1, 2025, pp. 35–39.

ONLAYN IMTIHON VA BAHOLASH TIZIMLARI

Yusupova Zamira[1] Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchsi, yusupovaz677@gmail.com

Yusupov Baxtiyor[2], Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universitet talabasi, yusupovv17@icloud.com

Annotatsiya-Ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalar — o‘qitish, baholash va boshqaruv jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar orqali samarali, shaffof hamda moslashuvchan qilishga qaratilgan yangilanishlardir. Ular LMS platformalari, sun’iy intellekt, adaptiv testlar, VR/AR laboratoriyalari, o‘quv analitikasi, gamifikatsiya, hamkorlik vositalari va elektron resurslarni qamrab oladi. Natijada shaxsiylashtirilgan o‘qitish, tezkor baholash, masofadan ta’lim va ma’lumotga teng kirish imkonlari kengayadi, o‘quvchi ehtiyojlariga mos ta’lim yo‘llari yaratiladi. Shu bilan birga infratuzilma yetishmovchiligi, kadrlar malakasi, axborot xavfsizligi, akademik halollik va kontent sifati kabi muammolar mavjud. Tizimni samarali joriy etish uchun pedagogik dizayn, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, milliy kontent ishlab chiqish, qo‘shma standartlar, proktorlik va plagiat nazoratini takomillashtirish, shuningdek, ma’lumotlar analitikasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tavsiya etiladi. Natijada ta’lim sifati oshadi, adolat mustahkamlanadi, innovatsion iqtisodiyot qo‘llab-quvvatlanadi, inklyuzivlik kengayadi, raqobatbardoshlik ortadi. Onlayn imtihon va baholash tizimlari ta’lim jarayonida bilimlarni masofadan turib tekshirish, natijalarni tezkor va shaffof qayd etish imkonini beruvchi raqamli mexanizmlardir. Ushbu tizimlar test, esse, amaliy topshiriqlar, videoprezentatsiyalar va boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Ularning afzalliklari — vaqt va mablag‘ tejalishi, natijalarning tezkorligi, baholashning shaffofligi va talabalarga qulaylik yaratishdir. Shu bilan birga, internet nosozliklari, texnik muammolar, akademik halollikning buzilishi va axborot xavfsizligi kabi muammolar ham mavjud. So‘nggi yillarda proktorlik texnologiyalari, plagiat tekshiruv dasturlari va sun’iy intellekt imkoniyatlari bu tizimlarni yanada takomillashtirmoqda. Natijada, onlayn imtihon va baholash tizimlari ta’limning zamonaviy bosqichi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Kalir so’zlar. Onlayn ta’lim, masofaviy ta’lim, elektron baholash tizimi, onlayn imtihonlar, test sinovlari, LMS (Learning Management System), Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams.

I. KIRISH

Ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalar — bu ta’lim jarayonini yanada samarali, qulay va zamonaviy qilish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llashdir. Raqamli innovatsiyalar – bu yangi texnologiyalarni ta’limga joriy qilish va shu orqali o‘qitish va o‘rganish jarayonini o‘zgartirish.

Ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalar:

1. Raqamli ta’lim platformalari. Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali dars jarayonini tashkil etish va o‘quvchilar uchun masofaviy ta’lim va aralash ta’lim (blended learning) imkoniyatlari.
2. Sun’iy intellekt (AI) va adaptiv ta’lim. AI yordamida o‘quvchilar bilim darajasini aniqlash va shaxsiylashtirilgan dars rejasi tuzish va avtomatik testlarni tekshirish va tavsiyalar berish.
3. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR). Biologiya, kimyo, tarix kabi fanlarda laboratoriya tajribalarini virtual tarzda o‘tkazish va tarixiy voqealarni AR texnologiyasi orqali jonli ko‘rsatish.
4. Raqamli resurslar va elektron darsliklar. E-darsliklar, interaktiv mashqlar, videodarslar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. va o‘zbek tilida elektron resurslar bazasini kengaytirish.
5. Big Data va ta’lim analitikasi. O‘quvchilarning darsdagi faolligi, test natijalari va onlayn faoliyatini tahlil qilish va o‘quv jarayonidagi muammolarni oldindan aniqlash va tuzatish.
6. Gamifikatsiya (o‘yin elementlari). Ta’lim jarayonini qiziqarli qilish uchun ballar, reyting, virtual mukofotlar kiritish va o‘quvchilarda raqobat va motivatsiyani oshirish.
7. Onlayn imtihon va baholash tizimlari. Avtomatlashtirilgan testlar, plagiat tekshiruv dasturlari va shaffof baholash va tezkor natija olish imkoniyati.
8. Raqamli boshqaruv. Elektron jurnal va kundaliklar (masalan, my.maktab.uz) va ta’lim jarayonini masofadan turib nazorat qilish.

II. ASOSIY QISM

Ushbu maqolada Onlayn imtihon va baholash tizimlari haqida ma’lumotlarga to’xlatib o’tiladi.

Onlayn imtihon va baholash tizimlari — bu o‘quvchi yoki talabalar bilimini internet orqali maxsus platformalarda tekshirish va baholash jarayonidir. An’anaviy imtihonda sinf yoki auditoriyada qog‘ozda yozib topshiriladi, onlayn imtihonda esa kompyuter, planshet yoki telefon orqali masofadan turib topshiriladi.

Asosiy xususiyatlari:

1. Testlar, esse, amaliy topshiriqlar kabi turli formatlarda bo‘ladi.
2. Avtomatik tekshirish imkoniyati mavjud (masalan, test savollarida).
3. Proktorlik texnologiyalari yordamida talabalar kuzatib boriladi (kamera, mikrofon orqali).
4. Natijalar tezkor, shaffof va raqamli shaklda qayd qilinadi.

Afzalliklari:

1. Qulaylik: istalgan joydan topshirish mumkin.
2. Tezkorlik: natijalar darhol yoki qisqa vaqtda chiqadi.
3. Shaffoflik: insoniy xatolik va sub’ektivlik kamayadi.

Muammolari:

1. Internet va texnika yetishmasligi.

2. Akademik halollik (imtihon vaqtida “ko‘chirish” ehtimoli).
3. Axborot xavfsizligi.

Kompyuterlar keng tarqalmagan bo‘lsa-da, ayrim universitetlar kompyuter asosida test savollarini tuzish va javoblarni avtomatik tekshirishni boshlagan. 970-yillarda AQShdagi ba’zi universitetlarda talabalar kompyuter terminali orqali test topshirgan. 1990 yillardan Internet ommalashgach, birinchi onlayn test platformalari paydo bo‘ldi. Asosan qisqa multiple-choice (variantli) testlar qo‘llanilgan. Onlayn testlar dastlab ingliz tili, informatika va texnika fanlarida ko‘proq qo‘llanilgan. 2000 yildan Learning Management System (LMS) platformalari (Moodle, Blackboard, Canvas) keng joriy qilindi. Ko‘plab universitetlar onlayn testlarni rasmiy baholash tizimiga kiritdi. Proktorlik xizmatlari asta-sekin paydo bo‘ldi (kamera orqali kuzatuv). 2010 yilllarda MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari (Coursera, edX, Udemy) kengaydi va ularda imtihon tizimlari joriy qilindi, onlayn imtihonlarda plagiat tekshiruv dasturlari ishlatila boshlandi. Sun’iy intellekt asosida proktorlik, yuzni aniqlash va ekran monitoringi rivojlandi. 2020 yildan beri COVID-19 davrida butun dunyoda onlayn imtihon asosiy baholash usuliga aylandi. Maktab va universitetlarda Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle orqali test va imtihonlar o‘tkazildi. Sun’iy intellekt asosida kuzatuv tizimlari keng joriy qilindi.

O‘zbekistonda onlayn imtihon va baholash tizimlarining joriy etilishi:

1. DTM va elektron ro‘yxatdan o‘tish (2020-yildan). 2020-yilda O‘zbekiston ta’lim tizimida muhim yangilik sodir bo‘ldi: abituriyentlar imtihonga ro‘yxatdan o‘tish jarayonini “Yagona interaktiv davlat xizmatlari” portali hamda Davlat test markazi (DTM) rasmiy veb-sayti orqali amalga oshira boshlashdi. Bu raqamli jarayon onlayn imtihon tizimining boshida turgan qadamdir.
2. Sun’iy intellekt orqali proktorlik (2021-yil). 2021-yil avgust oyida Samarqanddagi Silk Road International Universityda sinov tariqasida sun’iy intellekt asosidagi online proktorlik tizimi joriy qilindi. Bu tizim video, audio va kompyuter ekran monitoringi orqali test topshiruvchilarini nazorat qiladi.
3. O‘rta ta’limda onlayn imtihonlar (2024-yil). 2024-yilda O‘zbekistonda ilk bor maktab darajasida onlayn imtihonlar o‘tkazildi. Bu jarayonda 400 dan ziyod maktab va 100 000 dan ortiq o‘quvchi ishtirok etib, 300 000 varaq qog‘oz tejalishi mumkin bo‘ldi

Onlayn imtihon va baholash tizimlari uchun dunyo bo‘yicha va O‘zbekistonda bir nechta platformalar keng qo‘llaniladi. Masalan: Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canvas, Zoom, Edmodo, Testmoz, Exam.net, Proctorio, Quizizz. Ularning har biri turli imkoniyatlarga ega.

1-jadval. Onlayn imtihon va baholash tizimlari qiyosiy tahlili

№	Platforma	Qulaylik darajasi	Imtihon yaratish	Avtomatik baholash	Plagiatni aniqlash	Mobil moslashuv	Xavfsizlik darajasi	Integratsiya imkoniyati	Narxi	O‘zbekiston da
1	**Moodle**	O‘rta	Juda keng	Bor	Modul orqali	Bor	Yuqori	Keng (LMS bilan)	Bepul (Open source)	Universitetlar da keng
2	**Google Classroom**	Yuqori	Oddiy test va topshiriqlar	Bor (cheklangan)	Yo‘q	Juda yaxshi	O‘rta	Google xizmatlari	Bepul	Maktablarda keng
3	**Microsoft Teams**	Yuqori	Forms orqali test	Bor	Yo‘q	Kuchli	Yuqori	MS Office bilan	Pullik (Office 365)	Kollej/litsey
4	**Canvas**	Yuqori	Juda keng	Bor	Bor	Bor	Yuqori	LMS, Zoom, Turnitin	Pullik	Kam qo‘llaniladi
5	**Zoom**	Yuqori	Imtihon emas, nazorat	Yo‘q	Yo‘q	Bor	O‘rta	LMS bilan	Cheklangan bepul	Imtihon nazorati
6	**Edmodo**	O‘rta	Oddiy testlar	Bor	Yo‘q	Bor	O‘rta	Cheklangan	Bepul	Maktablar
7	**Testmoz**	Yuqori	Juda qulay	Bor	Yo‘q	O‘rta	O‘rta	Kam	Pullik	Mustaqil
8	**Exam.net**	Yuqori	Keng imkoniyat	Bor	Bor (AI yordamida)	Bor	Yuqori	Integratsiya mumkin	Pullik	Xususiy ta’lim
9	**Proctorio**	Yuqori	Test tizimlari bilan	Bor	AI asosida	Bor	Juda yuqori	Canvas, Moodle	Pullik	Keng emas
10	**Quizizz**	Yuqori	Interaktiv testlar	Bor	Yo‘q	Juda yaxshi	O‘rta	LMS, Google Classroom	Bepul/Pullik	Maktab va kurslarda

2-jadval. Raqamli ta’lim platformalari va foydalanuvchi soni (O’zbekistonda)

Platforma / Tizim	Foydalanuvchi soni	Izoh
Coursera (Bir million dasturchi)	2,5 million+	1,7 million muvaffaqiyatli foydalanuvchi
Uzbekcoders.uz	960 000+	420 000 bepul, 2 900 professional kurs foydalanuvchilari
Interaktiv ta’lim platformalari	3 million+	Pandemiya davrida interaktiv platformalardan foydalanganlari

Onlayn imtihon va baholash tizimlari ta’lim jarayonini samarali, tezkor va adolatli tashkil etishda

muhim vosita hisoblanadi. Kelajakda bu tizimlarning rivojlanish istiqbollari keng bo‘lib, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari yo‘lga qo‘yilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, biometrik identifikatsiya, yuzni tanish va ovoz orqali autentifikatsiya kabi texnologiyalar yordamida imtihonlarda xolislikni ta’minlash imkoniyatlari yanada kengayadi.

Takomillashtirish yo‘llari sifatida platformalarning texnik barqarorligini oshirish, internet infratuzilmasini mustahkamlash, foydalanuvchi interfeysini soddalashtirish, turli xil fan va test turlariga moslashuvchanlik kiritish kiradi. Shuningdek, xalqaro tajribadan foydalanib, O‘zbekistonda milliy onlayn imtihon tizimini shakllantirish va uni ta’lim muassasalarida keng tatbiq etish istiqboldagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Onlayn imtihon va baholash tizimlari so‘nggi yillarda ta’lim jarayonida tobora muhim o‘rin egallamoqda. O‘zbekistonda bu tizimlarni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

So‘nggi tadqiqotlarda GIS vektor ma’lumotlarini raster indekslari bilan birlashtirish orqali aniqlikni oshirishga erishilgan. Masalan, Germaniyada o‘tkazilgan tadqiqotda shahar bog‘lari va daraxt qoplamining vektor chegaralari NDVI xaritalari bilan ustma ust joylashtirilganda, biomassa va barg zichligini baholashda xatolik 12 % ga kamaygani aniqlangan. Shu kabi, Hindistonda olib borilgan ishlarda vektor qatlamlari yordamida EVI indekslari statistik tahlil qilingan va har bir daraxt qoplamining o‘rtacha spektral qiymatlari hisoblab chiqilgan .

Cheklovlar.

Shunga qaramay, mavjud ishlarda bir nechta muammolar davom etmoqda [3,5]:

- Siyrak va kichik daraxt qoplamlari ko‘pincha noto‘g‘ri tasniflanadi.
- Shahar hududida fon aralashuvi (asfalt, beton, soyalar) indekslarni buzadi.
- Mavsumiy o‘zgarishlar hisobga olinmaganda natijalar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Shu bois, ushbu maqolada Sentinel-2 ma’lumotlari asosida EVI va TCI indekslarini vektor daraxt qoplamlari bilan integratsiya qilish orqali yuqori aniqlikka erishish yondashuvi taklif qilinadi [8,9]. Bu metodologiya mavjud ishlardagi kamchiliklarni qisman bartaraf etib, shahar hududlarida ekologik monitoring uchun samarali yechim bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XCIV. Materiallar va usullar

A. *Tadqiqot hududi va ma’lumotlar*

Yunusobod tumani, Toshkent shahrining shimoliy sektorida joylashgan bo‘lib (41.342° K, 69.256° V), taxminan 35 km² maydonni egallaydi. Ushbu hudud shahar landshaftining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda turar-joy massivlari, tijorat zonalari, transport yo‘llari va keng ko‘lamli jamoat bog‘lari mavjud. Aynan jamoat bog‘lari va ko‘kalamzor hududlarning tarqalishi tumanning ekologik muvozanatini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Urbanizatsiya jarayonlarining yuqori sur’ati natijasida yashil qoplamning saqlanishi va uning sifatini monitoring qilish ekologik boshqaruv uchun dolzarb masalaga aylangan.

Hududning iqlimi kontinental bo‘lib, yozda juda issiq (o‘rtacha 35–40 °C), qishda esa sovuq (−2–5 °C) haroratlar kuzatiladi. Bunday iqlim sharoiti tufayli fenologik o‘zgarishlar — barglarning bahorda ko‘klashishi, yozda maksimal biomassaga erishishi va kuzda sarg‘ayib to‘kilishi — aniq namoyon bo‘ladi. Shu sababli, yoz fasli daraxt biomassasini baholash uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Vegetatsiya qatlami asosan mahalliy chinor, eman, tut daraxtlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular shahar ko‘kalamzor hududlarining asosiy qismini egallaydi. Bundan tashqari, past qatlamda butalar va o‘tlar tarqalgan bo‘lib, ular daraxt qoplamining umumiy ko‘rinishini to‘ldiradi. Ushbu o‘simlik turlari spektral indekslar qiymatlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi: masalan, zich bargli daraxtlar EVI va NDVI qiymatlarida yuqori ko‘rsatkich beradi, siyrak butalar esa nisbatan past qiymatlar qayd etadi.

Masofadan zondlash ma’lumotlari sifatida Sentinel-2 L2A mahsulotlari ishlatildi. Ma’lumotlar Copernicus Open Access Hub platformasidan 2024-yil iyun oyida yuklab olindi. Sentinel-2 dasturi Yevropa Kosmik Agentligi (ESA) tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, uning asosiy afzalligi yuqori fazoviy aniqlik (10–20 m), keng spektral diapazon (13 kanal) va bepul foydalanish imkoniyatidir. Tadqiqot uchun aynan S2A va S2B sun’iy yo‘ldoshlarining tasvirlari tanlandi. Tanlov mezonlari quyidagilardan iborat edi[10].:

- Bulut qamrovi < 5 % bo‘lishi, chunki bulutlar spektral indekslarni buzishi mumkin.
- Iyun oyidagi yozgi mavsum — daraxt biomassasining maksimal davri.
- Level-2A mahsulotlari — ular allaqachon atmosferaviy tuzatishdan o‘tkazilgan bo‘lib, yuzaga yaqin reflektivlik (Surface Reflectance) qiymatlarini beradi.

Tahlil uchun Sentinel-2 tasvirlarining asosiy multispektral kanallari tanlab olindi:

- B2 (490 nm, ko‘k) — barglardagi xlorofill yutilish zonasini aniqlash.
- B3 (560 nm, yashil) — o‘simliklarning yashil reflektivligi.
- B4 (665 nm, qizil) — xlorofill yutilishi va o‘simlik stressini kuzatish.
- B8 (842 nm, NIR) — barg biomassasi va o‘simlik zichligini baholashda muhim kanal.

Har bir kanal 10 m fazoviy aniqlikda raster shaklida yuklab olindi va keyinchalik vegetatsiya indekslarini hisoblash uchun asosiy manba sifatida

ishlatildi. Ushbu kanallar kombinatsiyasi daraxt qoplamini aniqroq ajratish imkonini beradi.

1-rasmda 2024-yil 29-iyun holatiga ko‘ra Yunusobod tumanining True Color Image (TCI) tasviri keltirilgan. Ushbu tasvir B4 (qizil), B3 (yashil) va B2 (ko‘k) kanallarining kombinatsiyasi asosida qurilgan bo‘lib, inson ko‘zi ko‘radigan tabiiy ranglarda daraxt qoplamini vizual kuzatishga imkon beradi. TCI tasviri keyingi bosqichlarda hisoblangan vegetatsiya indekslari (masalan, EVI) bilan taqqoslash uchun asosiy vizual manba sifatida ishlatildi.

1-rasm. Toshkent shahar Yunusobod tumani TCI tasviri (2024-yil 29 iyun holatiga)

B. Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash

Sentinel-2 L2A mahsulotlari dastlab Top-of-Atmosphere (TOA) reflektivlik qiymatlarida taqdim etiladi. Bu qiymatlar atmosferadagi molekulalar, aerosol, chang va bulutlarning yutilishi yoki tarqalishi sababli asl yer sathini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Shu sababli, tahlilni boshlashdan oldin barcha tasvirlar atmosferaviy tuzatish jarayonidan o‘tkazildi va Surface Reflectance (SR) ko‘rinishiga keltirildi.

Atmosferaviy tuzatish uchun ESA Sen2Cor (v2.11) moduli qo‘llanildi. Ushbu modul quyidagi jarayonlarni amalga oshirdi:

- Aerosol tuzatishi — havodagi chang va tutun zarrachalarining spektral aks ettirishga ta’sirini kamaytirdi.
- Suv bug‘lari va gaz qatlamlari tuzatishi — infraqizil va qizil spektral diapazonlarda yutilishni hisobga oldi.
- Bulut tasnifi va maskalash — QA60 va SCL (Scene Classification Layer) yordamida bulutlar va ularning soyasi aniqlanib, tegishli piksellar maskalandi.
- Yuzaga yaqin reflektivlik (SR) qiymatlari hosil qilindi va ularning fizik birliklari % formatida ifodalandi.

Natijada B2 (ko‘k), B3 (yashil), B4 (qizil) va B8 (NIR) kanallari bo‘yicha tozalangan va atmosfera ta’siridan xoli bo‘lgan rasterlar olindi.

Keyingi bosqichda bulutlarni maskalash amalga oshirildi. Har bir Sentinel-2 tasvirining sifat bandlari (QA60) va Scene Classification Layer (SCL) tahlil qilinib, 5 % dan kam bulut qamroviga ega bo‘lgan sahifalar tanlab olindi. Bulutli va soyali piksellar noaniq spektral natijalar berishi mumkinligi sababli ular maskalab tashlandi[11].. Natijada toza vegetatsiya qoplami tasvirlari keyingi hisob-kitoblarga asos sifatida ishlatildi.

Barcha raster ma’lumotlar WGS 84 / UTM Zone 42N (EPSG:32642) tizimiga qayta proyeksiyalandi. Bu qadam Toshkent shahri hududini mos kartografik tizimda aniqlik bilan aks ettirish imkonini berdi va GIS muhitida boshqa fazoviy qatlamlar bilan integratsiyani osonlashtirdi.

Vektor shaklidagi daraxt qoplamining shapefile ma’lumotlari ham oldindan tozalanib, geometrik sifat nazoratidan o‘tkazildi:

- O‘zaro kesishish (topology check) — bir-biriga mos kelmagan yoki noto‘g‘ri kesishgan poligonlar aniqlanib, tuzatildi.
- Geometriya tekshiruvi — bo‘sh, noto‘g‘ri yoki chala poligonlar bartaraf qilindi.
- Douglas–Peucker algoritmi yordamida soddalashtirish — daraxt qoplamining poligonlari 1 m tolerans bilan soddalashtirildi, bu esa katta hajmdagi vektor ma’lumotlarini yengillashtirdi va hisoblash tezligini oshirdi. Shu bilan birga, poligonlarning tabiiy shakli saqlab qolindi.

Shuningdek, vektor va raster ma’lumotlar bir xil koordinata tizimida (EPSG:32642) moslashtirildi. Bu bosqich integratsiya jarayonida o‘lcham va joylashuv bo‘yicha xatoliklarning oldini oldi.

Umuman olganda, ushbu oldindan qayta ishlash bosqichi natijasida:

1. Atmosfera ta’siridan tozalangan spektral ma’lumotlar olindi.
2. Bulutli hududlar maskalandi.
3. Raster va vektor ma’lumotlari bir xil koordinata tizimida moslashtirildi.
4. Geometriyasi soddalashtirilgan va xatolardan tozalangan daraxt qoplamining shapefile qatlamlari yaratildi.

Bu tayyorlangan ma’lumotlar keyingi bosqichlarda vegetatsiya indekslari hisoblash, rastr-vektor integratsiyasi va statistik tahlil uchun asosiy kirish ma’lumotlari sifatida xizmat qildi.

C. Integratsiya va tahlil

Oldindan qayta ishlangan multispektral tasvirlardan o‘tkaziladigan birinchi bosqich – daraxt qoplamining holatini baholash uchun spektral indekslarni hisoblash. Ushbu tadqiqotda quyidagi indekslar qo‘llanildi:

TCI (True Color Image) – Sentinel-2 tasvirlarining haqiqiy rangli ko‘rinishi bo‘lib, inson ko‘zi ko‘radigan tabiiy ranglarda hududni tasvirlash imkonini beradi. Ushbu tasvir B4 (qizil), B3 (yashil) va B2 (ko‘k) kanallarining kombinatsiyasi asosida hosil qilindi. TCI daraxt qoplamining umumiy tarqalishini vizual baholash hamda boshqa vegetatsiya indekslari, jumladan EVI bilan natijalarni solishtirish uchun asos sifatida ishlatildi.

EVI (Enhanced Vegetation Index) – bu vegetatsiya qoplamining zichligi, barg biomassasi va o‘simlik salomatligini aniq baholash uchun ishlab chiqilgan indeksdir. EVI, NDVI dan farqli o‘laroq, tuproqning aks ettiruvchi xususiyatlari va atmosferadagi yutilish effektlarini hisobga oladi, shuningdek, yorug‘likning o‘zgarishiga nisbatan sezgirlik darajasi past. Shu sababli, EVI shahar hududlarida yoki o‘simlik zichligi yuqori bo‘lgan joylarda yanada ishonchli natijalar beradi.

$$EVI = 2.5 * \frac{NIR - Red}{NIR + 6 * Red - 7.5 * Blue + 1} \quad (1)$$

Ushbu tadqiqotda EVI (Enhanced Vegetation Index) daraxt biomassasi va barg zichligini aniqlashda asosiy indeks sifatida tanlandi. Biroq, faqat indeks xaritalariga tayanish yetarli emas, chunki ayrim hollarda indeks qiymatlari hududning haqiqiy vegetatsiya qoplamasiga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, TCI tasvirlari yordamida indeks natijalari vizual ravishda tekshirildi. EVI va TCI tasvirlarini taqqoslash daraxt qoplamining haqiqiy tarqalishini tasdiqlash va noto‘g‘ri tasniflangan hududlarni aniqlash imkonini berdi [12].

2-rasmda EVI tasviridagi ranglar klassifikatori quyidagicha:

- qiymati -1.0 dan 0 gacha – #d7191c kodli rangda
- qiymati 0 dan 0.1 gacha – #f07c4a kodli rangda
- qiymati 0.1 dan 0.2 gacha – #fec981 kodli rangda
- qiymati 0.2 dan 0.4 gacha – #ffffc0 kodli rangda
- qiymati 0.4 dan 0.6 gacha – #c4e687 kodli rangda
- qiymati 0.6 dan 1.0 gacha – #77c35c kodli rangda

Har bir olingan tasvir bo‘yicha indekslar hisoblanib, o‘zaro taqqoslandi. Keyingi bosqichda indeks xaritalari asosida daraxt qoplamining tarqalishi va zichligini aniqlash uchun piksellar bo‘yicha tahliliy filtrlar va o‘lchovli chegaralar (masalan, EVI > 0.6 = qalin daraxt qoplami) qo‘llandi. Bu yerda har bir indeks orqali olingan xaritalar overlay operatsiyasi yordamida land-use vektor qatlamlari bilan kesishtirilib, faqat o‘rmon va bog‘ hududlari doirasida tahlil davom ettirildi [13, 14].

Shuningdek, mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida indekslar bo‘yicha vaqt seriyalari tahlili o‘tkazildi. Har bir indeksning vaqt bo‘yicha dinamikasi grafigi tuzilib, vegetatsiya fazalaridagi o‘sish, stabilizatsiya va stress davrlari aniqlandi. Ushbu yondashuv daraxt qoplamining biologik faolligi va ekotizimning holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi [15].

2-rasm. Hudud uchun EVI va TCI tasvirlar solishtiruvi.

2-rasmda ko‘rsatilganidek, EVI xaritalarida yuqori qiymatlar daraxt biomassasining katta zichligini bildiradi. Ushbu hududlar TCI tasvirida ham to‘liq yashil qoplam sifatida ajralib turadi, bu EVI indeksining ishonchliligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, EVI qiymati past bo‘lgan hududlar TCI tasvirida ochiq tuproq yoki kam o‘simlikli joylar sifatida ko‘rinib, indeks natijalari bilan yuqori darajada moslikka ega bo‘ldi. Biroq, ayrim zich, ammo kichik daraxt qoplamlari bo‘lgan hududlarda EVI qiymatlari past chiqqan, TCI tasvirlari esa daraxtlarni aniq ko‘rsatgan. Bu kelajakda indeks chegaralarini moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi [16].

XCV. MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, EVI indeksi daraxt biomassasi va barg zichligini aniqlashda yuqori ishonchlilikka ega bo‘lsa-da, ayrim kichik yoki siyrak daraxt qoplamlarini aniqlashda cheklovlarga duch keladi. Shu sababli, TCI tasvirlari bilan integratsiya qilish natijalarni tekshirish va tasdiqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Bu yondashuv nafaqat umumiy yashil hududlarni baholash, balki daraxtlarning salomatlik darajasini ham aniqlash imkonini berdi. Biroq, indeks qiymatlarining ba’zi hollarda vegetatsiya qoplamining haqiqiy ko‘rinishiga to‘liq mos kelmaganligi kelgusida moslashtirilgan chegaralar va qo‘shimcha ma’lumot manbalarini jalb etish zaruratini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, geofazoviy vektor ma’lumotlarini masofadan zondlash indekslari bilan birlashtirish shahar landshaftlarini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu metodologiya urbanizatsiya jarayoni tez kechayotgan hududlarda yashil hududlarning monitoringini samarali tashkil etish va ekologik xavflarni erta aniqlash uchun qo‘llanilishi mumkin. Kelgusida ushbu yondashuvni boshqa fasllarda ham sinovdan o‘tkazish va yuqori fazoviy aniqlikka ega bo‘lgan qo‘shimcha sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari bilan boyitish shahar ekologik boshqaruvi uchun yanada to‘liqroq va barqaror natijalar taqdim etadi.

XCVI. XULOSA

Ushbu tadqiqot shahar daraxt qoplamini aniqlashda EVI va TCI tasvirlarini, shuningdek, alohida qoplam vektor

ma’lumotlari bilan multispektrli sun’iy yo‘ldosh indekslarini integratsiya qilish orqali yuqori aniqlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi. EVI orqali olingan daraxt biomassasi zichligi TCI tasvirlari yordamida vizual tasdiqlandi, bu esa natijalarning ishonchliligini oshirdi. Ushbu yondashuv aniq qoplam chegaralari va spektral o‘simlik indekslarini birlashtirish orqali raster-yagona usullarga nisbatan ustun natijalar berdi. Yunusobod tumani misolida olingan natijalar shahar o‘rmonlarini monitoring qilish, daraxt salomatligini baholash hamda yashil hududlarni samarali boshqarishda amaliy yordam beradi. Shuningdek, EVI va TCI tasvirlarini birgalikda qo‘llash kelajakdagi tadqiqotlarda daraxt qoplamining biologik faolligini aniqlash va shahar ekologik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish uchun samarali yechim sifatida tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

Rouse, J.W., Haas, R.H., Schell, J.A., & Deering, D.W. (1974). *Monitoring vegetation systems in the Great Plains with ERTS*. Proceedings of the Third Earth Resources Technology Satellite-1 Symposium. NASA SP-351, Vol. 1, pp. 309–317. (NDVI ning klassik manbasi)

Huete, A.R., Didan, K., Miura, T., Rodriguez, E.P., Gao, X., & Ferreira, L.G. (2002). *Overview of the radiometric and biophysical performance of the MODIS vegetation indices*. Remote Sensing of Environment, 83(1–2), 195–213. https://doi.org/10.1016/S0034-4257(02)00096-2 (EVI metodologiyasi)

Wulder, M.A., White, J.C., Loveland, T.R., et al. (2016). *The global Landsat archive: Status, consolidation, and direction*. Remote Sensing of Environment, 185, 271–283. https://doi.org/10.1016/j.rse.2015.11.032 (Landsat ma’lumotlarining urban monitoringdagi o‘rni)

Li, X., Zhou, Y., Zhu, Z., Liang, L., Yu, B., & Cao, W. (2015). *Mapping urban tree species using Sentinel-2 imagery and random forest classifier in Beijing, China*. Remote Sensing, 7(12), 16917–16936. https://doi.org/10.3390/rs71215859 (Sentinel-2 yordamida Pekin shahrida daraxt qoplamini aniqlash)

Forkel, M., Carvalhais, N., Verbesselt, J., Mahecha, M.D., Neigh, C.S.R., & Reichstein, M. (2013). *Trend change detection in NDVI time series: Effects of inter-annual variability and methodology*. Remote Sensing, 5(5), 2113–2144. https://doi.org/10.3390/rs5052113 (Mavsumiy o‘zgarishlar va NDVI dinamikasi)

Xie, Y., Sha, Z., & Yu, M. (2008). *Remote sensing imagery in vegetation mapping: a review*. Journal of Plant Ecology, 1(1), 9–23. https://doi.org/10.1093/jpe/rtm005 (Masofadan zondlash orqali o‘simlik xaritalash)

Immitzer, M., Vuolo, F., & Atzberger, C. (2016). *First experience with Sentinel-2 data for crop and tree species classifications in Central Europe*. Remote Sensing, 8(3), 166. https://doi.org/10.3390/rs8030166 (Sentinel-2 bilan daraxt turlarini tasniflash tajribasi)

Breiman, L. (2001). *Random Forests*. Machine Learning, 45(1), 5–32. https://doi.org/10.1023/A:1010933404324 (Random Forest urban ekologiya tadqiqotlarida qo‘llanilishi)

Kuchkorov, T., and A. Mamataliev. “MULTISPECTRAL REMOTE SENSING DATA PROCESSING FOR CROP DETECTION”. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, vol. 3, no. 2, Apr. 2025, pp. 80-85, https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v3i213.

Huete, Alberto R., et al. “Development of Vegetation and Soil Indices for EOS–MODIS.” Remote Sensing of Environment, vol. 49, no. 3, 1994, pp. 224–234. https://doi.org/10.1016/0034-4257(94)90018-3.

Rouse, J. W., R. H. Haas, J. A. Schell, and D. W. Deering. “Monitoring Vegetation Systems in the Great Plains with ERTS.” Proceedings of the Third ERTS Symposium, NASA SP-351, 1974, pp. 309–317.

Huete, Alberto R., et al. “Overview of the Radiometric and Biophysical Performance of the MODIS Vegetation Indices.” Remote Sensing of Environment, vol. 83, no. 1–2, 2002, pp. 195–213. https://doi.org/10.1016/S0034-4257(02)00096-2.

Qi, Jiaguo, et al. “A Modified Soil Adjusted Vegetation Index.” Remote Sensing of Environment, vol. 48, no. 2, 1994, pp. 119–126. https://doi.org/10.1016/0034-4257(94)90134-1.

Weng, Qi. “Remote Sensing of Impervious Surfaces in Urban Areas: Requirements, Methods, and Trends.” Remote Sensing of Environment, vol. 117, 2012, pp. 34–49. https://doi.org/10.1016/j.rse.2011.02.030.

Zhu, Xiaoxiang, and Curtis E. Woodcock. “Automated Cloud, Cloud Shadow, and Snow Detection in Multitemporal Landsat Data: An Algorithm Designed Specifically for Monitoring Land Cover Change.” Remote Sensing of Environment, vol. 152, 2014, pp. 217–234. https://doi.org/10.1016/j.rse.2014.06.012.

Popescu, Sorin C., et al. “Satellite Remote Sensing Applications for Urban Forestry: A Review.” Urban Forestry & Urban Greening, vol. 10, no. 3, 2011, pp. 137–147. https://doi.org/10.1016/j.rse.2014.06.012.

KICHIK KOSMIK KEMA BAZASIDAGI SUN'IY YO'LDOSH RADIOMONITORING TIZIMI ORQALI RADIONURLANISH MANBALARINING JOYLASHGAN JOYINI ANIQLASH

Davronbekov Dilmurod Abdujalilovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU "Mobil aloqa kafedrasi"
texnika fanlar doktori

Rajabov Shoxrux Haydarovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU "Mobil aloqa kafedrasi" 809-24-guruh magistranti

Annotatsiya. Bugungi kunda mavjud yer usti radiomonitoring vositalari yordamida radiomonitoring vazifalarini sifatli bajarish murakkabligicha qolmoqda. Katta hududga ega davlatlar radiochastota spektrini kuzatish tizimining samaradorligini oshirish uchun radiomonitoring stansiyalari sifatida past orbitali kichik kosmik apparatlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanmoqda. Mazkur maqolada burchak o'lchash uslubi orqali radionurlanish manbalarining koylashgan joyini aniqlash yoritiladi

Kalit so'zlar: radionurlanish manbasi, radiomonitoring, koordinatalarni aniqlash, past orbitali sun'iy yo'ldosh, kichik kosmik kema, radiochastota spektri.

I. KIRISH

Hozirgi vaqtda radiomonitoring tizimlarining samaradorligini oshirish vazifasi o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda. Radiomonitoring tizimlarining asosiy maqsadi radiochastota spektridan foydalanishni davriy yoki doimiy monitoring qilish bo'lib qolmoqda. Yer tizimlarida bir qator kamchiliklari mavjud, masalan, radiomonitoring zonasining cheklanganligi, radionazorat punktlarining soni yetrali emasligi, qiyin iqlim sharoitida va murakkab relyefli hududlarda radio monitoringi tadbirlarini olib borishni qiyinligi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, radiomonitoring jarayonlari yetarlicha avtomatlashtirilmagan, jumladan, avtomatlashgan radiomonitoring jarayonlarining yetarli darajada emasligidir.

Murakkab relyefli hududlarda (tog' va tog' tizmali, suv va boshqalar) yer usti radiomonitoring vositalari yordamida radiomonitoringни amalga oshirish ushbu jarayonlarni murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan, katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlar uchun sun'iy yo'ldosh tizimlariga asoslangan radio monitoring tizimlari eng istiqbolli hisoblanadi. Bunday tizimlar bir qator afzalliklarga ega: yuqori samaradorlik, tezkorlik, global ko'rinish va hududni to'liq qamrab olish.

Radio nurlanish manbalarining joylashishini aniqlash uchun ma'lum metodlar bo'lib, qabul qilingan signal darajasiga (received signal strength (RSS)), signal tashuvchi faza (POA - carrier phase of arrival), kelish vaqti tafovuti (FDOA - time difference of arrival), kelish burchagi (AOA – angle of arrival или направлении прихода DOA – direction of arrival), kelish chastota tafovuti (FDOA – frequency difference of arrival), dopler chastota tafovuti (doppler difference – DD) va aralash uslublar bo'lib, ikki yoki uchta yuqoridagi uslublardan tarkib topadi. Bugungi kunda sun'iy yo'ldosh tizimlarida eng ko'p qo'llaniladigan usullar TDOA va FDOA hisoblanadi. Biroq, bunday usullar bir nechta sun'iy yo'ldoshlarni talab qilib, bu iqtisodiy nuqtai nazardan samarasizdir. Shuning uchun bitta past orbitali sun'iy yo'ldosh bazasida radiomonitoring funksiyalarini amalga oshirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Kichik kosmik kemadan foydalangan holda radio monitoring tizimini yaratishda turli xil yerdagi radionurlanish manbalaridan kosmik apparatning bortdagi qabul qilgichining kirishida signal darajalari to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi kerak. Maqolada radioaloqa byudjeti tahlil qilinadi, bu radiochastota spektridan foydalanishni radio monitoringi uchun past orbitali kichik kosmik apparatdan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Radionurlanish manbalarining joylashган joyini aniqlash vazifasini hal qilishda koordinatalarni aniqlash usulini tanlash kerak. Mazkur maqolada past orbitali sun'iy yo'ldosh turkumidan foydalangan holda radionurlanish manbalarining koordinatalarini aniqlash usullarini ko'rib chiqadi va taklif qilinadi. Biroq, radio monitoring tizimini yaratishning birinchi bosqichida bitta kichik kosmik apparatdan foydalanishni ko'rib chiqish tavsiya etiladi, bu esa radiomonitoring tizimini soddalashtiradi va arzonlashtiradi.

II. TADQIQOT USULLARI

Bitta kichik kosmik apparat bazasidan radionurlanish manbalarining koordinatalarini (kenglik va uzunlik) aniqlash uchun kosmik apparat aylana qutbli orbitada (orbital og'ishi i = 90°) joylashgan bo'lishi kerak. Uning metodi 1-rasmda ko'rsatilgan.

1-rasmda quyidagi belgilar qo'llanilgan: O - Yerning og'irlik markazi; D – radionurlanish manbasining joylashuvi; B – kichik kosmik apparat joylashuvi.

Radionurlanish manbasi joylashuvining

kengligini aniqlashda ellipsda qurilgan AOB uchburchak parametrlarini tahlil qilish asosida aniqlandi (ZOY tekisligining sferoid kesmasi). A nuqtasi radionurlanish manbasi joylashgan жойдан parallel bilan kesishish nuqtasida (ya'ni, bir xil kenglikda) kosmik kemaning yo'lidagi sirtda joylashgan; tomoni Re=OA (Yerning radiusi), φ kengligiga ko'ra; OB=RO tomoni (kichik kosmik apparat orbitasining radiusi); φ – radionurlanish manbasining kengligi (OA yo'nalishi va ekvator tekisligi orasidagi burchak); α – kichik kosmik apparat kengligi (OB yo'nalishi va ekvator tekisligi orasidagi burchak).

AOB uchburchakdagi burchaklar : (φ – α) – γ kengliklar farqi, y AB tomoniga qarama-qarshi; β – burchak, bu nuqtada kichik kosmik apparatdan OB yo'nalishiga nisbatan A ko'rinadi, u OA tomonlariga qarama-qarshidir; k – uchburchakdagi 3-burchak, OB tomoniga qarama-qarshi. Uchburchakning 3 ta ma'lum parametrlari bilan uning boshqa parametrlarini topish oson. Bunday holda, OB tomoni va β burchagi ma'lum (skanerlash paytida aniqlanadi), boshqa parametrlar φ ga bog'liq. Shuning uchun iteratsiya usulini qo'llash kerak bo'ladi. Yer yuzasi sharsimon bo'lmaganligi va sirtini matematik ifodalash qiyin bo'lgan geoid shakliga ega bo'lganligi sababli, bir qator amaliy masalalarni yechishda, geoid yuzasi o'rniga sferoid yuzasi (ellipsoid ko'rinishli) olinadi – geoidning shakliga o'xshash.

O'zbekiston Respublikasi hududining radiomonitoring sohasi shimoliy kenglikning =37° dan φ=45° gacha diapazonda joylashgan (radiomonitoring sohasining o'rtacha qiymati φ=41°). Aynan o'rta kenglikda biz kichik kosmik apparatning orbital balandligini tanlaymiz h (bizning holatimizda h=650 km). Aylana orbitasining radiusini aniqlash uchun RO Ellipsoidning radiusini (Yerning og'irlik markazidan sirtgacha bo'lgan chiziqli masofa) hisoblash talab qilinadi. Xolbuki bu kenglikka bog'liq. Re (φ =41°) uchun 6378137 m bo'ladi.

III. ILMIY NATIJALAR

Ushbu tizimni amalga oshirish uchun kichik kosmik apparatda 2 ta panjarali faol fazali antenna bo'lishi lozim. Radionurlanish manbasini aniqlash uchun pamjarali faol fazali antenna yer yuzasining ma'lum bir qismini skanerlash burchagiga ega bo'lishi kerak.

1.1. Radionurlanish manbasining joylashuv kengligini aniqlash uchun algoritm

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, agar OB tomoni va β burchak ma'lum bo'lsa (skanerlash paytida aniqlanadi), qolgan parametrlar aniqlanishi kerak bo'lgan φ ga bog'liq bo'ladi.



1-rasm. Bitta kichik kosmik apparat bazasida radionurlanish manbasining koordinatalarini aniqlash

Uchburchakning faqat ikkita parametri ma'lum bo'lganligi sababli, iteratsiya usulini qo'llash kerak bo'ladi. Shuningdek, kichik kosmik apparat orbitasidan radionurlanish manbasi joylashuvining qaysi kenglik diapazoni "ko'rinib turadi" degan savolga javob olish kerak. Buning uchun tenglamalar tizimini yechish kerak:

- ellipsning kanonik tenglamasi:

$$\frac{Y^2}{a^2}+\frac{Z^2}{b^2}=1$$

Bu erda Y va Z - ellipsning koordinatalari, a - katta yarim o'q,

b - kichik yarim o'q.

- kichik kosmik apparat joylashgan nuqtadan ellipsga teginish tenglamasi:

$$\frac{Y_k Y_b}{a^2}+\frac{Z_k Z_b}{b^2}=1.$$

Ekvatorda kichik kosmik apparatning koordinatalarini tanlash qulay (Yb=7016299 m; Zb = 0 m). Birinchidan, Zb= 0 m da biz Zk= a2/b2 keyin Zk o'tamiz:

$$Z_k=\sqrt{\left(1-\frac{a^2}{Y_b^2}\right)*b^2}$$

Kesishish nuqtasi koordinatalari Zk=2648836 m; Yk=5798016,7 m.

Kesishish nuqtasining kengligi

$$\varphi_k=\operatorname{arctg}\left(\frac{Z_k}{Y_k}\right)=24{,}55°$$

Shunday qilib, kichik kosmik apparat bilan ekvatorda radionurlanish manbalari 0° dan 24,55°

gacha kenglik diapazonida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ko'rinadi. Kichik kosmik apparatni α=40° kenglikka o'tganda raionurlanish manbasi joylashgan joylarning ko'rinadigan kengliklarining taxminan bir xil diapazoni saqlanib qoladi (40° dan 61,55° gacha).

β ni noaniq baholash hisobiga φ ni aniqlashning xatoligini kamaytirish φ(β) ning qaysi uchastkasiga bog'liqligi muhimdir.

Buning natijasini, masalani teskari yechish orqali olish mumkin (ma'lum φ dan foydalanib, biz β ni aniqlaymiz). Quyidagi hisoblash formulasi yordamida natijalarni olishimiz mumkin (hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval – α=40° β ning φ radionurlanish manbasi joylashuvi kengligiga bog'liqlik ko'rsatkichi

$\beta(\varphi) = \arcsin\left[R(\varphi) * \frac{\sin(\gamma)}{AB(\gamma)}\right]$ φ, °	γ, °	$R_э(\varphi)$, m	AB(γ), m	β (γ), °
40	0	6369274	647024,9	0
41	1	6368905	657822,6	9,72798
42	2	6368535	688504,6	18,8332
43	3	6368163	736578,7	26,9026
44	4	6367790	798894,6	33,7804

1-jadvalda ma'lum bo'ladiki, β(φ) bog'liqlikning boshlang'ich qismiga e'tibor berish kerakligi ko'rsatilgan. GPS/GLONASS yordamida manbaning joylashishni yuqori aniqlashga erishish mumkin.

Radionurlanish manbasining kengligini aniqlashda mumkin bo'lgan xatolarni ko'rib chiqamiz. Antenna nurining yo'nalishini Yerning og'irlik markaziga (O nuqtasi) noto'g'ri o'rnatish tufayli Δφo xatoligini (boshqa apparat xatolari ham shu yerga kiritilishi mumkin) quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$\Delta\varphi_o = \left(\frac{\Delta\varphi}{\Delta\beta}\right) * \Delta\beta_o$$

2-jadvalda boshlang'ich α = 40° bo'lganda ΔφoΔβo o'rtacha bog'liqlik qiymati keltirilgan; Δφ/Δβ = 0,1028° (1-jadvaldagi ma'lumotlar).

2-jadval – Δφo/Δβo bog'liqligi

$\Delta\varphi_{o,}$°	0,1028	0,09252	0,08224	0,07196	0,06168	0,0514	0,04112	0,03084	0,02056	0,01028
$\Delta\beta_{o,}$ °	1	0,9	0,8	0,7	0,6	0,5	0.4	0.3	0.2	0,1

Xatolikni quyidagi formula yordamida chiziqli o'lchamlarga aylantirish mumkin:

$$\Delta l_0 = \sqrt{\left[R_э^2(40,5) + R_э^2(40,5+\Delta\varphi_0) - \right.} \\ \left. -2 \cdot R_э(40,5+\varphi_0) \cdot \cos\Delta\varphi_0\right]$$

Xulosa qilib aytganda, oxirgi misoldan foydalanib, biz relefning dengiz sathidan balandligi (hm=1000 m bo'lsin)da radionurlanish manbasining joylashuvining kengligini aniqlashdagi xatoga ta'sirini baholaymiz.

Bunda Rэ (41,6°) + 1000 = 6369683 m, yangi qiymat AB=653318,427 m, yangi qiymat β = 7,8238°, o'zgarish Δβ = 0,013° va xatolik Δφ=0,1024*0,013 = 0,001°. Chiziqli o'lchamlarda bu taxminan 111 metrni tashkil etadi.

1.2. Radionurlanish manbasi joylashuvining uzunligini aniqlash uchun taklif qilingan algoritm

Radionurlanish manbasining kengligini φ aniqlagandan so'ng (1.1-kichik bo'limda keltirilgan usuldan foydalanib), uzunlikni aniqlashga o'tamiz. 1-rasmda ko'rsatilgan ABD , ACD , BCD uchburchaklar parametrlarini tahlil qilish asosida radionurlanishmanbasining uzunligini aniqlashning o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Signal paydo bo'lganda radionurlanish manbasining yo'nalishi μ burchak (μ - kichik kosmik apparatdan (B nuqta) dan radionurlanish manbasiga (D nuqta) va A nuqtaga yo'nalishlar orasidagi burchak) yordamida aniqlanadi, shuningdek uzunlikni tuzatish η belgisi kichik kosmik apparat (Θ) uzunligiga nisbatan g'arbiy yo'nalishda - (+ (musbat)) va sharqiy yo'nalishda– (- (manfiy)) bo'ladi. 1-rasmda radionurlanish manbasining faqat g'arbiy joylashuvi (D nuqtasi) ko'rsatilgan, xuddi shunday, D nuqta sharqiy yo'nalishda bir xil μ burchak ostida bo'lishi mumkin.

A nuqtasi - yuqorida muhokama qilingan parallelning Yer yuzasida kichik kosmik apparat orbitasining izi bilan kesishish nuqtasidir. C nuqtasi OZ o'qida radionurlanish manbasi joylashgan parallel bo'ylab tekislik bilan kesishgan nuqtada (ya'ni bir xil kenglikda) joylashgan . Bu qism A va D nuqtalari yotadigan aylana bo'lib, C nuqta esa bu doiraning markazidir. Doira radiusi R=AC =DC=Rэ(φ)*cosφ.

BC tomoni – kichik kosmik apparat va C nuqta orasidagi masofa, BD tomoni – kichik kosmik apparat va radionurlanish manbasi orasidagi masofa, BA tomoni – kichik kosmik apparat va A nuqta orasidagi masofa, AD tomoni (doira akkordi), η tuzatmani aniqlash uchun bilish lozim bo'lgan qiymat. Barcha masofalarni aniqlash uchun A , B , C va D nuqtalarining koordinatalari talab qilinadi.

D nuqtaning koordinatalarini aniqlash uchun (Xd ,Yd) kosinus teoremasini qo'llaymiz. Keyinchalik, D nuqtasining koordinatalarini aniqlash uchun (Xd ,Yd), biz to'rtinchi darajali tenglamani yaratishimiz kerak. D nuqtaning koordinatalarini aniqlagandan so'ng (Xd , Yd) AD segmentini aniqlashimiz kerak :

$$AD = \sqrt{(X_d - X_a)^2 + (Y_d - Y_a)^2}$$

AD va R bo'yicha uzunlik (η) uchun tuzatishni aniqlaymiz:

$$\eta = 2 \cdot \arcsin\left(\frac{AD}{2R}\right)$$

Radionurlanish manbasining (v) uzunligini aniqlaymiz:

Radionurlanish manbasining uzunligi v = Θ-η (agar radionurlanish manbasi kichik kosmik apparatning g‘arbiy qismida bo‘lsa);

Radionurlanish manbasining uzunligi v =Θ+η (agar agar radionurlanish manbasi kichik kosmik apparatning sharqiy qismida bo‘lsa)

Radionurlanish manbasining kengligini aniqlash algoritmi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

.



2-rasm - Radio nurlanish manbalarining kengligini aniqlash algoritmi

Xatolikni quyidagi formula yordamida chiziqli o‘lchamlarga aylantirish mumkin:

$$\Delta l_0 = \sqrt{\left[\begin{matrix} R_э^2(40,5) + R_э^2(40,5+\Delta\varphi_0) - \\ -2 \cdot R_э(40,5+\varphi_0) \cdot \cos\Delta\varphi_0 \end{matrix}\right]}$$

Xulosa qilib aytganda, oxirgi misoldan foydalanib, biz relefning dengiz sathidan balandligi (hm=1000 m bo‘lsin)da radionurlanish manbasining joylashuvining kengligini aniqlashdagi xatoga ta’sirini baholaymiz.

Bunda Rэ (41,6°) + 1000 = 6369683 m, yangi qiymat AB=653318,427 m, yangi qiymat β = 7,8238°, o‘zgarish Δβ = 0,013° va xatolik Δφ=0,1024*0,013 = 0,001°. Chiziqli o‘lchamlarda bu taxminan 111 metrni tashkil etadi.

1.2. Radionurlanish manbasi joylashuvining uzunligini aniqlash uchun taklif qilingan algoritm

Radionurlanish manbasining kengligini φ aniqlagandan so‘ng (1.1-kichik bo‘limda keltirilgan usuldan foydalanib), uzunlikni aniqlashga o‘tamiz. 1-rasmda ko‘rsatilgan ABD , ACD , BCD uchburchaklar parametrlarini tahlil qilish asosida radionurlanishmanbasining uzunligini aniqlashning o‘ziga xosligini ko‘rib chiqamiz. Signal paydo bo‘lganda radionurlanish manbasining yo‘nalishi μ burchak (μ - kichik kosmik apparatdan (B nuqta) dan radionurlanish manbasiga (D nuqta) va A nuqtaga yo‘nalishlar orasidagi burchak) yordamida aniqlanadi, shuningdek uzunlikni tuzatish η belgisi kichik kosmik apparat (Θ) uzunligiga nisbatan g‘arbiy yo‘nalishда - (+ (musbat)) va sharqiy yo‘nalishda– (- (manfiy)) bo‘ladi. 1-rasmda radionurlanish manbasining faqat g'arbiy joylashuvi (D nuqtasi) ko‘rsatilgan, xuddi shunday, D nuqta sharqiy yo‘nalishda bir xil μ burchak ostida bo‘lishi mumkin.

A nuqtasi - yuqorida muhokama qilingan parallelning Yer yuzasida kichik kosmik apparat orbitasining izi bilan kesishish nuqtasidir. C nuqtasi OZ o‘qida radionurlanish manbasi joylashgan parallel bo‘ylab tekislik bilan kesishgan nuqtada (ya’ni bir xil kenglikda) joylashgan . Bu qism A va D nuqtalari yotadigan aylana bo‘lib, C nuqta esa bu doiraning markazidir. Doira radiusi R=AC =DC=Rэ(φ)*cosφ.

BC tomoni – kichik kosmik apparat va C nuqta orasidagi masofa, BD tomoni – kichik kosmik apparat va radionurlanish manbasi orasidagi masofa, BA tomoni – kichik kosmik apparat va A nuqta orasidagi masofa, AD tomoni (doira akkordi), η tuzatmani aniqlash uchun bilish lozim bo‘lgan qiymat. Barcha masofalarni aniqlash uchun A , B , C va D nuqtalarining koordinatalari talab qilinadi.

D nuqtaning koordinatalarini aniqlash uchun (Xd ,Yd) kosinus teoremasini qo‘llaymiz. Keyinchalik, D nuqtasining koordinatalarini aniqlash uchun (Xd ,Yd), biz to'rtinchi darajali tenglamani yaratishimiz kerak. D nuqtaning koordinatalarini aniqlagandan so'ng (Xd , Yd) AD segmentini aniqlashimiz kerak :

$$AD = \sqrt{(X_d - X_a)^2 + (Y_d - Y_a)^2}$$

AD va R bo‘yicha uzunlik (η) uchun tuzatishni aniqlaymiz:

$$\eta = 2 \cdot \arcsin\left(\frac{AD}{2R}\right)$$

Radionurlanish manbasining (v) uzunligini aniqlaymiz:

Radionurlanish manbasining uzunligi v = Θ-η (agar radionurlanish manbasi kichik kosmik apparatning g‘arbiy qismida bo‘lsa);

Radionurlanish manbasining uzunligi v =Θ+η (agar agar radionurlanish manbasi kichik kosmik apparatning sharqiy qismida bo‘lsa). Ishlab chiqilgan algoritmning blok diagrammasi 3-rasmda ko‘rsatilgan. Dasturiy ta’minotni amalga oshirish ilovasi C# tilida ishlab chiqilgan 3-rasmda ko‘rsatilgan.

Radionurlanish manbasining kenglik va uzunligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturlar bitta kichik o‘lchamli kosmik kemaga asoslangan sun’iy yo‘ldosh radio monitoring tizimlarida foydalanish uchun taklif etiladi.

XULOSA

Bitta kichik kosmik apparat yordamida goniometrik usul asosida yerdagi radionurlanish manbalari koordinatalarini aniqlash usuli, algoritmlari va kompyuter dasturi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan algoritmlardan foydalangan holda radionurlanish manbalari koordinatalarini aniqlashda mumkin bo‘lgan xatolar ko‘rib chiqildi. Ushbu usuldan sun’iy yo‘ldosh radio monitoring tizimini yaratishning dastlabki bosqichlarida foydalanish tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqotlar panjarali faol fazali antenna kabi samarali antenna tizimlarini va radio monitoring sifatini yaxshilash uchun radionurlanish manbasi radio signallarini aniqlash va tanib olish ishonchliligini oshirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi kerak.



4-rasm. Radionurlanish manbasining kenglik va uzunligini aniqlash dasturining ishchi oynasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] 1. Rembovsky A.M., Ashikhmin A.V., Kozmin V.A., Smolskiy S.M. Radio Monitoring: Automated Systems and Their Components. Springer, 2018. – 486 p.

[2] 2. Официальный сайт РГП «Государственная радиочастотная служба» Министерства цифрового развития, инноваций и аэрокосмической промышленности РК. https://rfs.gov.kz 20.03.2022.

[3] 3. Dempster A.G., Cetin E. Interference Localization for Satellite Navigation Systems // Proceedings of the IEEE. 2016. – Т. 104. – № 6. – С. 1318-1326.

[4] 4. Comparison of time-difference-of-arrival and angle-of-arrival methods of signal geolocation: report ITU-R / SM Series, Spectrum management. – ITU: Geneva, Switzerland, 2018. – 26 p. – No. SM.2211-2.

[5] 5. Takeshi A., Nobuhiro S. TDOA/FDOA geolocation in space radio monitoring using RLMS and gating // IEICE Communications Express. 2019. – Vol. 8, no. 6. – Pp. 207-212.

[6] 6. Cao Y et al. A new iterative algorithm for geolocating a known altitude target using TDOA and FDOA measurements in the presence of satellite location uncertainty // Chinese Journal of Aeronautics. – 2015, no. 5. – Pp. 1510-1518.

[7] 7. Айтмагамбетов А.З., Кулакаева А.Е., Кожахметова Б.А., Жаксылық А.Ж. Оценка энергетического бюджета для системы радиомониторинга на базе низкоорбитальных спутников // Вестник АУЭС. – Алматы, 2019. – № 4 (47). – С. 88-95.

[8] 8. Aitmagambetov A.Z., Butuzov Yu.A., Kulakayeva A.E. Mathematical models for determining the location of radio emission sources in radio monitoring systems on the basis on low-orbit satellites // T-Comm. – 2016. – Vol. 10, no. 1. – Pp. 73-76.

[9] 9. Levanon N. Quick position determination using 1 or 2 LEO satellites, in Aerospace and Electronic Systems // IEEE Transactions on Aerospace and electronic Systems. 1998, T. 34. – No. 3. – Pp. 736-754.

[10] 10. Патент на полезную модель 6346 Республики Казахстан, МПК G01S 5/00. Способ определения местоположения источников радиоизлучения с помощью низкоорбитального малого космического аппарата / Кулакаева А.Е., Айтмагамбетов А.З., Бутузов Ю.А., Кожахметова Б.А.; заявитель и патентообладатель Международный университет информационных технологий. – № 2021/0332.2; заявл. 06.04.21; опубл. 08.10.21, Бюл. № 33, 20.08.2021. – 3

SATELLITE COMMUNICATION SYSTEMS: GEO, MEO AND LEO ORBIT TYPES AND THE APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Davronbekov Dilmurod Abdujalilovich,
Tashkent University of Information Technology named after Muhammad al-Khwarazmi,
t.f.d., professor

Norboboev Elyorjan Isomiddinivich,
Tashkent University of Information Technology named after Muhammad al-Khwarazmi, master
enieni3260@gmail.com

Abstract-This article analyzes the main technical parameters of geostationary (GEO), medium-earth orbit (MEO) and low-earth orbit (LEO) satellite communication systems, their advantages and disadvantages. The systems are compared in terms of altitude, signal delay, coverage area, frequency range, power consumption and space debris risk. Although LEO systems are characterized by low latency (20–50 ms) and high speed (100–300 Mbps), they have problems such as thousands of satellites and increased space debris risk. GEO systems have a long service life (12–15 years) and wide coverage, but high latency (240–300 ms) makes them inconvenient for real-time use. Also, complex tasks such as network resource allocation, signal quality prediction, energy management and space debris tracking are being automated using artificial intelligence (AI). The results of the study show that LEO systems have the potential to lead the global Internet, but international cooperation is needed to solve security, environmental and economic problems.

Keywords — satellite, GEO, LEO, MEO, artificial intelligence, space debris.

I. INTRODUCTION

Having become an integral part of the modern communication infrastructure, satellites provide services such as television, telephone communication, navigation, and the Internet [12]. Their development began after the launch of Sputnik-1 in 1957 [16].

Communication satellites are distinguished by three main types of orbits — GEO, MEO, and LEO — [12]. Each has its own technical characteristics. GEO systems have a wide coverage area, but have high latency. LEO systems have low latency, high speed, but require thousands of satellites [5].

Artificial intelligence (AI) is widely used in modern satellite networks to perform complex tasks such as network management, signal quality prediction, security, orbit optimization, and energy consumption reduction [6, 1]

II. . PROBLEM STATEMENT

The main disadvantage of GEO systems is the large signal delay (240–300 ms), which is inconvenient for applications such as VoIP and online gaming [12]. Frequency resources are limited, since there are only a limited number of “parking” points in orbit [8, 9].

MEO systems are specialized for navigation, but are not efficient for communication [16, 13].

The main problem of LEO systems is that each satellite covers the Earth for only 5–15 minutes, so thousands of satellites are needed to cover the entire globe [12, 5]. This complicates network management.

Another serious problem is space debris. There are more than 30,000 tracked objects in LEO orbit. Each new satellite increases the risk of collision [7, 14].

III. SOLUTION METHODS:

A. A. GEOSTATIC ORBIT (GEO) SATELLITES

Geostatic orbit (GEO) satellites are satellites that are located in the Earth's equatorial plane, approximately 35,786 km above the center of the Earth, and have an orbital period (23 hours 56 minutes

4 seconds) that matches the Earth's rotation period. This means that they always remain in the same place relative to the same point on the Earth's surface, that is, they remain "invisible" at some point in the sky. Due to this feature, GEO satellites are ideal for providing a continuous communication network [12].

Satellites in this orbit are mainly used in areas such as television broadcasting, telephone communication, meteorological data transmission, and national security. For example, international networks such as Intelsat, Eutelsat, and AsiaSat use the GEO orbit. A single GEO satellite can cover about one-third of the Earth's surface, so only three satellites are needed to cover the entire globe [16].

However, one of the main disadvantages of GEO systems is the large signal delay. The radio signal travels from the Earth station to the satellite (35,786 km) and then back again. The total distance is about 71,572 km, and although the signal speed is close to the speed of light (300,000 km/s), this introduces a delay of 240–300 milliseconds (ms). This is inconvenient for applications such as VoIP, online gaming, or real-time data exchange [12].

Another problem is the limited frequency resources. The GEO orbit has a limited number of "parking" points, as nearby satellites must be spaced at least 2° apart to avoid radio interference. The International Telecommunication Union (ITU) is responsible for allocating these frequencies [8, 7].

Another advantage of GEO satellites is their high reliability and long service life. Modern GEO satellites typically have a service life of 15 years, as they are large, have powerful power sources (large solar panels), and are equipped with rocket engines to maintain their orbit [5].

Table I. Main technical parameters of the GEO system

Parameters	Indicators
Altitude	35 786 km
Signal Delay	240–300 ms
Number of Satellites	3
Frequency Range	C-band (4–8 GHz), Ku-band (12–18 GHz), Ka-band (18–40 GHz)
Service Life	12–15 years
Coverage	One-third of the Earth (for one satellit

B. B. MEDIUM EARTH ORBIT (MEO) SATELLITES

Medium Earth Orbit (MEO) satellites orbit at an altitude of 8,000 km to 20,000 km above the Earth's surface. This orbit occupies the intermediate region between geostationary orbit (GEO) and low earth orbit (LEO), providing favorable conditions for navigation, data transmission, and some communication systems [7, 16].

Medium Earth Orbit satellites are mainly used for global navigation satellite systems (GNSS). Such systems include:

GPS (Global Positioning System, USA) — 24 active satellites, 20,200 km altitude

GLONASS (Russia) — 24 satellites, 19,100 km altitude

Galileo (European Union) — 30 satellites, 23,222 km altitude

BeiDou (China) — partly in MEO, partly in GEO orbit

The principle of operation of these systems is similar: each satellite continuously transmits its orbit, time information, and other system information to the Earth. A receiving device (such as a smartphone or navigation console) receives signals from at least four satellites and calculates the signal propagation time between them to determine its location [16].

In MEO systems, the signal delay is about 100–150 ms, which is much better than in GEO systems, but higher than in LEO systems. Due to the wide-spread network, positioning accuracy reaches 1–3 meters. At any given time, 6–12 satellites are visible from any point on Earth. The atmosphere has less effect on the signals than in LEO [12].

Table II. Main technical parameters of the MEO system

Parameters	Indicators
Altitude	8 000 – 20 000 km
Signal Delay	100–150 ms
Number of Satellites	24–30 ta
Frequency Range	L1 (1.57542 GHz), L2 (1.2276 GHz), L5 (1.17645 GHz)
Service Life	10–15 years
Coverage	The whole globe

The frequencies L1, L2, and L5 are used for different purposes: L1 is the main civil signal (C/A), L2 is mainly for the military P(Y) signal, and L5 is used in areas where high accuracy and security are required (aviation) [16].

C. C. LOW EARTH ORBIT (LEO) SATELLITES

Low Earth Orbit (LEO) satellites orbit at an altitude of 300 km to 2,000 km above the Earth's surface. This type of orbit is widely used to provide modern broadband communication networks, in particular, to provide global Internet coverage [12, 5].

The main advantage of LEO satellites is their very low signal latency. The signal travels 1,500–4,000 km in the Earth–satellite–Earth direction, resulting in a latency of 20–50 milliseconds (ms). This value is favorable for applications that require real-time data exchange, such as GPS systems, VoIP communications, online gaming, and video conferencing [12, 5].

However, the main disadvantage of LEO systems is that each satellite covers the Earth's surface for only 5–15 minutes. Because they travel fast (at a speed of 7.8 km/s) and have a small coverage area, a network of thousands of satellites is required to provide uninterrupted internet service across the globe [12, 5].

Modern LEO communication networks include: Starlink (SpaceX), OneWeb, and Amazon Kuiper. These networks allow high-speed internet to be provided in rural areas, maritime transport, aviation, and in emergency situations [5, 6].

Table III. Main technical parameters of the LEO system

Parameters	Indicators
Altitude	300–2 000 km
Signal Delay	20–50 ms
Number of Satellites	100–300 Mbps (in some cases 1 Gbps)
Frequency Range	1000–10 000
Service Life	Ku (12–18 GHz), Ka (26–40 GHz)
Coverage	5–7 yil
Altitude	Narrow (each satellite is a circle with a diameter of 1000 km)

LEO satellites are typically equipped with phased array antennas. These antennas electronically maintain a constant connection to the user device even when the satellite is moving [12, 5].

The following risks and problems currently exist in LEO systems:

Space debris: There are already over 30,000 tracked objects in LEO orbit. Each new satellite adds to the risk of interference. Obstacle detection is performed by NASA and ESA tracking systems [7].

Radio interference: Since many satellites operate on the same frequencies, there is a possibility of radio interference. The International Telecommunication Union (ITU) is responsible for frequency allocation [8].

Weather effects: Ka-band signals have been observed to be reduced by 30–50% due to rain, snow, or clouds. This problem affects the quality of service in rainy regions [12, 5].

D. D. COMPARISON OF ORBIT TYPES

When evaluating satellite communication systems, it is important to compare their main technical, operational and economic parameters. GEO, MEO and LEO orbit types are designed for different tasks and have different advantages and disadvantages. The following table analyzes these systems in all aspects:

Table IV. Main technical parameters of different types of orbits

Parameters	GEO	MEO	LEO
Altitude (km)	35 786	8,000–20,000	300–2 000
Signal latency (ms)	240–300	100–150	20–50
Coverage area	Very wide (1/3 globe)	Medium	Tor (1000 km diameter)
Number of satellites	3–4	24–30	1000–10 000
Internet speed	10–50 Mbps	50–100 Mbps	100–300 Mbps (up to 1 Gbps)
Energy consumption (transmission)	High	Medium	Low
Service life	15 years	10–15 years	5–7 years
Frequency range	C, Ku	L, S	Ku, Ka
Space debris risk	Low	Medium	High
Ease of integration	Easy	Medium	Complex

The data in the table above is based on various sources. Due to their wide coverage and stability, GEO systems are still widely used in areas such as television, meteorology, and government communications [12]. However, their high latency makes them unsuitable for real-time data transmission (VoIP, online gaming) [12, 5].

MEO systems are the leading players in the navigation sector. Systems such as the GPS system provide an accuracy of less than 10 meters, which is suitable for automobiles, ships, and air transport [16, 13]. However, MEO systems have limited use for communications because their coverage and network architecture are focused on navigation.

LEO systems are the main enablers of modern broadband Internet services. The Starlink network, developed by SpaceX, is expected to have more than 7,000 satellites by 2025, providing Internet access to the entire world at speeds of 100+ Mbps [5, 6]. The main disadvantage of LEO systems is that they require thousands of satellites to provide wide coverage, which complicates network management [5, 6].

Another important aspect is the comparison in terms of disadvantages:

GEO: High latency, limited bandwidth, insensitive to space debris, but expensive to launch new satellites [1].

MEO: Narrow coverage, specialized for navigation, not efficient for communications [13].

LEO: Low latency, high speed, but high risk of space debris, signal degradation due to weather (especially in the Ka band) [5, 7].

SLAM texnologiyasining dastlabki bosqichlari klassik usullar – EKF-SLAM (Extended Kalman Filter SLAM) va Graph-SLAM orqali shakllangan. EKF-SLAMda Kalman filtri asosida obyektlarning koordinatalari va pozitsiyasi aniqlanadi[7-8], ammo katta hajmdagi xaritalarda hisoblash murakkablashadi. U real muhitni xaritalab, foydalanuvchining pozitsiyasini aniqlashni bir vaqtda bajaradi:

$$p(x_t \mid z_{1:t}, u_{1:t}) = \eta\, p(z_t \mid x_t)$$
$$\int p(x_t \mid u_t, x_{t-1})\, p(x_{t-1} \mid z_{1:t-1}, u_{1:t-1}) dx_{t-1} \quad (1)$$

bu yerda

x_t - holat, z_t - sensor o‘lchovlar, u_t - boshqaruv signallari, η -normallashtiruvchi faktor. SLAM algoritmlarida EKF (Extended Kalman Filter), Particle filter hamda GraphSLAM yondashuvlari qo‘llaniladi.

Graph-SLAM esa graf tuzilmalaridan foydalanib, pozitsiya va xarita elementlarini tugun va qirralar orqali ifodalaydi hamda global optimallashtirishni ta’minlaydi. Keyinchalik visual SLAM yondashuvlari paydo bo‘lib, kamera asosidagi algoritmlar samaradorlikni oshirdi[9-10].

Mobil qurilmalarda SLAMni samarali qo‘llashda VIO (Visual-Inertial Odometry) yondashuvi keng tarqalgan. Ushbu usul kamera (vizual) va IMU (inertsial o‘lchov birligi) ma’lumotlarini birlashtirib, foydalanuvchining pozitsiyasini yuqori aniqlikda kuzatadi. Vizual axborot tezkor o‘zgarishlarda barqarorlikni ta’minlaydi, inertsiya datchiklari esa yorug‘lik yomon bo‘lgan sharoitlarda qo‘shimcha yordam beradi. ARKit (Apple) va ARCore (Google) [11] kabi platformalar aynan VIO prinsipiga asoslanadi, bu esa mobil ilovalar uchun real vaqtda fazoviy joylashuvni samarali aniqlash imkonini beradi.

Markerli AR texnologiyalari (masalan, ARtoolkit, Vuforia) oldindan tayyorlangan marker yoki tasvirlardan foydalanadi. Bu markerlar kamerada aniqlangach, ularga virtual obyektlar biriktiriladi[12]. Ushbu yondashuvning afzalligi — yuqori aniqlik va barqaror obyekt joylashtirish imkoniyati. Biroq markerli usullar real muhitga moslashuvchan emas.

Markersiz (markerless) AR texnologiyalari[13] esa SLAM (Simultaneous Localization and Mapping) algoritmlariga asoslanadi. Bu usulda kamera real muhitdagi tekisliklarni, yuzalarni yoki tabiiy obyektlarni aniqlaydi va ularga virtual elementlarni biriktiradi. Markersiz yondashuvning asosiy ustunligi foydalanuvchidan maxsus marker talab qilinmaydi, AR tajribasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri atrof-muhit bilan integratsiyalanadi. Shu sababli u ta’lim, sog‘liqni saqlash, o‘yinlar va navigatsiya tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. Biroq bu yondashuv hisoblash resurslari va batareya sarfi yuqoriligi bilan cheklanadi, chunki real vaqtda vizual ma’lumotlarni qayta ishlash talab qilinadi.

So‘nggi yillarda Image Recognition texnologiyalari mashinali o‘qitish va chuqur o‘qitish (Deep Learning) yondashuvlari bilan boyitildi[14]. Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) murakkab tasvirlarni aniqlash va tasniflashda eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, klassik xususiyatlarga asoslangan algoritmlar ham AR tizimlarida keng ishlatiladi

To‘ldirilgan reallik ilovalarida SLAM va Image Tracing texnologiyalarining integratsiyasi tizimning barqarorligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi. SLAM foydalanuvchi harakatini va muhitning uch o‘lchamli modelini aniqlasa, Image Tracing real dunyo obyektlarini yoki markerlarini tanib olishga yordam beradi. Bu ikki texnologiyaning kombinatsiyasi orqali tizim fazoviy xarita va obyekt identifikatsiyasini bir vaqtning o‘zida amalga oshiradi. Matematik nuqtai nazardan, umumiy kuzatish modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$z_t = h(x_t, m) + v_t \quad (2)$$

bu yerda:

- z_t - kuzatish (kamera tasviri yoki marker),
- x_t - foydalanuvchi/kameraning holati,
- m - muhit xaritasi,
- v_t - shovqin (noise).

Google ARCore va Apple ARKit platformalari aslida SLAM va Image Tracing texnologiyalarining kombinatsiyasi asosida ishlaydi. Ular Visual-Inertial Odometry (VIO) yordamida kameraning 6 DoF (Degrees of Freedom) holatini kuzatadi, so‘ng markerli yoki markerlarsiz Image Tracing orqali obyektlarni aniqlaydi. Masalan, ARKit obyektlarni tanishda feature matching algoritmlaridan foydalanib, SLAM tomonidan yaratilgan xarita bilan uyg‘unlashtiradi[15]. Bu integratsiya foydalanuvchiga atrof-muhitda virtual obyektlarni aniq joylashtirish imkonini beradi.

Klassik SLAM odatda bitta foydalanuvchiga xizmat qilsa, kollaborativ AR bir nechta foydalanuvchilarga bir xil muhitda virtual obyektlarni birgalikda ko‘rish imkonini beradi. Bunda bir foydalanuvchining qurilmasida yaratilgan xarita ma’lumotlari bulut orqali boshqa foydalanuvchilarga uzatiladi. Matematik jihatdan, xarita ma’lumotlari M foydalanuvchilar soni N bo‘lsa, umumiy xarita quyidagicha birlashtiriladi:

$$M = \bigcup_{i=1}^{N} M_i \quad (3)$$

bu yerda M_i - i- foydalanuvchining lokal xaritasi. Bu yondashuv AR o‘yinlar, ta’lim va sanoatda ko‘p foydalanuvchi tajribasini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Semantik SLAM SLAM algoritmlarini Image Tracing va obyekt tanish usullari bilan birlashtirib, muhitning nafaqat geometrik, balki semantik xaritasini ham yaratadi. Masalan, tizim stul, stol yoki kitobni nafaqat nuqta buluti sifatida, balki semantik obyekt sifatida tanib oladi[16-17]. Bunda CNN (Convolutional Neural Network) asosida obyekt tasnifi amalga oshiriladi va SLAM xaritasi bilan bog‘lanadi. Model quyidagicha ifodalanadi:

$$S = f(I) \quad \text{va} \quad M = g(x_t, S) \quad (4)$$

bu yerda:

- I - kamera tasviri,
- $f(I)$ - CNN orqali obyektlar aniqlash funksiyasi,
- S – semantik obyektlar to‘plami,
- $g(x_t, S)$ - foydalanuvchi holati va semantik obyektlar asosida xaritani yangilash funksiyasi.

Natijada AR tizim nafaqat yuzalarni aniqlaydi, balki obyektlarni kontekst asosida tanib, ularga mos interaktiv tajribani taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili so‘nggi 5 yillik (2020-2025) ilmiy ishlar asosida amalga oshirildi. SLAMning AR ilovalari samaradorligini o‘rganish, Smith & Johnson (2023) Image Tracingning markerli tanish imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, Li (2021) AR mobillari uchun optimallashtirish strategiyalarini keltirgan. Wang & Lee (2024) ARKit va ARCore integratsiyasini tahlil qilgan, Taylor (2020) esa SLAMning umumiy rivojlanishini ko‘rib chiqqan. Bu adabiyotlar SLAM va Image Tracingning ARda integratsiyasining texnik jihatlarini, uning cheklovlarini va kelajak istiqbollarni yoritgan.

Metodologiya sifatida quyidagi yondashuv qo‘llanilgan:

- Ma’lumot yig‘ish: ARKit (iOS) va ARCore (Android) platformalarida SLAM va Image Tracing algoritmlarining ishlanishi tahlil qilindi. 2024 yilda 20 ta foydaluvchi bilan laboratoriya va real muhitlarda sinovlar o‘tkazildi. Sinov jarayonida foydalanuvchilarning qurilma ishlash tezligi, sensor ma’lumotlarining aniqligi va vizual izlanishlar samaradorligi kuzatildi. Natijalar turli modellar bo‘yicha guruhlarga ajratilib, taqqoslash asosida baholandi.
- Sinovlar: Ichki (ofis) va tashqi (ochiq maydon) muhitlarda AR ilovasi sinovdan o‘tkazildi, 10 ta turli holatda ma’lumotlar yig‘ildi. Har bir holatda foydalanuvchilar qurilmalardan foydalanish qulayligi va vizual aniqlik darajasini ham qayd etishdi.
- Tahlil vositalari: OpenCV, Unity 3D va MATLAB orqali ma’lumotlar tahlil qilindi, samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblandi. Statistik tahlil davomida dispersiya, o‘rtacha qiymat va aniqlik darajalari aniqlanib, mavjud algoritmlarning ustun va zaif tomonlari aniqlandi. Metodika real vaqtli ma’lumotlar yig‘ishiga asoslangan, bu esa SLAM va Image Tracingning samaradorligini baholashga imkon berdi. Sinovlar 2025 yil mart oyida yakunlandi, natijalar statistik tahlil orqali tasdiqlangan.Ushbu metodologiya AR tizimlari uchun kelajakda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan optimallashtirish yondashuvlarini ishlab chiqishga asos yaratdi.

III. NATIJALAR

Sinov natijalari SLAM va Image Tracingning AR mobillari samaradorligini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvallar va diagrammalar taqdim etildi

1-jadval. SLAM va Image Tracing samaradorligi

Parametr	SLAM (%)	Image Tracing (%)	Umumiy AR Samaradorligi (%)
Lokalizatsiya aniqligi	92	88	90
Ob’ektlarni tanish tezligi	85	90	87
Energiya iste’moli (%)	15	10	12

2-jadval. Muxit turlari bo‘yicha samaradorligi

Muxit Turi	SLAM Aniqligi (%)	Image Tracing Aniqligi (%)	Umumiy Samaradorligi (%)
Ichki muxit	94	89	91
Tashqi muxit	90	87	88

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, SLAM va Image Tracing birgalikda ARda 90% dan yuqori samaradorlikka erishadi, ammo energiya iste’molida muammolar mavjud.

IV. MUHOKAMA

Natijalar SLAM va Image Tracingning AR mobillari uchun muhimligini tasdiqladi. Lokalizatsiya aniqligi (92%) va obyektlarni tanish tezligi (90%) AR ilovalari samaradorligini oshiradi, lekin energiya iste’moili (12%) va muhitlarda samaradorlikning pasayishi (tashqi muhitda 88%) muammolar sifatida qayd etildi. SLAM optimallashtirish takliflariga asoslanib, kelajakda energiya tejash algoritmlarini joriy qilish mumkin. Smith & Johnson (2023)ning markerli tanish yondashuvlari ARda kengroq qo‘llanilishi kerak, ammo yorug‘lik va harakat tezligi muammolari hal qilinishi lozim. Li (2021)ning

optimallashtirish strategiyalari energiya iste'moilini 10% ga kamaytirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar ta'lim (3D anatomiya simulyatorlari), o'yin (Pokémon GO kabi AR o'yinlar) va salomatlik (jarrohlik simulyatsiyalari) sohasida inqilobiy imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, mobil platformalarda resurs cheklovlari (CPU, quvvat manbai) hal qilinmasa, kengroq tarqalish qiyin bo'ladi. Wang & Lee (2024)ning ARKit va ARCore integratsiyasi bu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Taylor (2020)ning SLAM tahliliga asoslanib, kelajakda ushbu texnologiyaning samaradorligi 95% gacha oshirilishi mumkin.

XULOSA

SLAM va Image Tracing texnologiyalari AR mobil ilovalarida real va virtual dunyolarni sinxronlashtirishda asosiy unsurlardir. Ularning integratsiyasi arxitekturasi zamonaviy sensorlar, algoritmlar va platformalar asosida rivojlanmoqda. Natijalar samaradorlikni (90% dan yuqori) ko'rsatsa-da, energiya iste'moli va muhitlar muammolarini hal qilish uchun keyingi tadqiqotlar zarur. Kelajakda mashinali o'qitish bu texnologiyalarning rivojlanishini tezlatadi. AR ilovalari ta'lim, o'yin va boshqa sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin mobil platformalarda resurs optimallashtiruvi talab qilinadi. SLAM va Image Tracingning kelajakdagi rivojlanishi ARni kundalik hayotning ajralmas qismiga aylantirishi mumkin, ammo texnik cheklovlar bartaraf qilinishi lozim. SLAM va Image Tracing texnologiyalarining uzviy uyg'unlashuvi foydalanuvchilarga yanada tabiiy va realistik tajriba taqdim etadi. Shu bilan birga, ularning barqaror ishlashi uchun dasturiy ta'minot va apparat vositalarining hamohang rivojlanishi zarur. Innovatsion yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar orqali ushbu texnologiyalar nafaqat AR ilovalarini, balki kengroq raqamli ekotizimlarni ham yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[101] Chen, L., Wang, Y., & Zhang, H. (2022). Optimizing SLAM for Augmented Reality Mobile Applications. *Journal of Computer Vision*, 45(3), 123-135.

[102] Li, M. (2021). Energy-Efficient Strategies in AR Mobile Platforms. *International Journal of Mobile Computing*, 12(4), 89-102.

[103] Smith, J., & Johnson, R. (2023). Markerless Image Tracking in Augmented Reality: Challenges and Opportunities. *IEEE Transactions on AR Technologies*, 18(2), 56-68.

[104] Taylor, A. (2020). Simultaneous Localization and Mapping: A Review. *Advances in Robotics*, 33(5), 78-91.

[105] Wang, Q., & Lee, S. (2024). ARCore and ARKit Integration for Mobile AR Development. *Journal of Mobile Technology*, 19(1), 34-45.

[106] R. Mur-Artal and J. D. Tardós, "ORB-SLAM2: An Open-Source SLAM System for Monocular, Stereo, and RGB-D Cameras," *IEEE Transactions on Robotics*, vol. 33, no. 5, pp. 1255–1262, 2017.

[107] A. J. Davison, I. Reid, N. Molton, and O. Stasse, "MonoSLAM: Real-Time Single Camera SLAM," *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, vol. 29, no. 6, pp. 1052–1067, 2007.

[108] H. Strasdat, J. Montiel, and A. J. Davison, "Visual SLAM: Why filter?," *Image and Vision Computing*, vol. 30, no. 2, pp. 65–77, 2012.

[109] G. Klein and D. Murray, "Parallel Tracking and Mapping for Small AR Workspaces," in *Proc. IEEE/ACM International Symposium on Mixed and Augmented Reality (ISMAR)*, 2007, pp. 225–234.

[110] J. Engel, V. Koltun, and D. Cremers, "Direct Sparse Odometry," *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, vol. 40, no. 3, pp. 611–625, 2018.

[111] Apple Inc., "ARKit: Augmented Reality for iOS," 2023. [Online]. Available: https://developer.apple.com/arkit

[112] Google, "ARCore: Augmented Reality SDK for Android," 2023. [Online]. Available: https://developers.google.com/ar

[113] M. F. Demir, T. K. Dag, and A. A. Alatan, "Markerless Augmented Reality Tracking Using Visual SLAM," *Journal of Real-Time Image Processing*, vol. 19, pp. 91–105, 2022.

[114] J. L. Schönberger and J.-M. Frahm, "Structure-from-Motion Revisited," in *Proc. IEEE Conf. on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 2016, pp. 4104–4113.

[115] J. Fuentes-Pacheco, J. Ruiz-Ascencio, and J. M. Rendón-Mancha, "Visual Simultaneous Localization and Mapping: A Survey," *Artificial Intelligence Review*, vol. 43, pp. 55–81, 2015.

[116] Y. Li, "Optimization Strategies for Mobile AR Performance," *ACM Transactions on Multimedia Computing, Communications, and Applications*, vol. 17, no. 3, pp. 1–20, 2021.

[117] X. Wang and K. Lee, "Integration of ARKit and ARCore: A Comparative Study," in *Proc. IEEE Int. Conf. on Artificial Intelligence and Virtual Reality (AIVR)*, 2024, pp.

ME’MORIY OBYEKTLARNI 3D-MODELLASHTIRISHDA MUHANDISLIK GEOMETRIYASINING JORIY HOLATI

Muazzam Artikova
Department of Multimedia Technologies
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi
Tashkent, Uzbekistan
muazzamxon@mail.ru

Eldor Sayfiev
Department of Multimedia Technologies
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi
Tashkent, Uzbekistan
sayfiyev.eldor@gmail.com

***Annotatsiya*— Ushbu maqolada me’moriy obyektlarni 3D-modellashtirish jarayonida muhandislik geometriyasining o‘rni, nazariy asoslari va joriy holati tahlil qilingan. So‘nggi yillarda 3D-lazer skanerlash, fotogrammetriya, parametrik dizayn, BIM (Building Information Modeling) tizimlari va AR/VR texnologiyalari muhandislik geometriyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Tadqiqotda muhandislik geometriyasining fazoviy modellashtirishdagi ahamiyati, 3D-modellashtirish texnologiyalarining afzalliklari hamda mavjud muammolar keng tahlil etilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik geometriyasi me’moriy loyihalashning nazariy asosiy poydevori bo‘lib, kelajakda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan modellashtirish tizimlari yordamida yanada rivojlanishi kutilmoqda.**

Kalit so‘zlar - 3D-modellashtirish, muhandislik geometriyasi, BIM, AR/VR, parametrik dizayn, fotogrammetriya, lazer skanerlash, avtomatlashtirish.

I.KIRISH

Me’moriy obyektlarni loyihalashda 3D-modellashtirish jarayoni bugungi kunda dolzarb yo‘nalishlardan biridir. An’anaviy ikki o‘lchamli chizmalar endi zamonaviy qurilish va dizayn talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli uch o‘lchamli vizualizatsiya, virtual muhitda obyektlarni sinovdan o‘tkazish va realistik tahlil qilish keng qo‘llanilmoqda.

3D-modellashtirishning muvaffaqiyatli ishlashi muhandislik geometriyasiga bevosita bog‘liq. Chunki fazoviy shakllar, proyeksiyalar, sirt va chiziqlarning o‘zaro bog‘liqligi aynan muhandislik geometriyasi tamoyillariga asoslanadi. Bu esa nafaqat arxitektura obyektlarini aniq modellashtirish, balki ularning texnik jihatdan to‘g‘ri loyihalanishini ham ta’minlaydi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar arxitektura va madaniy merosni vizualizatsiya qilish sohasiga tubdan o‘zgarishlar olib kirmoqda. Ayniqsa, tarixiy me’moriy obyektlarni uch o‘lchamli (3D) modellashtirishda muhandislik geometriyasi muhim rol o‘ynaydi.

Muhandislik geometriyasi murakkab shakllar va strukturalarni aniq ifodalash, ularni matematik modellashtirish va grafik dasturlar orqali vizual ko‘rinishga keltirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

II. ASOSIY QISM

Me’moriy obidalarning 3D modeli asosan obyektning shakli, hajmi, geometrik proporsiyasi, sirt tuzilmasi kabi parametrlariga asoslanadi. Bu parametrlar esa ko‘pincha egri chiziqlar, ko‘pyoqliklar va noan’anaviy shakllarda bo‘ladi. Muhandislik geometriyasi bu kabi murakkab strukturalarni aniqlik bilan tasvirlash uchun egri sirtlar Bezier, NURBS va parametrik modellash metodlaridan foydalanadi [2],[8]. Bezier egri chizig‘i - bu grafik modellashtirishda va kompyuter grafikasi sohasida keng qo‘llaniladigan matematik egri chiziq bo‘lib, u boshqaruv nuqtalari (control points) yordamida aniqlanadi. Ushbu egri chiziqni fransuz muhandisi Pyer Beze (Pierre Bézier) sharafiga nomlangan bo'lib, 1960 yillarda Renault avtomobillarining kuzovlari uchun egri chiziqlarni loyihalashda foydalangan.

Islom me’morchiligiga oid gumbazlar, sharqona naqshli ustunlar yoki murakkab bezaklar mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar modellashtirilayotganda, ularning geometriyaviy tuzilishini chuqur o‘rganish zarur bo‘ladi. Aynan shunday hollarda muhandislik geometriyasi asosida yuzalarni aniqlash, tugun nuqtalarini belgilash va ularni 3D koordinatalarda ifodalash zarur bo‘ladi [2].

Quyidagi egri chiziq Bezier chizig‘i bo‘lib, parametr 0 dan 1 gacha o‘zgarib borar ekan, egri chiziq hosil bo‘ladi.



1-rasm. Bezier egri chizig'i

Rasmda to‘rtta nuqta (odatda P0 , P1 , P2 , P4) belgilangan:

- P0 - boshlang‘ich nuqta,
- P3 - yakuniy nuqta,
- P1 va P2 — boshqaruvchi nuqtalar (control points).

Chiziqning shakli boshqaruv nuqtalarining joylashuviga bog‘liq bo‘ladi. Bezier egri chizig‘i vektor parametrik formula asosida aniqlanadi. Eng mashhur shakli kubik Bezier egri chizig‘i, to‘rtta boshqaruv nuqtasi bilan belgilanadi:

$$B(t) = (1-t)^3 \cdot P_0 + 3(1-t)^2 t \cdot P_1 + 3(1-t)t^2 \cdot P_2 + t^3 \cdot P_3, \quad 0 \le t \le 1 \quad (1)$$

Bu yerda:

- P_0 va P_3 — egri chiziqning boshlanish va tugash nuqtalari,
- P_1 va P_2 — chiziq shaklini nazorat qiluvchi nuqtalar,
- t — parametr bo‘lib, 0 dan 1 gacha o‘zgaradi.

Umumiy holda Bezier egri chizig‘ini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin[5]:

$$r(t) = \sum_{i=0}^{m} C_m^i t^i (1-t)^{m-i} P_i, \quad 0 \le t \le 1 \quad (2)$$

Bu yerda:

$r(t)$ -Bezier egri chiziqdagi nuqtaning koordinatasi,

C_m^i - binomial koeffitsient:

$$C_m^i = \frac{m!}{i!(m-i)!} \quad (3)$$

P_i - boshqaruv nuqtalari (nazorat nuqtalari)

$C_m^i t^i (1-t)^{m-i}$ - funksional koeffitsiyent, ya’ni universal Bernstein ko‘phadlari har doim manfiy bo‘lmagan qiymatlarga ega bo‘ladi va ular yig‘indisi har doim 1 ga teng bo‘ladi.

Ushbu Bezier egri chiziqlari zamonaviy grafik va muhandislik tizimlarining ajralmas komponenti bo‘lib, murakkab shakllarni soddalashtirib, ularni matematik aniqlik bilan chizish imkonini beradi. Ularning silliqligi tufayli deyarli barcha dizayn va vizualizatsiya sohalarida qo‘llaniladi.

Kompyuter grafikasi va 3D modellashtirish jarayonlarida bikubik splayn sirtlari, xususan Bezier va B-splayn asosidagi sirtlar, murakkab shakllarning silliq va aniqlik bilan tasvirlanishini ta’minlashda keng qo‘llanilmoqda. Bezier sirtlari - bu ikki parametrli, ya’ni *u* va *v* o‘zgaruvchilariga bog‘liq bo‘lgan, silliq va egiluvchan sirtlar bo‘lib, ular Bezier egri chiziqlari asosida yaratiladi. Ushbu sirtlar nazorat nuqtalari to‘riga (control grid) asoslangan bo‘lib, bu nuqtalar sirt shaklini belgilaydi. Bezier egri chiziqlari singari, Bezier sirtlari ham Bernstein koeffitsiyentlari asosida quriladi va ular yordamida har bir nuqta interpolatsiya qilinadi. Sirtning shakli butunlay nazorat nuqtalarining joylashuviga bog‘liq bo‘ladi.



2-rasm. Bezier splayn sirti

Bezier sirtini aniqlash uchun 16 ta boshqaruv nuqtasi talab qilinadi. Bu nuqtalar 4x4 o‘lchamdagi boshqaruv nuqtalari panjarasi (to‘ri) sifatida tasavvur qilinadi. Egri chiziq bo‘ylab harakatlanish uchun bitta parametr – t ishlatilgan edi. Bezier sirtida esa harakat ikki yo‘nalishda – u va v yo‘nalishlarida amalga oshiriladi. (2-rasm) Har ikkala parametr ham [0, 1] yopiq oraliqda bo‘ladi. Bu yerda (u, v) koordinatalar juftligidan uch o‘lchamli fazodagi nuqtaga o‘tish jarayoni - birlik kvadrat (u, v bilan belgilangan) orqali silliq va uzluksiz sirt hosil qilish sifatida qaraladi. Bezier sirtini u yoki v yo‘nalishlarida joylashgan ko‘plab Bezier egri chiziqlari majmuasi deb tasavvur qilish mumkin. Bezier yuzasidagi har qanday nuqta u va v parametrik o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lib aniqlanadi. Ushbu nuqta nazorat nuqtalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan Bezier koeffitsientlarining ikki

yo‘nalishdagi yig’indisi — ya’ni “Bezier egri chiziqlari orqali hisoblangan sirt nuqtasi” sifatida ifodalanadi.

Bezier sirtining umumiy parametrik formulasi quyidagicha:

$$S(u,v)=\sum_{i=0}^{n}\sum_{j=0}^{m}B_i^n(u)\cdot B_j^m(v)\cdot P_{ij} \quad (4)$$

$S(u,v)$ - Bezier sirtining har bir nuqtasi (odatda fazoda: x,y,z);

u,v - parametrlar;

P_{ij} - Sirtni belgilovchi nazorat nuqtalari (control points);

$B_i^n(u)$ $B_j^m(v)$ -Bernstein koeffitsiyentlari

Sirtning shakli butunlay nazorat nuqtalarining joylashuviga bog‘liq bo‘ladi. Bezier sirtlari ayniqsa kompyuter grafikasi, sanoat dizayni, aviatsiya, avtomobilsozlik va arxitektura sohalarida keng qo‘llaniladi.

Bugungi kunda bu sohaga oid zamonaviy yondashuvlar orasida parametrik modellashtirish, BIM (Building Information Modeling) va kompyuterli vizualizatsiya vositalari (AutoCAD, Revit, Rhino, SketchUp, Blender) keng qo‘llanilmoqda [3], [7]. Ushbu platformalar orqali foydalanuvchilar tarixiy me’moriy obyektlarni aniq o‘lchamlarda yaratish, ularni modellashtirish, tahlil qilish va real muhitda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ayniqsa, NURBS (Non-Uniform Rational B-Splines) texnologiyasi yordamida murakkab egri shakllarni yuqori aniqlikda raqamli modelga aylantirish imkoniyati kengaydi [8].

Parametrik modellashtirish jarayoni dizaynni optimallashtirish, vaqtni tejash va aniqlikni oshirish imkonini beradi. Har qanday geometrik shaklni yaratishda bir nechta bog‘liq parametrlar ishlatiladi, bu esa butun modelni qayta chizmasdan tezkor o‘zgarishlar kiritish imkonini yaratadi. Aynan shu jihatlar uni sanoat, mashinasozlik, arxitektura va 3D chop etish sohalarida juda ommabop qiladi[14]

3-rasm. Parametrik modellashtirish yordamida yaratilgan inshoot

Parametrik modellashtirish birinchi bo‘lib Rhino dasturida ixtiro qilingan, bu dastur AutoCAD asosida rivojlangan 3D chizma dasturidir. Parametrik modellashtirishning asosiy afzalligi shundaki, 3D geometrik model tuzilayotganda, parametrlar (masalan, o‘lcham yoki egri chiziq) o‘zgartirilganida model shakli avtomatik ravishda yangilanadi. Bu esa ayniqsa loyihalashning dastlabki (eskiz) bosqichida muhandislarning vaqtini ancha tejaydi. Parametrik modellashtirish paydo bo‘lishidan oldin loyihaning dastlabki bosqichlarini ishlab chiqish dizaynerlar uchun oson bo‘lmagan, chunki model ko‘p hollarda qayta-qayta o‘zgarishga uchrardi. Shu sababli, qurilish modelining shaklini o‘zgartirish juda qiyin edi. Ayniqsa, parametrik modellashtirish dizaynerga modelning alohida qismlarini emas, balki butun shaklini o‘zgartirish imkonini beradi.

Muhandislik geometriyasining joriy rivojlanishida fotogrammetriya, lazerli 3D skanerlash [13]dronga asoslangan vizual ma’lumot to‘plash kabi texnologiyalar alohida o‘rin tutadi. Masalan, tarixiy me’moriy obidalarni skanerlash orqali ularning real shakli haqida minglab nuqta to‘plami (point cloud) olinadi. Bu ma’lumotlar maxsus algoritmlar yordamida geometrik modellashtirish jarayoniga kiritiladi va aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan 3D model yaratiladi [4],[5]. Shu jarayonda murakkab geometriyaga ega fasadlar, arkalar va boshqa arxitektura elementlari muhandislik geometriyasi vositalari bilan silliqlanadi va realistik ko‘rinishga keltiriladi [6].

Shuningdek, muhandislik geometriyasining nazariy jihatlari bilan bir qatorda ularning kompyuter grafikasi va fizik simulyatsiya bilan uyg‘unlashuvi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, yirik masjidlar, madrasalar yoki tarixiy saroylar singari obyektlarning strukturaviy barqarorligini tahlil qilish uchun ularning geometrik modellariga asoslangan fizik tahlillar ham o‘tkazilishi mumkin [2], [9]. Bu esa faqatgina vizualizatsiya emas, balki restavratsiya va konservatsiya jarayonlari uchun ham foydali hisoblanadi.

Yurtimizda madaniy meros obyektlarini 3D shaklga keltirish bo‘yicha dastlabki ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlaridagi tarixiy binolarni raqamlashtirishda 3D modellash va GIS (Geographic Information System) texnologiyalari birgalikda qo‘llanilmoqda [10]. Shu jarayonda obyektlarning real geometriyasi dronlar va skanerlar yordamida aniqlanib, dastlabki raqamli modellar yaratilmoqda. Bu borada mahalliy muhandislik oliygohlari va ilmiy markazlar tomonidan o‘tkazilayotgan loyihalar ham bor [1], [6].

XULOSA

Me’moriy obyektlarni 3D-modellashtirishda muhandislik geometriyasi hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Hozirgi davrda BIM, AR/VR, parametrik dizayn va lazer skanerlash texnologiyalari aynan geometriya tamoyillariga

tayanib rivojlanmoqda. Shu bilan birga, hisoblash resurslari va dasturiy vositalar bilan bog‘liq muammolar mavjud. Kelgusida sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ushbu muammolarni hal etish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[118] Azamatov, A. T. (2019). *Muhandislik grafikasi va geometriya asoslari.* – Toshkent: TDPU.

[119] Hart, J. C. (2002). *Computer Graphics and Geometric Modeling.* Addison-Wesley.

[120] Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Liston, K. (2011). *BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling.* Wiley.

[121] Taylor, A. (2020). Simultaneous Localization and Mapping: A Review. *Advances in Robotics*, 33(5), 78-91.

[122] F.M.Nuraliyev, Kompyuter Grafikasi (73-74)

[123] Burdea, G. & Coiffet, P. (2003). *Virtual Reality Technology.* Wiley.

[124] Milon, G. & Nicolle, C. (2016). VR for Cultural Heritage. *J. of Cultural Heritage.*

[125] Hart, J. C. (2002). *Computer Graphics and Geometric Modeling.* Addison-Wesley.

[126] Ziatdinov, R. (2011). *Parametric modeling in engineering graphics education: Bezier and B-spline curves.* Journal of Mathematics and Technology, 2(2), 84-94.].

[127] J. Engel, V. Koltun, and D. Cremers, “Direct Sparse Odometry,” *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, vol. 40, no. 3, pp. 611–625, 2018.

[128] Ludwig, M.; Herbst, G.; Rieke-Zapp, D.; Rosenbauer, R.; Rutishauser, S.; Zellweger, A. Advantages of parametric modeling for the reconstruction of historical buildings. The example of the war-damaged church of St. Catherine (katharinenkirche) in Nuremberg [C]. International Archives of Photogrammetry, Remote Sensing and Spatial Information Sciences - ISPRS Archives , 2013, 40 (5): pp. 161–165.

[129] Journal of Construction Engineering, Management & Innovation 2018 Volume 1 Issue 3 Pages 139-146 https://doi.org/10.31462/jcemi.2018.03139146 , Applications and usability of parametric modeling E. Kalkan*, F.Y. Okur, A.C. Altunışık

[130] Chatzistamatis, S.; Tsekouras, G.E.; Anagnostopoulos, C.-N. The Quality in 3D Acquisition of Cultural Heritage Assets: Challenges and Risks. In 3D Research Challenges in Cultural Heritage III: Complexity and Quality; Digitisation, M.I., Patias, P., Eds.; Springer International Publishing: Cham, Switzerland, 2023; pp. 65–76. [Google Scholar

[131] Rogers, D. F., & Adams, J. A. (1990). Mathematical Elements for Computer Graphics. McGraw-Hill

YUZ ASOSIY TASNIFIY BELGILARINI GEOMETRIK HUSUSIYATLARINI MODELLASHTIRISH

1st Saida Beknazarova Safibullayevna
Texnika fanlari doktori, prof.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekistan
saida.beknazarova@gmail.com

2nd Jaumitbaeva Mexriban Karamatdin kizi
PhD student
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekistan
mekhribanzhaumitbaeva@gmail.com

***Annotatsiya* — Maqolada obyektlarni aniqlashning samarali usuli bo‘lgan Haar kaskad klassifikatorlari muhokama qilinadi, shuningdek, inson yuz va ko‘zlari geometrik parametrlari asosida videoda obyektni aniqlash aniqligini oshirish usuli keltirilgan. Inson yuzini aniqlash bosqichi yuzni aniqlash va identifikatsiya qilish tizimlarida eng muhimlaridan biridir, chunki aniqlanmagan yuzni aniqlash mumkin emas. Ushbu yo‘nalishda erishilgan natijalarga qaramay, yuzni aniqlash muammosi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki aniqlash algoritmlari duch kelishi mumkin bo‘lgan juda ko'p muammolar mavjud. Tadqiqotning maqsadi - Haar kaskad usuliga asoslangan inson yuz va ko‘zlarning geometrik parametrlari yordamida videoda obyektni aniqlashning aniqligini oshirish.**

Kalit so‘zlar:*— yuzni aniqlash, kompyuterni ko'rish, Haar Cascade, detektor, tasvir, ob'ektni aniqlash, videoga ishlov berish*

CVIII. KIRISH

Bugungi kunda kompyuterni ko'rish texnologiyalari turli sohalarda – xavfsizlik tizimlari, biometrik identifikatsiya, tibbiyot va inson-mashina interfeyslari rivojlanishida muhim o‘rin egallamoqda. Videoma’lumotlar asosida inson yuzini aniqlash va kuzatish jarayoni ushbu yo‘nalishdagi eng dolzarb masalalardan biridir. An’anaviy algoritmlar ko‘pincha tashqi sharoitlarga, masalan, yorug‘lik darajasining o‘zgarishi, yuzning burilishi yoki to‘sqinlik qiluvchi obyektlarga sezgir bo‘lib, aniqlikning pasayishiga olib keladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida inson yuzining morfologik xususiyatlaridan, xususan, ko‘zlararo masofa, ko‘zlarning joylashuvi va yuzning geometrik proporsiyalaridan foydalanish samarali yechim sifatida taklif etiladi. Ushbu yondashuv videokadrlarda yuzni barqarorroq aniqlash va real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

CIX. METODOLOGIYA

Yuzni tanib olish jarayoni odatda raqamli tasvir yoki video parchasi orqali shaxsni aniqlash uchun ishlatiladigan turli xil vazifalar to'plami deb ataladi. Umuman olganda, bu jarayon quyidagicha ko'rinadi: tizim kameradan tasvirni olgandan so'ng, uni tekislash, masshtablash va hokazolar yordamida lekin) va qandaydir algoritmga keltiriladi, yuzning chegaralari aniqlanadi. Keyinchalik tanib olish bosqichi keladi, bunda yuz o'zgaradi va uning yorqinligi ma'lum ko'rinishga o'zgaradi. Shundan so'ng xususiyatlar hisoblab chiqiladi va ma'lumotlar bazasida saqlanadigan standartlar bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslanadi.

Haar kaskadli klassifikatorlari yordamida ob'ektlarni aniqlash 2001 yilda Pol Viola va Maykl Jons tomonidan taklif qilingan va "Oddiy xususiyatlarning kuchaytirilgan kaskadi yordamida ob'ektni tezkor aniqlash" nomli maqolada nashr etilgan ob'ektni aniqlashning samarali usuli hisoblanadi [1]. Bu mashinani o'rganishga asoslangan yondashuv bo'lib, kaskad funktsiyasi ijobiy va salbiy tasvirlar to'plamidan o'qitiladi. Keyinchalik bu funksiya boshqa tasvirlardagi ob'ektlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

CX. OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Dastlab, algoritm klassifikatorni o'rgatish uchun juda ko'p ijobiy tasvirlarni (yuzlar tasvirlari) va salbiy tasvirlarni (yuzsiz tasvirlarni) talab qiladi [2]. Undan xususiyatlarni ajratib olish uchun Haar xususiyatlaridan foydalaniladi (1-rasm). Har bir ob'ekt qora to'rtburchaklar ostidagi piksellar yig'indisidan oq to'rtburchaklar ostidagi piksellar yig'indisini ayirish orqali olingan yagona qiymatdir.



1-rasm. Haar belgilari

Integral tasvirni aniqlash uchun Viola va Jons algoritmining matematik modelidan foydalanib, yuzning koordinatalarini topish mumkin:

$$I_i(x,y) = \sum_{i=1}^{x \cdot y} i\,(x',y') \qquad (1)$$

qayerda $I_i(x,y)$, (x,y), (x',y') ga teng koordinatali integral tasvirning i -chi elementining qiymati (x',y') koordinatalar bilan ko'rib chiqilayotgan tasvir pikselining yorqinligi. Integral tasvir (1) tasvir hajmi yoki joylashuvidan mustaqil ravishda hisoblanadi va tasvirning belgilangan qismlarining yorqinligini tezda hisoblash uchun ishlatiladi. Belgisi S_i - qora maydonlarda joylashgan piksellar intensivligi yig'indisi oq joylarda joylashgan piksellarning yorqinligi yig'indisidan ayiriladi:

$$H = \sum_{(x,y)\in R_1} I(x,y) - \sum_{(x,y)\in R_2} I(x,y) \qquad (2)$$

Qayerda $I(x,y) -$ nuqtadagi piksel intensivligi (x,y), R_1 va R_2 – farqni hisoblash uchun ishlatiladigan ikkita to'rtburchaklar maydon.

Klassifikatorni o'rgatish va takomillashtirish uchun 1999 yilda Yoav Freund va Robert Schapire tomonidan taklif qilingan Ada Boost (adaptiv kuchaytirish) algoritmi qo'llaniladi, u ixtiyoriy sonli klassifikatorlardan foydalanishi va bitta misollar to'plamiga o'rgatish, ularni navbatma-navbat turli bosqichlarda qo'llash mumkin.

Oddiy klassifikatorning xatolik darajasini to'g'ridan-to'g'ri aniqlaydigan Adaboost usuli iterativ o'qitish va statistik ehtimollik taqsimoti kabi ko'p vaqt talab qiladigan jarayonlardan qochadi. 0 ga qanchalik yaqin bo'lsa (2), yorqinlik shunchalik past bo'ladi; qiymat 255 ga qanchalik yaqin bo'lsa, yorqinlik shunchalik yuqori bo'ladi. O‘rgatuvchi $(x_1,y_2),(x_2,y_2),\dots,(x_n,y_n)$ namunalari n mavjud, qayerda $x_n \in X, y_n \in Y$ salbiy va ijobiy namunalarga mos keladi. O'quv to'plamida salbiy holatlar namunalari c bu m va l ijobiy holatlar namunalari mavjud. Shu bilan birga, har bir $1 \le i \le n$ namunaga mos keladigan $w_i$og'irliklar to'plami mavjud[3-4].

Ushbu klassifikatorning chegara τ_c qiymatiga ega ifodasi bu:

$$W = \begin{cases} 1, & f_i \ge \tau_c; \\ -1, & f_i < \tau_c; \end{cases} \qquad (3)$$

"Eng yaxshi" kuchli tasniflagich kuchsiz tasniflagichlarning belgilangan sonidan hisoblanadi. Kuchli tasniflagichning ifodasi quyida ko'rsatilgan:

$$= \begin{cases} 1, & \sum_{c=1}^{C} a_c \mathcal{W}_c \ge \frac{1}{2} \sum_{c=1}^{C} a_c\,; \\ 0, & \sum_{c=1}^{C} a_c \mathcal{W}_c < \frac{1}{2} \sum_{c=1}^{C} a_c\,; \end{cases} \qquad (4)$$

$$a_c = \log \frac{1}{\beta_c} \qquad (5)$$

Qayerda $\mathcal{W}_c$ zaif tasniflagich;, a_c β_c - kuchsiz tasniflagichning og'irlik koeffitsientlari; c - joriy kuchsiz klassifikator soni, $C = (1,\dots,C)$ — kuchsiz tasniflagichlar soni. "Kuchli" klassifikatorni (4) va (5) amalga oshiradigan iterativ algoritm, bu o'zboshimchalik bilan kichikroq xatolarni o'rgatish uchun "zaif" (3) kompozitsiyalar asosida tasniflagichlarni olish imkonini beradi. Ob'ektning yorug'likdan oldingi va keyingi tasvirlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

$$q_j(x,y) = \frac{g_{0,j}(x,y)}{g_{1,j}(x,y)+1} \qquad (6)$$

bu erda j ketma-ketlikning joriy qiymatining raqami$Y, g_{0,j}(x,y)$ — foydalanuvchi yuzi tasviriga $I_{(b,j)}$ mos keladigan massiv pikselining yorqinlik qiymati; b — massiv tayyorlangan orqa yorug'lik rejimini ko'rsatuvchi pikselli massivning identifikatori; $b = (0,1)$, $x\ va\ y$ — ko‘rilayotgan pikselning koordinatalari; $x = 0,1,\dots,W-1$, $y = 0,1,\dots,H-1$, $W\ va\ H$ — massivning kengligi va balandligiga mos keladigan $I_{(b,j)}$ piksellar soni.

Barcha qiymatlarning dispersiya o'lchovini hisoblang (6). Namunaning raqamli xarakteristikasi qiymatlarining dispersiyasini tavsiflash uchun (7), namuna dispersiyasining umumiy tavsifi va o'rtacha qiymat uchun matematik taxmin (8) kiritiladi. $q_j(x_1,y)$ o'rtacha qiymatga (matematik kutish) nisbatan dispersiya darajasini baholash uchun dispersiya hisoblab chiqiladi:

$$D(I_{0,j},I_{1,j}) = \frac{1}{WH} \sum_{x=0}^{W-1} \sum_{y=0}^{H-1} (q_j(x,y) - q_j)^2 \qquad (7)$$

Qayerda q_j Bu diskret tasodifiy o'zgaruvchining o'rtacha qiymati yoki matematik $q_j(x,y)$taxmini bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$q_j = \frac{1}{WH} \sum_{x=0}^{W-1} \sum_{y=0}^{H-1} (q_j(x,y)) \qquad (8)$$

Videoda ob'ektni aniqlashning aniqligini oshirish uchun yuz va ko'zlarning geometrik parametrlaridan foydalangan holda yuz va ko‘zlar pozitsiyalari asosiy parametrlari quydagilar:

1. Ko'zlar orasidagi masofa

$$P_{ko'zlar1} = (x_1,y_1) \text{ va } P_{ko'zlar2} = (x_2,y_2). \qquad (9)$$

Bu yerda $P_i = (x_i,y_i)$ - yuzning i- asosiy nuqtasining koordinatalari, $i -$ nuqta indeksi masalan, ko'z, burun, iyak burchagidagi nuqta.

$$D_{ko'zlar} = \sqrt{(x_2-x_1)^2 + (y_2-y_1)^2} \qquad (10)$$

Bu yerda $(x_1 - y_1) -$ birinchi ko'zning koordinatalari, $(x_2 - y_2) -$ ikkinchi ko'zning koordinatalari.

2. Burun kengligi

$P_{burin1} = (x_1, y_1)$ va $P_{burin2} = (x_2, y_2)$ - nuqtalarning koordinatalari bo'lsa, burunning kengligi D_{burin} quydagicha formula bo'yicha hisoblanadi:

$$D_{burin} = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2} \quad (11)$$

Bu yerda P_{burin1} va P_{burin2} – burunning tashqi qanotlarida joylashgan nuqtalarning koordinatalari.

3. Iyak uzunligi

$P_{iyak} = (x_c, y_c)$, ko'zlar orasidagi markaziy nuqta – $P_{ko'zlar} = (x_e, y_e)$.

Iyakning uzunligi:

$$D_{iyak} = \sqrt{(x_c - x_e)^2 + (y_c - y_e)^2} \quad (12)$$

Bu yerda:
P_{iyak} – bu iyakning koordinatalari,
$P_{ko'zlar}$ – bu ko'zlar orasidagi markaziy nuqta.

4. Yuzning uzunligi va kengligi (iyak chizig'i bo'ylab)

Yuz kengligi:

$$D_{yuzkengligi} = \sqrt{(x_1 - x_2)^2 + (y_1 - y_2)^2} \quad (13)$$

Bu yerda $P_1 = (x_1, y_1)$ va $P_2 = (x_2, y_2)$,

Yuz uzunligi:

Agar $P_{peshona}$ frontal nuqta koordinatalariga ega (x_f, y_f), yuz uzunligi:

$$D_{yuzuzunligi} = \sqrt{(x_f - x_c)^2 + (y_f - y_c)^2} \quad (14)$$

Bu yerda:
$P_{peshona}$ – bu peshonaning tepasida joylashgan nuqtadir,
P_{iyak} – bu iyagidagi nuqta.

CXI. XULOSA

Ushbu tadqiqotda inson yuz va ko‘zlari geometrik parametrlari asosida videoda ob’ektni aniqlash aniqligini oshirish masalasi ko‘rib chiqildi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy yuz aniqlash usullari tashqi sharoitlarga, jumladan, yorug‘lik darajasi, fonning murakkabligi, yuzning turli burchaklardagi ko‘rinishi va qisman to‘silib qolish holatlariga sezgir bo‘lib, ko‘plab xatoliklarni keltirib chiqaradi. Natijada yuzni noto‘g‘ri aniqlash yoki umuman aniqlay olmaslik ehtimoli ortadi.

Taklif etilgan yondashuvda yuz va ko‘zlarning geometrik parametrlari — ko‘zlararo masofa, ko‘zlarning yuz markaziga nisbatan joylashuvi, yuzning eni va bo‘yi o‘rtasidagi nisbatlar kabi xususiyatlardan foydalanish samarador natijalar berdi. Ushbu parametrlar inson yuzining barqaror belgilaridan biri bo‘lib, ular tashqi sharoitlar ta’sirida katta o‘zgarishga uchramaydi. Shu bois, geometrik xususiyatlarni integratsiya qilish orqali aniqlash algoritmlarining ishonchliligi oshirildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Aniqlik oshishi – geometrik parametrlarni qo‘shish inson yuzini aniqlashdagi umumiy aniqlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.
- Barqarorlik ta’minlanishi – turli yoritilish sharoitlarida, yuzning qisman burilishida yoki fonning murakkab bo‘lishida ham aniqlash jarayoni nisbatan barqaror ishlaydi.
- Real vaqt rejimida qo‘llash imkoniyati – geometrik parametrlar hisoblash jihatidan murakkab emasligi sababli tizim tezkor ishlash qobiliyatini saqlab qoladi.
- Xavfsizlik va biometrik tizimlarda qo‘llash – taklif etilgan usul video nazorat, shaxsni identifikatsiya qilish va boshqa monitoring tizimlarida samarali natija berishi mumkin.

Kelgusida ushbu usulni chuqur o‘rganish algoritmlari, xususan, neyron tarmoqlar bilan birlashtirish orqali aniqlik va tezkorlikni yanada oshirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, yuzning mimik o‘zgarishlari va yoshga bog‘liq morfologik farqlarni ham hisobga olish tizimning universalligini yanada kengaytiradi.

Umuman olganda, inson yuz va ko‘zlari geometrik parametrlari asosida videoda ob’ektni aniqlash usuli an’anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, u zamonaviy xavfsizlik, monitoring va biometrik identifikatsiya tizimlarida keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

REFERENCES

[132] Viola P., Jones M. Rapid object detection using a boosted cascade of simple features; Proceedings of the 2001 IEEE Computer Society Conference on Computer Vision and Pattern Recognition; Kauai, HI, USA. 8–14 December 2001.

[133] Гришанов К.М., Белов Ю.С., Модель сверточной нейронной сети в задачах машинного зрения // Электронный журнал: наука, техника и образование, 2017, №СВ1(11), С. 100 – 106.

[134] Beknazarova, S.S., Jaumitbayeva, M.K.K./Filtering of Digital Images by the Convolution Method with Pulse Characteristic in Spectral Region/ AIP Conference Proceedings., 2023, 2746(1), 040004

[135] Beknazarova, S., Jaumitbaeva, M., Jumatova, G., Mirzayeva, N. Analysis of methods and algorithms for detecting and tracking objects in video stream/ AIP Conference Proceedings 2024, 3045(1), 040034.

ZAMONAVIY DAVRDA RAQAMLI MEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Kamolitdin Ismailov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti
Televizion va media texnologiyalari kafedrasi dotsenti v.b.
Toshkent, O‘zbekiston
Email: arricam44@gmail.com

Umarova Dildora
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti
Televizion va media texnologiyalari kafedrasi dotsenti v.b.
Toshkent, O‘zbekiston
Email: dilexonsmile@mail.ru

***Annotatsiya* — Mazkur maqolada jamiyat rivojida raqamli suratga olish va turli multimedia texnologiyalarining ahamiyati, televizion, video, foto suratga olish, media ma’lumot yuborish, kuzatish, foydalanish kabilardagi roli, video darsliklar yaratish, shuningdek, yangi media texnologiyalarga moslashish jarayonlari o‘rganiladi.**

***Kalit so‘zlar* — multimedia, raqamli, televizion, video, foto, kamera, kuzatuv, ma’lumot.**

I. KIRISH

Multimedia texnologiyalarining rivojlanishi tufayli televidenie, video, fotografiya, jurnalistika kabi bir necha sohalar zamonaviy davrda o‘ziga xos inqilobni boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologik jarayonlar turli formatlarda kontent yaratish va tarqatish imkonini bermoqda, audio-video texnikalarning zamonaviy turlari yangicha usullarni, yechimlarni taklif qilmoqda. Bu esa nafaqat media, balki turli boshqa sohalarni rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, ta’lim yo‘nalishida internet, elektron resurslar, onlayn muloqotlar va turli elektron darsliklarni yanada rivojlanib borayotgani bunga misoldir. Bu borada zamonaviy multimedia texnikalaridan foydalanishni bilish, ushbu texnikalardagi yangilanib borayotgan o‘zgarishlarga moslashib borish, kontentlar va media maxsulotlar yaratishda uslub, janr, dizayn, kompozitsiya, format, audio-vizual sifat kabilar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar talabi ortmoqda. Ushbu jarayonda oddiy havaskorlikdan yuqori bo‘lgan bilim va mahorat darajasi zarur bo‘lib, ko‘pincha buning yetishmasligi kuzatilmoqda.

II. MATERIALLAR TAHLILI

Zamonaviy multimedia texnologiyalari axborotni matn, grafik, audio, video, animatsiya va boshqa elektron shakllarda qayta ishlash, uzatish va taqdim etishni ta’minlovchi raqamli vositalar majmuini qamrab oladi [1]. Ularning ahamiyati internet, mobil qurilmalar va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi tufayli shiddat bilan ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalar ko‘plab sohalar rivojida muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, ta’limda yaratilayotgan elektron video darsliklar, o‘quvchi uchun interaktiv jarayonlarni paydo qilib, ma’lumotlarni qulay o‘zlashtirishida imkon yaratmoqda. Bir yarim - ikki asr oldin halqimizning asosiy qismi dala va chorva mehnati bilan kun kechirar edi. Ularning bilim olishga vaqti ham imkoni ham bo‘lmasdi. Qishloqlarda ta’lim maktablari rivojlanmagan bo‘lib, ko‘pchilik o‘qishni bilishmasdi. Institutlarda o‘qishni gapirmasa ham bo‘ladi. Buni bugungi kun bilan taqqoslasak, katta farqni kuzatamiz. Ayniqsa internet va zamonaviy media texnologiyalarning berayotgan sharoitlari bilan o‘lchasak kosmik imkoniyatlarni his qilamiz.

Shunga qaramay zamonaviy ta’limda multimedia va internet imkoniyatlaridan oqilona foydalanmayotgan o‘quvchi yoshlarimiz borligi ma’lum. Talaygina o‘quvchi yoshlarimiz biror maqsadga erishish uchun o‘z mehnati bilan emas, balki oson yo‘llarni izlashi noo‘rin hisoblanadi. Bu borada nazoratchi o‘qituvchilarning ma’suliyati yanada ortmoqda. Masalan, Televizion texnologiyalar yo‘nalishi talabalarining media amaliy ishlarini baholashda ilgari tugallangan yakuniy ish qabul qilingan bo‘lsa, endilikda butun jarayondagi hom ishlar ham birma bir ko‘zdan kechirilishini taqozo etmoqda.

Multimedia texnologiyalari ta’lim darslarini masofaviy, interaktiv, audio-vizual shakllarda tashkil etish imkonini berib, yanada shaffof bo‘lishini taminlamoqda. Masalan, ko‘plab o‘quv auditoriyalarida jihozlangan kuzatuv kameralari o‘quvchilarning sezgir bo‘lishi, zarur bo‘lmaganda mobil telefonlari va noutbuklardan foydalanmaslik kabi sharoitlarni paydo bo‘lishiga yordam bermoqda. Shuningdek, kuzatuv kameralari orqali umumiy dars sifatini nazoratga olish mumkin. Masofadan turib o‘qish ayniqsa, ish faoliyatida bo‘lganlar uchun qulay hisoblanadi. Ish joyidan turib onlayn shaklda darsga qatnashish, yoki qo‘shimcha audio-video ma’ruzalarni eshitish imkonini beradi. Shuni hisobga olgan holda, masofaviy ta’lim shaklida dars mavzularini eshitish va o‘zlashtirish jarayoni vaqt hisobida, boshlash, tugatish o‘quvchi uchun erkin tarzda bo‘lishi yanada qulaylik yaratadi.

O‘quv materialning vizual taqdimoti bizning miyamiz tomonidan matnga qaraganda 60 000 marta tezroq qayta ishlanadi, shuning uchun ma’ruza va laboratoriya materiallarini video formatda taqdim etish samaraliroq bo‘ladi [2]. Audio-video darsliklar asosan: videokamera yordamida, kompyuter grafikasi yordamida, kompyuter ekranidan video yozish, fotoslayd yordamida va boshqalarga bo‘linadi. Ko‘p hollarda videokamera o‘rnini mobil telefonlari egallayotgani sir emas, shunga qaramay malakali mutaxassislar professional video va ovoz yozish qurilmalaridan foydalanishni maslahat berishadi. Darhaqiqat, bugungi kundagi kontent sifati uchun professional audio-video texnika muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, zamonaviy o‘quvchilar va turli foydalanuvchilarning audio-vizual ma’lumotlarni qabul qilish saviyasi 20 yil oldingiga qaraganda ancha o‘sgan. Media maxsulotlarga nisbatan texnik, kreativ, ijodiy va ihchamlik sifatlariga talab ortgan.

Bu borada Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o‘quv media markazida audio-video darsliklar yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Buning uchun birgina videokamera yetarli bo‘layotgani yo‘q, balki alohida ovoz yozish mikrofoni, yoritish chiroqlari, maxsus fon, elektron doska, sufler kabi uskunalar va eng asosiysi ulardan to‘laqonli foydalanishni bilish zarur bo‘lmoqda. Texnikalarni ishga tayyorlash va boshqarish ko‘nikmalari universitetning Televizion va media texnologiyalar yo‘nalishlarida o‘rgatilmoqda. Ko‘pgina bitiruvchi talabalar universal bilimga ega bo‘lib, suratga olish, montaj qilish, grafik dizayn va geym dasturlar ustida ishlash, videokuzatuv tizimi va yorug‘lik yoritish bo‘yicha turli korxonalarda, jumladan, davlat va nodavlat telekanallarida faoliyat yuritishmoqda.

Video darsliklarni yaratilishini umuman olganda to‘rt qismga bo‘lish mumkin: 1. Mavzuga tayyorgarlik; 2. Texnik tayyorgarlik; 3. Mavzuni kamera oldida yoritib berish yoki suratga olish; 4. Montaj jarayoni. Bularning ichida eng asosiysi o‘quv materialni o‘quvchiga tushunarli va qiziqarli qilib yetkazish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada klassik usuldagi televizion, animatsion va kino ssenariylar tuzilishining video darsliklar yaratilishida mos kelishi kuzatilmoqda. /Bunday ssenariylarni bugungi kunda media loyihalar ham deb nomlashadi. Asosiy maqsad inson ongida tug‘ilgan g‘oyalarni amalga oshirish uchun tizimlashgan reja asosida qog‘ozda tuzib chiqish yoki yaratishdir. Media ssenariyni oldindan tuzib chiqilishi yakuniy ishning mukammal bo‘lishiga omil bo‘lishi tabiiy hol. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun tayyorgarlik vaqti va undagi jarayonlar talab qilinadi.

Shuningdek, natijalarga ko‘ra o‘quv video darsliklari to‘liq bir soat yigirma daqiqa emas, balki birmuncha kamroq vaqtni egallashi, ihcham bo‘lishi, qismlarga bo‘linishi lozimligi talab qilinadi. Agar buni badiiy film bilan taqqoslasak, badiiy filmlar odatda bir soatdan ko‘proq vaqtni egallaydi. Bu vaqt mobaynida tomoshabinni ortiqcha yuklab qo‘yadigan ma’lumotlar o‘quv video filmlari kabi yuqori bo‘lmaydi. Masalan, hujjatli filmlar odatda badiiy filmlardan 2-4 baravar qisqaroq bo‘lishini yaxshi bilamiz. Buning boisi, hujjatli filmlarda tomoshabin uchun mulohaza yuritishga da’vat qilish holatlari mavjudligi, shuningdek, qisqa tahliliy ma’lumotlar berish maqsad qilinganligini misol keltirish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, o‘quv video darsliklarini tayyorlanishida o‘quvchi tomonidan ma’lumotlarni qabul qila olish chegarasi, ortiqcha yuklab qo‘ymaslik, zeriktirmaslik tomonlariga e’tibor qaratish ahamiyatli.

O‘quv video darsliklarni yaratilishida o‘qituvchi kadrda doim ko‘rinib turishi shartmi, albatta buning meyoriy mezonlari bo‘lib, bu haqida ilmiy izlanuvchilar quyidagi xulosalarga kelishmoqda. Masalan, V.Grushevskaya izlanishlariga ko‘ra o‘qituvchini kadrda qancha vaqt va qanday shaklda ko‘rinishi videodarslik tuzilishi, uslubi, maqsadi, ta’sir etish kabi omillariga bog‘liq deyiladi. Shuningdek, o‘qituvchini kadrda ko‘rinishi o‘quvchi bilan vizual kontakt effektini paydo qiladi, ma’lumotlarni ishonchli va ta’sirchan yetib borishida rol o‘ynashini bildiradi. Bundan tashqari so‘nggi bir necha yil ichida o‘qituvchilar ta’limida videolardan "amaliyot artefakti" sifatida foydalanish ko‘paydi. Video darsliklar bilan ishlash o‘qituvchilarga ta’lim jarayonining “ichiga” kirib, o‘z-o‘zini aks ettirish uchun boy vositaga ega bo‘lganligi sababli o‘qitishni boshqa nuqtai nazardan boshdan kechirish imkonini beradi kabi xulosalarga kelingan [3].

So‘nggi yillarda tadqiqotchilar XXI-asr maktablarida aks ettiruvchi o‘qituvchining roli ustida ko‘p izlanishmoqdalar. O‘qituvchilar o‘qitish uslubi hamda strategiyasini mos ravishda tashkil etish maqsadida o‘zlarining xatti-harakatlari haqida o‘ylashlari uchun elektron portfelda dalillar, hujjatlar, video hikoyalar xotiralarini to‘plashlari kerakligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda zargarlik dizaynida yangilik yaratish va foydalanuvchi tajribasini boyitishga qaratilgan yondashuvlar orasida L-tizimlar keng e’tiborga tushmoqda. Bu tizimlar asosan modullik, o‘zgaruvchanlik

va ko‘p funksiyalilik prinsiplariga asoslanadi. Ushbu yondashuv orqali zargarlik buyumlari faqat estetik jihatdan emas, balki foydalanuvchining ehtiyojiga moslashuvchan dizayn elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

L-tizimlar, 1968 yilda Aristid Lindenmayer tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘simliklarning o‘sish jarayonlarini modellashtirish uchun mo‘ljallangan formal grammatik tizimdir. Ushbu tizimlar, **fraktal geometriya** asosida, o‘z-o‘zini takrorlovchi va murakkab geometrik shakllarni yaratishga imkon beradi. Bu xususiyatlari zargarlik dizaynida yangi, estetik jihatdan boy va murakkab naqshlarni yaratishda qo‘llaniladi [8].

LUO Ze-min tomonidan olib borilgan tadqiqotda, fraktal geometriyaning zargarlik dizayniga qo‘llanilishi o‘rganilgan. Tadqiqotda, o‘z-o‘zini takrorlovchi fraktal birliklar zargarlik buyumlarining asosiy elementlari sifatida ishlatilgan. Bu yondashuv, kompyuter yordamida zargarlik dizaynini yaratishda fraktal dasturlarni qo‘llash orqali yangi imkoniyatlar yaratadi [5].

Somlak Wannarumon tomonidan olib borilgan tadqiqotda, fraktal asosidagi foydalanuvchi markazli zargarlik dizayni uchun estetik evolyutsion algoritm ishlab chiqilgan. Ushbu algoritm, iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) yordamida fraktallarni yaratadi va foydalanuvchi estetikasi asosida dizaynlarni baholaydi. Bu yondashuv, zargarlik dizaynida foydalanuvchi afzalliklarini hisobga olgan holda yangi dizaynlar yaratishga imkon beradi [7].

3-jadval

Fraktal kulonlarni loyihalash naqshlari va L-Tizimlariga asoslangan tenglamalar.

2.		axiom = -F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 120 number of iterations = 4
		axiom = -F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 80 number of iterations = 5
		axiom = -F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 120 number of iterations = 6
		axiom = -F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 60 number of iterations = 6
2.		axiom = F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 60 number of iterations = 3
		axiom = -F-F-F-F rule: FF+F+-F angle = 70 number of iterations = 5
		axiom = F rule: [[[[[+F]]--+F-FF+F+F++FF-][[F-]-+[F]+]-]] angle = 60 number of iterations = 4
		axiom = F rule: [[[[[+F]]--+F-FF+F+F++FF-][[F-]-+[F]+]-]] angle = 45 number of iterations = 5

3.		axiom = F rule: [+[F+]+F+[F]++[+[F-]-]---] angle = 150 number of iterations = 5 axiom = F rule: [+[F+]+F+[F]++[+[F-]-]---] angle = 72 number of iterations = 5 axiom = F rule: [FF+[F+]+F+[FF]++[+[F-]-]--] angle = 60 number of iterations = 5 axiom = F rule: [FF+[F+]+F+[FF]++[+[F-]-]--] angle = 90 number of iterations = 5
4.		axiom = F++F++F rule: -FF- angle = 30 number of iterations = 5 axiom = F rule: [F+F[-F+F angle = 30 number of iterations = 5 axiom = F+F+F+F+F+ rule: F+F--F+F-- angle = 20 number of iterations = 6

		axiom = F+F+F+F+F+ rule: F+F--F+F-- angle = 90 number of iterations = 5

L-tizimlar orqali yaratilgan zargarlik mahsulotlari, shuningdek, atmosferaviy va ekologik omillarga moslashuvchanlik ko'rsatishi mumkin. Ba'zi hollarda bu tizimlar zargarlik buyumining bir nechta funktsiyasini- masalan, brosh sifatida va marjon sifatida - birlashtirish imkonini beradi, bu esa dizayn samaradorligini oshiradi (1 - jadval).

Shu asosda aytish mumkinki, L-tizimlarni zargarlik dizayniga tatbiq etish-bu nafaqat tashqi ko'rinishdagi yangilanish, balki mahsulotning interaktivlik darajasini oshirish, barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va iste'molchi bilan yanada chuqurroq aloqani shakllantirish uchun muhim dizayn strategiyasidir.

IV. Xulosa

Tabiatda uchraydigan ko'plab murakkab jarayonlar dastlab tartibsiz ko'ringan bo'lsa-da, chuqurroq kuzatish natijasida ularning o'ziga xos takroriyligi va strukturalari namoyon bo'ladi. Bunday hodisalar fraktallar deb yuritiladi va ular o'ziga o'xshashlik tamoyiliga asoslanadi. Fraktallar nafaqat biologiya va tabiiy fanlarda, balki sanoat jarayonlari hamda axborot texnologiyalarida ham keng uchraydi. Ayniqsa, zamonaviy kompyuter tizimlari va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida fraktal yondashuvlarning qo'llanilishi yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, fraktallarni qurish usullari yordamida ma'lumotlarni saqlash va izlashning samarali modellarini yaratish mumkin. Xususan, katta hajmli ma'lumotlar bazasi tizimlarida L-tizimlari yordamida fraktal ma'lumotlar bazalarini modellashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu yondashuv nafaqat nazariy asos yaratadi, balki katta hajmdagi ma'lumotlarni tartibga solish, tezkor qayta ishlash va optimal qidiruv jarayonlarini tashkil etishda amaliy natijalar ham beradi.

Demak, fraktal tuzilmalar va L-tizimlari asosida yaratilgan model kelajakda katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlashda poydevor bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, axborot tizimlarida samaradorlik va moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib qolishi mumkin.

Adabiyotlar

[1]. Николаева Е. В. Фракталы городской культуры: Монография. СПб.: Страта, 2014. – 264 с.
[2]. Т. А. Петушкова ВИЗУАЛЬНО-ГРАФИЧЕСКИЕ КОММУНИКАЦИИ МОДНЫХ БРЕНДОВ В КОНЦЕПЦИИ «ФРАКТАЛ-АРТ». Учебное пособие Санкт-Петербург 2024.
[3]. Мандельброт Б.Б., Фрактальная геометрия природы. -М.: Институт компьютерных исследований, 2002. - 656 с
[4]. Nazirov Sh.A., Anarova Sh.A., Nuraliyev F.M. Fraktallar nazariyasi asoslari. Monografiya. –T.: Navruz nashriyoti, 2017. - 128b.
[5]. Anarova Shahzoda, Mirzaakhmedova Sarvinoz //Innovative Fractal Jewelry: Integrating L-Systems and Big Data for Design Excellence// DOI:10.34920/icdgpdt.alkhwS29. № S1 (19)2024.
[6]. Anarova Sh.A., Mirzaaxmedova S.K //IFS USULIGA ASOSLANGAN FRAKTAL ZARGARLIK BUYUMLARINI ISHLAB CHIQISH// Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali. 3(29)2024.
[7]. Somlak Wannarumon, Erik L. J. Bohez, Kittinan Annanon //Aesthetic evolutionary algorithm for fractal-based user-centered jewelry design//Artificial Intelligence for Engineering Design Analysis and Manufacturing 22(01):19-39 May 2008.
[8]. Aristid Lindenmayer //The Algorithmic Beauty of Plants// 2004 Przemyslaw Prusinkiewicz 2004.
[9]. Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы // Москва: Институт компьютерных исследований, 2010. С - 676.
[10]. Петушкова Т. А. Модный брендинг в дизайне костюма: вопросы коммуникации: Монография. – М.: РГУ им. А. Н. Косыгина. – 2021. – 117 с.

FRAKTAL TUZILISHLI NAQSHLARNING MODEL VA ALGORITMLARINI L-TIZIMLARI USULIDA RAQAMLASHTIRISH

Anarova Shahzoda Amanbayevna
DSc, prof., *Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: anorova@tuit.uz,

Bekmurodova Mukhayo Shukurullayevna
Asissent, *Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
Toshkent, O'zbekiston
muhayyo.shukurullayevna.89@gmail.com

Annotatsiya: ***Ushbu maqolada fraktallar tushunchasi va ularning mato naqshlarini yaratishda qo'llanilishi tahlil qilingan. To'qimachilik va yengil sanoatning ajralmas qismi bo'lgan jakkard gazlamalari va ularning xususiyatlari ifodalangan. Fraktallar tushunchasi va jakkard gazlamalariga raqamli ishlov berishda fraktal naqshlarni qo'llashning ahamiyati va afzalliklari keltirilgan. Xususan, matematik modellashtirishning Lindenmayer tizimlari (L-tizimlar) asosida naqshlarni generatsiya qilish o'rganilgan. Jakkard gazlamalari uchun qo'llash mumkin bo'lgan fraktal naqshlar L-tizimlar usuli asosida ishlab chiqilgan. FRACTAL PATTERN FOR JACQUARD dasturiy vositasi yordamida n ta iteratsiyaga ega fraktal naqshlar hosil qilingan.***

Kalit so'zlar: fraktal naqsh, jakkard gazlama, L-tizimlar usuli, egri chiziq, ajdarho egri chizig'i

I. KIRISH.

Fraktal geometriya - zamonaviy matematikadagi jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Fraktal tuzilishli naqshlarga bo'lgan qiziqish ko'plab monografiyalar va o'quv qo'llanmalarda o'z ifodasini topgan. Fraktal geometriya va unga yaqin bo'lgan xaos nazariyasi oliy ta'lim tizimiga kirib bormoqda. Fraktal tuzilishli naqshlarni maktab va universitet matematikasi kursida ham o'rganilishi mumkin, bu esa kabi metodik maqolalarda tasdiqlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda fraktal geometriyaga bag'ishlangan o'nlab veb-saytlar mavjud bo'lib, xorijda kongresslar va konferensiyalar o'tkazilmoqda [4,9,15].

Manbalarda fraktallarning geometrik progressiya bilan bog'liqligi ko'rsatilgan hamda Kox qor parchasining xossalari o'rganilgan. Ushbu maqolada L-tizimlar yordamida fraktal tuzilishli naqshlarni qurishning universal algoritmi keltiriladi va ular bilan bog'liq matematik masalalar ko'rib chiqiladi.

L-tizimlar o'tgan asrning ikkinchi yarmida A. Lindermayerning ishlari natijasida paydo bo'lgan [12,18]. Dastlab, L-tizimlar dasturlash tillarini o'rganishda qo'llanilgan. Keyinchalik, kompyuter grafikasi jadal rivojlangach, L-tizimlar yordamida fraktal tuzilishli naqshlarni qurish mumkin bo'ldi. L-tizimlar fraktal tuzilishli naqshlarni yaratish va ularni kompyuter yordamida qurishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Fraktal tuzilishli naqshlarni L-tizimlar orqali tasvirlash "Chegaralarga ega bo'lmagani" sababli, ushbu mavzuga alohida qiziqqan har bir o'quvchi o'z "shaxsiy" fraktalini nol nuqtadan boshlab qurishi va uning matematik xossalarini o'rganishi mumkin [16,17].

Jakkard gazlamasi o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan to'qimachilik materiali bo'lib, unda turli rangli iplar asosida murakkab naqshlar yaratiladi. Bu gazlama naqshli matolarni ishlab chiqarish uchun maxsus Jakkard to'quv mashinasi yordamida ishlab chiqariladi. Fransuz ixtirochisi Jozeph-Marie Jakkard 1804 yilda jakkard to'quv mashinasini ixtiro qilib, to'qimachilikning naqshli tuzilishini yaratishga imkon bergan va to'qimachilik sanoatiga inqilobiy o'zgarishlar kiritgan [1]. Jakkard to'quv mashinasi keng imkoniyatlarga ega bo'lib, matoning har bir ipini alohida boshqaradi. Bu esa juda murakkab va detalga boy naqshlar yaratish imkonini beradi. Ranglarning ko'pligi va naqshlarning murakkabligi tufayli jakkard gazlamalari ko'plab rangli va geometrik tasvirlarni o'z ichiga olishi mumkin. Jakkard gazlamalarning jakkard brokadi, jakkard atlasi, jakkard shifoni kabi turlari mavjud bo'lib, ular turli sohalarda: pardalar, choyshablar, poyabzallar, kiyim-kechaklar ishlab chiqishda qo'llaniladi [2].

II. METODOLOGIYA VA NATIJALAR.

Fraktal tuzilishli naqshlarni grafik tarzda tasvirlash uchun biz "turtle-grafika" (turtle – toshbaqa) dan foydalanamiz. Kompyuter monitorida toshbaqaning harakatini (ya'ni fraktal qurilishini) aks ettiruvchi dasturlar Pyton muhiti orqali yozilgan. Uchta parametr bilan ishlaymiz: x, y va α. Bu yerda x va y - toshbaqaning koordinatalari, α esa u harakatlanishi kerak bo'lgan burchakni bildiradi [4,5].

Toshbaqa chapdan o'ngga o'qiladigan kodli so'z orqali beriladigan buyruqlarni "bajarishni biladi". Bu kodli so'z - L-tizim ishlovidan olingan natijadir va tarkibida turli harflar hamda belgilar bo'lishi mumkin. Quyida ishlatadigan belgilarni tavsiflaymiz:

F - iz chizish va bir qadam oldinga siljish;

+, – - α burchakni θ miqdoriga oshirish (+) yoki kamaytirish (–).

Masalan, agar θ = π/2 bo'lsa, F+F+F+F so'zining grafik tasviri kvadratni hosil qiladi; agar θ = π/3 bo'lsa, F+F++F++F so'zining grafik tasviri teng tomonli uchburchakni beradi. Qadam uzunligi va burchak θ bo'yicha o'zgarish miqdori oldindan belgilanadi va toshbaqaning barcha harakatlari uchun o'zgarmas bo'lib qoladi. Agar boshlang'ich harakat yo'nalishi α (ya'ni x

o'qining musbat yo'nalishidan hisoblanadigan burchak) ko'rsatilmagan bo'lsa, unda α nolga teng deb olinadi [12].

Faraz qilaylik, τ – buyruqlar ketma-ketligi, (x_0, y_0, α_0) – toshbaqaning boshlang'ich holati, qadam uzunligi h va burchak θ – o'zgarmas qiymatlardir. Buyruqlar ketma-ketligi τ ga javoban toshbaqa chizadigan barcha chiziqlar yig'indisi τ ning toshbaqacha talqini deb ataladi. Odatda fraktal tuzilishli naqshlarni qurish jarayoni aksioma va generatsiya qoidasi bilan bog'liq bo'ladi.

Aksioma - bu fraktal tuzilishli naqshlar qurilishi boshlanadigan boshlang'ich obyekt, generatsiya qoidasi esa ushbu obyekt fraktal tuzilishli naqshlarni qurilish jarayonida qanday obyektga almashtirilishini ko'rsatadi [4,5]. Endi bir misolni ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Fraktal tuzilishli naqshlar

L-tizimlar usuliga asosan 1-rasmdagi naqshlarning simvolik tuzilishi quyidagicha ifodalash mumkin.

Kirish	
Aksioma (boshlang'ich so'z):	'F'
Generatsiya (yaratish) qoidasi:	'F → F-F+F+F-F'
Boshlang'ich burchak (α):	0
Burilish burchagi (θ):	π/2

2-rasm. L-tizimlar usulida fraktal naqshni qurish jadvali

Faraz qilaylik, E_0 – birlik uzunlikdagi boshlang'ich kesma (aksioma).

Uning o'rta uchdan bir qismini olib tashlaymiz va 1-rasmda ko'rsatilgandek uchta yangi kesmani qo'shamiz. Hosil bo'lgan to'plamni E_1 deb ataymiz.

Ushbu jarayonni bir necha marta takrorlaymiz - har bir bosqichda mavjud kesmaning o'rta uchdan bir qismini olib tashlab, uning o'rniga uchta yangi kesma qo'shamiz.

n-bosqichdan so'ng hosil bo'lgan shaklni E_n deb belgilaymiz.

Intuitsiya orqali anglash mumkinki, $\{E_n\}$ ketma-ketligi E deb belgilanuvchi egri chiziqqa yaqinlashadi.

2. L-tizimlar tilida E egri chizig'ini qurishni jadval ko'rinishida ifodalaymiz (2-rasm).

Ushbu algoritmni tushuntirish uchun blok-sxemalardan foydalanamiz, chunki ular dasturlash tilini bilishni talab qilmaydi. 3-rasmda satr shakllantiriladi va fraktal tuzilishli naqshlarning mos iteratsiyasi quriladi.

Boshlang'ich shartlar:

Aksioma: W = "F"

Paydo qiluvchi qoida: newf = "F–F+F+F–F" (3.20-rasm)

Ishchi katak: T = " "

Burchak α: α = 0

Burilish burchagi θ:θ = π/2

Toshbaqa boshlang'ich nuqtada (x_0, y_0): x_0 = 100, y_0 = 300, qadam uzunligi h=20.

4-rasmda (x_0, y_0) nuqta 1-raqam bilan belgilanadi.

Faraz qilaylik, bizga E egri chizig'ining ikkinchi iteratsiyasi – E_2 ni qurish kerak. Satrni bir o'lchovli massiv deb hisoblaymiz. Masalan, agar

W="F+++F+F+F–F" bo'lsa, unda:

W[1] = "F",

W[2] = "+",

W[3] = "+",

…

W[10] = "–",

W[11] = "F".

Demak, boshlang'ich holatda:

T = " "

level = 2

W = "F"

len(W) = 1

Birinchi sikl bir marta bajariladi, T katagiga paydo qiluvchi qoida yoziladi:

T = "F–F+F+F–F"

Keyin sikl yopiladi va W katagiga T dagi qiymat yoziladi:

W = T = "F–F+F+F–F"

T yana bo'sh qiymatga o'rnatiladi: T = " "

level bir birlikka kamayadi: level = 2 – 1 = 1

Keyingi bosqich:

W = "F–F+F+F–F"

Endi sikl yana ishlaydi. Bu safar len(W) = 9 bo'lgani uchun u 9 marta bajariladi.

1- sikl: T = "F–F+F+F–F"

2- sikl: T = "F–F+F+F–F–"

3- sikl: T = "F–F+F+F–F–F–F+F+F–F"

... va hokazo.

9- sikl tugagach, T da quyidagi satr hosil bo'ladi:

T = "F–F+F+F–F–F–F+F+F–F+F–F+F+F–F+F–F+F+F–F+F–F"

So'ng T ning qiymati yana W ga yoziladi:

W = T

T yana bo'shatilib, T = " "

level yana kamayadi: level = 1 – 1 = 0

Shundan so'ng sikl to'xtaydi va 32.1a-rasmdagi algoritmi o'z ishini yakunlaydi. Endi E_2 egri chizig'ining ikkinchi iteratsiyasi 3-rasmdagi algoritm asosida quriladi.

Oddiy hisob-kitoblarga ko'ra, W o'zgaruvchisidagi belgilar soni 49 ga teng bo'ladi. Keyin (x_1, y_1) nuqta aniqlanadi (4-rasmda bu nuqta 2 bilan belgilangan):

$x_1 = x_0 + h \cdot \cos(0) = x_0 + h$

$y_1 = y_0 + h \cdot \sin(0) = y_0$

Shundan so'ng 1 va 2 nuqtalarni birlashtiruvchi kesma chiziladi (4-rasm).

Endi x_0 o'zgaruvchiga x_1 ning qiymati, y_0 o'zgaruvchiga esa y_1 ning qiymati tayinlanadi.

Shundan so'ng, ekran koordinatalarini hisobga olgan holda (koordinatalar boshi monitorning yuqori chap burchagida joylashgan), toshbaqa soat miliga qarshi 900 ga buriladi (ekran koordinatalariga ko'ra, bu burilish $\theta=\pi/2$ ga teng) (4-rasm).

Keyin quyidagi nuqta belgilanadi:

(x_1, y_1)

$x_1 = x_0 + h \bullet \cos(-\pi/2) = x_0,$

$y_1 = y_0 + h \bullet \sin(-\pi/2) = y_0 - h$

Bu nuqta bilan oldingi nuqtani bog'lovchi kesma chiziladi (4-rasm). Keyingi bosqichda toshbaqa soat mili yo'nalishida 90^0 ga buriladi va iteratsiyaning navbatdagi qismi quriladi.



3-rasm. L-tizimlar usulida fraktal naqshlarni qurish uchun blok-sxema



4-rasm. Nuqtalarni birlashtiruvchi kesmalari

Egri chiziq bo'ylab tartib raqamiga qarab harakatlanar ekanmiz, bu yerda egri chiziq uchlari ustidagi pastki indekslar - mos ravishda har bir uchning tartib raqamini bildiradi, ikkinchi iteratsiyadagi barcha 26 ta uchning koordinatalarini yozib chiqamiz (5-rasm).

$(100, 300)_1 \rightarrow (120, 300)_2 \rightarrow (120, 280)_3 \rightarrow (140, 280)_4 \rightarrow (140, 300)_5 \rightarrow$
$\rightarrow (160, 300)_6 \rightarrow \rightarrow (160, 280)_7 \rightarrow (140, 280)_8 \rightarrow (140, 260)_9 \rightarrow$
$\rightarrow (160, 260)_{10} \rightarrow (160, 240)_{11} \rightarrow (180, 240)_{12} \rightarrow (180, 220)_{13} \rightarrow$
$\rightarrow (200, 220)_{14} \rightarrow (200, 240)_{15} \rightarrow (220, 240)_{16} \rightarrow (220, 260)_{17} \rightarrow$
$\rightarrow (240, 260)_{18} \rightarrow (240, 280)_{19} \rightarrow (220, 280)_{20} \rightarrow (220, 300)_{21} \rightarrow$
$\rightarrow (240, 300)_{22} \rightarrow (240, 280)_{23} \rightarrow (260, 280)_{24} \rightarrow (260, 300)_{25} \rightarrow (280, 300)_{26}.$

Egri chiziq ekran ko'rinadigan chegaradan chiqib ketmasligini kuzatamiz.

1-topshiriq. Boshlang'ich nuqta sifatida M(100, 300) ni qabul qilgan holda,

h=20 bo'lsa, E fraktalining uchinchi iteratsiyasi - E_3 dagi barcha uchlarning koordinatalarini yozib chiqing.

Ushbu algoritm foydalanuvchiga qulay bo'lgan istalgan dasturlash tilida yozilishi mumkin.



5-rasm. 26 ta nuqtalarni birlashtiruvchi kesma

Bunday fraktal tuzilishli naqshlarni qalam va chizg'ich yordamida qurish juda murakkab. Shunga qaramay, bu shakllar juda qiziqarli bo'lgan bir qator matematik masalalarni shakllantirish imkonini beradi [21,22]:



6-rasm. Teng yonli trapetsiya hosil bo'lish tasviri

1) Ikkinchi va uchinchi iteratsiyalardan hosil bo'lgan barcha kvadratlarning yuzasini toping; ikkinchi, uchinchi va n-iteratsiyalarning perimetrini hisoblang;

2) Ikkinchi iteratsiyaning diametrini aniqlang;

3) Ikkinchi va uchinchi iteratsiyalar nechta tugun (uch) nuqtaga ega ekanini toping;

4) Ikkinchi va uchinchi iteratsiyalar nechta o'z-o'zini kesib o'tuvchi tuggun (uch) nuqtalarga ega ekanini aniqlang;

5) Ikkinchi va uchinchi iteratsiyalar nechta bo'g'indan iboratligini aniqlang;

6) Ikkinchi iteratsiyaning diametri nima bilan teng?

7) 1, 11, 16, 26-uchlar orqali atrofida aylana o'tkazish mumkinmi?

1-masala yechimi qiyinchilik tug'dirmaydi. 1, 11, 16, 26-uchlarni tutashtiraylik. Natijada teng yonli trapetsiya hosil bo'ladi, uning atrofidan aylana o'tkazish mumkin (6-rasm).

Endi 1-masalani mustaqil ish sifatida murakkablashtiramiz:

2-masala. 6, 8, 9, 11, 16, 18, 23, 21-uchlar orqali bitta aylana o'tkazish mumkinmi?

Har bir fraktal uchun MatLab muhitida alohida dastur yoziladi. Bizning dastur esa universaldir, ya'ni faqat

generatsiya (yaratish) qoidalarini o'zgartirish orqali kompyuter monitorida turli xil prefraktal egri chiziqlar hosil qilish mumkin (7-rasm, a–f).

Endi "oldraktal" atamasining ma'nosini tushuntiramiz: Fraktal tuzilishli naqshlar cheksiz iteratsiyalar jarayonida hosil bo'ladigan shakldir. Bunday egri chiziqni aniq tasvirlab bo'lmaydi. Oldfraktal esa cheklangan sondagi iteratsiyadan so'ng hosil bo'lgan egri chiziqdir.

7-rasmda tasvirlangan oldfraktallar uchun generatsiya qoidalari va burilish burchaklarini ko'rsatamiz. Avvalo, ushbu egri chiziqlarning har biri uchun aksioma 7-rasmda tasvirlangan kesmadir.

7 a-rasm: "–F+FF+F–", θ= π/4;
7 b-rasm: "F–F++F–F", θ=π/3
7 c-rasm: "F–F+F+F–F", θ=π/2 ;
7 d-rasm: "F– –F+F++F+F– –F", θ= π/4;
7 e-rasm: "F–F++F– –F++F–F", θ=π/3;
7 f-rasm: "F–F++FF– –F+F", θ=π/3.



7-rasm. Oldfraktal esa cheklangan sondagi iteratsiyadan so'ng hosil bo'lgan egri chiziqlar

III. XULOSA

Mazkur maqolada Xaytveyning ajdaho fraktal tuzilishli naqshlari va boshqa shu kabi fraktaltuzilishli naqshlarni qurish mumkin. qoidani ikkita yaratuvchi qoidaga almashtirib, dasturdagi boshqa barcha elementlarni o'zgartirmasdan turib, Gilbert egri chizig'i, Harter–Xaytveyning ajdaho fraktal tuzilishli naqshlari va boshqa shu kabi fractal tuzilishli naqshlarni qurish mumkin. L-tizimlar fraktal tuzilishli naqshlarni yaratish va ularni kompyuter yordamida qurishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Fraktal tuzilishli naqshlarni L-tizimlar orqali tasvirlash "Chegaralarga ega bo'lmagani" sababli, ushbu mavzuga alohida qiziqqan har bir o'quvchi o'z "shaxsiy" fraktalini nol nuqtadan boshlab qurishi va uning matematik xossalarini o'rganishi mumkin

ADABIYOTLAR.

[1] H.M. Дзембак. Конструирование жаккардовых тканей.Учебное пособие.Санкт-Петербург 2018.С 5-8.

[2] Г.В. Казарновская*, Ю.Н. Пархимович, П.Е. Балашов. Автоматизированное проектирование модельных переплетений для жаккардовых тканей по мотивам слуцких поясов. Беларусь 2020. С 1-8.

[3] Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы.-М:. Институт компьютерных исследований, 2010. – 676 с.

[4] Nazirov Sh.A., Anarova Sh.A., Nuraliev F.M. Fraktallar nazariyasi asoslari. Toshkent. Navro'z. 2017. – B. 128.

[5] Falconer K. Fractal Geometry: Mathematical Foundations and Applications 2014 – P. 400.

[6] Анарова Ш.А., Нуралиев Ф.М. Фракталлар назарияси ва фрактал графика. // Ўқув қўлланма, Тошкент: Тафаккур чироқлари. 2021.–228 б.

[7] Балханов В.К. Основы фрактальной геометрии и фрактального исчисления // Отв. ред. Ю.Б. Башкуев. -Улан-Удэ: Изд-во Бурятского госуниверситета, 2013. -224 с.

[8] Кононюк А.Е. Дискретно-непрерывная математика. (Поверхности). // 12-и кн. Кн.6. ч.2- К: Освіта України. 2016. -618 с.

[9] Анарова Ш.А. Фрактал моделлаштириш. // Монография. Тошкент, 2022. BIZNES POLIGRAF – Б.258.

[10] Латыпова Н.В. Фрактальный анализ. // Учеб. пособие–Ижевск: Издательский центр «Удмуртский университет», 2020. -120 с.

[11] Морозов А.Д. Введение в теорию фракталов // Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2006, -162 с.

[12] Lindenmayer A. The Algorithmic Beauty of Plants. // Springer-Verlag, New York. 2004. - Pp. 240.

[13] Иудин Д.И. Фракталы: от простого к сложному // Нижегор. гос. архитектур-строит. ун-т-Н. Новгород. 2012, – 200 с.

[14] Кириллов А.А. Повесть о двух фракталах. // 2-е изд., исправленное. - М.МЦНМО, 2010. -180 с.

[15] Анарова Ш.А. Фракталлар назарияси ва фрактал графика. // Darslik, Тошкент: Тафаккур чироқлари. 2021. – 254 б.

[16] Гелашвили Д.Б., Иудин Д.И., Розенберг Г.С., Якимов В.Н., Солнцев Л.А. Фракталы и мультифракталы в биоэкологии. // Монография. Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета, 2013, - 370 с.

[17] Махоркин А.В. Математика В.В. Мир фракталов // Учеб. пособие. Калинин. град: Изд-во БФУ им. И. Канта, 2011. -155 с.

[18] Anarova, S., Sa'dullayeva Sh.A., Berdiev, G., Ilhomjon Ogli, A. T., & Ilxom Kizi, M. I. Geometric Modelling of Fractal Structured Objects based on Integration of R-Function And L-System Methods. // In Proceedings of the Cognitive Models and Artificial Intelligence Conference (pp. 172-181). June 2024. DOI: 10.1145/3660853.3660898

[19] Anarova Sh.A., Sa'dullayeva Sh.A., Berdiyev G'.R. Murakkab fraktal tuzilishli me'moriy obyektlarni R-funksiya va L-tizimlari usullari asosida geometrik modelashtirish // TAQI «Arxitektura, qurilish va dizayn» ilmiy-amaliy jurnali. Toshkent – 2021. № 2(16). –B. 93–97.

[20] Секованов В.С. Методическая система формирования креативности студентов университета в процессе обучения фрактальной геометрии. - Кострома: Костром. гос. ун.-т. Из-во КГУ, 2006. - 279 с.

[21] Секованов В.С. Элементы теории фрактальных множеств. Издание 2 пер. и доп. – Кострома: КГУ им. Н.А. Некрасова, 2006. – 248 с.

[22] Федер Е. Фракталы: пер. с англ. - 2-е изд. - М.: УРСС: Ленанд, 2014. - 256 с.

[23] Шредер М. Фракталы, хаос, степенные законы. Миниатюры из бесконечного рая. Ижевск: НИЦ «Регулярная и хаотическая динамика», 2005. – 528 с

AXBOROT OQIMLARINING FRAKTAL XUSUSIYATLARINI ANIQLASH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING SAMARALI USULLARI

Anarova Shahzoda Amanbayevna
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: anorova@tuit.uz

Uralova Iroda Abduvali qizi
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: i.abduvaliyevna@tuit.uz

***Annotatsiya - u*shbu maqolada axborot oqimlarining fraktal xususiyatlarini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda R/S-tahlil, VT-tahlil, DFA (Detrended Fluctuation Analysis) va veyvlet-tahlillari, ularning qo‘llanish bosqichlari bayon etilgan. Ushbu usullar yordamida axborot oqimlari uchun Hurst koeffitsienti, fraktal o‘lcham va o‘z-o‘ziga o‘xshashlik darajalari aniqlanadi. Eksperimental qismda tematik axborot oqimlari, jumladan, onlayn OAV materiallari asosida fraktal parametrlar hisoblangan va grafik tahlillar keltirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fraktal usullar yordamida axborot oqimlarining tuzilishi va xususiyatlari yashirin qonuniyatlarni aniqlash, klaster tuzilmalarni tahlil qilish hamda dinamik jarayonlarni oldindan tadqiq qilish mumkin. Bu yondashuv axborot xavfsizligi, telekommunikatsiya va Big Data monitoringi kabi sohalarda samarali qo‘llaniladi.**

Kalit so’zlar: Fraktal tahlil, axborot oqimlari, Hurst koeffitsienti, R/S-tahlil, VT-tahlil.

CL. KIRISH

So‘nggi yillarda katta hajmli ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash dolzarb masalaga aylandi. Internet tarmoqlari, ijtimoiy tarmoqlar, telekommunikatsiya tizimlari va IoT qurilmalari orqali hosil bo‘layotgan ma’lumotlar oqimlari son jihatdan tez o‘smoqda. Bu oqimlarning asosiy xususiyatlari – o‘z-o‘ziga o‘xshashlik, murakkablik, nochiziqlilik va stoxastiklikdir. Bunday tizimlarni tahlil qilishda klassik statistik modellar yetarli emas.

Fraktal nazariya bu masalani yechishda samarali yondashuv hisoblanadi. Mandelbrot tomonidan ishlab chiqilgan fraktal geometriya tabiiy va texnik jarayonlardagi murakkablikni matematik tarzda izohlash imkonini beradi. Ma’lumki hozirgi vaqtda fraktallar kompyuter grafikasi, fizika va boshqa turli tabiiy fanlarda keng qo‘llanilmoqda, shuningdek radiotexnika, telekommunikatsiya, kino, televideniyada maxsus effektlar va vizualizatsiya elementlari sifatida ishlatilmoqda. Axborot oqimlarining fraktal tahlili darajasidan kelib chiqqan holda, geometrik fraktallarni qurish usullarini o‘rganish, matematik modelini ishlab chiqish, samarali hisoblash algoritmlari hamda dasturiy vositasini yaratish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

Ko‘pgina eksperimentlar, axborot fazosi parametrlarini o‘lchash shuni tasdiqlaydiki, faktlarni statistik taqsimlarda axborot resurslari hajmining sezilarli darajada oshishida turli-tuman sermazmun qismlarida qabul qiluvchilar (masalan, manbaalar, amallar, mavzular) kabi o‘z shakllarini o‘zgartirmaydilar.

II. ASOSIY QISM

Axborot sohasidagi tahlilda fraktallar nazariyasini qo‘llanilishi informatika asosini tashkil qilib, qonuniyatlarda umumiy pozitsiyada qarash imkoniyatini beradi. Ma’lumki, ko‘pgina klaster analiz elementlarini oluvchi ko‘pgina yangi sinflarni avtomatik aniqlashda va hujjatlarni bu sinflarga ajratish imkoniyatini beradi.

Bunday klasterli strukturalar bilan axborot fazosining fraktal xususiyatlarining tabiati bir tomondan, rangli taqsimlanish paramatrlari bilan, boshqa tomondan esa, axborot klasterlari rivojlanish mexanizmga bog’liq. Yangi nashrning paydo bo‘lishi mavjud klasterlarning o‘lchovini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Fraktal xususiyatlar mos aniqlangan mavzularda nashr qilinayotgan hujjatlar axborotli web-sahifalari klasterlari uchun ham tavsiflangan. Bu klasterlar tematik hujjatlar tanlovi sifatida o‘ziga xos xususiyatlardagi hosil qiluvchi tuzilmalarni o‘zida ifodalaydi [1].

Web-soha topologiyasi va modellari tavsifi “web-bu fraktal” degan qarashni tasdiqlangan holda uning turli qism to‘plamlari deyarli bir xil. Tematik axborot oqimida xabarlar ketma-ketligi uchun xabarlar soni, haqiqiy dunyo hodisalari rezonanslari axborot manbalari (klasterlari) sonining ayrim darajalari bilan proporsianalligi S.Ivanov ishlarida ko‘rsatilgan.

Ma’lum bo‘lgan Pareto, Lotki, Bredforda qonunlari kabi ilmiy kommunikatsiyalarning barcha asosiy qonunlari aynan stoxastik fraktallar nazariyasi kommunikatsiyasi doirasida umumlashtirilgan bo‘lishi mumkin. An’anaviy ilmiy kommunikatsiyasida ham vaqti-vaqti bilan bir mavzu bo‘yicha internetdagi xabarlar to‘plami internatsional jarayonlar natijasida ro‘y beradigan dinamik klasterli tizimni ifodalaydi [2]. Turli nashrlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri havolalar va boshqalar bilan real hayotning bir xil hodisalarini ifodalaydigan bir tomonlama yoki bir xil sharhlar kabi jarayonlar qayta nashrlar sifatida tushuntiriladi.

Tematik axborot oqimiga mos keluvchi klasterli tizimda fraktalli o'lchovlar ma'lum vaqt mobaynida axborot dunyosini xabarlar bilan to'ldirish darajasini ko'rsatadi:

$$N_{nashr}(Et) = E^p N_k t^p, \qquad (1)$$

bu yerda N_{nashr} - axborot oqimida xabarlarning umumiy soni, tizim o'lchovi; N_k –O'lchov-klasterlar soni(tematik yoki manbaalar); p-axborot massivining fraktal o'lchovi; E - masshtablash koeffitsienti.

Xabarlar soni va klasterlar o'rtasida keltirilgan munosabatda to'plamni tashqi tomondan qaralganda masshtab o'zgarishida to'plamning ichki tuzilmasini saqlash xususiyati aniqlab beriladi. Real dunyodagi jarayonlarni bayon qiluvchi xabarlar, axborot oqimida tug'ilgan vaqtli qatorlarning xarakteristikasini o'rganish ularning dinamikasini bashoratlash yashirinkor relyatsiyani sikl va boshqalarni aniqlash imkonini beradi. O'zgarishlar qatorining fraktal xususiyatlarini tadqiq qilishda qo'llaniladigan asosiy algoritmlar tavsiflanadi. Grafiklarda ko'rsatish uchun haqiqiy sonli tajribalar natijalari keltirilgan. Tematik axborot oqimi nashrlari jadalligini ko'rsatuvchi qatorlarning fraktal xususiyatlari tadqiqotlar uchun baza sifatida internet tarmog'ida info Tream web-sahifalaridagi yangiliklarning kontinent-monitoring tizimdan foydalanilgan. Tadqiq qilinayotgan axborotlar oqimining mavzusi bu tizimga murojaat qilishda aniqlanadi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar "Tushunchalar tug'ilish dinamikasi" muhitidagi interfeysdan olingan [3].

Tematik axborot oqimida online OAV xabarlaridan iborat 14069 hujjatlar massivlar qayta ishlangan. Bu massivlar "Kompyuter virusi" deb berilgan so'rovdagi kompyuter viruslari tematikasidagi nashrlar qaralgan [4]. Ma'lum vaqt davrni vaqt intervalida bo'lishida universal yondashuvlardan biri DFA usuliga asoslanadi. DFA (Detrended Flnetnation Analysis) – o'zgarishlar qatorini qayta ishlashning universal usulidir. DFA usuli signallarning statistik o'ziga o'xshashligini nomoyon qilishida ham qo'llanilib kelgan. Bu usul bir o'lchovli tasodifiy varianti hisoblanib, tadqiq qilinayotgan qatorda korrelyatsiyaning davomiylik samarlarini tadqiq qilish imkonini beradi [5]. DFA algoritmi doirasida aproksimatsiya aniqlangan diskretlash bilan tematik nashrlar soni vaqt qatorlarini tahlil qilishning ayrim usullarini batafsil ko'rib chiqamiz.

DFA usuli. O'ziga o'xshashlikni hududi (kuzatishlar online) o'lchoviga bog'liq chiziqli anproksimatsiya o'rta kvadratik xatolari taxlil qilinadi. O'zgarishlar qatori X_t , t€1, …N bo'lgan. Bu qatorning o'rtacha qiymatini

$$<x>=\frac{1}{N}\frac{\frac{N}{Z}}{k=1}X_k, \qquad (2)$$

bilan belgilaymiz.

Boshlang'ich qatordan orttirmalar qatorini ko'ramiz:

$$X_t = \frac{\frac{t}{Z}}{k=1}(X_k - < x >) \qquad (3)$$

Keyin X_t qator L uzunlikdagi vaqt oynalari bilan bo'lib chiziladi. Har bir oyna ichidagi X_j – qism to'plam, X_j, j=1, ... , J=NIL – kuzatish oynalari soni) $X_{k,j,l}$ qiymatlar bo'yicha ($L_{j,l}$) chiziqli approksimatsiyasidagi orttirmalar qatori nuqtalarida chetlanishlar hisoblab chiqiladi.

$$E_{(j,l)} = \sqrt{\frac{1}{L}}\sqrt{\frac{\frac{L}{Z}}{k=1}}(X_{K,L,J,} - L_{K,J,L}) = \sqrt{\frac{1}{L}}\sum_{k=1}^{L} 1\ \emptyset_{J,K,L}, \qquad (4)$$

bu yerda $L_{K,J,L}$–t=(j-1)L+K nuqtada chiziqli approksimatsiyaning lokal qiymati $|\varnothing_{K,J,L}|$ – lokal chiziqli approksimatsiyadagi XK,J,L elementning absolyut chetlanishi. So'ngra o'rtacha qiymat hisoblanadi: $F(L)=\frac{1}{y}\sum_{j=1}^{y} E(j,l)$ bundan so'ng ayrim α o'zgarmaslar uchun $F(\alpha) \infty < \alpha$ holat uchun statistik o'xshashlik borligi va tadqiq qilinayotgan o'zgarishlar qatorining bo'lish xarakteri haqida xulosalar qilindi [6].

Bu usul yuqoridagi so'rovlar orqali olingan nashrlar soni qiymatdagi qatorga qo'llanilgan. 1-rasmda ikkilik logarifmik kattalikda o'zlashtirish hududi uzunligining o'rtacha kvadratik xatosiga bog'liqligi ko'rsatilgan.



1-rasm. Kuzatishlar oynasi uzunligi

Kuzatishlar oynasi uzunligiga D chiziqli approksimatsiyasining o'rtacha kvadrat xatoning bog'liqligi chiziqliga D(k) bog'liqlikning yaqinligi.

R/S-tahlil (Rescaled Range Analysis)

R/S-tahlil shundan iboratki, uzoq muddatli bog'liqlikka ega tasodifiy jarayonlar uchun katta τ qiymatlarda quyidagi munosabat bajariladi:

$$\tau M\left[\frac{R(\tau)}{S(\tau)}\right] = (c \cdot \tau)^H \qquad (5)$$

bu yerda: c – o'zgarmas qiymat, R(τ) – yig'ilgan og'ishlar qatorining oralig'i $x^{cum}(t,\tau)$, S(τ) – boshlang'ich qatorning standart og'ishi.

Hurst koeffitsientini baholash bosqichlari:

1. *X(t), t=1,...,N* dan *x(t)=X(t+1) - X(t)* ga o'zgartiriladi;
2. Olingan qator τ uzunlikdagi A qatorga bo'linadi, $A \cdot \tau = 2^N$. Har bir seriya I_a deb belgilanadi, $a = 1,2,3, ...,A$. τ uzunlikdagi har bir I_a uchun quyidagicha hisoblanadi: $\bar{x}(\tau) = \frac{1}{\tau}\sum_{t=1}^{r} x(t)$;

3. Har biri uchun $I_a x^{cum}(t,\tau) = \sum_{i=1}^{t} x(i) - \overline{x}(\tau)$ uchun $x^{cum}(t,\tau)$ yig'ilgan seriyalarning diapazoni hisoblanadi;
4. Har biri uchun I_a yig'ilgan seriyalar oralig'i quyidagicha aniqlanadi:

$$R(\tau) = \max\left(x^{cum}(t,\tau)\right) - min\left(x^{cum}(t,\tau)\right),$$

$t = 1, \tau$, standart og'ish

$$S(t\tau) = \sqrt{\frac{1}{\tau-1}\sum_{t=1}^{\tau}(x(t) - \bar{x})^2} \qquad (6)$$

5. Normallashtirilgan oraliq har bir I_a uchun quyidagicha hisoblanadi: $\frac{R(\tau)}{S(\tau)}$

τ uchun o'rtacha qiymat $\frac{R(\tau)}{S(\tau)} = \frac{1}{A}\sum_{a=1}^{A}\frac{R_a(\tau)}{S_a(\tau)}$

6. τ qiymati keyingi yuqori qiymatga oshiriladi. 1–6 bosqichlar $\tau = N$ gacha takrorlanadi

7. *log(R/S)* ning *log*(τ) ga bog'liqligi uchun oddiy eng kichik kvadratlar usuli yordamida chiziqli regressiya quriladi. Hosil bo'lgan chiziqning tangensi Hurst koeffitsientiga teng bo'ladi.

VT tahlil

VT-tahlil o'z-o'ziga o'xshash jarayon X(t) uchun yig'ilgan vaqt qatori x^m tarqalishiga asoslanadi. Katta m qiymatlari uchun: $Var[x^m] = \frac{Var[x]}{(c \cdot m)^{\beta}}$

Hurst ko'rsatkichini (Hurst exponent) baholash bosqichlari:

1. *X(t), t = 1, ..., N* dan *x(t) = X(t+1) – X(t)* ga o'tkazish.
2. Olingan qatorlar eng kichik *ΔT* agregatsiya darajasida yig'iladi. Bu qatorlar *m* elementlardan iborat: x^m *= {x(ΔT), x(2ΔT), ..., x(mΔT)}.*
3. Olingan qatorlar uchun namunaviy dispersiyani hisoblash:
   $\mathrm{Var}[x^{(m)}] = \frac{1}{m-1}\sum_{t=1}^{m}(x(t) - \bar{x})^2$
4. Agregatsiya darajasini ikki barobarga oshirish *ΔT = 2ΔT.* Olingan qatorlar uchun 1–3 bosqichlar qayta bajariladi.
5. *log[Var(x)]* ning *log(m)* ga bog'liqligi uchun oddiy eng kichik kvadratlar metodi yordamida chiziqli regressiya quriladi.
   Chiziqning tangensi *β*. Hurst ko'rsatkichi quyidagicha topiladi: $H = 1 - \frac{\beta}{2}$.

Veyvlet – tahlil

Veyvlet tahlilining asosi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bazis funksiyalari chiziqli almashtirishlarning muhum turini ifodalaydigan Veyvlet – almashtirishlari hisoblanadi.

Veyvlet deb qandaydir nuqtaning unchalik kata bo'lmagan, atrofida to'plangan va undan ham chastotali sohada uzoqlashgan sari nolga kamayuvchi funksiyaga aytiladi [9].

Turli xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil Veyvlet majmuida bu bilan birga barcha Veyvletlar vaqt o'qida integral tajribalari bilan qisqa to'lqinli paketlar ko'rinishiga ega bo'ladi. Ko'chish ya'ni vaqt bo'yicha tanlangan sxemani siljishi Veyvlet almashtirishlarning asosi shundan iboratki aloxida oraliqda kuzatish oynasi deb ataluvchi vaqtli qatorga bo'lishidir ularning har bir turli moslanuvchan ayrim Veyvletlarning turlicha ko'rinishlaridan tadqiqot ma'lumotlari ikkita qonuni bir-biriga yaqinlashuvchi ma'lumotlarning skalyar hisoblanishi bajariladi. Veyvelt asoslantirish boshlang'ich qatorni ifodalaydi [7].

Ular 2-o'zgarivchanli bo'ladi. Vaqt va chastotalari shunig uchun 3-o'zgarivchi simmetriya. Bu berilgan mashtabni Veyvletlarga almashtirish nuqtadagi jaroyonlarning qanchalik to'g'riligini veyvet ko'rinishidagi berilgan nuqtalar atrofida tahlili bog'liqliklar ko'rinishi qanchalik yaqin bo'lsa shunchalik katta absolyut qiymatlarni qabul qiladi.

Veyvletlarni qo'llash texnologiyasi turli va "sochilishlari" turli vaqt ichida muhim ko'rsatgichlari qiymatlarini tez o'zgarishining, xususan web sohasini nashrini aniqlash imkonini beradi. Bunday sikllarni yuzaga kelishi momentlari hamda dinamik davrlarni keyin tebranishlari momentlari aniqlanadi. Qaralayotgan vaqt o'z navbatida bu egri chiziq turli o'lchovlar amplitudasi garmonik tebranishlar yig'indisi ajratiladi, shundan so'ng hosil bo'lgan sxema nuqtalar mos koeffitsientlari miqdoriga bog'liq ravishda bo'ladi.

Ma'lumki bir necha turli tasvirlar kombinatsiyasi unchalik murakkab shaklga ega bo'lishi mumkin, ularni analitik jihatdan aniqlab bo'lmaydi. Chastotalarning ayrim uzluksiz to'plamida Veyvlet almashtirishlar koeffitsienti qiymat uchun amalga oshiruvchi davri o'zgarishlari katta bo'lmagan qiymatlarga erishuvchi o'zgarishlar vaqt o'qidagi nuqtalarda joylashadi [8].

Boshqa muhim ko'rsatgich davriy tebranishlarga bog'liq bo'lmagan vaqt qatori dinamikasi ifodalangan tendensiya hisoblanadi.

Vaqtli qatorni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lsa yana bir muhim omil xususiyati hisoblanadi, ya'ni boshlang'ich qator xaraktiristikasiga o'zgarishlar birdan sakragan shakllari kabi lokal xususiyatlar tasodifiy bo'lishi kabi tizimli xarakter ham bo'lish mumkin [10].

2-rasmda keltirilgan siklogrammada yuqorida qaralgan jaroyonga mos vaqt qatorini uzluksiz veyvlet tahlil natijalari berilgan Keltirilgan misol shuni ko'rsatdiki Veyvlt – tahlili o'rganilayotgan qatorda aniqlanishigina emas balki qator elementlarinining katta bo'lmagan absolut qiymatlariga nisbattan yashiringan chegaraviy qiymatni ham yopish mumkun. Masalan skeltonda faqatgina 250-kunning kattaroq qiymatlarini belgilanmasdan noaniq 25- va 75- kungi ekstirimumi ko'rsatilgan.



2-rasm. Veyvlet-tahlil natijasi

Veyvlet-tahlil natijasi (uzluksiz Veyvlet-almashtirishlar): balanddan Veyvlet- skelogrammasi; pasda-lokol maksimumlari (ekeloton) chiziqlari. Shubhasiz moliyaviy-iqtisodiy faktor jamot jaroyonida bilvosita tasvirlarga ega. 2.12-rasmda 2008 yil moboynida banklarda naqt AQSH dollori savdo kurslar uning o'zgarishi dinamikasi keltirilgan.

Natijalar va muhokamalar

Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, R/S tahlil va veyvlet tahlil qisqa vaqt qatorlari uchun ancha aniq natija beradi. DFA esa katta uzunlikdagi qatorlarda yuqori aniqlikka ega. VT tahlil esa ayrim hollarda past baholashni ko'rsatadi. Shu asosda, turli metodlarning kombinatsiyasidan foydalanish eng maqbul yechim sifatida taklif qilinadi.

Hurst koeffitsientini ishlab chiqarishning turli usullariga qiyosiy tahlil o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, harakatlarda siljishlar mavjud. Har bir usul uchun siljish darajasi haqiqiy o'xshashlik darajasi va qator darajaga bog'liq. DFA-tahlil eng kichik siljishlarga ega.

Fraktal tahlil usullarining dasturiy ta'minoti va siljishlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, R/S-tahlil Hurst koeffitsientini qisqa vaqt ichida, qoniqarli aniqlik bilan, dastlabki qatorlarni chuqur o'rganmasdan turib oladi va turli texnik hamda axborot tizimlarida real rejimda muhim jarayonlarni tahlil qilishda qo'llanishi mumkin.

Tajriba uchun "Kompyuter virusi" mavzusida 14069 ta hujjat tahlil qilindi DFA usuli yordamida vaqt qatorining o'ziga o'xshashlik darajasi va fraktal o'lchovi aniqlangan.

1-jadval. Hurst koeffitsienti baholash metodlarining solishtirma natijalari

Usul	Standart og'ish	Hisoblash vaqti	Xususiyatlari
DFA	0,042	1.00	Yuqori aniqlik
VT-tahlil	0,059	0,076	Qisqa qatorlarda ishonchsiz
Veyvlet	0,021	0,026	Eng aniq natija beradi
R/S-tahlil	0,028–0,076	0,075	Tezkor

Natijalar shuni ko'rsatdiki:

- R/S-tahlil real vaqt tizimlarida tezkor natija beradi.
- DFA usuli trendlarni bartaraf etishda samarali.

Veyvlet tahlili eng kichik og'ishga ega bo'lib, murakkab oqimlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

CLI. XULOSA

Maqolada axborot oqimlarining fraktal xususiyatlarini tahlil qilishning nazariy va amaliy usullari ko'rib chiqildi. Hurst koeffitsienti asosidagi baholashlar axborot oqimlarining o'zgaruvchan dinamikasini bashorat qilishda samarali ekanligi isbotlandi. Taklif etilgan yondashuvlar kelgusida real vaqt monitoring tizimlarida qo'llanilishi mumkin.

Maqolada axborot oqimlarining fraktal xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. R/S, DFA, VT va veyvlet metodlari solishtirildi. Amaliy eksperimentlar natijasida fraktal metodlar axborot oqimlarining yashirin tuzilishini ochib berishi va ularning dinamikasini prognozlash imkoniyatini yaratishi isbotlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

[239] Uralova I.A. Fraktal grafika turlari // Journal of New Century Innovations. Volume 7, Issue 8, 2022. – B. 88-92

[240] Gupta, A. (2017). Modeling of information clusters with fractal dimensions. *Springer Series in Information Science*.

[241] Chen X., Zhou Y. *Big Data fractal dynamics analysis*. Information Processing Letters, 2020.

[242] Lee S., Kim H. Fractal characteristics in social networks. Physica A, 2021.

[243] OpenAI Research. AI-driven fractal analysis of information flows. 2023.

[244] Kantelhardt J. W. *Fractal and multifractal time series analysis*. Springer, 2002.

[245] Ivanov, S. (2010). Fractal properties of information flows and their clusters. *Information Sciences*.

[246] Anarova Sh.A., Uralova I.A. Axborot oqimlarining fraktal tahlili usullari va algoritmlari // Международной научной конференци "Инновационные технологии, экономика и менеджмент в промышленности" Ташкент-2023. – С. 71-76

[247] Li H., Zhao L. *Applications of fractal theory in information science*. Information Sciences, 2016.

[248] Sun, W. (2020). Fractal scaling analysis in cloud computing data. *Future Generation Computer Systems*

KATTA MA'LUMOTLARNI FRAKTAL RAQAMLASHTIRISH

Anarova Shakhzoda Amanbayevna
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Email: anorova@tuit.uz,

Ismoilova Maftuna Ilxom kizi
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Email:
ismoilovamaftuna140@gmail.com

Mirzaaxmedova Sarvinoz Komiljon qizi
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Email:
xoliqovasarvinoz"gmail.com

Annotatsiya: ***Maqolada katta ma'lumotlarni raqamli modellashtirishda fraktal yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. L-tizimlar va iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) asosida ishlab chiqilgan algoritmlar yordamida ma'lumotlarning rekursiv va tarmoqlangan strukturasini samarali tashkil qilish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, fraktal o'lchov, simmetriya, vizualizatsiya va tasvirlarni qayta ishlash texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.***

Kalit so'zlar: ***Fraktal, fraktal raqamlashtirish, katta ma'lumotlar, L-tizimlar, IFS, algoritm, raqamli modellashtirish, ma'lumotlar bazasi, siqish, vizualizatsiya.***

I.Kirish

So'nggi yillarda dunyoda yaratilayotgan va yig'ilayotgan ma'lumotlar hajmi mislsiz darajada ortib bormoqda. Turli tashkilotlar, davlat idoralari, ilmiy markazlar, ijtimoiy tarmoqlar va internet xizmatlari har kuni terabaytlab ma'lumotlarni hosil qilmoqda. Ushbu jarayonni ko'pincha "katta ma'lumotlar" (Big Data) tushunchasi bilan ifodalaymiz. Katta ma'lumotlar o'zining hajmi (volume), turfa xilligi (variety), tezligi (velocity) va ishonchliligi (veracity) bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularni qayta ishlash va tahlil qilishda an'anaviy yondashuvlar ko'plab hollarda yetarli bo'lmay qolmoqda.

Mazkur muammoni hal qilish uchun zamonaviy matematik va algoritmik raqamlashtirish usullari talab etiladi. Shulardan biri sifatida fraktal yondashuv katta e'tiborga sazovor. Fraktallar - bu o'ziga-o'zi o'xshash, rekursiv tarzda hosil bo'ladigan geometrik shakllar bo'lib, murakkab tizimlarning ichki tuzilishini modellashtirishda keng qo'llaniladi. Fraktal modellashtirish katta ma'lumotlarning murakkab, ko'p qatlamli va tarmoqlangan tuzilishini matematik formulalar yordamida ifodalash imkonini beradi.

Fraktal usullarning asosiy afzalligi shundaki, ular:

- ma'lumotlarning ichki tartibi va yashirin qonuniyatlarini ochib beradi;
- rekursiv strukturalarni samarali tashkil etadi;
- katta ma'lumotlarni siqish va vizuallashtirishda yuqori natijalar beradi.

Ayniqsa, L-tizimlar va iteratsion funksiyalar tizimi (IFS-Iterated Function Systems) asosidagi algoritmlar katta ma'lumotlarni raqamli modellashtirishda alohida o'rin tutadi. L-tizimlar dastlab biologik modellarni (masalan, daraxtlar, o'simliklarning o'sish jarayonlari, odamlar tuzilishini) tasvirlash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda ular ma'lumotlar bazasi strukturalarini rekursiv tarzda loyihalashda qo'llanmoqda. IFS esa tasvirlarni fraktal kodlash, siqish va optimallashtirish jarayonida yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Shu bois, katta ma'lumotlar uchun fraktal raqamli algoritmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada katta ma'lumotlarni fraktal usullar asosida raqamlashtirishning nazariy asoslari, L-tizimlar va IFS usullarining imkoniyatlari, shuningdek, ularning ma'lumotlar bazasi va tasvirlarni qayta ishlashdagi qo'llanishlari yoritiladi.

II. Metodologiya

Tadqiqotda katta ma'lumotlarni fraktal usullar yordamida raqamlashtirish uchun ikki asosiy yondashuv tanlandi: L-tizimlar va IFS.

L-tizimlar biologik jarayonlarni modellashtirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ular rekursiv qoidalar asosida murakkab shakllarni yaratadi. Bu usul yordamida daraxt, o'simlik va ierarxik tuzilmalarni modellashtirish mumkin. Shuningdek, ma'lumotlar bazasi sxemalarini avtomatik qurishda ham qo'llanildi.

IFS esa qisqaruvchi matematik funksiyalar majmuasiga asoslangan. U grafik tasvirlarni fraktal tarzda siqish, kodlash va qayta ishlash imkonini beradi.

Amaliyotda fraktal naqshlarni yaratish va vizuallashtirish uchun Python dasturlash tili, grafiklarni chizishda Matplotlib kutubxonasi, ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilishda esa SQL ma'lumotlar bazasidan foydalanildi.

Metodologiya bosqichlari quyidagicha amalga oshirildi:

- Katta ma'lumotlar xususiyatlari o'rganildi.

Fraktal raqamlashtirish uchun matematik model tanlandi.

- L–tizimlar va IFS algoritmlari asosida

dasturiy modellar yaratildi.

- Ularning samaradorligi tajribalar orqali tekshirildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida fraktal yondashuvlarning katta ma'lumotlar bilan ishlashdagi afzalliklari aniqlab chiqildi.

1. Fraktal o'lchov yordamida ma'lumotlarning murakkabligi va ichki tartibi ko'rsatib berildi. Bu yondashuv katta ma'lumotlarni tartiblash va tahlil qilishda samarali bo'ldi.

2. L-tizimlar asosida qurilgan model ma'lumotlar bazasi sxemasini avtomatik yaratish imkonini berdi. Bu usul rekursiv va tarmoqlangan strukturalarni ko'rsatishda qulay natija berdi [2].

3. IFS algoritmlari tasvirlarni siqishda samarali ishladi. Sinov natijalariga ko'ra, grafik fayllarni hajmini kamaytirish bilan birga, ularning sifatini saqlab qolish mumkin bo'ldi.

4. Fraktal usullar yordamida ma'lumotlarni vizuallashtirish qulaylashdi. Katta ma'lumotlar grafik ko'rinishda tartibli va tushunarli ifodalandi.

Umuman olganda, fraktal algoritmlar katta ma'lumotlarni modellashtirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq natija berdi.

III. Muhokama

Fraktal modellashtirishning asosiy afzalligi – ularning masshtabdan mustaqilligi va o'ziga-o'zi o'xshashlik xususiyatidir. Ushbu xususiyat tufayli ma'lumotlarning ichki murakkablik darajasi aniqroq ko'rinadi va murakkab tizimlarning yashirin naqshlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, biologik tuzilmalar, daraxtsimon jarayonlar va shahar infratuzilmasining rivojlanish dinamikasi fraktal modellar orqali tabiiy shaklda tasvirlanadi.

L-tizimlar yordamida biologik va ierarxik jarayonlarni samarali modellashtirish mumkin. Bu usul daraxtlar, o'simliklar yoki ijtimoiy tizimlardagi bo'linish jarayonlarini oddiy qoidalarga asoslangan holda ifodalashga imkon beradi. IFS algoritmlari esa grafik ma'lumotlarni siqish, tasvirlarni qayta tiklash imkonini beradi.

Fraktal algoritmlarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim cheklovlar ham mavjud:

- Ularning samarali ishlashi ko'pincha yuqori hisoblash quvvatini talab qiladi.

- Real ma'lumotlar bilan ishlashda fraktal modelni moslashtirish va sozlash jarayoni murakkab bo'lishi mumkin.

Fraktal algoritmlarning natijalari ba'zida ortiqcha murakkablik keltirib chiqarishi mumkin, shu sababli ularni qo'llash sohasiga moslashtirish muhim hisoblanadi. L-tizimlar yordamida biologik va ierarxik jarayonlar aniq modellashtirilsa, IFS algoritmlari grafik ma'lumotlarni siqish va qayta ishlashda katta ustunlik beradi.

1968 yili Aristidom Lindenmayer (U ma'lumoti bo'yicha biolog) tomonidan ishlab chiqilgan L-tizimlar uslubi geometrik fraktallarni qurishda eng oddiy hisoblanadi. Lindenmayer tabiatning murakkab obyektlarini bir nechta qoidalar hamda oddiy tashkil etuvchilar yordami bilan ifodalash jarayonlari usulini taklif qilgan. L-tizimlar rasmiy tillarni o'rganishda kiritilgan, shuningdek, undan seleksiyaning biologik modellarini ishlab chiqishda foydalangan. Bunda bo'g'imlar qoidalariga tayanilgan va simvolli satrlarga almashtirilgan aniq rasmiy grammatikadan foydalangan.

- Ma'lumotlar tuzilishi: Bu bosqichda, logistik jarayonida ishlatiladigan ma'lumotlar turi, shakli va xususiyatlari aniqlanadi. Bu ma'lumotlar, bir qator manbalardan kelib chiqishi mumkin, masalan, hisob-kitoblardan, buyurtmalar bazasidan, xaridorlarning ma'lumotlaridan va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin[3].
- Tahlil va tasniflash: Bu bosqichda, ma'lumotlar tahlil qilinadi va zarur bo'lgan ma'lumotlar turlari belgilanadi. Bu turlar, masalan, buyurtmalar,

yetkazib berish jadvali, mahsulotlar omboridagi xolat va boshqa ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.[27 89-95b.]

- Integratsiya: Bu bosqichda, ma’lumotlar tizimlari integratsiyalangan va ularning muloqot usullari aniqlanadi. Ma’lumotlar o‘zaro almashinuvini ta’minlash uchun, bir nechta tizimlarning o‘zaro integratsiyasi kerak bo‘ladi. Misol uchun, hisob-kitobli dasturiy ta’minoti, buyurtma qabul qilish tizimi, yetkazib berish tizimi kabi tizimlarning o‘zaro integratsiyasi.
- Ma’lumotlar o‘tkazilishi: Bu bosqichda, ma’lumotlar yuklanadi va o‘tkaziladi. Bu jarayon, ma’lumotlar o‘tkazishining avtomatik tarzda amalga oshirilishi, masalan, XML, EDI, CSV kabi formatlar orqali amalga oshirilishi mumkin.
- Ma’lumotlarni saqlash: Bu bosqichda, ma’lumotlar uzoq muddat saqlanishi kerak bo‘lgan vaqt oralig‘ida saqlanishi lozim bo‘lgan joylar aniqlanadi. Bu turlar, masalan, manba serverlar, bulut xizmatlari, bazalar va hokozalar bo‘lishi mumkin.
- Ma’lumotlar ishlash va ko‘rsatish: Logistik jarayonida ishlatiladigan ma’lumotlar, har bir elementning yuqori darajada optimallashtirilgan ko‘rsatilishi va ishlov berishiga imkoniyat berilgan tizimlarga o‘tkazilishi kerak bo‘ladi. Bu jarayonda, ma’lumotlar xususiyatlari aniqlanadi va ularni qanday ko‘rinishda ko‘rsatish kerakligi belgilanadi[4].

Shunday qilib, logistik jarayonlarining axborot almashish jarayonlari arxitekturasi, ma’lumotlarni integratsiya qilish, ko‘chirish, saqlash va tasniflash kabi bosqichlardan o‘tkaziladi.

Axborot almashinuvi arxitekturasi logistikada hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki u tovarlarning kelib chiqish joyidan iste’mol nuqtasiga o‘tishi bilan bog‘liq turli faoliyatlarni muvofiqlashtirish va birlashtirishni osonlashtiradi.

Logistikada axborot almashinuvi arxitekturasi odatda qo‘yidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlari: Bular kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini, jumladan, logistikani birlashtiradigan dasturiy ilovalar. ERP tizimlari inventar darajasini boshqarishga, buyurtma holatini kuzatishga va jo‘natishni kuzatishga yordam beradi.

Transportni boshqarish tizimlari (TMS): TMS dasturiy ta’minoti tovarlar harakatini rejalashtirish, bajarish va optimallashtirish uchun ishlatiladi. Shuningdek, u yuk jo‘natuvchilar, tashuvchilar va tashish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa tomonlar o‘rtasidagi aloqani osonlashtirishi mumkin.

Omborlarni boshqarish tizimlari (WMS): WMS dasturi ombor yoki tarqatish markazida inventarlarni boshqarish uchun ishlatiladi. U tovarlarning joylashishini kuzatishi, yig‘ish va qadoqlash jarayonlarini boshqarishi va ombor maydonini optimallashtirishi mumkin.

Elektron ma’lumotlar almashinuvi (EDI): EDI biznes hujjatlarini elektron tarzda almashish uchun standart formatdir. Logistikada EDI savdo hamkorlari o‘rtasida xarid buyurtmalari, jo‘natish xabarlari va hisob-fakturalar kabi ma’lumotlarni almashish uchun ishlatiladi.

Amaliy dasturlash interfeyslari (API): APIlar turli dasturiy ilovalarga bir-biri bilan muloqot qilish imkonini beradi. Logistikada API-lar TMS va WMS kabi bir nechta tizimlardan ma’lumotlarni birlashtirish uchun ishlatilishi mumkin[4].

Narsalar Interneti (IoT) qurilmalari: IoT qurilmalari yuklarni tashish paytida joylashuvi va holatini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Ular harorat, namlik va tebranish kabi omillar haqida real vaqt rejimida ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin, bu esa tovarlarni xavfsiz va samarali tashishni ta’minlashga yordam beradi.

Ushbu komponentlarni yaxlit axborot almashish arxitekturasiga birlashtirib, logistika kompaniyalari o‘z operatsiyalarining ko‘rinishini yaxshilashlari, samaradorlikni oshirishlari va mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishlari mumkin.

Logistika sohasida axborot almashinuvi arxitekturasi odatda bir nechta o‘zaro bog‘langan tizimlar va manfaatdor tomonlarni o‘z ichiga oladi.

Yetkazib beruvchi: Yetkazib beruvchi tashish kerak bo‘lgan tovarlarni ta’minlaydi.

Omborlarni boshqarish tizimi (WMS): WMS ombordagi inventarni boshqaradi va buyurtmani bajarish uchun tanlash ro‘yxatlarini yaratadi.

Transportni boshqarish tizimi (TMS): TMS tovarlarni ombordan belgilangan joyga tashishni rejalashtirish, optimallashtirish va amalga oshirish uchun javobgardir[5].

Tashuvchi: Tashuvchi tovarlarni ombordan mijozga jismonan tashiydi.

Xaridor: Xaridor tovarni oladi va yetkazib berish sifati haqida fikr bildiradi.

Logistikada axborot almashish arxitekturasi shakillantirish:



1-rasm. Axborot almashish arxitekturasi shakillantirish

Logistika jarayoni davomida ushbu tizimlar va manfaatdor tomonlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi amalga oshiriladi. Misol uchun, WMS buyurtma ma’lumotlarini TMSga yuboradi, u tashuvchi uchun eng samarali marshrutni hisoblab chiqadi. Tashuvchi TMS va mijozga real vaqt rejimida kuzatuv ma’lumotlarini taqdim etadi, bu esa barcha ishtirokchilarga jo‘natish holatini kuzatish imkonini beradi. Va nihoyat, mijoz etkazib berish sifati bo‘yicha fikr-mulohazalarini taqdim etishi mumkin, bu esa logistika jarayonini kelajakda yaxshilash haqida ma’lumot berishi mumkin[6].

Tadqiqot davomida olingan xulosalar va natijalarga ko‘ra modifikatsiya qilingan hamda ishlab chiqilgan usullar va algoritmlar asosida buyurtmachi va yetkazib beruvchilarning murojaatlari bo‘yicha avtomatlashgan rejimda ishlovchi axborot tizimi va dasturiy mahsulot ishlab chiqiladi. Boshqaruv tizimida axborot almashinuvchilar ya’ni buyurtmachi va yetkazib beruvchilar biri ikkinchisi haqida qo‘yidagi ma’lumotlarni olishlariga imkon beradi:

a) Buyurtma beruvchilar haqida:
– buyurtma beruvchining ismi;
– buyurtma beruvchining familiyasi;
– buyurtma beruvchining telefon raqami.
b) Buyurtma haqida:
– buyurtma turi;
– buyurtmaning vazni;
– buyurtma joylashgan manzil;
– buyurtmani yetkazishi kerak bo‘lgan manzil;
c) Yetkazib beruvchi haqida:
– haydovchi telefon raqami;
– haydovchi ismi;
– haydovchi familiyasi;
– haydovchi transportining turi;
– transport vositasining davlat raqami;

Axborot almashinuv jarayonida va ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot tizimidan foydalansh davomida quyidagi funksiyalarni bajarish imkonini beradi:

- buyurtma berish davomida yuk to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘ldirishga;
- buyurtma joylashgan manzilni kiritishga va tahlil qilishga;
- buyurtmani yetkazib berishi kerak bo‘lgan manzilni kiritishga va tahlil qilishga;
- yetkazib beruvchi tamonida berilgan taklifni qabul qilish yoki rad etish;
- yetkazib beruvchiga buyurtma haqida masofadan turib ma’lumot olish;
- buyurtma beruvchiga buyurtmani olish haqida taklif yuborish;
- yukni olib borish va yetib kelganligi haqida buyurtmachiga habar berish.

Sanab o‘tilgan funksiyalarni amalga oshirishni ta’minlaydigan dasturiy vositaning funksional ishlash strukturasi 2-rasmda ko‘rsatilgan va funksional modullar o‘rtasida sodir bo‘ladigan jarayonlarning o‘zaro ta’siri bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Dasturiy vositaning funksional ishlash strukturasi

NATIJALAR

Logistikada axborot almashinuvi jarayonlari arxitekturasini takomillashtirish uchun taklif etilayotgan funksional modellashtirish asosida qurilgan dasturiy vositalar va axborot tizimlari samaradorlik ko‘rsatkichi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi(3-rasm).

Logistikada axborot almashinuv jarayonini avtomatlashgan rejimda tashkil etish, buyurtma berishda buyurtmalarni yetkazib beruvchi tamonga muvofiqlashtiruvchi dasturiy mahsulot yaratish asosida logistika sohasida buyurtmalarni yetkazib berishni samarali tashkil qilishda o‘z samarasini beradi.[6 110-113b.]



3-rasm. Logistikada axborot almashinuvi jarayonlari takomillashgan arxitekturasi.

Shakillantirilgan va takomillashtirilgan logistik jarayonlarini tashkil etish axborot almashish jarayonlari arxitekturasiga ko‘ra buyurtma beruvchi buyurtma berish va yetkazib beruvchi buyurtmani olish jarayonida buyurtmachi va yetkazib beruvchi o‘rtasida amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, axborot almashinuvi jarayonlarida ratsional boshqarishda muqobil yechimlarni amaliyotga tatbiq etish yuqori darajadagi samaradorlik uchun kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Buyurtmalarni yetkazib berish jarayonlarini optimal tashkil etishda taklif etilayotgan ilmiy ishlanmalarning adekvatligi hamda jarayonni sodda qoidalarga ko‘ra tashkil etish imkoniyatini yaratib beradi.

Axborot almashinuv jarayonlarini muvofiqlashtirisha ko‘maklashuvchi dasturiy vosita o‘z navbatida boshqa qism tizimlari avtomatlashtirilgan axborot tizimilariga murjaatni amalga oshiradi[20 111-117b]. Bu jarayon esa logistikada tovarlar almashinuvida, yetkazib berish mexanizimining teskorligiga xizmat qiladi. Bunda eng ko‘p murojaat etuvchilar logistik xizmat ko‘rsatuvchilar ya’ni yetkazib beruvchilar va buyurtma beruvchilardir(4-rasm). Ishlab chiqilgan axborot almashish arxitekturasini takomillashtirgan holda ishlab chiqib va ushbu arxitekturaga ko‘ra sihlab chiqiladigan dasturiy vosita foydalanuvchilari yagona ma’lumotlar bazasiga murajaatlar qilib va shu ma’lumotlar bazasidan foydalanadilar.



4-rasm. Axborot almashinuv dastur foydalanuvchilar bilan ishlash strukturasi

Ishlab chiqilgan dasturiy vositalarning funksionallgi quyidagi imkoniyat va afzalliklarni beradi:

- Elektron tijaroat rivojlanayotgan vaqtda masofadan turib buyurtmalarini olib keltirishga;
- Yetkazib beruvchi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishga;
- Buyurtmani yetkazib kelgungacha bo‘lgan vaqtda yetkazib beruvchi harakatlarini GPS tizimi orqali ko‘zatishga;
- Yetkazib beruvchi uchun yuklarni qiyinchiliklarsiz olishga;
- Buyurtma haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishga;
- Yo‘l yo‘lakay buyurtmalar olishga va shu orqali yetkazib berish xarajatlarini kamaytirishga;

Logistika, bir necha ko‘plab jarayonlarni o‘z ichiga oladigan kompleks sohadir. Bu jarayonlar o‘zaro aloqada bo‘lib, yuk tashuvchi tomonidan boshqa tomondan yetkazilayotgan mahsulotlarning transport qilinishidan boshlab, oxiri ularni omborlash yo‘nalishida tugatiladi. Bunday murakkab jarayonlar uchun logistika axborot almashinuv tizimini ishlab chiqish juda muhimdir.

Logistikada axborot almashinuv tizimi arxitekturasi, asosiy ko‘rsatuvchi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: moslashtirish, integratsiya, uzoqlik, nisbatan hamyonlik va samaradorlik. Tizimning moslashtirishi, odatda, protokoll va interfeyslar orqali amalga oshiriladi. Integratsiya, ombor va sotuv tizimlari kabi har xil tizimlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni birlashtirib, qamrab oladi. Uzoqlik, tizimning turli komponentlarining o‘rtasidagi ish takroriyligini minimal darajada tashkil etadi. Nisbatan hamyonlik, tizimning turli ko‘rsatkichlarining mos kelishishini ta’minlaydi va foydalanuvchilar uchun tizimni o‘rganish va ishlatishni osonlashtiradi. Samaradorlik, esa, tizimning hisob-kitob va boshqa yo‘nalishlarda samarali ishlashini ta’minlaydi.

Logistikada axborot almashinuv tizimi arxitekturasi shunday yaratilishi kerakki: Birinchisi, tizimning ilgari ishlatilgan modullarini qayta ishlab chiqish va ular orqali yangi tizimni yaratish; ikkinchisi, mavjud tizimlarni integratsiya etish yoki uni moslashtirish uchun maxsus interfeyslar yaratish. Tizimni yaratish paytda o‘zaro aloqadagi jarayonlarning majburiy xususiyatlari, kabi, transport jarayoni, ombor jarayoni, sotuv jarayoni, xisob-kitob jarayoni kabi tushuntirilishi kerak.

Shunday qilib, logistika sohasida axborot almashinuv tizimi yaratishda asosiy vazifa, jarayonlarning barcha bosqichlari bo‘yicha qo‘llanma yaratish va ularni

aynan o‘ziga mos keladigan axborot almashinuv tizimiga integratsiya qilishdir.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, axborot almashish jarayonlarining takomillashtirilgan arxitekturasi logistika xizmatlarining samaradorligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tizim:

- buyurtmalarni yetkazib berishda vaqt tejamkorligini ta’minlaydi;
- transport tirbandliklarini kamaytirishda yordam beradi;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi;
- operatsion xarajatlarni qisqartiradi.

Shuningdek, axborot tizimlari integratsiyasi yordamida logistik operatsiyalarni markazlashtirilgan boshqaruv ostida olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, elektron tijorat sharoitida logistika tizimlarining moslashuvchanligi va barqarorligini oshiradi.

XULOSA

Logistik jarayonlarda axborot almashish arxitekturasini takomillashtirish zamonaviy transport tizimining ajralmas qismi bo‘lib, buyurtmalarni samarali boshqarish, yetkazib beruvchilar va mijozlar o‘rtasidagi aloqani kuchaytiradi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita va integratsiyalashgan axborot tizimlari elektron tijorat rivojlanayotgan sharoitda logistika xizmatlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] [1] T.B. Djuraev, H.K. Чориёров Модель информационных потоков в диспетчерской службе транспортного процесса. Journal of Integrated Education and Research. Vol. 1 No. 6 (2022): б. 63-67.

[2] [2] J.T. Usmonov, T.B. Djurayev, Pulatova Z.M. Imitation models of the railway organization for railway transport flows, International Conference on Information Science andCommunications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021.DOI: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670044 Retrieved from www.scopus.com

[3] [3] J.T. Usmonov, T.B. Djurayev Technical science and innovation, Imitation models of the railway organization for railway transport flows, Tashkent state technical university named after Islam Karimov., №4(10) tashkent 2021 page 201-207.

[4] [4] T.B Djuraev, O.X. Alloyorov “Автомобил транспорти логистикаси фаолиятини Монте-карло усули асосида оптималлаштириш”. “Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” ilmiyamaliy va axborot-tahliliy jurnali. 2(16) /2021, 46-51

[5] [5] J.T. Usmonov, T.B. Djuraev, Z.M. Pulatova (2020). Optimization of global information flows in transport system management. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2024-2032. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202319 Retrieved from www.scopus.com

[6] [6] X. Jiyanbekov, J. Usmonov, S. Azimov (2019). The probability model of railway transport system activity. Paper presented at the Transport Means - Proceedings of the International Conference, 2019- October 1256-1259.

[7] Retrieved from www.scopus.comzullayev Sh, Yuldashov R. “The role of artificial intelligence in digital transformation”. “BULLETIN OF TUIT MANAGEMENT AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES”, ISSN: 2181-1083 DOI: № 3s(39) 2024.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА И ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Маликова Нодира Тургуновна ,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент
Malikova.nodira2020@gmail.com

Кувнаков Аваз Эргашович,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент
avaz_a@yahoo.com

Джураев Тулкинжон Бойсоатович,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент
tulqindjurayev2@gmail.com

Алимова Фотима Муратовна,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент
tuit.alimova@gmail.com

Аннотация: ***В статье рассматриваются основные направления развития цифрового правительства и электронной коммерции как ключевых элементов цифровой экономики. Раскрывается сущность цифрового правительства, его задачи и ключевые приоритеты, а также современные тенденции в сфере e-commerce. Проведен сравнительный анализ двух явлений, приведены примеры их внедрения в разных странах, обозначены проблемы и вызовы, связанные с цифровизацией. Особое внимание уделено перспективам развития, среди которых - интеграция искусственного интеллекта, блокчейн-технологий и трансграничных цифровых сервисов.***

Ключевые слова: Цифровое правительство, электронная коммерция, цифровизация, государственные услуги, e-Gov, маркетплейсы, искусственный интеллект, блокчейн, Big Data, цифровая экономика.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобальной цифровизации государства и бизнес-структуры вынуждены адаптироваться к новым вызовам. Сегодня именно цифровое правительство и электронная коммерция становятся важнейшими компонентами цифровой экономики, обеспечивая удобство, эффективность и прозрачность процессов взаимодействия.

Цифровое правительство можно определить как современную модель государственного управления, основанную на применении информационно-коммуникационных технологий и направленную на улучшение качества взаимодействия государства с гражданами и бизнесом. Основные задачи включают перевод государственных сервисов в онлайн-формат, повышение прозрачности и снижение коррупционных рисков, оптимизацию расходов на управление и интеграцию данных через единые платформы. По данным ООН, к 2024 году более 90% стран мира реализуют национальные стратегии цифрового правительства, что указывает на его глобальную значимость.

ПОСТАНОВКА ПРОБЛЕМ

Развитие цифрового правительства происходит по ряду направлений. Важнейшим является внедрение электронных государственных услуг (e-Gov), позволяющих получать документы и справки через интернет. В Узбекистане, например, функционирует портал *GOV.UZ*, а в Южной Корее - одна из наиболее развитых систем электронного правительства. Второе направление связано с мобильным правительством (m-Gov): использование смартфонов упрощает доступ к госуслугам. В Эстонии, например, мобильная ID-карта применяется

для подписания документов и голосования на выборах. Третье направление - развитие порталов открытых данных (*data.gov* в США, национальные платформы в Европе и Азии), обеспечивающих гражданам и бизнесу доступ к государственным информационным ресурсам. Существенный вклад вносит применение искусственного интеллекта и анализа больших данных, что позволяет прогнозировать социальные процессы и повышать эффективность государственных программ. Особое место занимает проблема цифровой идентификации и кибербезопасности: система Aadhaar в Индии охватила более 1,2 млрд человек, став крупнейшей в мире.

Параллельно с цифровизацией государственного управления стремительно развивается электронная коммерция (e-commerce), представляющая собой процесс покупки и продажи товаров и услуг через интернет. За последние годы этот сектор стал одним из драйверов мировой экономики. Его развитие проявляется в росте крупных маркетплейсов (*Amazon, Alibaba, Ozon, Wildberries*), которые трансформировались в комплексные экосистемы. Всё большее значение приобретает мобильная коммерция (m-commerce), так как смартфон становится основным инструментом покупателя. В последние годы бурно развивается социальная коммерция: торговля через платформы *Instagram* и *TikTok* превращается в привычный канал покупок. Существенное влияние оказывают финансовые технологии: онлайн-платежи, цифровые кошельки и криптовалюты обеспечивают удобство и безопасность транзакций. Наконец, важную роль играет персонализация - применение искусственного интеллекта для рекомендаций и анализа поведения пользователей. По прогнозам Statista, объём мирового рынка электронной коммерции к 2027 году превысит 8 трлн долларов США.

Несмотря на различие сфер, цифровое правительство и электронная коммерция имеют общие черты. Обе модели ориентированы на упрощение процедур, снижение издержек и повышение качества обслуживания. Государство стремится к созданию удобных и прозрачных сервисов для граждан, а бизнес - к улучшению клиентского опыта и росту продаж. Таким образом, цифровизация объединяет эти сферы в рамках формирования единого цифрового общества.

АКТУАЛЬНОСТЬ

Мировой опыт демонстрирует успешные примеры внедрения цифровых решений. Эстония стала моделью цифрового государства, обеспечив онлайн-доступ ко всем услугам, включая выборы. Китай является мировым лидером по объёму электронной коммерции: на платформы Alibaba и JD.com приходится более половины онлайн-продаж страны. В Узбекистане активно развивается система e-Gov, а также цифровые платёжные сервисы (*Payme, Click*), что создаёт условия для расширения внутренней e-commerce.

Однако цифровизация сталкивается и с рядом вызовов. Прежде всего, это цифровое неравенство: неравномерный доступ к интернету и технологиям сохраняется как между странами, так и внутри них. Вторым фактором риска являются киберугрозы: рост числа кибератак и утечек данных требует совершенствования систем безопасности. Третья проблема связана с необходимостью правового регулирования: законодательство часто не успевает адаптироваться к темпам технологических изменений. Наконец, существует фактор недоверия граждан к цифровым системам, который требует укрепления механизмов идентификации и защиты данных.



Рис.1. Рост мирового рынка электронной коммерции



Рис.2. Уровень развития цифрового правительства по регионам.



Рис.3. Сравнительный анализ e-Gov и e-commerce

Перспективы дальнейшего развития цифрового правительства и электронной коммерции связаны с интеграцией искусственного интеллекта, блокчейн-технологий, виртуальной и дополненной реальности. В ближайшие годы можно ожидать углубления международной цифровой интеграции, когда государственные и коммерческие сервисы будут выходить за национальные границы, создавая единые трансграничные цифровые экосистемы.

ТАБЛИЦА. 1. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ E-GOV И E-COMMERCE

Показатель	**Цифровое правительство**	**Электронная коммерция**
Цель	Повышение качества госуслуг	Увеличение продаж и прибыли
Основной инструмент	Порталы e-Gov, Big Data, AI	Маркетплейсы, FinTech, CRM
Результат	Доступность и прозрачность	Удобство для клиента, рост рынка

Таким образом, цифровое правительство и электронная коммерция становятся взаимосвязанными элементами новой цифровой экономики. Их развитие обеспечивает повышение эффективности государственного управления, улучшение качества жизни населения и стимулирование роста бизнеса. В перспективе синергия этих направлений приведёт к формированию единого цифрового пространства, в котором государственные и коммерческие услуги будут неотделимы друг от друга.

Цифровое правительство и электронная коммерция являются ключевыми направлениями развития современной цифровой экономики. Их развитие позволяет повысить эффективность управления, улучшить качество жизни населения и стимулировать рост бизнеса.

Успешные примеры внедрения показывают, что государства и компании, активно инвестирующие в цифровые технологии, получают значительные конкурентные преимущества. В ближайшие годы синергия между цифровым правительством и электронной коммерцией приведёт к формированию единой цифровой экосистемы, где границы между государственными и коммерческими сервисами будут постепенно стираться.

Список литературы

[1] Fayzullayev Sh, Yuldashov R. “The role of artificial intelligence in digital transformation”. “bulletin of tuit management and communication technologies”, ISSN: 2181-1083 DOI: № 3s(39) 2024.

[2] Asqaraliyev Odilbek Ulug’bek o‘g‘li, Fayzullayev Shakhzod Shukhrat o‘g‘li. models and algorithms for analyzing the impact of artificial intelligence on decision-making processes in business information systems. ethiopian international JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Volume: 11, Issue 09, September-2024

[3] Gitman, L. J., McDaniel, C., Shah, A., Reece, M., Koffel, L., Talsma, B., & Hyatt, J. C. (2018). Introduction to Business. 12th Media Services. ISBN: 9781680922851.

[4] “Digital Transformation: A Systematic Review and Bibliometric Analysis from the Corporate Finance Perspective”

[5] Zhang, Ping & Wang, Yiru. (2024). Digital transformation: A systematic review and bibliometric analysis from the corporate finance perspective.

[6] Baley, Isaac & Veldkamp, Laura. (2025). The Data Economy: Tools and Applications. Princeton University Press.

[7] Zaman, Kashif. (2024). Agentic Leadership: Timeless Truths, New Intelligence.

[8] Государственный портал Республики Узбекистан — my.gov.uz (дата обращения: 27.08.2025).

[9] Statista. *E-commerce worldwide – statistics & facts.* URL: https://www.statista.com (дата обращения: 27.08.2025).

EFFICIENTNETB0 ASOSIDA KO'KRAK RENTGEN TASVIRLARIDAN PNEVMONIYANI TASHXISLASH

Naim Nodira Abdujalolovna
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: naimnodira02@gmail,com

Annotatsiya. Maqolada pnevmoniya bu virus yoki bakteriyalar tufayli yuzaga keladigan o'pka infeksiyasi bo'lib, inson organizmidagi bir yoki ikkala o'pkaga zarar holatlari o'rganilgan. Pnevmoniyani aniqlashda tajribali rentgenologlar ko'krak rentgen tasvirlarini baholashi zarur. Shu sababli, ayniqsa olis hududlarda kasallikni tez davolash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan tizimlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ko'krak rentgen tasvirlari asosida pnevmoniyani ishonchli aniqlash uchun konvolyutsion neyron tarmoq (CNN) asosidagi model taklif etiladi. Model EfficientNetB0 asosidagi transfer learningdan iborat. EfficientNetB0 xususiyatlarni ajratadi. Model 97% aniqlik bilan yuqori natijalarga erishgan.

Kalit so'zlar: Pnevmoniya, sun'iy intellekt, tashxislash, Efficient NetB0

I. Kirish

Hozirgi sharoitda sog'liqni saqlash muassasalarining davolash-profilaktika faoliyatiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun axborot texnologiyalarining ahamiyati oshib bormoqda. Pnevmoniya o'pka infeksiyasi bo'lib, ko'pincha virus yoki bakteriyalar tufayli yuzaga keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida bu kasallik eng ko'p o'limga olib keluvchi sabab hisoblanadi (yiliga 12.8%). Shuningdek, bu kasallik kattalarda, ayniqsa Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda yuqori o'lim ko'rsatkichlariga sabab bo'lmoqda. Ko'krak rentgen tasvirlari pnevmoniyani aniqlashda eng samarali usul hisoblanadi. Biroq, ba'zida bunday tasvirlar bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, bu esa noto'g'ri tashxislarga olib keladi. Shu sababli, sun'iy intellekt (AI) va mashinali o'rganish texnologiyalari asosida avtomatik tashxislash tizimlariga ehtiyoj mavjud. Pnevmoniyani tashxislash axborot tizimlari rentgen (X-ray) va kompyuter tomografiya (KT) tasvirlarini qayta ishlash asosida ishlaydi. Asosiy vazifalari:

- Tasvirlardan pnevmoniya belgilarini ajratib olish.
- Tashxisning ishonchlilik darajasini hisoblash.
- Klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash.

Bunday tizimlarda asosan **chuqur o'rganish (deep learning)** va **konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN)** qo'llaniladi.

II. Asosiy qism

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda pnevmoniyani tashxislashda chuqur o'rganish (deep learning) asosidagi yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

Pranav Rajpurkar va boshqalar (2017, Stanford University) – CheXNet modeli orqali rentgen tasvirlaridan pnevmoniyani aniqlashda shifokorlardan yuqori natijalarga erishgan.

Jeremy Irvin va hamkorlari (2019, Stanford ML Group) – CheXpert datasetini yaratib, ko'p kasalliklarni aniqlash uchun CNN modellarini qo'llagan.

Xiaowei Xu (2020, Xitoy) – COVID-19 va pnevmoniyani farqlovchi sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqqan.

EfficientNet (2019, Google AI) – yuqori aniqlikni ta'minlab, tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda samarali natijalar bergan.

Mahalliy olimlar orasida:

E. M. Madaminov, Sh. T. Toshpo'latov va boshqalar – O'zbekiston sharoitida pnevmoniyani tashxislashda tasvirlarni raqamli qayta ishlash va AI asosida tahlil qilish bo'yicha ilmiy maqolalar chop etishgan.

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti (TATU) hamda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi olimlari ushbu sohada qo'shma tadqiqotlar olib bormoqda.

Taklif etilgan model **to'rt bosqichdan**

1. **Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash va kengaytirish (augmentatsiya)** bosqichi.
2. **Xususiyatlarni ajratish** — EfficientNetB0 kabi transfer learning arxitekturasi orqali amalga oshiriladi.
3. **Tasvirlarni tasniflash** — rentgen tasvirlaridan ajratilgan xususiyatlar asosida bajariladi.
4. **Model samaradorligini baholash** — sinov natijalari asosida aniqlanadi.

Tadqiqotda 5 856 ta CXR tasviridan iborat ma'lumotlar to'plamidan foydalanildi: 4 273 tasi pnevmoniya, 1 583 tasi sog'lom. Ma'lumotlar dastlab train, validation va test to'plamlariga ajratilgan bo'lsa-da, sinflar nomutanosibligi sababli qayta ajratish

amalga oshirildi (70% train, 15% validation, 15% test, stratifikatsiya bilan).

To'plam dastlab uchta papkaga bo'lingan: *train* (trening), *validation* (tasdiqlovchi) va *test* (sinov). Biroq bu papkalarda ma'lumotlar teng taqsimlanmaganligi sababli, mualliflar barcha ma'lumotlarni birlashtirib, qayta uchta bo'limga ajratishgan. 1-jadvalda ushbu bo'linish ko'rsatilgan:

Toifa	**Trening to'plami**	**Validatsiya to'plami**	**Sinov to'plami**
Pnevmoniya	3875	8	234
Sog'lom	1341	8	390
Jami	5216	16	624



1-rasm. Train, validation va test sinflari

Bu yerda ma'lumotlar inbalance bo'lganligi uchun efficientNet B0 ishlatildi (1-rasm). Tasvirlar 224×224 piksel o'lchamga keltirildi. Normalizatsiya va data augmentatsiya (rotatsiya, gorizontal aylantirish, kontrast/yorug'lik o'zgarishi) qo'llanildi.



2-rasm. Pnevmoniya va normal sinflarning holati



3-rasm. Pnevmoniya va normal sinf roentgen tasvirlari

EfficientNetB0 arxitekturasi ImageNet ma'lumotlarida oldindan o'rgatilgan model sifatida foydalanildi. Oxirgi qatlam global average pooling va to'liq bog'langan qatlam bilan moslashtirildi. Dropout (0.3) qo'llanildi.

Model samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi: Accuracy, Precision, Recall, F1-score (har ikkala sinf bo'yicha), ROC-AUC va PR-AUC, Confusion matrix.



Modelning umumiy aniqligi 97% ga erishdi. Pnevmoniya sinfi uchun recall 96%, precision 95% bo'ldi. ROC-AUC qiymati 0.98 ga teng bo'lib, yuqori farqlash qobiliyatini ko'rsatdi. Confusion matrix natijalari shuni ko'rsatdiki, model asosan to'g'ri tasniflashga muvaffaq bo'ldi, biroq bir qator noto'g'ri tasniflangan sog'lom tasvirlar pnevmoniya sifatida belgilandi. Bu klinik kontekstdagi sezgirlik (sensitivity) yuqoriligini ko'rsatadi, ammo ortiqcha tashxis qo'yish ehtimoli mavjud.

III. Xulosa

Natijalar EfficientNetB0 asosidagi model pnevmoniya tashxisini aniqlashda samarali ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlari mavjud: Ma'lumotlar to'plami faqat bitta manbadan olingan, tashqi validatsiya o'tkazilmadi. Sinflar o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lgan, bu modelning umumlashuv qobiliyatini cheklashi mumkin. Ma'lumotlar bolalar yoki kattalar toifasiga tegishliligi alohida tahlil qilinmagan. Kelgusida modelni ko'p markazli ma'lumotlar to'plamida baholash, shuningdek, Grad-CAM kabi vizualizatsiya usullarini qo'llash orqali izohlilikni oshirish rejalashtirilmoqda. Klinik amaliyotda model shifokorlar ishini yengillashtiruvchi yordamchi vosita sifatida foydali bo'lishi mumkin.

EfficientNetB0 asosida yaratilgan model pnevmoniyani CXR tasvirlaridan aniqlashda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. U klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida qo'shimcha yordamchi sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq amaliyotga tatbiq etishdan avval kengroq klinik tekshiruvlar talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

[1]. Kermany DS, et al. Identifying Medical Diagnoses and Treatable Diseases by Image-Based Deep Learning. Cell. 2018; 172(5):1122–1131.e9.
[2]. Rajpurkar P, et al. CheXNet: Radiologist-Level Pneumonia Detection on Chest X-Rays with Deep Learning. arXiv preprint arXiv:1711.05225. 2017.
[3]. Irvin J, et al. CheXpert: A Large Chest Radiograph Dataset with Uncertainty Labels and Expert Comparison. AAAI. 2019.
[4]. Xu X, et al. Deep Learning System to Screen Coronavirus Disease 2019 Pneumonia. Engineering. 2020;6(10):1122–1129.
[5]. Tan M, Le Q. EfficientNet: Rethinking Model Scaling for Convolutional Neural Networks. ICML. 2019.
[6]. Zech JR, et al. Variable generalization performance of a deep learning model to detect pneumonia in chest radiographs: a cross-sectional study. PLoS Med. 2018;15(11):e1002683.
[7]. DeGrave AJ, et al. AI for radiographic COVID-19 detection selects shortcuts over signal. Nat Mach Intell. 2021;3(7):610–61

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARI YORDAMIDA O'RMON XO'JALIGINI MONITORING QILISH

Nazarova Gulchexra Nurmuxanbetovna
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: nazarovagulchexra3@gmail.com

Boboqulov Abbos Dilshod o'g'li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: abbosboboqulov0511@gmail.com

Annotatsiya: ***O'rmon xo'jaligini monitoring qilish sohasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi, avvalo, an'anaviy usullar, jumladan, yer yuzasidan kuzatish orqali olib boriladigan monitoring ishlari ko'pincha mavjud vaziyat haqida to'liq ma'lumot bermasligi bilan izohlanadi, ushbu ishning mavzusi nazariy tadqiqotlar yordamida "o'rmon monitoringining ahamiyatini asoslash – muammoning hozirgi holati – vaziyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar" modeliga asoslangan holda ko'rib chiqildi, o'rmon xo'jaligini tahlil qilishga yondashuvlar asosan uchuvchisiz uchish texnologiyalari va yer usti lazer skanerlari sohasidagi so'nggi ishlanmalar asosida amalga oshirilmoqda, keng o'rmon maydonlariga ega davlatlarga xos bo'lgan o'rmon yong'inlari kabi holatlarda tezkor qaror qabul qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.***

Kalit so'zlar: o'rmon monitoringi, uchuvchisiz texnologiyalar, iqlim o'zgarishi, qimmatli turlarni aniqlash, o'rmon monitoringining holati.

I. Kirish

O'zbekistondagi o'rmonlar iqlim o'zgarishi, inson faoliyatining salbiy ta'siri (ifloslanish, yong'inlar, noqonuniy daraxt kesish), zararkunanda epidemiyalari va qurg'oqchilik kabi jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Mavjud vaziyatga yetarlicha e'tibor berilmasligi holatni yanada og'irlashtirishi mumkin, chunki bunday sharoitda o'rmon xo'jaligi ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni to'liq bajarishga qodir bo'lmaydi.

Muammo, avvalo, o'rmon xo'jaligi holati bo'yicha dolzarb ma'lumotlarning yetishmasligi bilan bog'liq. Buning sababi masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagani va o'rmon monitoringi sohasida rivojlangan texnik tizimning yo'qligidir. Mavjud ma'lumotlar, asosan, yong'inlarga oid bo'lib, ularni bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan. Boshqa muhim jihatlar, jumladan, daraxt turlarining xilma-xilligi asosida o'rmon tarkibini tahlil qilish, zararkunanda va kasalliklarning tarqalishini nazorat qilish, hududlarning botqoqlanishi yoki cho'llanish darajasini baholash masalalariga esa yetarli e'tibor berilmayapti. Natijada, O'zbekistonda o'rmonlar bo'yicha aniq va taqqoslanadigan uzoq muddatli ma'lumotlarni to'plashning yagona tizimi mavjud emas.

Bu holat o'rmon xo'jaligi imkoniyatlariga, masalan, yong'inlarga qarshi kurash samaradorligi va o'rmonlarning yashab qolishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, o'rmonlarni monitoring qilishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni rivojlantirish zarur, chunki ular mamlakat miqyosida barcha o'rmonlarni qamrab oluvchi, tezkor va sifatli baholashni ta'minlaydi. Bu esa yuqorida tilga olingan xavflarga qarshi kurashish, qishloq hududlari va bioiqtisodiyotni rivojlantirish, shuningdek, o'rmon xo'jaligida qabul qilingan siyosat va qoidalarga rioya etishga yordam beradi. O'rmonlarni tizimli monitoring qilish mamlakat miqyosida iqlim xavflari, risklar va zararlarni aniqlash hamda tabiiy ofatlarga va inson faoliyatining salbiy oqibatlariga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

O'rmonni uchastkalarga ajratish va soliqqa tortish, tayyorgarlik ishlari vaqtida o'rmon hududlarini o'rganishni tashkil etish (ularning raqamli nusxalarini yaratish, o'rmon uchastkalarini tayyorlash), o'rmon inventarizatsiyasi sifatini nazorat qilish, pastki va yuqori o'lkalardagi yig'ilgan yog'och hajmini aniqlash, nazorat qilish faoliyatlarini amalga oshirish kabi vazifalarni hal etish zarurati mavjud.

Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: o'rmonlarni tiklash ishlarining samaradorligini baholash, o'rmon inventarizasiyasi va boshqaruv choralarining sifatini tekshirish, kesilgan yog'och hajmini aniqlash. Shuningdek, 1000 gektargacha bo'lgan (shahar o'rmonlari, dam olish maskanlari, transport yo'llari bo'yidagi himoya o'rmonlari va boshqalar) kichik maydonga ega o'rmon fondi obyektlarida inventarizatsiya vazifalari ham mavjud. Bundan tashqari, zarur hujjatlarni tayyorlash va chiziqli obektlar bo'yicha loyihaviy yechimlarni amalga oshirish, ekilgan daraxtzorlarning to'liq ro'yxatini tuzish, hududning botqoqlanishi va cho'llanish ulushini baholash hamda bashoratlash vazifalari ham dolzarbdir.

Tadqiqotda o'tkazilgan intellektual va statistik tahlil ushbu sohani yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi va monitoring jarayonining ko'p funksiyali ekanligi haqida xulosa chiqarildi. Shuningdek, tadqiqot mamlakatimizda bu

yo‘nalishdagi texnologiyalar yetarlicha rivojlanmaganligini hamda xorijiy tajribaga asoslangan yangi yechimlarni joriy etilishining muhimligini ta'kidladi.

Tadqiqot maqsadi — zamonaviy sharoitda uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida o‘rmon monitoringini olib borish maqsadlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti — RO‘MT (Respublika O‘rmon Massivi Tizimi) yordamida o‘rmon massivini o‘rganish, tahlillish va monitoringni amalga oshirish texnologiyalari va usullari. Ushbu jarayonni amalga oshirishdagi muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot metodlari:

- **Tahlil** — ushbu mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar o‘rganildi, o‘rmon monitoringini amalga oshirishning zamonaviy usullari hamda jarayonning texnik jihatlari aniqlashtirildi.
- **Sintez** — yig‘ilgan ma'lumotlar asosida RO‘MT dan monitoringda foydalanishning umumiy manzarasi hamda bu sohaga oid muammolar shakllantirildi.

II. Asosiy qism

Dronlardan monitoringda foydalanish imkoniyatlari. Dronlar uglerod miqdorini ham nazorat qilish va o‘lchash imkonini beradi. Ular tezkor, arzon va og‘ir mehnatni sezilarli darajada kamaytiradi. O‘rmon qoplamasidagi o‘zgarishlarni monitoring qilish REDD+ mexanizmining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘rmonlarning kesilishi va degradatsiyasi natijasida uglerod chiqindilarining kamayishini ko‘rsatadi [2]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aviomodel samolyotiga o‘xshash o‘lchamdagi dronga kichik kamera o‘rnatilib, 50 dan 300 metrgacha balandlikda parvoz qilinganida yuqori fazoviy aniqlikka ega tasvirlarni olish mumkin.

Bunday aniqlikda alohida daraxtlarni va o‘simlik qoplamasidagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda kuzatish oson kechadi (1-rasm).

1-rasm. – Dron yordamida o‘rmon hududini tasvirga olish

Uchuvchisiz uchish apparatining arzonligi va foydalanish qulayligi shuni anglatadiki, o‘rmonlarda o‘lchovlarni an’anaviy masofadan zondlash texnologiyalariga qaraganda ancha tez-tez amalga oshirish mumkin, chunki ular ancha qimmat turadi [3], [7]. Yig‘ilgan ma’lumotlar algoritm yordamida talqin qilinadi va u o‘rmonning 3D xaritasini yaratadi hamda, boshqa narsalar qatori, mazkur hududdagi daraxtlar soni, yog‘och hajmi, o‘simlik bilan qoplangan maydon va barglarning miqdorini ko‘rsatadi.

1-jadval. Qashqadaryo viloyati o‘rmon xo‘jaligi statistikasi

Tuman	**Nomi**	**Turi/ Yo‘nalish**	**Maydoni gektar**	**Hududdagi o‘simliklar turlari soni**	**Yovvoyi fauna:**	**Yoshi**
Chiroqchi	Qumdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi	Chiroqchi tumanida	18 700	4	7	6

		joylashgan, o'rmon barpo etish va muhofaza				
Shahrisabz	Shahrisabz tumani o'rmon xo'jaligi	Tuman darajasida o'rmonchilik va resurslardan foydalanish	12 203	15	7	20
Shahrisabz	Shahrisabz ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi	Maxsus faoliyat yo'nalishlarida (dorivor ekinlar, ilmiy)	18 672	35		7
Qamashi	Qamashi tumani o'rmon xo'jaligi	O'rmon resurslarini boshqarish, oqilona foydalanish	14,092	7	11	34
Yakkabog'	Yakkabog' ixtisoslashtirilgan (likvidatsiya)	Hozirda faoliyat emas, ilgari yo'nalishga ega bo'lgan	16,002.1	6	9	31

Texnologik innovatsiyalar baholash sohasida sezilarli yutuqlarga olib keldi. Ilgari baholash jarayoni ko'proq qo'lda bajariladigan usullar asosida amalga oshirilgan bo'lib, baholovchining tajribasiga ortiqcha bog'liq bo'lgan, ilmiy bo'lmagan metodologiyalar va subyektiv yondashuvlar ko'pincha noto'g'ri, kechikkan va asossiz natijalarga olib kelardi [1]. Yangi texnologiyalarni qo'llash va bozor ma'lumotlariga tobora to'liqroq kirish imkoniyati tufayli ushbu vaziyat tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Texnologik innovatsiyalar baholash jarayonini transformatsiya qilayotgan asosiy yo'llardan biri — bu baholashning yangi vositalari va texnologiyalarini joriy etishdir. Ular o'rmonning joylashuvi, hajmi, topografiyasi hamda qiymatga ta'sir etuvchi boshqa muhim omillar haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi [7].

2-jadval. Qumdaryo davlat o'rmon xo'jaligi

Yo'nalish	**Ma'lumotlar**
Joylashuvi	Chiroqchi tumani, 39°02′N 66°34′E koordinatalarda
Plantatsiya rejalari	2019 - 2020-yillarda 7 000 ga hududda pista, bodom, yong'oq, chakanda
Ekologik monitoring	O'simlik va hayvonot monitoringi, kadastr tizimi, geo-axborot bazasi orqali
Masofaviy monitoring	Kosmik usullar yordamida tuproq, eroziyaga qarshi daraxtzorlar va ko'chatlar monitoringi

O'rmonlarni baholash, odatda, o'rmon uchastkalarini ijaraga berish jarayonining bir qismidir. Mutaxassis butun hududni ko'rib chiqib, ko'plab jihatlarni — masalan, yer maydoni, undagi daraxt turlari, zichligi, joylashgan o'rni, daraxtlar soni va hokazolarni inobatga olishi kerak [6]. O'rmon baholash natijalari hujjatda aks ettirilgandan so'ng, yer uchastkasining qiymati ham baholanishi mumkin. O'rmonlarni baholashni o'tkazadigan shaxs betaraf bo'lishi shart, ya'ni u na yer egasi, na uni sotib olish yoki ijaraga olishdan manfaatdor kompaniya vakili, va na o'sha yerda o'rmon xo'jaligi faoliyatini yuritishni rejalashtiruvchi bo'lishi mumkin. Shu bois, monitoringni maxsus tashkilot tomonidan olib borish zarurati yuzaga keladi.

Yaqin vaqtgacha o'rmon baholash asosan qo'lda bajarilgan, dronlardan olingan ma'lumotlarni esa inson emas, balki sun'iy intellektual tizim qayta ishlangan. Buning natijasida ikki turdagi muammo darhol ko'zga tashlangan: hisoblash tezligining pastligi va xato ehtimolining mavjudligi. Ikkinchi omilni kamaytirish uchun nazorat tashkiloti xodimlari qo'lda o'lchovlarni amalga oshirib, mustaqil ma'lumot olishga majbur bo'lishadi. Bu esa ish vaqtini yanada cho'zadi va ba'zi hollarda yer uchastkasini ijaraga oluvchilar uchun muhim muammoga aylanishi mumkin. Daraxt turlarini noto'g'ri aniqlash biologik xilma-xillikni nazorat qiluvchi tashkilotlarning e'tirozlariga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli daraxt turlarini aniqlashda sun'iy intellekt asosidagi dastur va modellarni qo'llash juda muhim yechim sifatida ko'rilmoqda va hozirda "O'zo'rmonaxborot" tomonidan faol qo'llanilmoqda. Kompaniyaning so'nggi yangiliklaridan yana biri — bu Leica ALS-70HP lidar (skaner)idan foydalanib, Leica RCD-30 kamerasi (50 mm fokus masofasiga ega) yordamida ortofotoplan modelini yaratishdir (2-rasm). Natijada yuqori sifatli rastrli modelni yaratish va uni MicroStation kompleksi hamda sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan modul yordamida qayta ishlash uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirishga erishildi.



2-rasm. Uch o‘lchamli fazodagi lazer nuqtalari buluti ortofotoplan bilan birlashtirilgan (vertikal proektsiya)

Uskuna ishini namoyish qilish doirasida Qashqadaryo viloyatida kengligi 30 metr bo‘lgan gaz quvuri uchun ajratish va chiziqli obektni to‘liq ro‘yxatga olish ishlari olib borilayotgan hudud tanlandi. Ushbu tadqiqot davomida skanerlash **DJI Matrice 350 RTK** kvadrokopteri va portativ skanerlash tizimi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot o‘tkazish jarayonida turli tashkilotlar o‘rtasida, nafaqat tijorat balki davlat darajasida ham, ma'lumot almashish zarurligi ayon bo‘ldi. Chunki o‘rmonni baholash va uning holati bo‘yicha natijalar boshqa tomonlarga ma'lum bo‘lmasligi mumkin.

O‘rmonni baholash **Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV)** yoki qidiruv tashkilotlari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, chunki bu haqiqiy hudud xaritasini tuzishda zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘rmon massivi soni va sifatiga oid ma'lumotlarni olish inventarizasiya o‘tkazishda va kesish rejalarini ishlab chiqishda foyda beradi. Shuningdek, o‘rmon hududini baholash jarayonida turli qonunbuzarliklar aniqlanishi mumkin, bu esa davlat byudjetini to‘ldirishga ham xizmat qiladi.

III. Xulosa

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, o‘rmon monitoringi nafaqat o‘rmon tarkibi va sifatini baholash, balki kesishga mo‘ljallangan hududlarni belgilash hamda yong‘in xavfini aniqlash nuqtayi nazaridan ham muhim va dolzarb vazifadir. O‘tkazilgan o‘lchovlar asosida ekotizimning inson faoliyatiga va tashqi omillarga, jumladan, o‘zgarib borayotgan iqlim sharoitlariga qanday javob berishini umumiy tushuncha sifatida olish mumkin. Monitoring nafaqat daraxtlarning o‘zini, balki ular bilan bog‘liq muhit xususiyatlarini ham qamrab oladi. Xususan, atmosfera tarkibi, harorat va daraxtlarga ta'sir qiluvchi organizmlar haqida ham fikr yuritish mumkin.

Yig‘ilgan ma'lumotlar turli maqsadlarda qayta ishlanib, topografik kartografiya, geologik tadqiqotlar, o‘simliklarni tahlil qilish, relefni modellashtirish, landshaft o‘zgarishlarini kuzatish, tabiiy resurslarni baholash, shaharsozlik va hudud haqida aniq ma'lumot talab etadigan boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu sohadagi muammolardan biri monitoring uchun qo‘llanilayotgan dronlarning batareya zaxirasining kamligi hamda o‘zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslasha olmasligidir. Xususan, amaliy o‘lchovlar davomida kuchli shamol natijalarning noto‘g‘ri chiqishiga va bir nechta omillar birlashganda uskunani yo‘qotishga olib kelishi mumkinligi aniqlangan.
Ayrim modellarning qish faslida monitoringni bajarish jarayonida samarasizligi kuzatildi, xususan, iqlim sharoiti tufayli yuzaga keladigan muzlash muammosi qayd etildi. Bu esa uchuvchisiz uchish qurilmalari konstruksiyasi jihatidan yanada takomillashgan tizimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bundan tashqari, monitoringni takomillashtirishning boshqa yo‘nalishi sifatida, o‘rmon xo‘jaligi holatini baholash algoritmlarini maqsadga qarab yaxshilash mumkin, chunki ushbu jarayon ko‘p qirrali va turli yo‘nalishli hisoblanadi. Baholashga nafaqat daraxtlarning o‘zi, balki tuproq holati, barglar miqdori hamda ma'lum hudud atmosferasining tarkibi ham kiritilishi mumkin.

Mazkur mavzu dolzarb bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] Bespalova V.V. O‘rmon xo‘jaligi majmuasi korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish / V.V. Bespalova, O.A. Polyanskaya // Amaliy tadqiqotlar jurnali. — №2. — 2021.

[2] Gadallah N.A.X. Sudan qurg‘oqchil mintaqalarida o‘rmonlarning holatini baholash va monitoring qilishda

integrasiyalashgan yondashuv / N.A.X. Gadallah, I.S.A. Taha, A.I.A. Khano // Qurg‘oqchil ekotizimlar. — №2 (91). — 2022.
[3] Kostin P.I. Bepilot uchish apparatlari yordamida o‘rmon taksasiyasi / P.I. Kostin // Fan va ta'lim axborotnomasi. — №1-2 (121). — 2022.
[4] Kremcheyev R.N. Barqaror o‘rmon xo‘jaligini integratsiyalashgan boshqaruv tizimini joriy etishning shart-sharoitlarini tadqiq etish / R.N. Kremcheyev, T.A. Salimova // Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va jamoat fanlari. — №7. — 2023.
[5] Ostrovskaya A.S. Rossiya Federatsiyasida davlat o‘rmon xo‘jaligini boshqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish / A.S. Ostrovskaya // Skif. — №5-1 (45). — 2020.
[6] Rylskiy I.A. Raqamli iqtisodiyot davrida lazerli skanerlash va fazoviy ma’lumotlar bilan ta’minlash / I.A. Rylskiy, M.V. Gribok, E.N. Eremchenko [va boshq.] // Fan va ta’lim axborotnomasi. — №12-1 (90). — 2020.
[7] Boboqulov A.D. Geoaxborot tizimlari asosida hududiy o‘rmon xo‘jaligi monitoringini yuritish / “Al-Farg‘oniy avlodlari” elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252. Tom: 1 | Son: 2 | 2025-yil.

ЭЛЕКТРОН ҲУКУМАТДА ОВОЗЛИ МАЪЛУМОТЛАРНИ БОШҚАРИШ

Назирова Элмира Шодмоновна
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Televizion texnologiyalar fakulteti dekani, professor, t.f.d.
Тошкент, Ўзбекистон
e.nazirova@tuit.uz

Хусайдинова Дилобар Мирхамидовна
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети «Рақамли технологиялар конвергенцияси» кафедраси Тошкент, Ўзбекистон
dilobarhusajdinova032@gmail.com

Karimova Nargiza.Ibragimovna.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti. "Axborotlarga ishlov berish va boshqarish tizimlari" kafedrasi. Тошкент, Ўзбекистон

Raximberdiyev Sanjarbek Alisher o'g'li
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети «Рақамли технологиялар конвергенцияси» кафедраси Тошкент, Ўзбекистон
raximberdiyevsanjarbek@gmail.com

Аннотация **— Мақолада электрон ҳукумат тизимида овозли маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш ва ҳимоя қилиш соҳаларига доир замонавий технологиялар ва усуллар ўрганилган. Овозли маълумотлар давлат хизматларини такомиллаштиришда, фуқароларнинг фикрлари ва эҳтиёжларини тез ва аниқ тушунишда муҳим аҳамият касб этади. Мақолада овозни матнга айлантириш, овоз эгасини идентификация қилиш, маълумотларни сақлаш ва семантик ҳамда эмоционал таҳлил усуллари каби технологиялар таҳлил қилинган. Шунингдек, овозли маълумотларнинг хавфсизлиги ва шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш муаммоларига алоҳида эътибор берилган. Идоралараро ҳамкорлик ва электрон ҳукумат инфратузилмаси орқали овозли маълумотларни самарали бошқаришнинг ҳуқуқий ва техник жиҳатлари ҳам кўриб чиқилган. Мақола Ўзбекистон шароитида электрон ҳукуматни такомиллаштириш ва фуқароларга сифатли давлат хизматлари кўрсатиш учун овозли маълумотлар технологияларини жорий этишнинг аҳамиятини кўрсатади.**

Ключевые слова: Электрон ҳукумат, Овозли маълумотлар, Speech-to-Text, Овоз эгасини идентификация қилиш, Хавфсизлик ва махфийлик, Шахсий маълумотлар ҳимояси, Идоралараро ҳамкорлик, Электрон ҳукумат инфратузилмаси, AI ва NLP технологиялари, Давлат хизматлари,.

I. Кириш

Рақамли трансформация мамлакатларда давлат хизмати сифатини яхшилашида ёрдам бераётганини бугун ҳаммамиз ҳис этмоқдамиз. Электрон ҳукумат (e-Government) фуқаролар билан давлат ўртасида самарали мулоқотни таъминлайди. Ушбу мақолада овозли маълумотлар—колл марказларда тушадиган қўнғироқлар, овозли мурожаатлар ва AI асосидаги овозли ассистентлар орқали тарқатиладиган маълумотларни бошқариш жараёнлари, уларнинг таҳлил аҳамияти, хавфсизлик билан боғлиқ муаммолар ва техник инфратузилмаси батафсил ёритилади. Мавзунинг актуаллиги-бугунги кунда рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши давлат бошқаруви соҳасида ҳам янги имкониятлар эшигини очмоқда. Электрон ҳукумат тизими фуқаролар ва давлат органлари ўртасидаги алоқани рақамли шаклга ўтказиш орқали давлат хизматларини тезкор, шаффоф ва самарали етказишни мақсад қилади. Бу жараёнда турли турдаги маълумотлар, жумладан, **овозли маълумотлар** (қўнғироқлар, овозли мурожаатлар, автоматик овозли хабарлар ва бошқалар) катта аҳамият касб этади.

Фуқароларнинг фикр-мулоҳазалари, шикоят ва таклифлари аксар ҳолларда айнан овозли форматда ифода этилади. Бундай маълумотларни тўғри қабул қилиш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш ва зарур чораларни кўриш давлат органларининг аҳоли эҳтиёжларига мос равишда иш олиб боришини таъминлайди.

Шу билан бирга, овозли маълумотларни бошқаришнинг ахборот хавфсизлиги, шахсий маълумотларни муҳофаза қилиш, тил ва шева хилма-хиллиги каби мураккаб жиҳатлари мавжуд. Айниқса, AI (сунъий интеллект) ва NLP (табиий тилни қайта ишлаш) технологиялари ривожланаётган бугунги замонда овозли маълумотлардан самарали фойдаланиш нафақат техник, балки стратегик вазифа сифатида ҳам қаралмоқда.

Демак, ушбу мавзуни ўрганиш - давлат хизматларининг замонавийлашуви, фуқаролар билан мулоқот маданиятининг юксалиши ва ахборотнинг самарали бошқарилиши нуқтаи назаридан жуда долзарб ва ўз вақтидаги масала ҳисобланади.

Мақсад ва вазифалар:

Ушбу мақоланинг асосий мақсади - лектрон ҳукумат тизимида овозли маълумотлар билан ишлаш жараёнларини комплекс таҳлил қилишдан иборат. Хусусан, давлат хизматлари кўрсатишда овозли маълумотларнинг ўрни, уларни тўплаш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш ва сақлашда қўлланиладиган замонавий технологиялар ҳамда ахборот хавфсизлиги масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

II. Овозли маълумотларнинг аҳамияти

1) Овозли маълумотларнинг аҳамияти

Овозли маълумотлар — бу инсон овози орқали ифода этилган, аудио форматда ёзиб олинган ёки узатилган ахборот туридир. Электрон ҳукумат тизимида овозли маълумотлар муҳим манба сифатида хизмат қилади ва фуқаролар билан давлат органлари ўртасидаги реал вақт мулоқотини таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Бу турдаги маълумотлар давлат хизматларининг жонлилиги, интерактивлиги ва самарадорлигини оширишга кўмаклашади.

Амалий қўлланиш соҳалари-фуқаролар томонидан давлат хизматларига овозли маълумотлар орқали мурожаат қилишнинг асосий шакллари қуйидагилардан иборат:

- Колл-марказлар (Call Centers): Давлат идоралари билан тўғридан-тўғри телефон орқали боғланиш имконини беради. Одатда, операторлар ёки автоматлаштирилган тизимлар орқали фуқаролардан тушаётган овозли мурожаатлар қабул қилинади, ёзиб олинади ва сақланади. Бу маълумотлар таҳлил қилиниб, тегишли бўлимларга йўналтирилади.
- Автожавобгарлаштирувчи тизимлар (IVR — Interactive Voice Response): Фуқаролар автоматик овозли менюлар ёрдамида маълумот олишлари, ариза қолдиришлари ёки хизматлардан фойдаланишлари мумкин. Бундай тизимлар 24/7 ишлайди ва инсон иштирокисиз маълумот беришни таъминлайди.
- Овозли сўров ва фикр билдириш платформалари: Айрим давлат хизматлари ёки жамоатчилик ташаббуслари доирасида овозли фикрлар йиғилади, таҳлил қилинади ва қарор қабул қилиш жараёнида ҳисобга олинади.

a) Фуқаролар эҳтиёжларини тушунишдаги ўрни

Овозли маълумотлар — фуқароларнинг реал эҳтиёжлари, муаммолари, таклифлари ва муносабатларини тушуниш учун қулай ва самарали манбадир. Қуйидаги жиҳатлар бу маълумотларнинг аҳамиятини янада оширади:

- Тезкорлик: Овозли мурожаат ёки қўнғироқ орқали фуқаро ўз муаммосини ёзма мурожаатга нисбатан тез ва тўғридан-тўғри баён қилади. Бу эса фаол ва реал вақтда фидбек олиш имконини беради.
- Эмоционал ҳолатни англаш: Овозли маълумотлар орқали инсоннинг кайфияти, стресс даражаси, ишонч ёки хавотир каби эмоционал ҳолатлар ҳам аниқланиши мумкин. Бу маълумотлар асосида давлат идоралари ўз хизматларини психологик жиҳатдан ҳам мослаштириш имкониятига эга бўлади.
- Шаффоф ва интерактив муносабат: Фуқароларнинг овози эшитилиши, уларга жавоб қайтарилиши, ҳар бир мурожаатнинг қайд этилиши — давлатга бўлган ишончни оширади, шаффофликни таъминлайди.

b) Ижтимоий ва бошқарув функциясидаги аҳамияти

Овозли маълумотлар фақатгина алоқа воситаси эмас, балки:

- Фуқаролар кайфиятини мониторинг қилиш, жамоатчилик фикрини тезкор равишда ўрганиш;
- Мурожаатлар бўйича оммавий таҳлиллар олиб бориш, масалан, қайси масалалар кўпроқ кўтарилаётганини аниқлаш;
- Давлат органлари фаолиятини такомиллаштириш, хизматларнинг сифатини ошириш учун таклифлар йиғиш;
- Ижтимоий хавф ёки инқироз ҳолатларини барвақт аниқлаш имкониятларини яратади.

III. Технологик ечимлар

a) Ovozni matnga aylantirish (Speech-to-Text)

Speech-to-Text технологияси — бу овозли маълумотни автоматик равишда матн форматига айлантириш жараёни бўлиб, AI ва NLP алгоритмлари ёрдамида амалга оширилади. Бу жараён фуқаролар томонидан айтилган гапларни матн сифатида қайд этиш ва кейинчалик таҳлил қилиш имконини беради.

- Масалан, фуқароларнинг колл-марказга қилган мурожаатлари автоматик равишда матнга айлантирилиши орқали маълумотлар базасига сақланади.
- AI моделлари овоздаги талаффуз, шева, сўз тезлиги каби омилларни ҳам ҳисобга олади, бу эса танишлик даражасини оширади.
- Ўзбек тили учун ҳам махсус локаллаштирилган NLP дастурлари ишлаб чиқилиши аҳамиятга эга.

b) Ovoz egasini аниқлаш (Speaker Identification)

Speaker Identification — бу овозли маълумот орқали ким гапираётганини аниқлаш имконини берувчи технологиядир. У икки асосий мақсадда фойдаланилади:

- Автентификация (тасдиқлаш): Фуқаро овози орқали шахсий идентификациядан ўтади (масалан, шикоят муаллифини аниқлаш).
- Таҳлил ва гуруҳлаш: Турли фуқаролар томонидан билдирилган овозли мурожаатларни гуруҳлаб таҳлил қилиш имконини беради.

Ушбу технология маълумот хавфсизлиги ва шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш тизимларида ҳам қўлланилади.

c) Маълумотларни сақлаш ва архивлаш

Овозли маълумотларни қайта ишлаш ва уларга қайтиб мурожаат қилиш имкони бўлиши учун уларни тўғри сақлаш ва архивлаш зарур. Бунинг учун:

- Аудио файллар формати: WAV, MP3, FLAC каби форматлар қўлланилади. Формат танлашда сифат ва ҳажм ўртасида мувозанат сақланади.
- Мета-маълумотлар: Ҳар бир файл учун вақтини, мурожаат манбаини, фуқаро идентификаторини ва бошқа муҳим маълумотларни сақловчи маълумотлар бирга ёзилади.

- Маълумотлар базаси**:** Аудио маълумотлар кўп ҳолларда махсус маълумотлар базаларида сақланади (масалан, NoSQL форматдаги аудио репозиторийлар).

Бу элементлар овозли маълумотлардан таҳлил ва мониторингда самарали фойдаланиш учун асос яратади.

d) Таҳлил усуллари

Овозли маълумотларни таҳлил қилишда замонавий алгоритмлар қуйидаги йўналишларда иш олиб боради:

- Семантик таҳлил (Semantic Analysis): Матнга айлантирилган овозли маълумотлардан мазмунни аниқлаш, яъни нима ҳақида сўз кетаётганини автоматик тарзда англаш. Масалан, мурожаатда транспорт, соғлиқни сақлаш, ишсизлик ёки таълим ҳақида гап кетяптими — шуларни аниқлаш.
- Эмоционал таҳлил (Sentiment Analysis): Фуқаро мурожаатидаги ҳиссиётни — ижобий, салбий ёки бетарафлигини аниқлаш. Бу давлат хизматлари сифатини баҳолаш, аҳоли кайфиятини англашда фойдали.
- Овоз характери таҳлили: Интонация, овоз баландлиги, паузалар, стресс даражаси ва бошқа овозли хусусиятларни таҳлил қилиш орқали фуқаро кайфияти ёки таъкидланаётган муаммонинг жиддийлиги баҳоланади.

Бу таҳлиллар сунъий интеллект ва машинали ўрганиш алгоритмлари орқали амалга оширилади ва ҳар бир овозли маълумотни аҳамиятли ахборотга айлантириш имконини беради.

IV. Хавфсизлик ва махфийлик

Электрон ҳукумат тизимида овозли маълумотлар билан ишлаш жараёни нафақат техник, балки ҳуқуқий ва ахлоқий нуқтаи назардан ҳам етарлича муҳофаза қилинган бўлиши керак. Чунки овоз — инсоннинг шахсий идентификатори сифатида қаралади ва у орқали шахсни аниқлаш, таҳлил қилиш, ҳатто кузатиш ҳам мумкин. Бу эса маълумот хавфсизлиги ва махфийлик борасида жиддий ёндашувни талаб қилади.

a) Хавфсизлик таҳдидлари

Овозли маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва сақлаш жараёнларида бир неча турдаги хавфлар мавжуд бўлиб, улар қуйидагича таснифланади:

А)Машинани ўргатишга ҳужумлар (Adversarial attacks):

Сунъий интеллект ва NLP алгоритмлари овозни матнга айлантириш жараёнида нейрон тармоқлар орқали ишлайди. Бу жараёнда маълумотлар махсус AI-модельга берилганда, айрим ҳолатларда қасддан тузилган "адверсариал сигналлар" орқали:

- AI моделни адаштириш,
- нотўғри маъно бериш,
- ёки нотўғри фуқарони идентификация қилиш ҳолатлари юзага келиши мумкин.

Масалан: шахс бошқа инсон овозини тақлид қилувчи дастур орқали автоматик идентификацияни алдашга уриниши.

Б) Аппарат ва дастурий хавфлар:

- Микрофонлар ёки мобил қурилмалардаги хавфлар: овоз ёзувлари фуқаро розилигисиз ёзиб олиниши ва учинчи шахсларга узатилиши мумкин.
- Аудио маълумотларни сақловчи серверларга ҳужумлар: маълумотлар базасидаги аудио-файллар ўғирланиши ёки ўзгартирилиши мумкин.
- Интеграция хавфлари: овозли маълумотлар бошқа ахборот тизимлари билан алмашилганда улар шифрланмаган ҳолда узатилиши мумкин.

V.Идоралараро ҳамкорлик ва инфратузилма

Идоралараро ҳамкорлик ва стандартлар.

Электрон ҳукумат тизими фуқароларга сифатли, шаффоф ва тезкор хизматлар кўрсатишни таъминлаш учун турли давлат идоралари ўртасида самарали ҳамкорлик ва маълумот алмашишни талаб қилади. Айниқса, овозли маълумотлар билан ишлаш жараёнида — уларни йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва таҳлил қилиш босқичларида — идоралараро ўзаро интеграция муҳим аҳамиятга эга.

1. *Идоралараро электрон ҳамкорлик тизими (ИЭҲТ)*

Ўзбекистонда Идоралараро электрон ўзаро ҳамкорлик тизими (ИЭҲТ**)** платформаси орқали давлат органлари ўртасида маълумот алмашиш, электрон ҳужжат айланиши ва хизматлар координациясини таъминлайди.

Бу тизим орқали:

- Фуқаролар томонидан турли идораларга қилган овозли мурожаатлар бирлаштирилган маълумот базаларига йиғилади;
- Автоматик равишда қайта ишлаш учун махсус API ва интеграция каналлари мавжуд;
- Идоралар ўртасида маълумот алмашиш реал вақтда (real-time) амалга оширилади, бу орқали мурожаатлар иккиламчи ёзувларсиз, аниқ ва тезкор тарзда юритилади.

Бу тизим овозли маълумотлар каби нотипик форматдаги ахборотларни ҳам марказлаштирилган тарзда қабул қилиш, қайта ишлаш ва таҳлил қилиш имкониятини яратади.

2. Электрон ҳукумат инфратузилмаси

Овозли маълумотлар билан ишлаш учун давлат тизими қуйидаги техник инфратузилма ва платформаларга таянади:

А) Маълумотларни сақлаш:

- PostgreSQL, MongoDB каби маълумотлар базалари: мета-маълумотлар (қўнғироқ вақти, мурожаат идентификатори, фойдаланувчи ID) сақлаш учун.
- Объектга йўналтирилган сақлаш тизимлари (Object Storage): овозли файлларни (MP3, WAV) аудио форматда сақлаш учун, масалан Amazon S3 ёки маҳаллий Datalake ечимлари.
- DMS (Document Management Systems): мурожаатлар билан боғлиқ ҳужжатлар, иш юритиш жараёни ва овоз ёзувлари биргаликда сақланадиган тизимлар.

Б) Маълумотни қайта ишлаш ва таҳлил қилиш:

- ETL (Extract, Transform, Load) жараёнлари: овозли маълумотларни матнга айлантирилгандан сўнг семантик таҳлилга тайёрлаш.
- AI/ML серверлар ва кластерлар: катта ҳажмдаги овозли маълумотларни тезкор қайта ишлаш учун GPU-қувватига эга тизимлар.

B)Хавфсизлик ва махфийлик инфратузилмаси:

- VPN ва Firewall тизимлари — маълумот узатиш хавфсизлигини таъминлайди.
- Access Management тизимлари **(IAM):** қайси ходим қайси маълумотга кириш ҳуқуқига эга эканини белгилайди.
- Шифрлаш протоколлари**:** TLS/SSL каби стандартлар асосида маълумотлар ҳаракати шифрланади.

3. Стандартлаштириш ва мувофиқлаштириш

Электрон ҳукумат тизимида маълумотлар, жумладан овозли маълумотлар билан ишлашда қуйидаги стандартлар ва меъёрий ҳужжатлар муҳим роль ўйнайди:

- DXP (Digital Experience Platform) – фуқарога йўналтирилган давлат хизматларини ягона платформада шакллантириш.
- Open API стандартлари - давлат идоралари ўртасида маълумотларни бирлаштириш ва интеграция қилиш учун умумий интерфейслар.
- JSON/XML форматлари -маълумотларни сохта ўзгартиришсиз ишлаш ва текшириш имконини беради.
- ISO/IEC 27001 - ахборот хавфсизлиги бошқаруви тизими стандарти (ISMS).

Бундай стандартлар ва регламентларсиз идоралар ўртасида овозли маълумотларни ишончли ва мувофиқ тарзда алмашиш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш мураккаблашади.

VI. Амалиёт мисоллари — Ўзбекистон контексти вывод

- Dashboard AT лойиҳаси: электрон ҳукумат тизимининг ахборот ресурсларини визуализация қилиш ва мониторинг қилиш учун платформани таъминлаш .
- Электрон ҳукумат лойиҳаларини бошқариш маркази ва инфратузилма хусусияти, лойиҳалар самарадорлиги, технологияга асосланган ёндашувлар .

VII. Қийинчиликлар ва тавсиялар

Масалалар: тил ва шевалар турлари, кадрлар малакси, техник ресурслар, ҳимоя муаммолари.

Тавсиялар: AI ва NLP технологияларига сармоя киритиш, стандарт ҳамда ҳимоя тизимини кучайтириш, овозли маълумотларни давлат хизматлари платформаларига интеграция қилиш, давлат лойиҳаларида (Dashboard AT каби) овозли маълумотлар билан ишлаш имконини кўриб чиқиш.

Хулоса

Электрон ҳукуматда овозли маълумотларни бошқариш юқори даражадаги ишонч, масъулият ва ахборот хавфсизлигини талаб қилади. Хавфсизлик таҳдидларига қарши етарли чоралар кўрилмаса, фуқароларнинг шахсий маълумотлари бузилиши, AI моделларни манипуляция қилиш, ва оммавий маълумотларнинг суиистеъмоли каби жиддий оқибатлар келиб чиқиши мумкин.

Шу боисдан, давлат ва IT-ижрочилар томонидан нафақат техник, балки ҳуқуқий ва ташкилий чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириш талаб этилади. Бу эса электрон ҳукуматга бўлган ишончни мустаҳкамлашнинг асосий омилларидан биридир.Овозли маълумотларни бошқариш электрон ҳукуматнинг янги босқичига юқорилаш имконини беради. Ушбу соҳада AI ва IT имкониятларидан фойдаланиш, хавфсизлик ва стандартлаштириш механизмларини кучайтириш давлат-хусусий сектор, фуқаролар ўртасидаги муносабатларни янада самарали ва шаффоф қилади.

Овозли маълумотлар билан ишлашда идоралараро ҳамкорлик ва ягона стандартларга риоя қилиш — электрон ҳукуматнинг барқарор, хавфсиз ва самарали фаолият юритиши учун асосий шартлардан биридир. Ҳар бир идора ўзига тегишли маълумотларни марказлашган инфратузилма орқали бошқарса, фуқароларнинг мурожаатлари тезкор қабул қилинади, таҳлил қилинади ва натижада уларга сифатли жавоб қайтарилади.

[1] A. Vaswani, et al., "Attention Is All You Need," *Advances in Neural Information Processing Systems*, 2017.

[2] D. Jurafsky and J.H. Martin, *Speech and Language Processing*, 3rd Edition, Pearson, 2021.

[3] K. Lee, et al., "Speaker Identification Using Deep Neural Networks," *IEEE Transactions on Audio, Speech, and Language Processing*, 2018.

[4] S. Shokri, et al., "Membership Inference Attacks Against Machine Learning Models," *arXiv preprint arXiv:1610.05820*, 2016.

[5] R. Sommer and V. Paxson, "Outside the Closed World: On Using Machine Learning for Network Intrusion Detection," *IEEE Symposium on Security and Privacy*, 2010.

[6] Ўзбекистон Республикаси "Шахсий маълумотлар тўғрисида"ги Қонуни, 2019 йил.

[7] Электрон ҳукумат портали, 2024.

[8] ISO/IEC 27001:2013 Information security management systems — Requirements.

[9] J. Liu, et al., "Sentiment Analysis of Voice Data Using Deep Learning," *Journal of Computational Linguistics*, 2022.

[10] O. Makhmudov, "Ovozli ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash va tahlil qilish," *Axborot Texnologiyalari*, 2023.

ИНТЕГРАЦИЯ ГОЛОСОВЫХ АУДИОТЕХНОЛОГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ АУДИОСИГНАЛА В МЕЛ-СПЕКТРОГРАММУ

Назирова Элмира Шодмоновна
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми
декан факультета телевизионных технологий,
профессор, д.т.н.
e.nazirova@tuit.uz

Хусайдинова Дилобар Мирхамидовна
кафедра «Конвергенция цифровых технологии»
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада Ал- Хорезмий
Ташкент, Узбекистан
dilobarhusajdinova032@gmail.com

Аннотация —В статье рассмотрены современные тенденции и перспективы применения аудиотехнологий в развитии электронного правительства Узбекистана. Особое внимание уделено роли голосовых помощников на узбекском языке, автоматизации контакт-центров и анализу звонков, а также внедрению биометрической верификации по голосу для повышения безопасности госуслуг. Обсуждаются проблемы доступности и инклюзивности, а также потенциал голосовых интерфейсов для поддержки людей с ограниченными возможностями. Описаны ключевые этапы преобразования аудиосигнала в мел-спектрограмму как основы для распознавания речи. В завершение даны рекомендации по разработке национальных речевых моделей, интеграции голосовых технологий с существующими платформами и необходимости сотрудничества с научными и образовательными учреждениями. Предложенные меры направлены на повышение эффективности, безопасности и инклюзивности электронных государственных сервисов в Узбекистане..

Ключевые слова: электронное правительство, Узбекистан аудиотехнологии голосовые помощники распознавание речи мел-спектрограмма биометрическая верификация по голосу доступность инклюзивность, контакт-центр, цифровизация госуслуг, национальные речевые модели, интеграция платформ, искусственный интеллект, голосовой интерфейс.

I. ЭЛЕКТРОННОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА: ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ВЫЗОВЫ

1. Портал my.gov.uz и его возможности

Портал my.gov.uz (Единый портал интерактивных государственных услуг, ЕПИГУ) позволяет гражданам и бизнесу получать госуслуги онлайн через единый интерфейс. Для доступа требуется регистрация через систему идентификации OneID.

Рост функционала и услуг:

К началу 2024–2025 гг. число услуг, доступных через портал, достигло около 720.

В 2023–2024 гг. наблюдалось значительное увеличение: с ~570 услуг до более 700. В мобильном приложении MyGov на январь 2025 года доступно более 527 услуг, предоставляемых через интерфейс с удобным доступом, включая FaceID, MobileID, оплату и мониторинг заявок.

Статистика использования: На февраль 2025 года зарегистрировано более 10 млн пользователей (53 % мужчины, 47 % женщины).

Инфраструктура и улучшения: Портал поддерживается UZINFOCOM; к 2025 году внедрена оценка сервиса пользователями, голосовой помощник "Мухлиса" и MyID.

Цифровая трансформация: по данным ЕОСР, сейчас доступно более 760 услуг, специалисты планируют до 2025 года ввести IT-экспорт на сумму $1 млрд, стартовали облачная платформа и обучение AI-промптингу. По состоянию на октябрь 2024 года, портал охватывает свыше 60 % всех госуслуг, а общее число услуг составило 675.

2. Цифровизация госуслуг

Стратегия "Digital Uzbekistan-2030": Определены приоритетные проекты: 300 — цифровизация госуправления, 51 — экономики, 137 — региональных преобразований (2023–2024 гг.). Планируется полный охват всех населенных пунктов широкополосной связью к концу 2024 года.

GovTech и зрелость: В 2024 Узбекистан впервые вошёл в группу стран с "очень высоким" EGDI, поднявшись на 63-е место с индексом 0,7999. В индексе GovTech Maturity (2022) страна поднялась на

37 позиций и вошла в группу A, а в "GovTech Enablers" — в топ-4 по цифровым навыкам и инновациям.

Проекты инклюзивного доступа: Инициативы по Digital Inclusion реализуются совместно с ВБ, IT-Park и МВД: создание 25 000 рабочих мест (50 % — женщины, 4 % — люди с инвалидностью), обучение 6 000+ молодых специалистов, модернизация IT-центров.

3. Проблемы доступности и инклюзивности

Обратная связь по инклюзивности: Портал регулярно проводит опросы для повышения доступности для пользователей с инвалидностью.

Инфраструктурные трудности: Несмотря на проекты, географическая протяженность, особенности рельефа и финансирование ограничивают быстрое развертывание инфраструктуры в удалённых районах.

Цифровой разрыв и доступность: Как показывает обзор глобальных практик доступа, только около 40 % сайтов в странах Global South соответствуют базовым WCAG-требованиям: особенно страдают люди с нарушениями зрения.

Конкретные кейсы: Пользователи из Reddit сообщают о плохой доступности (особенно для инвалидов-колясочников), несмотря на незначительные улучшения:

"unfortunately, wheelchair accessibility is terrible in Uzbekistan";

и "accessibility... seemed almost exclusively to be at 45 degree angles" — что даже с чемоданом сложно, не то что с инвалидной коляской.

Проблемы регистрации и аутентификации: за пределами Узбекистана пользователи сталкиваются с проблемой отсутствия SIM-карты на местном номере — часто подтверждение приходит на номер чужого человека, создавая неудобства.

Итоговая таблица

Аспект	**Состояние / достижения**	**Вызывающие проблемы**
Портал my.gov.uz	Более 700 услуг, мобильное приложение, цифровая идентификация	Регистрация за рубежом, сложная аутентификация
Цифровизация	Большие реформы, "очень высокий" индекс EGDI, GovTech-рост	Инфраструктура в отдалённых районах, сложное управление
Инклюзивность	Опросы, проекты Digital Inclusion и IT-центры	Плохая физическая доступность, низкий уровень соответствия WCAG, digital divide

II. ГОЛОСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ДОСТУПНОСТИ

Роль голосового управления и аудиовзаимодействия

Улучшение доступности:

Голосовые технологии позволяют людям с ограничениями зрения, моторики и когнитивными трудностями легче взаимодействовать с цифровыми сервисами. Голосовое управление даёт альтернативу традиционным способам ввода (клавиатура, мышь, сенсорный экран).

Инклюзивность:

Аудиовзаимодействие помогает гражданам, которые не умеют читать или писать, а также пожилым людям, испытывающим трудности с техникой, получать госуслуги без посредников.

Повышение удобства и скорости Голосовые помощники ускоряют поиск информации и выполнение задач — например, запись на приём, оплата штрафов, запрос статуса заявки.

Автоматизация и поддержка 24/7 Голосовые боты и помощники (IVR, чат-боты с голосовым интерфейсом) позволяют круглосуточно консультировать пользователей, снижая нагрузку на операторов.

Адаптация к локальным языкам и диалектам Важно, чтобы голосовые системы поддерживали узбекский язык и его диалекты для максимально комфортного взаимодействия.

Примеры использования в других странах (коротко)

США-В государственных порталах применяются голосовые помощники, которые помогают заполнить формы, получить консультации по налогам и социальным программам (например, интеграция с Alexa Skills, Google Assistant).

Эстония-Голосовое взаимодействие в e-правительстве помогает гражданам с ограничениями здоровья обращаться за документами и услугами, а также подтверждать личность с помощью голосовой биометрии.

Индия-Сервисы с голосовым вводом позволяют людям в сельской местности с низкой грамотностью получать информацию о государственных программах и подать заявки через мобильные телефоны.

Южная Корея-Использует голосовые ассистенты для записи на приём в госучреждения, получения консультаций по услугам, интегрируя AI-переводчики для многоязычных пользователей.

III. ПРЕОБРАЗОВАНИЕ АУДИОСИГНАЛА В МЕЛ-СПЕКТРОГРАММУ

Определение и принцип работы

Мел-спектрограмма — это визуальное представление спектра частот аудиосигнала, где частоты масштабируются по мел-шкале, более приближенной к восприятию человеком звука.

Задача — преобразовать временной аудиосигнал (волновую форму) в частотно-временное представление, чтобы выделить характеристики, важные для обработки речи.

Принцип работы:

Аудиосигнал разбивается на короткие временные окна (фреймы).

Для каждого фрейма вычисляется спектр частот.

Частоты преобразуются в мел-шкалу с помощью набора мел-фильтров.

Амплитуды спектра логарифмируются для усиления воспринимаемых различий.

Алгоритмы: STFT, мел-фильтры, логарифмирование

STFT (Short-Time Fourier Transform, коротковременное преобразование Фурье). Разбивает сигнал на короткие окна, внутри которых сигнал считается стационарным. Для каждого окна вычисляется спектр частот (модули комплексных значений), отражающий энергетическое распределение частот.

Мел-фильтры. Представляют собой набор треугольных фильтров, равномерно распределённых по мел-шкале частот.

Эти фильтры суммируют энергию в определённых диапазонах частот, подстраиваясь под восприятие человека (например, в низких частотах разрешение выше, чем в высоких).

Логарифмирование. Применяется к полученным энергиям мел-фильтров для имитации нелинейной чувствительности человеческого слуха. Помогает уменьшить влияние больших амплитуд и выделить более мелкие детали.

Зачем нужна мел-спектрограмма в распознавании речи-Мел-спектрограмма выделяет основные звуковые признаки речи, которые соответствуют физиологическому восприятию человеком, что облегчает машинное обучение. Она уменьшает размерность и шумы, делая данные более удобными для алгоритмов распознавания *(например, нейросетей). Частотные особенности речи (форманты, тональность) хорошо отражаются в мел-спектрограмме. Используется как вход для моделей распознавания речи (например, CNN, RNN, трансформеров), повышая точность и устойчивость системы.*

IV. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИОТЕХНОЛОГИЙ В E-GOVERNMENT УЗБЕКИСТАНА

Голосовые помощники на основе узбекского языка

В Узбекистане ведётся активная разработка и внедрение голосовых ассистентов, способных понимать и отвечать на узбекском языке, что крайне важно для повышения доступности госуслуг. Пример: голосовой помощник «Мухлиса», интегрированный в портал my.gov.uz, помогает пользователям ориентироваться в сервисах, искать нужные услуги и получать консультации.

Технологии поддерживают распознавание естественной речи и синтез голоса (TTS), адаптированные под фонетику и интонации узбекского языка.

Это снижает барьеры для пожилых людей и тех, кто испытывает сложности с письменной формой коммуникации.

Контакт-центры госуслуг: анализ звонков.

Голосовые технологии позволяют автоматизировать обработку входящих звонков в контакт-центры госуслуг. Системы автоматического распознавания речи (ASR) транскрибируют звонки для последующего анализа, выявления частых проблем, оценки качества обслуживания. Применяется Sentiment Analysis для мониторинга настроения и удовлетворённости клиентов. Аналитика помогает оптимизировать работу операторов, выявлять узкие места и улучшать пользовательский опыт. В перспективе возможно внедрение голосовых чат-ботов для первичной обработки запросов и консультаций без участия человека.

Биометрическая верификация по голосу.

Биометрия голоса используется для повышения безопасности доступа к госуслугам и подтверждения личности. Система Voiceprint анализирует уникальные характеристики голоса (тембр, темп, интонацию) для аутентификации пользователей.

В Узбекистане разрабатываются пилотные проекты по внедрению голосовой биометрии в мобильных приложениях и колл-центрах. Это позволяет снизить риски мошенничества и упростить процедуру входа без паролей и СМС.

Поддержка для людей с ограниченными возможностями

Аудиотехнологии обеспечивают альтернативные каналы доступа к госуслугам для людей с нарушениями зрения, моторики и речи. Использование голосовых интерфейсов позволяет им самостоятельно обращаться за помощью, заполнять формы, получать консультации.

Разрабатываются адаптивные решения, учитывающие индивидуальные потребности: управление голосом без касания экрана, голосовой синтез с высокой чёткостью. Внедрение таких технологий соответствует международным стандартам цифровой инклюзивности (например, WCAG) и поддерживается инициативами Digital Uzbekistan.

V. ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Разработка национальных речевых моделей (на узбекском и русском языках)

Создание качественных языковых корпусов Необходимо собрать и аннотировать большие объемы аудиоданных на узбекском и русском языках с учётом диалектов, акцентов и разнообразия речи.

Обучение современных моделей ASR и TTS Использование нейросетевых архитектур (например,

трансформеров) для разработки систем распознавания речи и синтеза голоса, адаптированных под особенности локальных языков.

Поддержка многоязычности и переключения языков. Важна возможность плавного перехода между узбекским и русским языками в одном диалоге для удобства пользователей. Регулярное обновление моделей. Модели должны эволюционировать вместе с языком и изменениями в речевой среде, включая новые термины и сленг.

Интеграция с существующими платформами

Связь с порталом my.gov.uz и другими госсервисами: Голосовые технологии должны быть бесшовно интегрированы с действующими цифровыми платформами, чтобы расширить доступность и удобство. API и модульная архитектура. Разработка открытых интерфейсов для лёгкого подключения голосовых сервисов к контакт-центрам, мобильным приложениям и чат-ботам. Обеспечение безопасности и конфиденциальности При интеграции важно соблюдать стандарты защиты персональных данных и предотвращать мошенничество.

Масштабируемость: Системы должны выдерживать рост числа пользователей без потери качества и скорости работы.

Партнёрства с вузами и AI-центрами.

Научно-исследовательская поддержка – совместные проекты с университетами и исследовательскими центрами позволят ускорить разработку и тестирование речевых моделей.

Обучение специалистов-важно создавать образовательные программы и курсы по обработке речи и искусственному интеллекту, чтобы формировать квалифицированные кадры.

Обмен данными и опытом Партнёрства облегчат доступ к уникальным лингвистическим ресурсам и техническим решениям.

Разработка пилотных проектов и стартапов Совместные инициативы помогут внедрять инновационные технологии в реальных условиях и находить оптимальные решения для e-Government.

ВЫВОД

Применение аудиотехнологий в электронном правительстве Узбекистана открывает новые возможности для повышения доступности, удобства и эффективности государственных услуг. Голосовые помощники, биометрическая аутентификация, а также анализ аудиоданных в контакт-центрах позволяют сделать цифровые сервисы более инклюзивными и ориентированными на пользователя. Особенно важно развивать технологии на узбекском и русском языках, чтобы обеспечить охват всех слоёв населения.

Для успешного внедрения необходима координация усилий государства, научных учреждений и IT-компаний. Разработка национальных речевых моделей, интеграция голосовых интерфейсов с существующими платформами и поддержка инновационных проектов создадут основу для современного и человекоориентированного e-Government. Это, в свою очередь, ускорит цифровую трансформацию и укрепит доверие граждан к государственным структурам.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

[1] Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан. Официальный портал электронного правительства — https://www.egov.uz

[2] Единый портал интерактивных государственных услуг Республики Узбекистан (my.gov.uz) — https://www.my.gov.uz

[3] Кабинет Министров РУз. (2020). *Цифровой Узбекистан – 2030: Стратегия цифровой трансформации*. Ташкент.

[4] O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanish istiqbollari // *Xalq so'zi*, 2024.

[5] World Bank. (2022). *GovTech Maturity Index: The State of Public Sector Digital Transformation*.

[6] Jurayev, S., & Tashkulov, R. (2021). *Challenges and Opportunities of Digital Transformation in Public Sector: Case of Uzbekistan*. ResearchGate.

[7] Rabiner, L., & Juang, B.-H. (1993). *Fundamentals of Speech Recognition*. Prentice Hall.

[8] Huang, X., Baker, J., & Reddy, R. (2014). *A Historical Perspective of Speech Recognition*. Communications of the ACM, 57(1), 94–103.

[9] Davis, S., & Mermelstein, P. (1980). *Comparison of Parametric Representations for Monosyllabic Word Recognition in Continuously Spoken Sentences*. IEEE Transactions on Acoustics, Speech, and Signal Processing, 28(4), 357–366.

[10] Mozilla Common Voice Project — *Open-source speech datasets for underrepresented languages*

SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHDA IOT SENSOR TIZIMLARI ASOSIDA MONITORING

Raximberdiyev Sanjarbek Alisher o'g'li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi, o'qituvchisi,
Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: raximberdiyevsanjarbek@gmail.com

Ismoilova Maftuna Ilxom kizi
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi, o'qituvchisi,
Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: ismoilovamaftuna140@gmail.com

Annatatsiya: O'zbekiston sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish masalasi ko'rib chiqilgan hamda suv taqsimotida IoT (Internet of Things) texnologiyalarining qo'llanishi tahlil qilingan. Asosiy e'tibor suv omborlari va suv tarmoqlarida o'rnatilgan oqim, bosim va daraja sensorlari yordamida ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish va ularni markaziy tizimda qayta ishlash jarayonlariga qaratilgan. Tadqiqotda suv resurslarini hisobga olish va taqsimlashni optimallashtirish uchun matematik modellar ishlab chiqildi, sensorlardan kelgan ma'lumotlar asosida algoritmik boshqaruv mexanizmlari sinovdan o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, IoT asosidagi monitoring tizimlari suv isrofini 15–20% ga kamaytirishga, nosozliklarni tez aniqlashga va suv taqsimotining adolatli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Mazkur yondashuv "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va PQ–4666-son qarorida belgilangan suv xo'jaligini raqamlashtirish vazifalariga mos keladi. Taklif etilgan tizim nafaqat davlat organlari uchun, balki fermer xo'jaliklari va aholiga ham ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkonini yaratadi. Tizimning amaliy qo'llanilishi suv xo'jaligida samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va raqamli hukumat xizmatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar*: IoT, suv resurslari, monitoring, optimallashtirish, real vaqt tizimlari.*

1.Kirish

Suv resurslaridan oqilona foydalanish O'zbekiston uchun ham strategik masala hisoblanadi. Respublikamiz hududining katta qismi qurg'oqchil zonada joylashgan bo'lib, suv tanqisligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, O'zbekiston hukumati tomonidan bir qator davlat dasturlari va qarorlar qabul qilingan:

- 2021–2023 yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi,
- "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2020-yil 5-oktabr, PQ–6079-son qaror),
- Suv resurslarini boshqarish va ularni hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida qaror (2020-yil 10-aprel, PQ–4666-son),
- Suv xo'jaligi tarmog'ida raqamlashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Mazkur qarorlar suv xo'jaligi va davlat boshqaruvi jarayonlarini raqamlashtirish, IoT, Big Data va elektron hukumat yechimlarini keng joriy etishga qaratilgan. Shu bois suc resurslarni o'rganib chiqiladi. Suv resurslari turi va tavsifi, suv resurslaridan foydalanish darajasi. Suv resurslarining turi va tavsifi to'g'risida 1-jadvalda tanishishimiz mumkin.

1-jadval.

Suv resurslari turi va tavsifi.

Suv resurslari turi	Suv resurslari tavsifi
Yer usti suvlari	Daryo, ko'l, dengiz, suv omborlari
Yer osti suvlari	Qazilgan quduqlar, artezian suvlari
Sun'iy suv havzalari	Irrigatsiya tizmidagi suvlar, sanoatdagi qayta foydalaniladigan suvlar
Atmosfera suvlari	Yomg'ir, qor, tuman
Muzliklar	Tog' muzliklari, qutb muzliklari

Iot texnologiyalari bilan ma'lumotlarni to'plash va uzatishning avtomatlashtirilishi. IoT tizimlari yordamida suv resurslarining holatini kuzatishda qo'lda ma'lumot yig'ish va uzatishning o'rnini avtomatik tizimlar egallaydi. Har bir sensor o'z vaqtida va doimiy ravishda ma'lumotlarni markaziy tizimga uzatib turadi. Bu ma'lumotlar masofadan tahlil qilinib, tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Suv resurslarining holati haqida operatorlar yoki boshqaruv tizimlari tezda xabardor bo'ladi.

Xatoliklar va odatiy xatoliklar ehtimolini kamaytirish. IoT texnologiyalarining yana bir afzalligi

inson omilining kamaytirilishi. Avtomatik tizimlar yordamida odamlar tomonidan yuzaga keladigan xatoliklar va o‘lchovdagi noaniqliklar kamayadi va har bir sensorni tekshirish va sozlash uchun minimal aralashuv talab qilinadi, shuning uchun tizimdagi xatoliklar yoki noto‘g‘ri ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Xatoliklar va odatiy xatoliklar ehtimolini kamaytirish:

IoT texnologiyalarining yana bir afzalligi inson omilining kamaytirilishi. Avtomatik tizimlar yordamida odamlar tomonidan yuzaga keladigan xatoliklar va o‘lchovdagi noaniqliklar kamayadi. Har bir sensorni tekshirish va sozlash uchun minimal aralashuv talab qilinadi, shuning uchun tizimdagi xatoliklar yoki noto‘g‘ri ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati mavjud.

2.Tadqiqot metodlari

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1. Adabiyotlar tahlili – IoT texnologiyalari, suv resurslarini boshqarish va matematik modellashtirish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi.
2. IoT arxitekturasi loyihalash – suv taqsimoti tizimi uchun IoT sensorlari va ularning o‘zaro bog‘lanish sxemasi ishlab chiqildi. Asosiy sensorlar:
   - suv oqimi datchiklari,
   - suv darajasi o‘lchagichlari,
   - tuproq namligi sensorlari,
   - quvur bosimi datchiklari.
3. Ma’lumot yig‘ish va uzatish – sensorlardan kelgan ma’lumotlar simsiz aloqa (LoRaWAN, Wi-Fi yoki GSM) orqali markaziy serverga uzatildi.
4. Matematik modellashtirish – suv taqsimoti algoritmi ishlab chiqildi. Bu modelda quyidagi parametrlar hisobga olindi:

   - suv iste’molchilarning ehtiyoji,
   - mavjud zaxira,
   - suv sarfini minimallashtirish,
   - energetik samaradorlik.

Tizimni ishlab chiqishda Raqamli hukumat platformalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Jumladan, suv resurslari monitoring tizimini:

- Yagona davlat axborot tizimlariga,
- Elektron hukumat infratuzilmasiga,
- Davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) bilan uzviy bog‘lash imkoniyatlari loyihalandi.

Bu orqali suv sarfi haqidagi ma’lumotlarni nafaqat mutaxassislar, balki fermer xo‘jaliklari va aholiga ham ochiq ko‘rinishda taqdim etish mumkin bo‘ladi.

3.Natijalar

IoT sensorlari asosida ishlab chiqilgan monitoring tizimi tajriba maydonida sinovdan o‘tkazildi. Quyidagi natijalarga erishildi:

- Real vaqt monitoringi — suv sarfi va omborlardagi suv darajasi doimiy kuzatib borildi. Bu esa avvalgi qo‘lda o‘lchash usuliga qaraganda 3 baravar tezroq va aniqroq natija berdi.
- Suv sarfini kamaytirish — IoT tizimi yordamida suv isrofi 15–20% ga kamaytirildi.
- Algoritmik boshqaruv — suv taqsimoti algoritmlari orqali qishloq xo‘jaligi maydonlariga suv bir maromda va samarali taqsimlandi.
- Xatoliklarni aniqlash — sensorlar yordamida quvurlardagi nosozlik va suv sizib chiqishlari erta aniqlanib, tezkor choralar ko‘rildi.
- Amaliy qo‘llanish imkoniyati — ishlab chiqilgan tizim qishloq xo‘jaligi, shahar kommunal xizmatlari va gidrotexnika inshootlarida joriy etilishi mumkin.
- Suv taqsimoti va monitoring natijalari portali orqali jamoatchilikka taqdim etilishi ochiq ma’lumotlar (Open Data) mumkin. Bu esa raqamli hukumat tamoyillarini mustahkamlaydi.
- Tizim kelajakda elektron tijorat bilan ham bog‘lanishi mumkin, masalan, suv taqsimoti xizmatlari uchun to‘lovlarni onlayn amalga oshirish yoki resurslardan foydalanish bo‘yicha shaffof hisob-kitob mexanizmlarini yaratish orqali.

Muhokamaga ko‘ra, IoT asosidagi monitoring tizimlari suv resurslarini boshqarishda nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki suvni tejash, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi.

4. Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda PQ–4666-son qaror asosida suv xo‘jaligida raqamlashtirishni jadallashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu nuqtai nazardan, IoT texnologiyalarini suv resurslarini monitoring qilish va boshqarishda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. IoT sensor tizimlari asosida yaratilgan yechimlar:

- davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi,
- suv resurslari hisobini shaffof qiladi,
- raqamli hukumat tizimi bilan integratsiyani ta’minlaydi,

- elektron tijorat asosida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi,
- ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shadi.

Real vaqt rejimida ma’lumot yig‘ish va uzatish, prognozlash va avtomatik boshqaruv tizimlarining integratsiyasi orqali IoT texnologiyalari suv resurslarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Bu jarayon suvni tejash, nosozliklarni tezkor aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu tizimlarni keng joriy etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali O‘zbekiston suv xo‘jaligi siyosatida raqamli transformatsiyaning muhim qadami amalga oshiriladi. Shu bilan birga, IoT tizimlarining xavfsizligini ta’minlash, kiberhujumlarga qarshi chora-tadbirlarni mustahkamlash ham zarur. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik xavfsizlikni kafolatlashga ham imkon yaratadi.

Adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ–6079-son qarori “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ–4666-son qarori “Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
[3] Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2013). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. *Future Generation Computer Systems.*
[4] Ashton, K. (2009). That ‘Internet of Things’ Thing. *RFID Journal*.
[5] TATU, TIIAME va boshqa OTMlarning mahalliy ilmiy maqolalari va konferensiya materiallari.
[6] Vermesan, O., & Friess, P. (Eds.). (2014). *Internet of Things: From Research and Innovation to Market Deployment.* River Publishers.
[7] Zanella, A., Bui, N., Castellani, A., Vangelista, L., & Zorzi, M. (2014). Internet of Things for smart cities. *IEEE Internet of Things Journal*, 1(1), 22–32.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 87-son qarori “Suv xo‘jaligida hisob va monitoring tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”.
[9] Atzori, L., Iera, A., & Morabito, G. (2010). The Internet of Things: A survey. *Computer Networks*, 54(15), 2787–2805.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining ilmiy-texnik jurnallari va hisobotlari (2019–2023).

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA AHOLIGA DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shahnoza Nuraddinovna Raximova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi assistenti,
Toshkent, O‘zbekiston,

shaxnoza.rn@gmail.com

Annotatsiya **— Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2020–2025 yillar davomida elektron hukumat sohasida olib borilgan islohotlar, qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ko‘rsatkichlar va texnologik taraqqiyot hamda bu jarayonda sun’iy intellektning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt orqali davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirish jarayonlari o‘rganilgan va rivojlangan davlatlar (Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur) tajribasi tahlil qilinib, ularda mavjud interaktiv xizmatlarni O‘zbekiston sharoitida tadbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.**

Kalit so‘lar — Elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, interaktiv xizmatlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik, texnik omillar, iqtisodiy omillar, huquqiy tartibga solish, (e-gov), raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar.

I. Kirish

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida” va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda hamda 2015 yildan boshlab O‘zbekistonda raqamlashtirish, e-gov va sun’iy intellektni davlat boshqaruviga joriy etish strategiyalari shakllana boshlagan. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlari ko‘rsatish ko‘lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, bu borada barcha uchun teng sharoitlarni yaratish orqali inklyuziv muhitni shakllantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-113-son farmoni ijrosi yuzasidan O‘zbekistonda elektron hukumat (e-gov) sohasini rivojlantirishga oid amalga oshirilgan. Ushbu qarorlar natijasi o‘laroq mamlakatimizda elektron hukumat tizimini rivojlantirish jadal ravishda oldinlamoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- 2022-yil 1-avgustdan boshlab:

- Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo‘shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimi (keyingi o‘rinlarda — Mobil-ID tizimi) joriy etilib, Mobil-ID tizimi “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash bo‘yicha yagona axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va shaxsni uning mobil telefon raqami orqali identifikatsiyalashni nazarda tutishi belgilangan. Shaxsni Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyalash fuqaroning xohishiga ko‘ra davlat xizmatlari markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) yoki notarial idora tomonidan yoxud Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (keyingi o‘rinlarda — YIDXP) mobil ilovasi orqali amalga oshirilib, Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o‘tish uchun fuqaro tomonidan YIDXPning mobil ilovasidan foydalanilganda masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) usuli yoki ID-kartadagi elektron raqamli imzo qo‘llaniladi hamda mobil telefon raqami YIDXPdagi shaxsiy kabinetga bepul bog‘lanishi yo‘lga qo‘yilgan.

- Ushbu jarayon davlat xizmatlarini fuqarolarga samarali, shaffof va qulay yetkazish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan. Mazkur maqola hozirgi yillarda o‘zgarishlarning mazmunini o‘rganib, xalqaro tajriba bilan taqqoslab, amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu ishda ilmiy tadqiqot metodlari sifatida tahlil va sintez, induktiv-deduktiv yondashuvlar, tizimli tahlil va komparativ (taqqoslash) metodlari qo‘llanildi. O‘zbekistonda elektron hukumat (e-gov) sohasini rivojlantirishga oid turli ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va yetakchi olimlarning asarlari o‘rganilib, uning komponentlari va amaliy natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, statistik va empirik dalillarga

asoslangan yondashuv orqali mazkur sohadagi global tendensiyalar baholandi.

A. Adabiyot sharhi

Adabiyotlarda ko'rsatilishicha elektron hukumat (e-gov) sohasida sun'iy intellektning o'rni va undan samarali foydalanish bo'yicha juda ko'p olimlar ish olib borgan. Masalan, Janssen, M., Kuk, G., & Wagenaar, R. (2008) — SI texnologiyalarining davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va fuqarolar bilan muloqot jarayonini optimallashtirishdagi ahamiyatini tadqiq etgan. Ular elektron hukumatda "aqlli xizmatlar" konsepsiyasini ishlab chiqqan. Twizeyimana, J. D., & Andersson, A. (2019) — elektron hukumatning SI yordamida "ochiq, samarali va inklyuziv" bo'lishi uchun model taklif qilgan. Tadqiqotida ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, chatbotlar va intellektual qaror qabul qilish tizimlarining afzalliklari yoritilgan. Ya'ni, Janssen, Kuk va Wagenaar "aqlli xizmatlar" konsepsiyasini ilgari surib, SI yordamida xizmatlarni tezkor va sifatli taqdim etish yo'llarini o'rgangan; Twizeyimana va Andersson esa ochiqlik, samaradorlik va inklyuzivlikni ta'minlash uchun chatbotlar va avtomatik tahlil tizimlarining imkoniyatlarini tadqiq qilgan [8], [10]. Estevez va Janowski katta hajmdagi davlat ma'lumotlarini boshqarishda prognozlash modellari va resurslarni optimal taqsimlash usullarini ko'rsatgan, Rana va Dwivedi esa SI orqali korrupsiyani kamaytirish va ishonchni oshirish mexanizmlarini taklif etgan. Xalqaro miqyosda OECD hisobotlari Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasiga asoslanib, biometrik autentifikatsiya, proaktiv xizmatlar va foydalanuvchi markazida bo'lgan boshqaruv yondashuvlarini e-gov tizimining kelajagi sifatida taqdim etgan [9].

Bugungi kunda Elektron hukumat tizimi zamonaviy davlat boshqaruvida muhim o'rin egallaydi. Ushbu tizim davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish va fuqarolar uchun qulay muhit yaratish orqali iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda elektron hukumatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, bu borada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu maqolada biz aniq ko'rsatkichlar va xalqaro reytinglar asosida elektron hukumatning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilamiz. Xalqaro reytinglardagi o'sish sezilarli darajada ortgan. Ya'ni, O'zbekistonning elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rni yildan-yilga yaxshilanmoqda. 2024-yilda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) bo'yicha 63-o'rinni egalladi. Bu 2022-yilga nisbatan 6 pog'ona yuqoriladi [3], [7].

EGDI indeksi 0,7999 bo'lib, O'zbekistonni "Juda yuqori EGDI" guruhiga kiritdi. EGDI uchta asosiy komponentdan iborat bo'lib, O'zbekiston har bir ko'rsatkich bo'yicha ijobiy natijalarga erishdi:

Onlayn xizmatlar indeksi (OSI): 0,76

Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII): 0,87

Inson kapitali indeksi (HCI): 0,75

Bundan tashqari, O'zbekiston Elektron ishtirok etish indeksi (EPI) bo'yicha 0,60 ball to'pladi, bu fuqarolarning davlat boshqaruvida onlayn ishtirok etish darajasini ko'rsatadi. Elektron hukumatning iqtisodiyotga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda sezilarli bo'ldi:

Davlat xarajatlarini qisqartirish

Davlat xizmatlarini avtomatlashtirish natijasida qog'oz hujjatlar, pochta va boshqa vositalarga sarflanadigan xarajatlar kamaydi.

Davlat organlari samaradorligi oshdi, fuqarolar va tadbirkorlarning vaqti tejaldi [2] [6].

Shu qatorda bir qator davlat xizmatlari sun'iy intellekt yordamida takomillashtirildi hamda yo'lga qo'yildi, bular:

Litsenziya va ruxsatnomalarni onlayn berish jarayoni soddalashtirildi, bu tadbirkorlar uchun vaqt va mablag' tejalishiga olib keldi.

Biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonining avtomatlashtirilishi yangi biznes boshlashni ancha yengillashtirdi.

Davlat mablag'larini tejash amalga oshirildi. Onlayn soliq deklaratsiyasini topshirish tizimining joriy etilishi soliq to'lash jarayonini soddalashtirib, tushumlarning oshishiga yordam berdi.

"Yashirin iqtisodiyot" hajmining qisqarishi hisobiga davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'lar kirib kela boshladi. Yangi ish o'rinlarini yaratildi.

AKT sohasidagi rivojlanish natijasida yangi ish o'rinlari paydo bo'ldi. Elektron xizmatlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun mutaxassislar soni ortib bormoqda. Xususiy sektor ham AKT xizmatlariga bo'lgan talab ortishi tufayli yangi imkoniyatlardan foydalanmoqda [5], [9].

O'zbekistonda elektron hukumat (e-gov) sohasi samaradorligini oshirishda bir qator qiyinchiliklarni hamda tizimini yanada takomillashtirish yo'lida bir qator muammolar kuzatishimiz mumkin, bular (yechimlari bilan birga):

AKT infratuzilmasining yetarli (90%dan past ko'rsatkichda) darajada rivojlanmaganligi – ayrim (olis va chekka) hududlarda yuqori tezlikdagi internetga kirish imkoniyati biroz qiyinligi (olis va chekka hududlarda aloqani yaxshilash).

Kiberxavfsizlik muammolari – fuqarolar va korxonalarning ma'lumotlarini himoya qilish uchun zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy etish zarur [4], [6].

II. TADQIQOT NATIJASI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, https://my.gov.uz — O'zbekiston Respublikasining yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bo'lib, u fuqarolar, tadbirkorlar va tashkilotlarga davlat xizmatlarini onlayn ko'rinishda taqdim etish uchun yaratilgan. Portalning asosiy vazifasi — xizmatlarni olish jarayonini soddalashtirish, byurokratik bosqichlarni qisqartirish va davlat bilan muloqotni ochiq, tez va qulay qilishdir. Ushbu platforma 24/7 rejimda ishlaydi va foydalanuvchilar internetga ulana oladigan har qanday joydan unga kirishi mumkin. Bu esa fuqarolarga vaqt va mablag'ni tejash imkonini beradi.

1-jadval

Respublika miqyosida davlat xizmat raqamlashtirish bosqichlari

Yil	Statistika va natijalar
2015	20 dan ortiq xizmat avtomatlashtirildi.
2016	Portal orqali murojaatlar soni 100 mingdan oshdi.
2017	50+ interaktiv xizmat.
2018	5 mln ID-karta chiqarildi.
2019	Davlat xizmatlari shaffofligi oshdi.
2020	200 dan ortiq xizmat onlayn ko‘rinishga o‘tdi.
2021	15 mln foydalanuvchi.
2022	BMT e-Government indeksida 87-o‘rin.
2023	My.gov.uz orqali avtomatik javoblar soni oshdi.
2024	90% davlat xizmatlari raqamlashtirildi.

My.gov.uz orqali taqdim etilayotgan asosiy xizmatlar:

- har oy 2 mln dan ortiq murojaat
- 2023-yil oxirida foydalanuvchilar soni: 20 mln+
- 450+ xizmat avtomatlashtirilgan

O‘zbekistonda elektron hukumat (e-gov) sohasi TOP 3 davlat bilan solishtiadigan bo‘lsan quyidagi farqlarni ko‘rishimiz mumkin:

2-jadval

O‘zbekistonda elektron hukumat (e-gov) sohasi TOP 3 davlat bilan solishtirish jihatlari

Davlat	Xususiyatlar	O‘zbekiston bilan farqi
Estoniya	Har bir fuqaroga raqamli ID, AI bilan boshqariladigan sog‘liqni saqlash tizimi	To‘liq raqamlashtirilgan davlat
Janubiy Koreya	Sun’iy intellekt yordamida barcha davlat xizmatlari bir tizimda	AI yordamida real vaqtli xizmat ko‘rsatish
Singapur	Smart Nation strategiyasi, AI orqali fuqaro ehtiyojlari tahlili	Hukumat va fuqaro o‘rtasida AI vositachilik qiladi

Amalga oshiriladigan elektron hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlar har bir davlat organi va tashkiloti raqamli rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib belgilangan.

3-jadval

O‘zbekistonda tadbiq qilinishi mumkin bo‘lgan AI-loyihalarni tahlili

Loyiha nomi	Mazmuni	Kutilayotgan natija
AI-ID portal	Barcha xizmatlarga sun’iy intellekt asosida kirish	24/7 xizmat, inson aralashuvi kamayadi
AI-huquqshunos	Hujjatlarni avtomatik tekshirish	Notarial xizmatlar avtomatlashadi
Smart Murojaat	AI foydalanuvchining murojaatini tahlil qiladi va kerakli xizmatga yo‘naltiradi	Javob berish vaqti 3 baravar tezlashadi

Ularni amalga oshirish bosqichlari muntazam nazorat qilib boriladi va Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi muvofiqlashtiriladi. Bu borada “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2 mingdan ortiq loyihalar Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazining doimiy nazoratida.

III.Xulosa

YIDXM samaradorligini oshirish — bu faqat texnologiyani yangilash emas, balki tashkiliy islohotlar, kadrlar salohiyatini oshirish va aholi bilan samarali aloqa tizimini yo‘lga qo‘yishdir. Shu uchlik uyg‘un ishlaganda markazlar nafaqat xizmat ko‘rsatish punktlari, balki raqamli boshqaruvning tayanch nuqtalari sifatida ishlaydi. 2021–2025 yillar 760 dan ortiq davlat xizmatlari raqamlashtirilib, 10 million fuqaro ulardan foydalangan AI infratuzilmasi uchun 50 million AQSh dollar ajratilib, milliy AI modeli yaratish hamda 1 million mutaxassis tayyorlash rejalashtirilgan IT-Park tashkil etilib, digital texnologiyalar eksporti, Inklusivlik, IT ishchi kuchini tayyorlash kabi yo‘nalishlar rivojlandi va internet tezligi oshirildi, raqamli infratuzilma kengaytirildi. Shu bois, Estoniya misolida Bürokratt va Singapurdagi AI asosidagi xizmatlar singari, O‘zbekistonda “Davlat yordamchisi” nomli virtual yordamchi ishlab chiqilib, interaktiv xizmatlarni avtomatlashtirish mumkin.

Estoniya va Ukraina misolida raqamli ID (e-ID) tizimini joriy etish — xavfsiz autentifikatsiya, shaxsiy ma’lumotlarni nazorat qilishni kuchaytiradi. Britaniyada ham shunga o‘xshash tashabbuslar ko‘rib chiqilayotganini inobatga olsak, mamlakatimizda ham joriy qilish xavfsizlik nazoratini yanada kuchaytiradi.

Shu qatorda, O‘zbekiston 2015–2025 yillarda raqamli transformatsiya, e-gov va AI sohasida sezilarli yutuqlarga erishganini kuzatdik. Bular, 700+ xizmat onlayn, AI strategiyasi, IT-Park va infratuzilma kengayishidir. Global yetakchilar — Daniya, Estoniya, Singapur — interaktiv va AI asosli xizmatlarda ilg‘orlikda ularning amaliy tajribasidan quyidagilarni O‘zbekistonda joriy qilish maqsadga muvofiq:

Virtual AI yordamchi (chatbot / ovozli yordamchi)
Birdo‘st platforma orqali xizmatlarni integratsiya qilish
Proaktiv, hayot boshqichiga mos xizmatlar
Raqamli ID tizimi
Ochiq ma’lumotlar portali

Bu tashabbuslar davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, fuqarolarning ishonchini mustahkamlaydi va raqamli transformatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов, Ш.Э. Электрон ҳукумат тизимини ривожлантиришда ахборот технологияларининг ўрни // Тошкент ахборот технологиялари университети илмий хабарлари. – Тошкент, 2022. – №2. – Б. 45–52. – ISSN 2181-1234.
2. Бекмуродов, А.Р. Ўзбекистонда электрон ҳукумат тизимининг ривожланиш босқичлари // Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент, 2021. – №3. – Б. 78–85.
3. Ҳамидов, Ф.М., Тўхтаев, Ж.Х. Электрон давлат хизматлари ва уларнинг самарадорлигини баҳолаш усуллари // Ахборот технологиялари ва коммуникациялар соҳасида илмий-тадқиқот ишлари. – Тошкент, 2023. – №1. – Б. 33–40.
4. Қурбонов, Д.А. Давлат бошқарувида сунъий интеллект технологияларини жорий этиш истиқболлари // Инновацион ривожланиш илмий-амалий журнали. – Тошкент, 2024. – №4. – Б. 91–99. – DOI: 10.12345/irij.2024.4.12.
5. Саидов, М.С. Электрон ҳукумат тизимида рақамли идентификациянинг аҳамияти // Ахборот хавфсизлиги ва технологиялари. – Тошкент, 2023. – №2. – Б. 58–66.
6. Тошкент ахборот технологиялари университети. Sun’iy intellekt asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2023. – 156 b. – ISBN 978-9943-1234-5-6.
7. Ulritz Uzein T. Corcuera. Effectiveness of Renewable Energy Policies in Promoting Renewable Energy Development: The case of Feed-in-Tariff (FiT) and Renewable Portfolio Standard (RPS). — The Hague, The Netherlands, 2017.
8. Murshed M., Ahmed Z., Alam M.S., Mahmood H., Rehman A., Dagar V. Reinvigorating the role of clean energy transition for achieving a low-carbon economy: evidence from Bangladesh. — Environ. Sci. Pollut. Control Ser., 28 (2021), pp. 67689–67710.
9. Luo S., Chishti M.Z., Beata S., Xie P. Digital sparks for a greener future: unleashing the potential of information and communication technologies in green energy transition. — Renew. Energy, 221 (2024), Article 119754.
10. Любимова Н.Г., Петровский Е.С. Экономика и управление в энергетике: учебник для магистров. — М.: Издательство «Юрайт», 2017. — 485 с. — ISBN 978-5-9916-3319-2.

DIGITAL TRANSFORMATION AND COMMERCIAL OPPORTUNITIES IN THE EFFICIENT MANAGEMENT OF RESERVOIRS IN UZBEKISTAN

Saidov Abdusobirjon Abdurakhmonovich
The Department of Convergence of Digital Technologies, professor
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al Khwarezmi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: sobir59@mail.ru

Rakhimberdiev Sanjarbek Alisher ugli
The Department of Convergence of Digital Technologies, teacher
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al Khwarezmi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: raximberdiyevsanjarbek@gmail.com

Rakhimov Giyosbek Khudoyor ugli
The Department of Convergence of Digital Technologies, teacher
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al Khwarezmi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: giyosbekraximov12@gmail.com

Abstract. The article offers an in-depth examination of water resources and reservoirs in Uzbekistan, emphasizing their importance for sustainable water management in the region. It presents comprehensive data on the current state of these reservoirs, categorizing them by type and highlighting the primary challenges they face regarding water resource utilization. Key issues such as siltation, overgrowing, and reduced useful volumes are discussed in detail, alongside the implications of these problems for the efficiency of water use. The article further explores the methodologies employed to assess sediment distribution within the reservoirs and the techniques used to quantify sedimentation volumes. By understanding these dynamics, stakeholders can better address the pressing issues affecting water availability and reservoir functionality. In conclusion, the article suggests practical strategies and innovative solutions to mitigate these challenges, aiming to promote more rational use of water resources and enhance the long-term viability of Uzbekistan's reservoirs in the face of environmental change.

1. INTRODUCTION

Reservoirs are a vital part of the infrastructure of many countries, including Uzbekistan. This article examines the state of reservoirs in Uzbekistan and discusses prospects and possible solutions for effective water management [1]. As is known, many reservoirs have been built for the purpose of rational use and regulation of water resources. In recent ears, as a result of global climate change and periodic water shortages, certain problems have arisen in economic sectors. The Republic of Uzbekistan is located in the Aral Sea basin, its main sources of water are the Amu Darya, Syr Darya and Zarafshan rivers, as well as inland rivers, sais and groundwater. The average long-term annual water flow of all sources of the Aral Sea basin is 116.2 billion cubic meters, of which more than 67.4 percent is formed in the Amu Darya basin, less than 32.6 percent - in the Syr Darya basin. The total reserve of groundwater is 31.2 billion cubic meters, 47.2 percent of which falls in the Amu Darya basin, 52.8 percent - in the Syr Darya basin [2]. According to the schemes for the integrated use and protection of water resources in the Amu Darya and Syr Darya basins, the average long-term water intake limit for the Republic of Uzbekistan is 51 billion cubic meters, of which 10.2 billion (20%) is formed on the territory of the republic, 40.8 billion (80%) is formed on the territory of neighboring countries. [2]. The distribution of water resource use is as follows: agriculture – 90%, industry and energy – 5%, public utilities – 4%, fish farming – 1% [2]. The area of irrigated land in the republic is 4.3 million hectares, on average 90-91 percent of all water resources are used in agriculture. Natural water resources are distributed unevenly throughout the ear in our republic, and the rational use of water resources, the fight against floods and mudflows, and the development of industry and agriculture are of great importance. [3, 4]. Currently, reservoirs with a total volume of 19.93 billion m3 are used, including the total volume of reservoirs in the Syr Darya basin is 5.93 billion m3 , and the total volume of reservoirs in the Amu Darya basin is 14.0 billion m3 . [2, 4]. There are mainly two types of reservoirs: flood reservoirs and channel reservoirs [5].

The total depth of reservoirs belonging to the group of reservoirs located in mountainous areas is up to 200 m, and the greatest depth of reservoir emptying during the reservoir operation is up to 100 m. Even when such reservoirs are emptied less, the water level changes sharply, but the surface area of the water does not change significantly.Since the territory of our republic is geographically diverse, the reservoirs are also geographically different [6, 7]: reservoirs in mountainous areas, reservoirs in foothill areas, reservoirs on plains and in lowlands (Figure 1).

Fig. 1. Main reservoirs of the Republic of Uzbekistan.

Reservoirs belonging to the third group have a normal backwater level (NBL) above 1200 m. The accumulation of sediment in reservoirs located in mountainous areas is the main reason for the increase in the volume of river runoff during floods, which are usually caused by precipitation, as well as erosion. Examples of a group of reservoirs located in mountainous areas are Akhangaran, Charvak, Tupalang and Hisarak. [8, 9]. Rational use of the reservoir is associated with many factors [10, 11]. The main problems are: Lack of water resources. Uzbekistan faces an acute problem of water shortage, which seriously limits the possibilities of agriculture and daily water consumption by the population. Water shortage has a negative impact on the economy and social well-being of the country [12]; Uneven distribution of water. Many rivers flowing through the territory of Uzbekistan are of an international nature, which leads to difficulties in sharing water with neighboring countries. This problem requires careful international cooperation to find sustainable solutions; Water losses due to evaporation.

After the construction of a reservoir, an additional area covered by water is formed, therefore, additional water losses due to evaporation occur, since evaporation from the water surface is significantly higher than from the land surface. The larger the surface area of the reservoir, the higher the water losses due to evaporation. Due to the overgrowing of reservoirs, additional evaporation occurs; Siltation of the reservoir. Most of the existing large reservoirs in the territory of the Republic of Uzbekistan were built and commissioned in the 20th century. Over the years, under the influence of certain changes, natural and anthropogenic factors, reservoirs become silted up, which leads to changes in morphometric indicators and changes in the hydrobiological regime [13, 14]. The consequence of which is a decrease in the useful volume, an increase in water losses due to evaporation, filtration, etc., as well as a deterioration in the ecological state of the region.

The main reasons for the filling of the useful volume of reservoirs with sediments are as follows: the formation of reservoir banks under the influence of water, sediments brought by the flow of rivers, canals, sediments brought by the flow of mudflows. In the mountainous and hilly regions of our republic, the category of turbulent flows includes mudflows and floods caused by atmospheric precipitation. Therefore, with each observed mudflow, a large amount of sediment flows down and causes siltation of the useful volume of reservoirs.

A sharp decrease in the useful volume negatively affects the normal and reliable operation of reservoirs [15]. Siltation of a reservoir is a loss of water volume caused by an increase in the absolute mark of the bottom. The influx of suspended sediments into the catchment area, wind transfer of sand from land, sediments of chemical compounds, biomass of aquatic vegetation, wave coastal erosion and other factors lead to siltation of reservoirs. boundary - these are the reasons. Siltation of a reservoir is a complex process [13]. The main method recommended for combating siltation is flushing sediments with water discharged from the reservoir. However, the current situation with water resources does not allow these measures to be taken, since, due to a decrease in the water content of rivers, reservoirs are often not completely filled. It is common practice to leave the reservoir without water for the winter if there is no need for it. This is not done during the growing season and in the presence of higher aquatic vegetation (reeds, cane, etc.), growing over the area of the water area with a water depth of less than 1.5 m [16]. For each specific reservoir, methods for combating siltation are selected based on local conditions and on the basis of a technical and economic justification. The referenced literature outlines the process of siltation caused by sediments in water bodies across various terrains worldwide, highlighting the primary contributing factors. It includes calculations of the relationship between the speed of sediment layer transport (particularly bottom sediments) and water flow. Einstein formulated the relationship between the inflow of turbid sediment particles from the channel bottom and sediment consumption as follows. The most effective works for removal of deposited sediments are reservoir flushing: shallow, deep, with regulation of turbidity of flushing flow. The choice of flushing method is determined by technical and economic analysis, capabilities of the power system, requirements of water users and other local factors. However, they become insufficient and new approaches are required [17]. On the other hand, as studies of recent ears show, almost all reservoirs have lost their useful capacity due to siltation.

2. METHODS

As is known, the equation of water balance of a reservoir is written in general form:

$$\sum К - \sum Ч \pm А \pm Д = 0, \quad (1)$$

where: ∑ K - the amount of water entering the reservoir, ∑ Ч - amount of water leaving a reservoir, А - accumulation; Д – sediment.

At different stages of construction and operation of the reservoir, the interaction of individual elements of water exchange may differ. During the period of filling the reservoir with water, the elements of water exchange change more intensively due to the increase in its volume and surface area. During the operation of the reservoir, a fairly strong correlation is formed between the elements of the hydrological cycle, which is characteristic of different reservoirs [4]. It should be noted that during this period, the elements of the water balance change significantly. One of the factors affecting the useful volume of a reservoir is siltation. When the reservoir volume is filled with sediment, the technical characteristics of the reservoir deteriorate, large sedimentary silts enter irrigation canals and culverts, and the efficiency of reservoir management decreases. The above and other difficulties necessitate sedimentation forecasting, which negatively affects the technical condition and economic indicators of reservoirs [10, 18].

The results of scientific studies conducted in the field show that existing methods for assessing reservoir siltation do not always reflect the volume of siltation. Rational regulation of the amount of sediment in reservoirs holds significant practical and theoretical value. On the one hand, it enables more accurate digital modeling and forecasting of reservoir siltation volumes, which is crucial for sustainable water management. On the other hand, river sediments can be considered as a commercial resource: fine-grained particles rich in minerals may be repurposed as eco-friendly fertilizers or raw materials for industrial use. In the context of Uzbekistan, integrating modern digital technologies such as remote sensing, GIS, and big data analytics allows not only more precise calculation of sedimentation dynamics but also the identification of innovative business opportunities in the reuse of sediments. Building on the approaches in [13, 14], the calculation of sediment particle deposition in reservoirs can be expressed through the equation of change in the kinetic energy of turbidity, which serves as a scientific basis for applying digital tools to optimize reservoir management.

$$dE/dl = Fi - R\,, \tag{2}$$

then: Fi- gravity and Archimedes:

$$Fi = -(\rho_T - \rho)V_T n\, sin\alpha\,, \tag{3}$$

Rx – resistance force:

$$R_x = -\frac{1}{2} p V_t n \frac{dv^2}{dl}, \tag{4}$$

Then, let's put it (3) and (4) to (2):

$$\frac{dE}{dl} = -(\rho_T - \rho)V_t n \cdot sin\alpha + \frac{1}{2} p V_t n \frac{dv^2}{dl}, \tag{5}$$

here: n is the number of solid particles per unit volume; sin α is the flow angle; ρ_T ; ρ – Density of solid particulars and liquid respectively; V_T - size of solid particles; g - acceleration of gravity; ϑ – average flow rate. Kinetic energy of turbid flow:

$$E = \frac{2 p_t V_t v^2 n}{3}\,, \tag{6}$$

Substituting expression (6) into expression (5), we have:

$$\frac{dE}{dl} = -(\rho_T - \rho)V_T \frac{3}{2}\frac{E}{P_t V_t v^2} \cdot sin\alpha + \frac{3}{2}\rho V_T \frac{E}{P_t V_t v^2}\frac{dv^2}{dl} \tag{7}$$

Integrating the last expression and moving from the number of turbidity particles to the turbidity concentration, expression (7) is written as follows:

$$\frac{s_i}{s_0} = \left(\frac{\omega_i}{\omega_0}\right)^{n_1} \cdot exp\; t\, \frac{3 g_1}{p_T}\frac{p_i - p'}{Q^2}\int_0^L sin\, a\, w^2\, dl \tag{8}$$

Bearing in mind that the turbidity consumption:

$$P_i = S_i\,; \tag{9}$$

Volume of turbidity:

$$V_i = S \cdot t\,; \tag{10}$$

Considering the surface area of the flow in the section under consideration as a function of depth;

$$\omega_i = (H_i)\,, \tag{11}$$

substituting (11) and (10) into (8), we obtain the following expression:

$$Vi\frac{v_i}{V_{НПУ}^2} = K\left(\frac{H_i}{H_{H\cdot ПУ}}\right)^{n_1} \tag{12}$$

where: НПУ – depth corresponding to normal water level, VНПУ – reservoir volume corresponding to normal backwater level, к and n1 - coefficients are determined on the basis of in situ field studies. The derived formula (11) expresses the relative volume of turbidity in the reservoir as a function of the relative depth of water in the reservoir.

3. RESULTS

Effective use of the above formula (12) requires quantitative determination of n1 and k. Analytical determination of the sum of these coefficients is complicated by the variability of the reservoir volume. Therefore, the values of n1 and k are determined based on data obtained in field studies, for which data collected from several reservoirs are used [19, 20]. Analysis of field study data shows that the volume of sediment in

many reservoirs is 1.5-3 times higher than the design values. Comparison of the calculated values of reservoir volume reduction and data obtained as a result of observations carried out during the operation of reservoirs shows that the proposed method gives good results.

4. CONCLUSION

Reservoirs in Uzbekistan play a crucial role in ensuring the country's sustainable water supply and overall economic stability. However, challenges such as siltation, overgrowth, and increasing water shortages—exacerbated by climate change and declining precipitation—require innovative solutions. To address these issues effectively, it is essential to adopt digital technologies, including remote sensing, geographic information systems, and big data analytics, while also leveraging international best practices. The rational and efficient use of reservoirs through digital transformation not only strengthens water management but also creates new commercial opportunities, such as the utilization of sediments as valuable resources. This integrated approach will significantly enhance the long-term sustainability and economic value of Uzbekistan's reservoirs.

REFERENCES

1. S. Rakhmatullaev, F. Huneau, H. Celle-Jeanton, et al., Environmental Earth Sciences 68, 985-998 (2013) 2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the concept of development of water management of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030", Tashkent (2020)
3. A. M. Arifzhanov, I. A. Akhmedkhodjaeva, Vodnyye resursy (Water resources) (Tashkent, 2011)
4. L. Samiev, U. Vokhidova, E. Tursunova, et al., E3S Web of Conferences 508, 07006(2024)
5. I. A. Akhmedkhodjaeva, T. U. Appakhodjaeva, Z. I. Ibragimova, Prognoz poteri yomkosti ruslovykh vodokhranilishch sezonnogo regulirovaniya (Forecast of loss of capacity of channel reservoirs of seasonal regulation). Monograph (Tashkent 2019)
6. F. Gapparov, A. Khaidarov, Sh. Yakhshiev, et al., Проблематика исследования и потентсиал исследований в Узбекистане в контексте зарастания водокхранилищч и икх связ' с морфометрийей (Research issues and research potential in Uzbekistan in the context of reservoir overgrowth and their relationship with morphometry). International Journal of Agrobiotechnology and Veterinarymedicine 2(1) (2023) https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/8344
7. Regional information base of the water sector of Central Asia. «CAREWIB» Experience of combating siltation of reservoirs (The Scientific and Information Center of the ICWC Republic of Uzbekistan, Tashkent, 2011)http://cawaterinfo.net/library/rus/carewib/reservoir_sedimentation_review.pdf L. Samiev, S. Shaymardanov, S. Xoshimov, and O. Mamadiyorov, E3S Web of Conferences 452, 02019 (2023) DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345202019
9. A. Khaydarov, Central Asian Journal of Water Research 6(2), 89–105 (2020) DOI: 10.29258/CAJWR/2020-R1.v6-2/89-105.eng
10. D. Abduraimova, R. Rakhmonov, I. Akhmedov, et al., AIP Conference Proceedings 2432, 040001 (2022) DOI:10.1063/5.0089645
11. H. Biemans, I. Haddeland, P. Kabat, et al., Impact of reservoirs on river discharge and irrigation water supply during the 20th century. Water Resources Research 47(3) (2011)
12. G. L. Stephens, J. M. Slingo, E. Rignot, Proceedings of the Royal Society A 476(2236), 20190458 (2020)
13. A. Arifjanov, L. Samiev, Sh. Akmalov, Dependence of Fractional Structure of River Sediments on Chemical Composition. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering 9(1) (2019)
14. A. Arifjanov, F. Gapparov, T. Apakxujaeva, S. Xoshimov, IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 614(1), 012079 (2020) DOI:10.1088/1755- 1315/614/1/012079
15. Ľ. Jurík, M. Zeleňáková, T. Kaletová, A. Arifjanov, The Handbook of Environmental Chemistry 69, 115-131 (2019)
16. E. Kellner, Wiley Interdisciplinary Reviews: Water 8(3), e1514 (2021)
17. S. Rakhmatullaev, F. Huneau, P. Le Coustumer, et al., Water 2(2), 307-320 (2010)
18. P. J. Gierszewski, M. Habel, J. Szmańda, M. Luc, Science of the Total Environment Journal 710, 136202 (2020)
19. E. Kellner, Wiley Interdisciplinary Reviews: Water 8(3), e1514 (2021)
20. V. Vidović, G. Krajačić, N. Matak, et al., Renewable and Sustainable Energy Reviews 178, 113237 (2023)

ELEKTRON TIJORATDA TOVARNING BOJXONA QIYMATINI STATISTIK REGRESSIYA MODELLARI ORQALI ANIQLASH: CHIZIQLI VA PARABOLIK YONDASHUV

Saidov Abdusobirjon Abduraxmonovich
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: sobir59@mail.ru

Boqiyev Elmurod Raximaliyevich
Mustiaqi tadqiqotchi
Toshkent, O'zbekiston

To'xtasinov Adxamjon Ilxomjon o'g'li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: tadhamjon96@gmail.com

Annotatsiya: ***Ushbu maqola tashqi savdoni elektron tijorat vositalari yordamida tashkil etish va bu jarayonda tovarning bojxona qiymatini aniqlash masalasiga chiziqli va parabolik regressiya modellarini tatbiq etishga bag'ishlangan. Mazkur masalada xalqaro tajriba va ilmiy manbalar tahlil qilinib, tovar qiymati va bojxona to'lovlari o'rtasidagi bog'liqlik regression tahlil asosida modellashtirilgan va kelajakdagi bojxona to'lovlarini prognozlash uchun matematik asos yaratilgan. Maqolada real ma'lumotlar asosida regressiya koeffitsiyentlari hisoblash, model aniqligini baholash va natijalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat berilgan. Ishlab chiqilgan algoritmni amaliyotda qo'llash natijalari muhokama etilgan.***

Kalit so'zlar: ***bojxona nazorati, bojxona qiymati, chiziqli regressiya, parabolik regressiya, matematik va statistik modellash, bojxona to'lovlari, prognozlashtirish.***

I. KIRISH

Global savdo munosabatlarining jadal rivojlanishi va raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashib borayotgan sharoitida bojxona to'lovlarini aniq va samarali hisoblash tashqi iqtisodiy faoliyatning barqarorligi va davlat byudjetiga tushumlar kafolatining muhim omiliga aylanmoqda. Bojxona qiymatini aniqlash nafaqat to'lovlarni hisoblashning asosiy bo'g'ini, balki ichki bozorni himoya qilish, adolatli raqobatni ta'minlash va bojxona xavfi tahlilini avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda bojxona sohasida avtomatlashtirilgan tizimlar, matematik modellar va prognozlashtirish mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, mamlakatlar davlat byudjetini tahlil etish va prognozlashda statistik regressiya usullari keng qo'llanib kelinmoqda.

Shu bilan birgalikda, bugungi kundagi tahlillar xalqaro elektron tijoratning mislsiz suratlar bilan rivojlanayotganligi va dunyo savdosida o'zining mustahkam o'rnini egallayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, elektron tijoratda chakana savdo hajmi 2020-yilda 3932,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 2,1-martaga o'sgan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga borib, 6065,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Dunyodagi eng katta elektron chakana tijorat korxonalari – Amazon.com, Alibaba.com va eBay savdo maydonchalarida amalga oshirilib, 2019-yilda Amazon.com AQSHning elektron tijorat bozorining 50 foizini egalladi. Xitoyda 30% oziq-ovqat mahsuloti elektron tijorat orqali sotiladi, elektron tijoratning 80 % atrofidagi ulushi Alibaba.com orqali amalga oshirilmoqda [1].

Mamlakatimizda ham elektron tijoratni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu masalaga alohida qonun va hukumat qarorlari bag'ishlangan [2].

Mazkur obyektiv reallik tashqi elektron tijorat asosida harakatlanuvchi tovarlar ustidan samarali bojxona nazoratini o'rnatish va bojxona to'lovlarini to'g'ri, adolatli va to'liq undirilishini ta'minlash masalasini kun tartibiga tobora qat'iy qo'ymoqda. Bu esa mazkur tovarlarning bojxona qiymatni to'g'ri va qat'iy ravishda milliy qonunchilik normalari asosida aniqlashni talab etadi. Chunki davlat byudjetiga bojxona to'lovlari ko'rinishidagi tushumlar tashki savdo tovarlarining bojxona qiymatiga uzviy bog'liq ravishda aniqlanadi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada tashqi savdoni elektron tijorat vositalari yordamida tashkil etish

jarayonida tovarning bojxona qiymatini aniqlash masalasiga chiziqli va parabolik regressiya modellarini qo'llash hamda uning algoritmlarini amaliyotga tatbiq etish masalasi ko'rilgan.

II. ASOSIY QISM

Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda baholash va prognozlash modellarining solishtirma tahlili

Bojxona to'lovlari va tovarlarning bojxona qiymatni belgilash yuzasidan asosiy milliy qonunchilik normalari Bojxona kodeksi [3] va Soliq kodeksiga [4] asoslangan bo'lib, ularda bojxona to'lovlarining turlari, ularni hisoblash va to'lash tartibi belgilab berilgan.

Shuningdek, mazkur masalaga mas'ul xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari qabul qilingan bo'lib, unga Jahon Savdo Tashkilotining "Bojxona qiymati bo'yicha Baho berish kelishuvi" [5] hamda Jahon Bojxona Tashkilotining bojxona tartib-taomillarini standartlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan tavsiyalari [6] bojxona qiymatini aniqlashda asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi

Bojxona to'lovlari va tovarlarning bojxona qiymatni belgilash masalasi muhim ilmiy - amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish masalasi Braun va uning hamkasblari tomonidan tadqiq etilgan bo'lib unda elektron ma'lumotlar bazalarini joriy etish yaxshi samara berishi ta'kidlanadi [7].

Bojxona to'lovlarini hisoblash va prognozlashtirish uchun matematik modellar va ma'lumotlar bazasidan foydalanish masalasi Liu va Van tadqiqotlarida o'z aksini topgan [8]. Bojxona to'lovlarini hisoblashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish tashqi savdoni rag'batlantirish va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishi Smit va Jonson tadqiqotlarida tahlil etilgan[9]. Bojxona to'lovlarini prognozlash va tashqi savdoni rejalashtirishda statistik usullarni qo'llash Kim va Li maqolasida asosiy o'rinni egallaydi. Unda chiziqli regressiya biznes subyektlariga kelajakdagi xarajatlarni taxmin qilish va moliyaviy rejalarni tuzishda yordam berishi isbotlangan [10].

Yuqorida keltirilgan tartib-tamoyillar hamda ilmiy tadqiqot natijalari turli holatlarda bojxona to'lovlarini prognozlash va tovarlarning bojxona qiymatni baholash imkoniyatini bersa-da, ushbu usullarning tatbiqini statistik regressiya modellari bilan boyitish hisoblash jarayonini aniqlash, tezlashtirish va avtomatlashtirish imkonini yaratadi.

Shu munosabat bilan quyida elektron tijoratda tovarning bojxona qiymatini baholashning quyidagi bir qator modellarni ko'rib chiqamiz:

1. Chiziqli regressiya (Linear Regression) tovarning kuzatuv hujjati (invoys) ma'lumotlari asosida qo'llaniladi. Bunda bojxona to'lovini hisoblash formulasi quyidagicha hisoblanadi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 x + \epsilon$$

Masalan: $\beta_0 = 500$, $\beta_1 = 0{,}25$, $x = 5\,000$ \$ bo'lsa,
$Y = 500 + 0.25 \cdot 5000 = 1\,750$ \$

Bu yerda:

- Y — bojxona to'lovlari (bashorat qilinadigan qiymat);
- x - tovar qiymati (mustaqil o'zgaruvchi);
- β_0 — to'lovning doimiy qismi (bojxona xarajatlari);
  - tovar qiymati $x = 0$ bo'lganda ham bojxona to'lovi mavjud bo'ladi, β_0 bojxona xizmatlari, hujjatlashtirish, minimal xarajatlarni aks ettiradi.
  - Real holatda $x = 0$ bo'lmasligi mumkin, lekin β_0 regressiya chizig'ining Y o'qi bilan kesish nuqtasi hisoblanadi.
- β_1 - tarif koeffitsiyenti (stavka);
  - Tovar qiymati (x) 1 birlikka (masalan: 1 USD) ortganda bojxona to'lovi qanchaga oshishini ko'rsatadi.
  - β_1 — bojxona to'lov stavkasiga teng yoki unga yaqin bo'lishi mumkin (masalan: $0.3 \rightarrow 30\%$).
- ϵ – epsilon xatolik.
  - regressiya modeli barcha ta'sir qiluvchi omillarni to'liq qamrab ololmasligi natijasida yuzaga keladigan farq

2. Parabolik regressiya (Polynomial Regression, d=2) tovarning kuzatuv hujjati (invoys) ma'lumotlari mavjud bo'lmagan va ma'lumotlar bazasida avval qayd etilgan aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar uchun qo'llaniladi. Bunda bojxona to'lovini hisoblash formulasi [11]:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 x + \beta_2 x^2 + \epsilon$$

Masalan: $\beta_0 = 500$, $\beta_1 = 0{,}25$, $\beta_2 = 0.00001$, $x = 5\,000$ \$ bo'lsa,
$Y = 500 + 0.25 \cdot 5000 + 0.00001 \cdot (5000)^2$
$= 500 + 1250 + 250 = 2\,000$ \$

3. Ko'p omilli regressiya (Multivariate Linear Regression) tovarning kuzatuv hujjati (invoys) ma'lumotlari mavjud bo'lmagan va ma'lumotlar bazasida avval qayd etilgan bir qator aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar uchun qo'llaniladi. Bunda bojxona to'lovini hisoblash formulasi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \cdots + \beta_n x_n + \epsilon$$

Bu yerda $x_1, x_2 \dots x_n$ tovarning vazni, hajmi, ishlab chiqarilgan mamlakati kabi kabi omillar.

Masalan: 1 ta tovarda bir nechta omillar hisobga olinganda ja'mi bojdxona to'lovlarining hisoblanishi 1-javdalda keltirilgan

1-javdal

Omil	**Simvol** (x_n)	**Qiymat**	**Koeffitsiyent** (β_n)	**Hissa**
Qiymat	x_1	*5 000 $*	*0.25*	*1 250*
Vazn	x_2	*20 kg*	*-10*	*-200*
Opreatsiyalar soni	x_3	*6 ta*	*-50*	*-300*
Doimiy xarajat	-	-	*500*	*500*
Jami to'lov: (Y)				**1 250 $**

4. Ridge va Lasso regressiya (regulyarizatsiyali modellar) tovar to'g'risida yetarli miqdordagi xarakteristikalar va korrellyatsiya mavjud bo'lgan holatlar qo'llaniladi.

Ridge Regression formulasi:

$$\hat{\beta} = argmin\{\|y - X\beta\|^2 + \tau\|\beta\|^2\}$$

- $\tau -$ regulyarizatsiya koeffitsiyenti;
- $\|\beta\|^2 -$ *barcha koeffitsiyentlarning kvadratining yig'indisi;*
- $\tau > 0$ *bo'lsa, model koeffitsiyentlarni kichiklashtirishga majbur qiladi.*

Lasso Regression formulasi:

$$\hat{\beta} = argmin\{\|y - X\beta\|^2 + \tau\|\beta\|_1\}$$

- $\|\beta\|_1 -$ *koeffitsiyentlarning absolyut qiymatlarining yig'indisi;*
-
- *Ayrim* β_i *lar 0 bo'lishi mumkin (omillarni model tashlab yuboradi).*

Masalan: yuqoridagi holatda faqat 1 ta omil $x = 5\ 000$ $ bo'lsa, regulyarizatsiyaning ta'siri juda kam bo'ladi, chunki:

- $\beta_1 = 0.25$ *kichik qiymat,*
- *Agar* τ *kichik bo'lsa (<0.001)*

$Y \approx 1\ 750$ $ $(\pm 1 - 2$ $ *fatq bo'lishi mumkin*$)$

5. Random Forest va Decision Tree Regressor (AI modellar) tovar to'g'risida yetarlicha katta ma'lumot bazasi (Big Data) mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan regressiya modellari uchun aniqlik koeffitsiyentini $\boldsymbol{R^2}$ deb belgilasak, u bojxona to'lovlarini prognoz qilishini ko'rsatuvchi statistik ko'rsatkichni ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi [12].

$$R^2 = 1 - \frac{\sum(y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum(y_i - \overline{y_i})^2}$$

- $y_i -$ *haqiqiy to'lov qiymatlari*
- $\hat{y}_i -$ *model prognozi*
- $\overline{y_i} -$ *o'rtacha to'lov qiymati*

Ushbu koeffitsiyent qiymatlari orqami modelning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\begin{cases} R^2 = 1, & ideal\ muvofiqlik - barcha\ ma'lumotlar\ to'g'ri \\ R^2 \geq 0.95, & yuqori\ ishonch - samarali\ prognoz \\ 0.7 \leq R^2 \leq 0.9, & o'rtacha - ishlatish\ mumkin, lekin\ ehtiyot\ bo'lish\ kerak \\ R^2 < 0.7, & ishonchsiz - model\ noto'g'ri\ yoki\ kam\ ma'lumot\ bor \end{cases}$$

Tashqi elektron tijorat tovalarining bojxona qiymatini aniqlashdagi 5 ta asosiy regressiya modelini taqqoslash jadvali 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Model tur	Aniqlik	Qiyinlik	Afzalligi
Chiziqli regressiya	●●●●○	●●○○○	Oddiy, tez, tushunish oson
Parabolik regressiya	●●●●○	●●●○○	Egri chiziqli regressiv munosabatlar uchun
Ko‘p omilli regressiya	●●●●●	●●●○○	Bir nechta omilga asoslangan modellashtirish
Ridge/Lasso	●●●●○	●●●●○	Regulyarizatsiya, korrelyatsiya muammosini hal qiladi
Random Forest	●●●●●	●●●●●	Mashina o‘rganish, insonsiz tahlil

Tashqi elektron tijorat tovalarining bojxona qiymatini aniqlashdagi 5 ta asosiy regressiya modelini vizual tarzda taqqoslash 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tashqi elektron tijorat tovalarining bojxona qiymatini aniqlashdagi 5 ta asosiy regressiya modellari grafigini taqqoslash

III. XULOSA

Elektron tijoratda tovarning bojxona qiymatini hamda bojxona to‘lovlari va kafolat summasini hisoblashning yuqorida keltirilgan usullari va algoritmlari bugungi kunda bojxona axborot tizimlari tarkibida amaliyotga joriy etilgan. Amaliyotga joriy etilgan axborot tizimlari tashqi elektron tijoratda savdoning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida o‘z samaradorligi ko‘rsatmoqda.

Avtomatlashtirilgan tizimlar, matematik modellar va chiziqli regressiyadan foydalanish hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi va prognozlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

[1] Cafarova D. F., Qarshiboyev X. Q. O‘zbekistonda elektron tijorat va uning muammolari tahlili // “Academic Research in Educational Sciyences” ilmiy jurnali. 2023, 6-son. 4-jild. 41-51 betlar.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida

elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 885-son qarori
[3] O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan. https://lex.uz/ru/docs/2876354
[4] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan. https://www.lex.uz/acts/4674902
[5] World Trade Organization. Agreement on Implementation of Article VII of the GATT 1994 (Customs Valuation Agreement). WTO, 1994. (*https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/20-val.pdf*)
[6] World Customs Organization. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention). WCO, 1999 (*https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv.aspx*)
[7] Liu, X., & Wang, Y. *Mathematical Modeling for Optimal Customs Duty Calculation*. // International Journal of Appliyed Mathematics, 2019, 8(1), pp.23-37.
[8] Smith, J., & Johnson, L. *Automation in Customs Procedures and Its Impact on International Trade*. // Journal of International Trade Studiyes, 2020, 15(2), pp.112-130.
[9] Brown, T., et al. *Enhancing Efficiyency in Customs Procedures through Automation*. // Global Trade Reviyew, 2021, 9(4), pp.78-95.
[10] Kim, S., & Lee, J. *Forecasting Customs Dutiyes Using Statistical Methods*. International // Journal of Trade and Commerce, 2020, 12(3), pp.65-80.
[11] Seber, G.A.F., & Wild, C.J. (2003) Nonlinear Regression, Springer Seriyes in Statistics. 2003, ISBN: 978-0-471-18394-2
[12] Montgomery, D.C., Peck, E.A., & Vining, G. GIntroduction to Linear Regression Analysis (5th Edition). 2021, ISBN: 978-1-118-37865-0

RAQAMLI HUKUMAT DOIRASIDA ONLAYN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Saidov Abdusobirjon Abduraxmonovich
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: sobir59@mail.ru

To'xtasinov Adxamjon Ilxomjon o'g'li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: tadhamjon96@gmail.com

Anotatsiya: **Mazkur maqolada raqamli hukumat (e-government) doirasida onlayn ta'limni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. So'nggi yillarda global raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa masofaviy ta'limning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirayotgani yoritib berilgan. Maqolada raqamli hukumat va onlayn ta'lim integratsiyasining asosiy yo'nalishlari – elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt asosida moslashtirilgan ta'lim, ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari – keng qamrovda tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Daniya, Estoniya) va BMTning EGDI ko'rsatkichlari misolida elektron hukumat hamda onlayn ta'limning o'zaro uyg'unlashuvi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston tajribasi va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar alohida tahlil qilinib, onlayn ta'limni rivojlantirishning asosiy omillari – texnologik infratuzilma, pedagog kadrlar salohiyati, raqamli kontent sifati, huquqiy baza va kiberxavfsizlik masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Yakunda, onlayn ta'limni rivojlantirish mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatli ta'limni ta'minlashning muhim sharti ekani ta'kidlangan.**

Kalit so'zlar: raqamli hukumat, onlayn ta'lim, elektron hukumat, masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt, EGDI, raqamli kontent, kiberxavfsizlik, Raqamli O'zbekiston – 2030.

I. Kirish

So'nggi yillarda global miqyosda yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari inson faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda[1]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlarini tashkil etish, boshqarish va monitoring qilishda tamoman yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi[2]. Raqamli hukumat (e-government) kontsepsiyasi esa nafaqat davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, balki ta'lim sohasida sifatli, ochiq va innovatsion xizmatlar ko'rsatish uchun ham strategik poydevor vazifasini o'taydi[3].

Elektron hukumat tizimining joriy etilishi davlat organlari, ta'lim muassasalari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tezkor, samarali va shaffof mexanizmlar asosida yo'lga qo'yish imkonini beradi[6]. Bunday sharoitda onlayn ta'lim raqamli hukumatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralib, bilim olish jarayonini barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi[1][2].

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat va raqamli ta'lim o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda raqamli iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda[3][6]. Masalan, Janubiy Koreya, Daniya, Estoniya kabi davlatlarda elektron hukumat infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan onlayn ta'lim tizimlari nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro darajada ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda[6][7]. Ushbu yondashuv ta'limning sifati, uzluksizligi va qulayligini ta'minlash bilan birga, inson kapitalini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va blokcheyn kabi ilg'or raqamli yechimlarning joriy etilishi esa o'quv jarayonlarini individuallashtirish, masofaviy ta'lim platformalarini takomillashtirish va ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi[5]. Shu jihatdan olganda, raqamli hukumat doirasida onlayn ta'limni rivojlantirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

II. Asosiy qism

A. Raqamli hukumat va onlayn ta'lim integratsiyasi

Raqamli hukumat tizimi davlat boshqaruvi, xizmat ko'rsatish va fuqarolar bilan o'zaro muloqot jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon ta'lim sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratib, onlayn ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Xususan, elektron hukumat va ta'lim tizimi integratsiyasi bilim olish jarayonini ochiq, shaffof, moslashuvchan va samarali mexanizmga aylantiradi. Ushbu integratsiyani quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1. **Onlayn platformalar va elektron resurslar yaratish.**
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan yagona ta'lim portallari, masalan, **Milliy ta'lim portali, elektron kutubxonalar va masofaviy o'quv platformalari** o'quvchilar, talabalar va pedagoglar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda[1][2]. Bu resurslar orqali turli yo'nalishlarda bepul yoki arzon

onlayn kurslar, elektron darsliklar va multimedia materiallaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, xalqaro miqyosda Coursera, EdX, Khan Academy kabi ochiq ta'lim platformalari bilan integratsiya ham milliy ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Masofaviy ta'lim tizimlari.**

COVID-19 pandemiyasi sharoitida butun dunyoda masofaviy ta'lim keng joriy qilindi va qisqa vaqt ichida ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi[2][3]. Bugungi kunda raqamli hukumat siyosati doirasida masofaviy ta'lim tizimlari mustahkamlanib, ulardan nafaqat favqulodda vaziyatlarda, balki doimiy ta'lim shakli sifatida foydalanish kengaymoqda. Masalan, ayrim oliy o'quv yurtlari darslarning ma'lum qismini onlayn shaklda tashkil etib, talabalar uchun qulaylik yaratmoqda.

3. **Sun'iy intellekt va moslashtirilgan ta'lim.**

Zamonaviy raqamli hukumat tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. AI asosidagi o'quv platformalari har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojini tahlil qilib, unga moslashtirilgan ta'lim kontentini taklif etadi[5]. Masalan, adaptiv test tizimlari va interaktiv simulyatorlar yordamida bilimlarni nazorat qilish samaradorligi oshmoqda. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. **Ochiq ma'lumotlar siyosati.**

Raqamli hukumat doirasida davlat organlari tomonidan taqdim etilayotgan ta'lim statistikasi, ilmiy ma'lumotlar va ochiq resurslar ta'lim tizimini tahlil qilish, sifat monitoringini olib borish va samarali qarorlar qabul qilishda muhim manba hisoblanadi. Ochiq ma'lumotlar nafaqat ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlaydi, balki mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va keng jamoatchilik uchun yangi ilmiy izlanishlar olib borish imkonini ham yaratadi[4][7].

Shunday qilib, raqamli hukumat va onlayn ta'lim integratsiyasi o'zaro uyg'unlashgan holda ta'lim tizimining samaradorligi, ochiqligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Bu integratsiya natijasida **"hayot davomida ta'lim olish" (lifelong learning)** konsepsiyasi amaliyotda kengroq tatbiq etilib, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratilmoqda.

B. Xalqaro tajriba va EGDI ko'rsatkichlari

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish va ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirish eng muhim vazifalardan bir hisoblanadi. So‘nggi yillarda global miqyosda ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib bormoqda. Natijada ta’lim tizimiga sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va mobil ilovalar keng joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar an’anaviy o‘qitish usullarini to‘ldiribgina qolmay, balki o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[1].

Shu innovatsion yondashuvlar orasida gamifikatsiya alohida o‘rin tutadi. Gamifikatsiya – bu ta’lim jarayoniga o‘yin mexanizmlari va elementlarini (ball, reyting, badge, darajalar, progress monitoring va boshqalar) tatbiq etish orqali talabalarni rag‘batlantirish va ularda raqobatbardoshlik ruhini kuchaytirish jarayonidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim sohasini raqamlashtirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. Shu asosda “Elektron universitet”, “Onlayn maktab” platformalari, masofaviy imtihon tizimlari va elektron kutubxonalar joriy qilinmoqda. Bu tashabbuslar ta’limning inklyuzivligi, samaradorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalardan foydalanilgan darslarda talabalar:

- bilimlarni 30% tezroq o‘zlashtiradi;
- mustaqil ishlash ko‘nikmalari 40% ga ortadi;
- darsga qatnashuv va motivatsiya an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi[2].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya elementlari integratsiya qilingan raqamli ta’lim platformalari (Duolingo, Kahoot, Coursera, Quizizz va boshqalar) talabalarda yuqori faollik, o‘zlashtirish darajasining oshishi va o‘quv jarayoniga ijobiy munosabat shakllanishiga yordam bermoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham bosqichma-bosqich ushbu yondashuvlarni joriy etmoqda, biroq hali ularning to‘laqonli samarasi keng miqyosda kuzatilgani yo‘q. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada gamifikatsiya elementlari va raqamli platformalardan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanish imkoniyatlari hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish zamonaviy o‘qitish metodologiyasining eng muhim yo‘nalishiga aylandi. Virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari va mobil ilovalar talabalar uchun o‘quv jarayonini qulaylashtiribgina qolmay, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantirmoqda. Shu bilan birga, raqamli vositalar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasini onlayn monitoring qilish, o‘z vaqtida tahlil etish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi[3].

Raqamlashtirish – bu obyektiv, muqarrar jarayon bo‘lib, uni to‘xtatib bo‘lmaydi. Muassasalarning raqamli transformatsiya jarayoni yangi axborot texnologiyalari rivojlanishi va ularning butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamlashtirish natijalari va uning komponentlarini (1-rasm) amaliyotda qo‘llash an’anaviy boshqaruv shakllariga qaraganda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarga o‘tish – bu kompyuterlar va bilimlarga asoslangan mutlaqo yangi turdagi jamiyat va iqtisodiyot barpo etish demakdir[4].



1-rasm. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi asosiy komponentlari.

Innovatsion yondashuvning mohiyati — **raqamli ta’lim ekotizimida gamifikatsiya elementlarini uyg‘unlashtirish**dir. Bu orqali:

- talabalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- raqobatbardoshlik muhitida bilim olish kuchayadi;
- mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- raqamli vositalar orqali ta’lim jarayoni shaffof va samarali bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyati bir qator innovatsion texnologiyalar uyg‘unligi bilan belgilanadi. Quyida ular ilmiy asosda yangicha yondashuvda bayon qilinadi:

1. Mobil ijtimoiy tarmoqlar. Mobil ijtimoiy tarmoqlar ta’lim jarayonida sosial konstruktivizm nazariyasiga mos ravishda interaktiv hamkorlikni rivojlantiradi. Ular talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida tezkor kommunikatsiya, bilim almashinuvi va virtual jamoalar tashkil etish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar (OECD, 2022) shuni ko‘rsatadiki, mobil ijtimoiy platformalardan foydalanish talabalar motivatsiyasini 30–40% ga oshiradi.

2. Sun’iy intellekt texnologiyalari. Sun’iy intellekt (SI) ta’limni moslashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Adaptive Learning tizimlari yordamida SI talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilib, individual topshiriqlarni shakllantiradi. Ilmiy yangilik shundaki, SI asosida ta’lim jarayonini proaktiv boshqarish mumkin – ya’ni, talabani faqat nazorat qilish emas, balki uning kelajakdagi ehtiyojlarini ham oldindan prognoz qilish.

3. Bulutli texnologiyalar. Bulutli xizmatlar ta’limda resurslarni markazlashtirilgan holda saqlash, ulardan istalgan joy va vaqtda foydalanish imkonini beradi. Ilmiy jihatdan ular ta’lim jarayonining barqarorligi va inkluzivligini ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Masalan, Google Workspace for Education yoki Microsoft Azure kabi platformalar pandemiya sharoitida ta’lim jarayonini to‘xtamasdan davom ettirish imkonini berdi.

4. “Narsalar interneti” (IoT). IoT texnologiyalari ta’lim muassasalarida aqlli kampus konsepsiyasini shakllantiradi. IoT qurilmalari yordamida laboratoriya jihozlari, sinfxona uskunalari, xavfsizlik tizimlari birlashtirilib, talabalar uchun innovatsion muhit yaratiladi. Ilmiy yangilik shundaki, IoT asosida o‘quvchilar faoliyati monitoring qilinib, ta’lim jarayonining samaradorligi bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlar yig‘ilishi mumkin.

5. Sensor tarmoqlar. Sensor tarmoqlar ta’lim muhitida real vaqtli kuzatuv va o‘lchov imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, sog‘liqni saqlash, biologiya yoki muhandislik sohalaridagi laboratoriya mashg‘ulotlarida sensorlar yordamida to‘plangan ma’lumotlar o‘quv jarayoniga integratsiya qilinadi. Ilmiy yangilik shundaki, sensor tizimlari orqali ta’lim jarayoni nafaqat nazariy, balki eksperimental va empirik asosga ega bo‘lmoqda[4].

Gamifikatsiya ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirishning samarali usuli sifatida ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Masalan, J. Hamari va hamkorlari tomonidan olib borilgan meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlari qo‘llangan ta’lim jarayonida talabalar faolligi va darslarga qiziqishi 20–30% ortadi. Duolingo, Coursera, EdX, Kahoot va Quizizz kabi global platformalar gamifikatsiya mexanizmlarini qo‘llab, talabalarni o‘rganishga rag‘batlantirmoqda. Ta’limda gamifikatsiya bir qator vazifalarni hal etishda yordam beradi (2-rasm).



2-rasm. Ta’limda gamifikatsiyaning roli.

Ishtirok va motivatsiyani oshirish. Ballar, reytinglar va mukofotlar xodimlarni ta’lim dasturlarida faol ishtirok etishga va hamkasblari bilan raqobatlashishga undaydi. Maqsadlarga erishish esa o‘z-o‘zini baholash va ishonchni kuchaytiradi.

Ma’lumotni o‘zlashtirishni yengillashtirish. O‘yin topshiriqlari, kvestlar va simulyatsiyalar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi. O‘quvchilar ma’lumotni passiv emas, balki faol o‘zaro ta’sir orqali egallaydilar.

Qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘yinda passiv bo‘lib bo‘lmaydi — o‘quvchilar vaziyatni tahlil qilishlari, qaror qabul qilishlari va strategiyalar tuzishlari kerak bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlash va real sharoitlarda muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quv jarayonini tezlashtirish. O‘yin formatidagi ta’lim xodimlarga yangi bilim va ko‘nikmalarni an’anaviy metodlarga qaraganda tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu cheklangan vaqt va tez o‘zgarayotgan bozor sharoitida juda muhim.

Ta’lim jarayonida gamifikatsiyaning asosiy usullari ko‘rib chiqamiz. Gamifikatsiya ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvdir. 3-rasmda gamifikatsiya usullari keltirilgan.

3-rasm. Gamifikatsiya usullari.

Quyida ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan eng keng tarqalgan gamifikatsiya usullari va uslublari keltirilgan:

Kvestlar. Ta’limiy kvestlarda talabalar vazifalarni bajarishi va bir vaqtning o‘zida yangi mavzularni o‘rganishi yoki mavjud bilimlarini mustahkamlashi kerak bo‘ladi. Motivatsiyani oshirish uchun ishtirokchilarga ballar va mukofotlar beriladi. Kvestlar yordamida o‘qishni qiziqarli jarayonga aylantirish va talabalarning jalb qilinish darajasini oshirish mumkin.

Roli o‘yinlari. Bunday shakldagi gamifikatsiya nafaqat ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi, balki jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, talabalar haqiqiy ish sharoitiga yaqin vaziyatlarda o‘z ko‘nikmalarini sinab ko‘rishlari mumkin.

Reytinglar. Talabalar to‘plagan ballar soniga ko‘ra saralanadi. Platformalarda bu jarayon avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi mumkin. Metod talabalar natijalarini vizual tarzda taqqoslashga yordam beradi va birinchi o‘ringa chiqish uchun qancha ball kerakligini ko‘rsatadi. Reyting tizimi talabalarda sog‘lom raqobat uyg‘otadi, administratorlar va o‘qituvchilarga esa talabalar rivojlanishini qulay kuzatish imkonini beradi.

Yig‘ma ballar. An’anaviy baholarni ballar bilan almashtirish mumkin. Talabalar topshiriqlarni bajarish, munozaralarda qatnashish, testlardan muvaffaqiyatli o‘tish kabi faoliyatlari uchun ball to‘plashadi. Ushbu ballardan

reyting tuzishda foydalanish yoki ularni mukofotlarga almashtirish mumkin. Masalan, ta’lim platformasida “Mukofotlar do‘koni” bo‘lib, u yerga moddiy sovg‘alar yoki nomoddiy rag‘batlantirish turlari qo‘shilishi mumkin.

Darajalar. Kompyuter o‘yinlariga o‘xshash tarzda, talaba topshiriqlarni bajargan sayin yangi darajalarga ko‘tariladi. Har bir yangi daraja oldingisidan murakkabroq bo‘ladi.

Xulosa

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli xalqaro ta’lim platformalarida gamifikatsiya elementlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasi va jalb etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jumladan, Duolingo misolida, dastlab foydalanuvchi ushlanish (retention) darajasi atigi 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, gamifikatsiya mexanizmlarini (badge, darajalar, kundalik mashg‘ulotlar eslatmalari va boshqalar) joriy etish natijasida bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, foydalanuvchilarni rag‘batlantirish tizimlari tufayli referral darajasi 116 foizga ko‘tarilgan. Bugungi kunda Duolingo’da kunlik faol foydalanuvchilar soni 19 milliondan ortiqni tashkil etmoqda. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar va gamifikatsiya vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Raqamlashtirishning asosiy komponentlari – mobil ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, narsalar interneti va sensor tarmoqlar – ta’lim jarayonining interaktivligini, shaxsiylashtirilganligini va moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Gamifikatsiya esa bu jarayonni yanada kuchaytirib, talabalarni faol ishtirokchi sifatida ta’limga jalb etish, ularda raqobatbardoshlik, mustaqil o‘rganish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar (Duolingo, Coursera, EdX, Kahoot, Quizizz va boshqalar) shuni ko‘rsatmoqdaki, gamifikatsiya elementlari (ballar, reytinglar, darajalar, kvestlar, rol o‘yinlari, nishonlar) qo‘llangan ta’lim jarayonida talabalar motivatsiyasi 20–40% ga ortadi, o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda yaxshilanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ushbu yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu jarayonda gamifikatsiya elementlarini raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’limning samaradorligi, shaffofligi va inkluzivligi sezilarli darajada oshadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va gamifikatsiya vositalariga asoslangan innovatsion yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, kreativ va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

[1] Magomadov, V. S. (2020). *The application of artificial intelligence and Big Data analytics in personalized learning*. Journal of Physics: Conference Series, 1691(1), 012169

[2] Truszkowska A., Bak R., Nguyen T. Revolutionising distance learning: A comparative study of learning progress with AI-driven tutoring // *arXiv preprint*. – 2024.

[3] Hernández-de-Menéndez, M., Morales-Menendez, R., Escobar, C. A., & Ramírez-Mendoza, R. A. (2020). Trends in educational innovation based on Industry 4.0. *International Journal on Interactive Design and Manufacturing (IJIDeM), 14*(4), 1195–1211.

[4] Сайфуллаева Н.Б. Роль цифровых технологий в обучении компьютерным наукам // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 4(109).

[5] Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign.

[6] Fernández-Velásquez, J. D.R., López-Regalado, O., & Fernández-Hurtado, G. A. (2025). *Educational dualism in action: Systematic review of gamification and flipped classrooms’ effects on young learners*. Contemporary Educational Technology, 17(1), ep557.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YAGONA DAVLAT RAQAMLI PLATFORMASINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: rfxudoyberdiyev24@gmail.com

To‘xtasinov Adxamjon Ilxomjon o‘g‘li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: tadhamjon96@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston sharoitida yagona davlat raqamli platformasini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirishda mavjud texnologik, tashkiliy va huquqiy muammolar ko‘rib chiqilib, ularning yechimlari taklif etilgan. Xalqaro tajribadan o‘rinli foydalanish, zamonaviy texnologiyalar (sun’iy intellekt, blockchain, bulutli hisoblash, Big Data)ni joriy etish orqali yagona raqamli platforma samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, platformaning aholiga ko‘rsatadigan qulayliklari, davlat xizmatlari sifatini yaxshilashdagi roli va iqtisodiy samaralari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning “Raqamli hukumat” konsepsiyasini amalga oshirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yagona davlat raqamli platforma, raqamli hukumat, elektron davlat xizmatlari, O‘zbekiston, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, blockchain, Big Data, kibermuhofaza, xalqaro tajriba.

Kirish

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Global miqyosda “raqamli hukumat” (e-government) konsepsiyasi davlat xizmatlarini aholiga yanada tezkor, samarali va shaffof tarzda yetkazib berish, davlat boshqaruvi tizimida byurokratiyani kamaytirish hamda fuqarolar ishtirokini kuchaytirishni maqsad qiladi[1,2]. Bunday transformatsiya, bir tomondan, aholiga qulaylik yaratadi, ikkinchi tomondan esa davlatning ochiqligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar raqamli hukumat konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, ular davlat xizmatlarini yagona platformalar asosida integratsiya qilgan[3,4,5]. Natijada, mazkur davlatlarda aholining 90 foizdan ortiq qismini qamrab oluvchi elektron xizmatlar tizimi shakllangan va fuqarolar kundalik faoliyatida davlat organlariga murojaat qilishning aksariyatini onlayn shaklda amalga oshirish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, o‘z milliy modelini shakllantirish jarayonini boshlagan. 2020-yilda tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimizda davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va yagona davlat raqamli platformasini joriy etishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berdi[3]. Strategiyada elektron davlat xizmatlarining ulushini sezilarli darajada oshirish, davlat idoralari o‘rtasida ma’lumot almashuvini avtomatlashtirish, fuqarolarning yagona identifikatsiya tizimi orqali xizmatlardan foydalanishini soddalashtirish kabi masalalar asosiy vazifa qilib qo‘yilgan.

Mazkur dastur doirasida davlat xizmatlarini aholiga tez va sifatli ko‘rsatish, korrupsiya xavfini kamaytirish, shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish ko‘zda tutilgan. Shu bois, yagona davlat raqamli platformasini yaratish O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi[7].

Yagona davlat raqamli platformasi – bu davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi va integratsiyani ta’minlaydigan, fuqarolarga barcha elektron xizmatlarni

yagona nuqtadan taqdim etadigan axborot tizimidir[1,3]. Mazkur platformani samarali shakllantirish orqali aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar tezlashadi, davlat boshqaruvida shaffoflik ortadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Asosiy qism

Raqamli hukumat – bu davlat boshqaruvi jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni nazarda tutuvchi konsepsiya bo'lib, uning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini aholiga tezkor, qulay, shaffof va ishonchli tarzda yetkazib berishdir. Raqamli hukumatning markaziy elementi sifatida yagona davlat raqamli platformasi alohida o'rin tutadi. Ushbu platforma davlat boshqaruvi tizimidagi barcha axborot oqimlarini yagona standart asosida boshqarish va integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Yagona platforma quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- barcha davlat organlarining yagona axborot tizimi orqali ishlashini ta'minlash;
- fuqarolarga elektron shaklda, "bir darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko'rsatish;
- davlat idoralari o'rtasida ma'lumot almashuvini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish;
- xizmatlarning ochiqligini ta'minlash hamda korrupsiyaviy xavflarni qisqartirish.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, bir qator mamlakatlar ushbu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Quyida BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha reytingi keltirib o'tilgan.

Davlatlar reytingi	Davlat	EGDI ko'rsatkichi
1	Denmark	0.9847
2	Estonia	0.9727
3	Singapore	0.9691
4	Republic of Korea	0.9679
5	Iceland	0.9671
6	Saudi Arabia	0.9602
7	United Kingdom	0.9577
8	Australia	0.9577
9	Finland	0.9575
10	Netherlands	0.9538
63	Uzbekistan	0,7999

1-jadval. BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha reytingi

Estoniya – X-Road tizimi. Estoniya dunyoda raqamli hukumatning eng muvaffaqiyatli namunasi sifatida tan olingan. X-Road tizimi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi barcha axborot almashuvini yagona platforma asosida amalga oshiradi. Fuqarolar 99% davlat xizmatlarini masofadan turib, onlayn tarzda olish imkoniga ega. Shu orqali Estoniya iqtisodiyotida vaqt va mablag' tejalishi, shaffoflik darajasi esa keskin oshishi ta'minlandi.

Singapur – Smart Nation dasturi. Singapur hukumatining "Aqlli millat" (Smart Nation) dasturi davlat xizmatlari bilan bir qatorda shahar infratuzilmasini, transport tizimini va sog'liqni saqlash xizmatlarini ham raqamlashtirishni ko'zda tutadi. Yagona platforma yordamida nafaqat davlat xizmatlari, balki biznes va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar ham integratsiyalashgan holda boshqariladi. Natijada, Singapur aholisi real vaqt rejimida davlat xizmatlaridan foydalanib kelmoqda.

Janubiy Koreya – Digital Government modeli. Janubiy Koreya elektron hukumat indeksida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, uning raqamli hukumat modeli fuqarolar, davlat organlari va biznes sub'yektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Davlat xizmatlari mobil ilovalar, yagona portallar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali aholiga taqdim etiladi. Bu esa davlat boshqaruvida samaradorlik va ishonchlilikni oshirdi.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, yagona davlat raqamli platformasi nafaqat davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazadi, balki iqtisodiyotni rivojlantirish, aholiga qulay muhit yaratish va davlat boshqaruvining shaffofligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'zbekiston uchun ham ushbu davlatlar tajribasini o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli hukumat yo'nalishida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini yagona portal orqali taqdim etish, elektron raqamli imzo tizimini joriy qilish, ayrim davlat organlarining ichki axborot tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qator loyihalar yo'lga qo'yildi. Quyida O'zbekistonda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish statistikasi keltirilgan.

Foydalanuvchilar	11.6 mln
Jami xizmatlar	775
Ulardan mobil ilovada	565
Tashriflar	34 mln

CLIII. 2-JADVAL. PORTAL SAMARADORLIGI STATISTIKASI

Bounce rate (bir sahifalik tashriflar foizi)	8%
Sharhlar	420.1 ming
Qoniqish darajasi	84%
Shikoyatlar soni	308.2 ming

3-jadval. Foydalanuvchilar qoniqish darajasi

Biroq, yagona davlat raqamli platformasini shakllantirish jarayonida qator muammolar mavjud bo'lib, ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

Davlat organlari tizimlarining integratsiya qilinmaganligi. Har bir davlat idorasi o'zining alohida

axborot tizimidan foydalanadi, natijada ularning o‘zaro ma’lumot almashinuvi qiyinlashadi. Bu esa “yagona darcha” tamoyilini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Ma’lumotlar bazalarining fragmentatsiyasi. Aksariyat ma’lumotlar turli shakl va formatlarda saqlanadi, yagona standartlar mavjud emas. Bu esa ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda ortiqcha vaqt va resurs sarflanishiga olib keladi.

Hududlar bo‘yicha infratuzilmaning notekis rivojlanishi. Ayrim viloyat va tumanlarda internet tezligi pastligi, server xonalarining texnik imkoniyatlari cheklanganligi yagona platformaning barqaror ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Huquqiy muammolar. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Raqamli hukumat tizimlarida fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari katta hajmda to‘planadi. Ularni himoya qilish, ruxsatsiz foydalanishning oldini olish uchun xalqaro standartlarga mos kuchli qonunchilik talab qilinadi. Raqamli imzo va autentifikatsiya tizimlarining yetarli qo‘llanilmasligi. Amaliyotda raqamli imzo orqali hujjat aylanishi joriy qilingan bo‘lsa-da, uning qo‘llanish doirasi tor, ko‘plab xizmatlar hanuz qog‘oz shaklida amalga oshirilmoqda.

Tashkiliy muammolar. Davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi sustligi. Idoralar ko‘pincha o‘z ma’lumotlarini boshqa organlar bilan baham ko‘rishga tayyor emas, bu esa byurokratiya va takroriy hujjatlar talab qilinishiga sabab bo‘ladi.

Loyiha boshqaruvi va koordinatsiya mexanizmlarining zaifligi. Yagona platformani yaratish kabi yirik loyihalar samarali koordinatsiyani talab qiladi. Ammo ayrim hollarda idoralararo hamkorlik sust bo‘lib, vazifalarning takrorlanishi yoki to‘liq bajarilmasligi kuzatiladi.

Xavfsizlik muammolari. Davlat axborot tizimlariga kiberhujumlar xavfining yuqoriligi. Raqamli hukumat tizimlari global tarmoqlarga ulanganligi sababli ular doimiy ravishda xakerlik hujumlariga duch kelishi mumkin. Bu esa davlat axborot resurslari xavfsizligiga jiddiy tahdid tug‘diradi.

Shaxsiy ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishi xavfi. Fuqarolar haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlar noto‘g‘ri qo‘llar qo‘liga tushsa, bu ularning huquq va erkinliklariga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Yechimlar va rivojlantirish yo‘nalishlari. O‘zbekistonda yagona davlat raqamli platformasini shakllantirishda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Buning uchun nafaqat texnologik yangiliklarni joriy etish, balki huquqiy, tashkiliy va kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishida ham keng qamrovli ishlarni amalga oshirish zarur. Quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1. Davlat organlari tizimlarini yagona integratsiyalashgan platformaga birlashtirish

Davlat xizmatlarini “bir darcha” tamoyili asosida ko‘rsatish uchun barcha vazirlik va idoralarning mavjud axborot tizimlarini yagona standartlar asosida integratsiya qilish muhimdir. Bu orqali takroriy ma’lumot so‘rash bartaraf etilib, aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonlari tezlashadi. Shuningdek, idoralararo ma’lumot almashinuvi avtomatlashtiriladi.

2. Blockchain texnologiyasidan foydalanish

Blockchain texnologiyasi ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va ishonchliligini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyani davlat reyestrlari, kadastr tizimlari va elektron hujjat aylanishida qo‘llash orqali korrupsiya xavfi kamayadi, shaffoflik darajasi ortadi va ma’lumotlar ishonchliligi kafolatlanadi.

3. Sun’iy intellektni joriy etish

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini davlat xizmatlariga tatbiq qilish orqali fuqarolar murojaatlarini avtomatik qayta ishlash, xizmat ko‘rsatishda individual yondashuvni ta’minlash va xizmatlarning sifatini oshirish mumkin. Masalan, chat-botlar yordamida oddiy so‘rovlarni avtomatlashtirish yoki ma’lumotlarni tahlil qilish orqali davlat siyosatini optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

4. Big Data asosida tahliliy tizimlar yaratish

Yagona platforma katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash imkonini beradi. Big Data texnologiyalari asosida qaror qabul qilish jarayonlarini ilmiy asoslash, iqtisodiy prognozlar ishlab chiqish va aholining ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

5. Bulutli hisoblash texnologiyalarini keng qo‘llash

Bulutli infratuzilma axborot tizimlarining barqarorligini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi. Davlat organlari o‘rtasida bulutli xizmatlarni joriy etish orqali IT infratuzilmani optimallashtirish, server xarajatlarini kamaytirish va tizimlarning barqarorligini ta’minlash mumkin.

6. Yagona identifikatsiya tizimini takomillashtirish

Fuqarolar va tadbirkorlik sub’yektlari davlat xizmatlaridan foydalanishda yagona identifikatsiya tizimi orqali autentifikatsiyadan o‘tishi muhim. ID.gov.uz tizimini yanada takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va xususiy xizmatlar bilan integratsiya qilish aholiga qulayliklar yaratadi.

7. Davlat xizmatchilarining raqamli ko‘nikmalarini oshirish

Yagona platformaning samarali ishlashi faqat texnologik yechimlarga emas, balki kadrlarning salohiyatiga ham bog‘liq. Shu sababli davlat xizmatchilari uchun maxsus o‘quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan

treninglar tashkil etilishi zarur. Bu jarayon davlat sektorida raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yagona davlat raqamli platformasini shakllantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu platforma fuqarolar, tadbirkorlar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqib, davlat boshqaruvida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Natijada quyidagi ijobiy samaralarga erishish kutiladi:

Davlat xizmatlari tezligi va sifati oshadi. Yagona platforma orqali davlat xizmatlari to'liq elektron shaklda, onlayn tarzda ko'rsatiladi. Bu jarayon nafaqat xizmatlarni olish muddatini qisqartiradi, balki inson omilini kamaytirib, xizmatlarning sifatini ham yaxshilaydi. Fuqarolar istalgan hududdan davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fuqarolar uchun vaqt va mablag' tejaladi. Yagona platforma fuqarolarning turli idoralarga borib, hujjatlar yig'ish, navbat kutish kabi ortiqcha vaqt sarflanishining oldini oladi. Elektron xizmatlar transport xarajatlarini kamaytiradi va xizmatlardan foydalanishning qulayligini oshiradi. Shu orqali aholining davlatga bo'lgan ishonchi va qoniqishi ham ortadi.

Davlat boshqaruvida shaffoflik kuchayadi. Platforma orqali barcha ma'lumotlar elektron tarzda qayd etiladi va nazorat qilinadi. Bu esa davlat idoralari faoliyatida ochiqlikni ta'minlab, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha aniq statistika yuritishga imkon beradi. Natijada davlat boshqaruvida hisobdorlik kuchayadi va fuqarolar ishtiroki ortadi.

Korrupsiyaviy omillar kamayadi. Xizmat ko'rsatishda inson omilining kamayishi korrupsion risklarni sezilarli darajada qisqartiradi. Hujjatlarni avtomatik tarzda shakllantirish, ma'lumotlarni elektron tarzda tekshirish hamda jarayonlarning onlayn monitoringi davlat xizmatlarida adolat va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanishiga turtki beriladi. Yagona davlat raqamli platformasini joriy etish natijasida biznes uchun qulay sharoit yaratiladi. Tadbirkorlar hujjatlarni tezroq rasmiylashtirish, litsenziya va ruxsatnomalarni onlayn olish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa biznes muhitining jozibadorligini oshiradi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Shu bilan birga, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi ham ortadi.

Xulosa

O'zbekiston sharoitida yagona davlat raqamli platformasini shakllantirish davlat boshqaruvini zamonaviy bosqichga olib chiqadigan eng muhim islohotlardan biridir. Ushbu platforma orqali nafaqat davlat xizmatlarini tezkor, sifatli va shaffof tarzda ko'rsatish, balki fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'yektlari uchun qulay raqamli muhit yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur platformani samarali joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Davlat axborot tizimlarini integratsiyalashgan holda yagona standart asosida birlashtirish. Bu orqali idoralararo ma'lumot almashinuvi avtomatlashtiriladi, takroriy hujjatlar talab qilinishi kamayadi va fuqarolar uchun xizmat ko'rsatish tezlashadi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kibermuhofaza bo'yicha xalqaro standartlarga mos qonunchilikni kuchaytirish. Fuqarolarning raqamli ishonchini mustahkamlash uchun axborot xavfsizligini ta'minlash va maxfiy ma'lumotlarning tarqalishining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Blockchain, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish. Bu texnologiyalar xizmatlarning ishonchliligi va samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish asosida qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Xalqaro tajribadan faol foydalanish. Xususan, Estoniya (X-Road), Singapur (Smart Nation) va Janubiy Koreya (Digital Government) kabi ilg'or modellarning afzalliklarini o'rganib, milliy sharoitga moslashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini joriy etish. Raqamli hukumatning muvaffaqiyati bevosita inson resurslariga bog'liq bo'lib, davlat xizmatchilarining zamonaviy raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu tariqa, yagona davlat raqamli platformasini shakllantirish nafaqat davlat xizmatlari sifatini oshiradi, balki O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtirib, mamlakatning innovatsion rivojlanishida muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

[1] United Nations. *E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government*. New York: United Nations, 2022.

[2] OECD. *Digital Government Review of Latin America and the Caribbean: Building Inclusive and Responsive Public Services*. OECD Publishing, Paris, 2020.

[3] Ministry of Digital Development of the Republic of Uzbekistan. *Digital Uzbekistan – 2030 Strategy*. Tashkent: MDITUZ, 2020.

[4] Kalvet, Tarmo. *E-Government and Digital Platforms: The Case of Estonia's X-Road*. Government Information Quarterly, Vol. 38, Issue 4, 2021.

[5] Lee, Jongwoo. *South Korea's Digital Government Model: Lessons for Developing Countries*. Journal of Public Administration and Policy Research, Vol. 13(2), 2021.

[6] Chua, Beng Huat. *Smart Nation Singapore: Digital Transformation and Governance*. Springer, Singapore, 2020.

[7] Musayev, M.M., & Adilova, Z.T. *Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish masalalari*. Toshkent: TATU Ilmiy Nashriyoti, 2021.

TA’LIM TIZIMIDA ELEKTRON HUKUMAT, UNING O’RNI. TA’LIM SOHASIDA ELEKTRON BIZNES

Xurramova Ra’no Ibragimovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, Uzbekiston
xurramovarano871@gmail.com

Annotatsiya: Raqamlashtirishning muhim ko‘rinishlaridan biri bu elektron hukumat bo‘lib, u davlat, fuqarolar va biznes o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni elektron xizmatlar orqali samarali tashkil etishga qaratilgan tashkiliy, texnologik va huquqiy yechimlar majmuasidir. Elektron hukumat endilikda faqatgina davlat xizmatlarini qulay shaklda taqdim etuvchi platforma emas, balki demokratiya institutlarini rivojlantirish, davlat hokimiyati shaffofligini oshirish, fuqarolarning davlat tuzilmalariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning muhim vositasiga aylanib bormoqda.

Ta’lim tizimida elektron hukumatni ijro etilishi davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali ta’lim sohasida samaradorlik, shaffoflik va adolatni ta’minlash jarayoni hisoblanadi. Ta’lim sohasi elektron hukumatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunda zamonaviy ta’lim jarayoni davlat, ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar, talabalar va ota-onalar o‘rtasidagi keng qamrovli hamkorlikni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, **elektron hukumat, masofaviy ta’lim, raqamlashtirish**

I. KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim sohasini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llash jarayoni jadal sur’atlarda kechmoqda. Shu jihatdan elektron hukumat tizimi ta’lim jarayoniga ham faol joriy etilib, uning samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Elektron hukumat nafaqat davlat boshqaruvida, balki ta’lim tizimida ham shaffoflikni ta’minlash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, o‘quvchilarga hamda talabalar uchun qulaylik yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Elektron hukumat davlat boshqaruvi jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali avtomatlashtirish, fuqarolar, tashkilotlar hamda davlat organlari o‘rtasidagi aloqalarni samarali tashkil etish tizimi bo’lib hisoblanadi.

Elektron hukumatning o‘quv tizimidagi modeli davlat organlari, ta’lim muassasalari, talabalar/o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasidagi elektron aloqalarni o‘z ichiga oladi. Quyida G2E, G2S, E2S, E2P va E2E aloqalari batafsil yoritilgan.

Government → Education (G2E) - (Davlat → Ta’lim muassasalari) maqsadi ta’lim siyosatini raqamli boshqarish, nazorat va moliyalashtirishni shaffof qilishdan iborat bo’lib, uning foydali tomonlari byurokratiyaning kamayishi va resurslarning adolatli taqsimlanishidir. Government → Student (G2S) - (Davlat → Talaba/O‘quvchi) maqsadi esa davlat xizmatlarini bevosita talaba/o‘quvchiga yetkazish va onlayn qabul, grant arizalari, diplom/sertifikatni tekshirish, stipendiya va kreditlar kabi xizmatlardan foydalanishdir. Education → Student (E2S)- (Ta’lim muassasasi → Talaba/O‘quvchi) o’rtasidagi xizmatlarga LMS, baholash tizimi, elektron kutubxona, shaxsiy kabinetlar va uning maqsadi esa maqsadi esa o‘quv jarayonini to‘liq raqamlashtirishdan iboratdir.— Education → Parent (E2P)- (Ta’lim muassasasi → Ota-ona) – bu ota-ona ishtirokini kuchaytirish va mas’uliyatni oshirish, farzandining davomat va baholari, kontrakt/to‘lov holati, onlayn yig‘ilishlar. Bunda muammo erta aniqlanadi, maktab-oila hamkorligi kuchayadi.— Education ↔ Education (E2E)- (Muassasadan muassasaga) tizimlararo hamkorlik, ma’lumot almashinuvi va sifatni boshqarish maqsadida, akademik kreditlarni ko‘chirish, qo‘shma dasturlar, o‘quv rejalari almashinuvi xizmatlarini bajarishlar amalga oshiriladi [1].

Elektron hukumat modeli sxemasini quyidagi diagrammada davlat organlari, ta’lim muassasalari, talabalar/o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasidagi G2E, G2S, E2S, E2P va E2E aloqalari ko‘rsatilgan:



1-rasm. O’quv tizimida elektron hukumat modeli

Elektron hukumatning ta’limdagi o‘rnini quyidagilarda ko’rish mumkin. Axborotga ochiq va tezkor kirishda ta’lim muassasalari faoliyati, qabul jarayonlari, grantlar, imtihon natijalari va boshqa ma’lumotlar davlat portalida shaffof holda taqdim etiladi, o‘quvchilar va ota-onalar uchun zarur ma’lumotlarni onlayn olish imkoniyati yaratiladi. Masofaviy xizmatlardan foydalanishda hujjat topshirish, o‘qishga qabul qilish, stipendiya va grantlarga ariza berish jarayonlari elektron shaklda amalga oshiriladi, masofaviy ta’lim tizimlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va yagona platformalarda muvofiqlashtiriladi. Davlat va ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali hamkorlik (G2E, G2S)larga vazirlik va idoralar ta’lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish, hisobotlarni qabul qilish, litsenziya va akkreditatsiya jarayonlarini onlayn shaklda yuritadi**.** Talaba va ota-onalar bilan aloqalar (E2S, E2P) elektron kundalik va reyting

tizimlari orqali ota-onalar farzandining o'zlashtirish darajasini kuzatishi mumkin, talabalar davlat grantlari, kreditlari, turli ijtimoiy dasturlar haqida tezkor ma'lumot oladi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari bu elektron hukumat portallari orqali talabalarning shaxsiy ma'lumotlari, o'quv natijalari va malaka ko'nikmalari yagona elektron bazada yuritiladi. Shaffoflik va korrupsiyani kamaytirish tushunchasini yoritadigan bo'lsak qabul jarayonlari, stipendiya taqsimoti, imtihon natijalarini e'lon qilish kabi jarayonlar elektron shaklda yuritilishi orqali adolat va shaffoflikni ta'minlash mumkin [4].

Ta'lim sifatini oshirishda elektron hukumat ta'lim tizimini monitoring qilish, reytinglarni shakllantirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [2].

Elektron hukumatning eng asosiy afzalliklaridan biri bu shaffoflikdir. Ta'lim tizimida qabul jarayonlari, imtihon natijalari va grant taqsimoti elektron shaklda e'lon qilinadi. Bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar va turli adolatsizliklarning oldini oladi. Natijada har bir abituriyent yoki talaba o'z bilimiga yarasha natija olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Elektron hukumat orqali abituriyentlar va talabalar hujjat topshirish, kontrakt to'lovlarini amalga oshirish, stipendiyalar haqida ma'lumot olish kabi jarayonlarni uyidan chiqmagan holda bajarishi mumkin. Bu esa nafaqat vaqtni, balki mablag'ni ham tejash imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim tizimida hujjat yig'ish va turli tashkilotlarga borib kelish ko'p vaqtni oladi. Elektron hukumat esa bu jarayonlarni onlayn shaklga o'tkazib, byurokratik to'siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

COVID-19 pandemiyasi Yevropa bo'ylab masofaviy ta'limga o'tishni tezlashtirdi va raqamli ta'limning imkoniyatlari hamda kamchiliklarini namoyon qildi. Elektron hukumat infratuzilmasini (raqamli ID, o'zaro ishlaydigan ma'lumot tizimlari, milliy ta'lim platformalari va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari) samarali yo'lga qo'ygan mamlakatlar bu jarayonga ancha tez va sifatli moslasha oldilar. Ushbu maqola Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida siyosiy saboqlarni, texnik va pedagogik eng yaxshi amaliyotlarni tahlil qiladi hamda ta'lim sohasida elektron hukumatni joriy etishni istagan siyosatchilar va rahbarlar uchun amaliy yo'l xaritasini taklif etadi [3].

Elektron hukumat masofaviy ta'limni milliy miqyosda samarali va ishonchli tashkil etish uchun asosiy tayanch xizmatlarni taqdim etadi: xavfsiz autentifikatsiya, ma'lumot tizimlari o'rtasida hamkorlik, yagona ta'lim platformalari, raqamli ma'muriy xizmatlar (qabul, grant, sertifikatlash), shuningdek, vazirlik, maktab, o'qituvchi, ota-ona va o'quvchilar o'rtasidagi tezkor aloqa kanallaridir.

Samarali tizimning asosiy tarkibiy qismlariga:

I. Raqamli identifikatsiya va xavfsiz kirish
II. Milliy yoki o'zaro ishlaydigan ta'lim platformalari
III. Internet va qurilmalarga ishonchli kirish
IV. O'qituvchilarni tayyorlash
V. Ma'lumotlarni himoya qilish va inklyuziya

Masofaviy ta'lim faqat texnologiyaga emas, balki samarali pedagogikaga asoslanishi kerak: faol o'qitish, muntazam fikr-mulohaza berish, sinxron va asinxron darslarni uyg'unlashtirish. Baholashda esa loyihalar, portfellar va o'qituvchi tomonidan nazorat qilingan topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Elektron hukumat asosida masofaviy ta'lim quyidagilardan tashkil topadi:

Markaziy boshqaruv + yagona ta'lim portali + elektron identifikatsiya + o'qituvchilarni raqamli tayyorlash + shaffof baholash tizimi + inklyuziv ta'lim imkoniyatlari.

Natijada, ta'lim jarayoni samarali, shaffof, adolatli va barcha uchun teng imkoniyatli bo'ladi.



2-rasm. Elektron hukumat va masofaviy ta'lim modeli

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim sohasiga ham kirib bordi. An'anaviy o'quv jarayonlari asta-sekin elektron shakllarga o'tayotgani kabi, boshqaruv va xizmat ko'rsatish tizimida ham **elektron biznes (e-biznes)** tamoyillari keng qo'llanilmoqda. E-biznes ta'lim sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va barcha ishtirokchilar o'rtasida samarali aloqa o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. E-biznes vositalari orqali talabalar o'z uyidan chiqmagan holda kurslarga yozilishi, kontrakt to'lovlarini amalga oshirishi, elektron kutubxona va o'quv resurslaridan foydalanishi mumkin. Bu esa nafaqat vaqt va mablag'ni tejaydi, balki ta'limni yanada **moslashuvchan va hammabop** qiladi. Ayniqsa, chekka hududlardagi yoki imkoniyati cheklangan talabalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Ta'lim muassasalari e-biznes tizimlari yordamida o'quv jarayonini boshqarish, talabalar hujjatlari, moliyaviy

operatsiyalar va reytinglarni yuritishda tezkorlikka erishadi.

Shu bilan birgalikda E-biznesning eng muhim jihatlaridan biri — bu onlayn ta’lim platformalari (Coursera, Udemy, Khan Academy kabi) orqali bilim olish imkoniyatidir. Bu platformalar e-biznes modeli asosida ishlaydi: kurslar pullik yoki tekin taqdim etiladi, to‘lovlar onlayn amalga oshiriladi, talaba va o‘quvchilar esa sertifikat olish imkoniga ega bo’ladi va dunyo miqyosida bilim almashinuvi va hamkorlik rivojlanadi. E-biznes ta’lim muassasalari va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Talabalar onlayn loyihalar ustida ishlash, startaplar tashkil etish yoki yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. Bu esa ularni raqamli iqtisodiyot uchun raqobatbardosh mutaxassislar bo’lishga yordam beradi.

Ta’lim sohasida e-biznesning o‘rni tobora kuchayib bormoqda. U nafaqat ta’limga kirishni osonlashtiradi va samaradorlikni oshiradi, balki talabalarni zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda tayyorlaydi. Kelajakda ta’lim tizimi yanada elektron biznesga integratsiyalashgan holda rivojlanib, innovatsion va global raqamli makonda o‘z o‘rnini mustahkamlamoqda.

Ta’lim sohasi bilan elektron biznesni bir-biri bilan bog'liqliginiquyidagi ko'rinishda ko’rish mumkin:

1-jadval

Ta’lim sohasi	Elektron biznesdagi ko‘rinishi	Bog‘liqligi
Talabalarni qabul qilish	Onlayn ro‘yxatdan o‘tish tizimlari, elektron ariza topshirish	Talabalar uchun qulaylik, tezkor jarayon
To‘lov jarayonlari	Elektron to‘lov tizimlari (Payme, Click, karta orqali)	Moliyaviy jarayonlarning shaffofligi va tezligi
Dars materiallari	Onlayn kutubxonalar, elektron darsliklar, video darslar	O‘quv resurslariga istalgan joydan kirish imkoniyati
O‘qitish jarayoni	Virtual sinflar, MOOC platformalari (Coursera, Udemy)	Ta’limning moslashuvchanligi, global imkoniyatlar
Baholash va nazorat	Onlayn testlar, elektron reyting tizimlari	Shaffof va tezkor baholash jarayoni
Diplom va sertifikat berish	Elektron sertifikat, raqamli diplomlar	Hujjatlarning ishonchliligi va tezkor taqdim etilishi
Ota-onalar bilan aloqa	Elektron kundaliklar, onlayn monitoring tizimlari	Ota-onalar farzandi natijalarini kuzatib boradi
Ma’muriy boshqaruv	Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, CRM platformalari	Boshqaruvda samaradorlik va vaqtni tejash
Hamkorlik va hamjihatlik	Video konferensiya, onlayn forumlar, muloqot platformalari	Talaba, o‘qituvchi va muassasa o‘rtasida faol aloqa
Innovatsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish	Startap platformalari, onlayn loyiha boshqaruvi vositalari	Talabalar raqamli iqtisodiyot uchun tayyorlanadi

O‘quv tizimida elektron hukumat modeli davlat, ta’lim muassasalari, talabalar, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasidagi samarali raqamli hamkorlikni ta’minlaydi. Bu tizim ta’lim jarayonida shaffoflik, tezkorlik va qulaylikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Texnologiya bu vosita, ammo uni samarali boshqarish elektron hukumat orqali amalga oshiriladi. Yevropa tajribasi shuni ko‘rsatadiki, elektron ID, milliy platformalar, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish va ma’lumotlarni himoya qilishni uyg‘unlashtirgan davlatlar masofaviy ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etmoqda. Bu tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham universal model bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ta’lim sohasida e-biznesning o‘rni tobora kuchayib bormoqda. U nafaqat ta’limga kirishni osonlashtiradi va samaradorlikni oshiradi, balki talabalarni zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda tayyorlaydi. Kelajakda ta’lim tizimi yanada elektron biznesga integratsiyalashgan holda rivojlanib, innovatsion va global raqamli makonda o‘z o‘rnini mustahkamlamoqda.

Adabiyotlar

[1]. Якубов М.С. “Катта масштабли объектлар электрон ҳужжат айланиш тизимини тизимли таҳлили: системный анализ системы электронного документооборота крупных объектов.” *Молодой специалист*, no. 2, 2023, pp. 43–55.

[2]. Якубов М.С. “Таълим соҳасида электрон ҳужжат айланиш тизимини жорий этишнинг ўзига хос хусусиятлари: specific characteristics of the implementation of the electronic document circulation system in the field of education.” *Молодой специалист*, no. 2, 2023, pp. 45–53.

[3]. Якубов М.С. “Таълим тизимида электрон ҳужжат айланишини такомиллаштириш омиллари.” *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali*, vol. 3, 2023, pp. 145–149.

[4] Мельникова Т.С., Абубикерова Э.Ф. Электронное правительство: Учебно-методическое пособие /; Саратовский социально-экономический институт (филиал) РЭУ им. Г.В. Плеханова. - Саратов, 2018. - 73 с.

СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО В РЕГИОНАЛЬНОМ МАСШТАБЕ

М.С.Якубов

Аннотация: *рассматриваются вопросы развития электронного правительства в региональном масштабе, отмечается что, электронное правительство - социальный феномен, характеризующийся переносом посредством информационно-коммуникационных технологий внутригосударственных информационных потоков, информационных потоков между государством и его гражданами и информационных потоков между государством и негосударственными институтами в виртуальную информационную среду, развитие которого проходит четыре этапа: информационное присутствие, интерактивное взаимодействие, транзакционное взаимодействие, трансформация, при этом базовая модель управления становлением и развитием электронного правительства состоит из четырех этапов: построение ИКТ-инфраструктуры государства, реализация пилотных проектов, интеграция межведомственных информационных ресурсов на основе единых стандартов, трансформация и эволюция системы государственного управления на основе электронного правительства, также отмечается, для того чтобы эффективно реализовать электронное правительство в государственном масштабе, необходимо улучшить механизмы межуровневого взаимодействия властей с помощью следующих действий: модификация инфраструктуры управления электронным правительством на федеральном уровне, совершенствование механизмов межуровневого взаимодействия властей па основе ИКТ, масштабирование типовых технологических решений с учетом особенностей каждого региона, развитие регионального электронного правительства в тесной увязке с административной реформой и усилением роли муниципального уровня управления. Необходимо также синхронизировать процессы информатизации государства и общества.*

Ключевые слова: *частичная, слабая, автоматизация; стихийная, несистемная, интенсивная информатизация; управляемая, системная, трансформирующая информатизация.*

Интенсивное развитие информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и компьютерных сетей началось в 60-х годах XX века, причем при непосредственном участии государства. И несмотря на то, что традиции использования ИКТ, сложившиеся в государственном секторе, имеют наиболее давнюю историю, вплоть до середины 90-х годов XX века ИКТ приносили максимальную прибыль и успех коммерческому сектору, в первую очередь транснациональным ИТ-корпорациям: Microsoft, Intel, IBM. Однако в середине 90-х годов XX века в мире оформился ряд тенденций, позволивших утверждать, что дальнейшее развитие, усиление, выживание национальных государств возможно только при условии системного и всеохватывающего использования ИКТ.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy ishlar raqamli ta'lim infratuzilmasini joriy etishda texnologik standartlar va platformalarning muhimligini ta'kidlamoqda. Masalan, **Rogers va Alexander (2022)** tadqiqotida ta'kidlanishicha, elektron ta'lim kontentini boshqarish va almashinuvida **SCORM** standarti muhim rol o'ynab, turli **LMS** platformalari o'rtasida o'zaro moslilikni ta'minlab kelgan. Shu bilan birga, 21-asr raqamli ta'lim jarayonlarida o'quvchilarning o'zaro faoliyatini batafsil kuzatish uchun yangi standartlar, xususan **Experience API (xAPI)** joriy qilinmoqda – ushbu standart o'quvchining raqamli muhitdagi har bir harakatini qayd etish va tahlil qilish imkonini beradi hamda turli tizimlar o'rtasida o'quv ma'lumotlarining "silos" holatida qolib ketmasligini ta'minlaydi. Shu bois, mutaxassislar raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirishda **SCORM** va **xAPI** kabi standartlarni keng tatbiq etish zarur, deb hisoblashmoqda. Xorijiy tadqiqotlar shuningdek zamonaviy **LMS platformalari**ning ahamiyatini qayd etadi – masalan, Reyad R. Aljad (2023) o'z sharhida Moodle kabi LMS tizimlari dunyo bo'ylab eng mashhur va samarali platformalarga aylangani, ular masofaviy ta'limni qulay, moslashuvchan va individual yondashuvga asoslangan shaklga keltirganini ta'kidlaydi. Bunday platformalar va standartlar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan qilishga xizmat qilmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida ham so'nggi yillarda bir qator muhim ilmiy ishlar amalga oshirildi. Masalan, R. Suleymanova (2024) maqolasida "raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish" maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etiladi. Xuddi shunday, Z. Sharipova (2025) O'zbekiston misolida raqamli ta'limni joriy etishdagi bir qator muammolarni ta'kidlab o'tadi. U texnologik infratuzilmaning yetishmasligi va urbanizatsiya darajasi past bo'lgan hududlarda shahar va qishloq o'rtasidagi raqamli tafovutning mavjudligini alohida qayd etadi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog kadrlarning yangi texnologiyalarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq ekanligiga

alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, M. Fayzullayeva (2023) olib borgan so'rov natijalariga ko'ra, chekka hududlardagi maktablarda raqamli ta'lim resurslarini joriy etish orqali kutilgan ijobiy samaraga erishilganligi ta'kidlanadi. Uning fikricha, bu maktablarda raqamli platformalar va interaktiv o'quv materiallari joriy qilinishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli ta'lim ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida davlatning kuchli siyosiy irodasi va qo'llab-quvvatlashi mavjud. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida ta'limning barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Biroq, muvaffaqiyatning asosiy omili inson faktori, ya'ni o'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli innovatsiyalarni o'zlashtirish darajasi hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, Zou Y. va boshqalar (2025) raqamli ta'limga o'tish jarayonida ikki tomonlama yondashuv zarur. Bir tomondan, davlat infratuzilmani yangilashni davom ettirishi, zamonaviy platformalarni yaratishi va qo'llab-quvvatlashi lozim. Boshqa tomondan esa, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish, o'quv jarayoni uchun sifatli mahalliy raqamli kontentni yaratishga e'tibor qaratish hamda jamiyatda raqamli savodxonlikni oshirish talab etiladi.

CLXVII. TAHLIL VA NATIJALAR

A. *SCORM, xAPI, cmi5, LMS texnologiyalarining pedagogik ahamiyati*

Raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirishda standartlashtirilgan texnologik yechimlar muhim o'rin tutadi. Xususan, SCORM, xAPI, cmi5 kabi xalqaro elektron ta'lim standartlari hamda zamonaviy **LMS platformalari** ta'lim jarayonini boshqarish, kontent almashinuvi va ta'lim natijalarini kuzatishda asosiy ahamiyatga ega. Elektron ta'lim standartlari – bu o'quv kontentini yaratish va yetkazib berish, shuningdek, turli ta'lim platformalarining o'zaro ishlash qoidalarini belgilovchi umumiy me'yorlar to'plamidir. Bunday standartlarning joriy etilishi zamonaviy ta'limda bir qator ustunliklarni beradi:

- SCORM standarti o'quv kurslarini maxsus formatda paketlab, har qanday SCORM mos LMSda ishlashini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, o'quv kontentini bir platformadan boshqasiga bir necha bosqichda ko'chirishni osonlashtiradi. Masalan, agar maktab dastlab bitta platformada elektron kurs yaratib, keyinroq boshqa LMSga o'tishga qaror qilsa, **SCORM talablariga muvofiq tayyorlangan kursni yangi tizimga osongina import qilish mumkin**. Bu ta'lim resurslariga kiritilgan investitsiyalarni saqlab qoladi va platformaga qaramlik (vendor lock-in)ning oldini oladi. Shu bois, hozirgi kunda deyarli barcha yirik mualliflik tizimlari va LMSlar SCORMni qo'llab-quvvatlaydi.
- An'anaviy SCORM standarti kursning tugallanishi, baholari va sarflangan vaqt kabi asosiy ko'rsatkichlarnigina qayd etishga imkon bersa, uning zamonaviy davomi bo'lgan **xAPI esa ta'lim jarayonidagi deyarli barcha faoliyat haqida batafsil ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi**. xAPI standarti o'quvchi harakatlarini LRS maxsus ma'lumotlar bazalariga yuboriladigan "Noun, Verb, Object" (masalan, *"Talaba A -> bajardi -> 5-mashq"*) shaklidagi ketma ketlikda qayd etadi. Natijada pedagoglar va tizim administratorlari o'quvchilarning qaysi mashg'ulotlarda qiynalayotgani, qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirayotganini aniqroq kuzatib borishi va tahlil qilishi mumkin. Masalan, **xAPI yordamida nafaqat test natijalari, balki o'quvchi onlayn simulyatsiyada qancha vaqt faol bo'lgani yoki o'yinli ta'lim dasturida erishgan yutuqlari haqida ham ma'lumot olish mumkin**. Bu esa ta'lim jarayonini dalillarga asoslangan individuallashtirish uchun zamin yaratadi.
- cmi5 standarti aslida xAPI uchun maxsus profil bo'lib, u LMS va o'quv kontenti o'rtasidagi o'zaro aloqani tartibga soluvchi qo'shimcha format va qoidalarni belgilaydi. **cmi5 SCORMning kontentni ishga tushirish va boshqarishdagi yutuqlarini xAPIning moslashuvchan kuzatuv imkoniyatlari bilan birlashtiradi**. Boshqacha aytganda, cmi5 yordamida LMS interfeysi orqali xAPI faoliyatlarini "plug-and-play" usulida amalga oshirish, ya'ni har qanday kurs yoki mashg'ulotni LMSdan ishga tushirgan holda, uning natijalarini LRS ga xAPI ma'lumotlari orqali batafsil qayd etib borish imkoni paydo bo'ladi. Bu yechim kelajakda SCORM o'rnini bosuvchi universal standart sifatida ko'rilmoqda va u turli platformalararo to'liq o'zaro muvofiqlik hamda keng qamrovli tahliliy ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.
- Raqamli ta'lim ekotizimida LMSlar markaziy o'rin egallaydi. **LMS – bu onlayn kurslarni yuklash, tarqatish, topshiriqlar berish, baholash va o'quv faoliyatini monitoring qilishga mo'ljallangan dasturiy platforma**. Moodle, Canvas, Blackboard kabi ko'plab LMS tizimlari butun dunyo bo'ylab oliy va umumiy ta'limda keng qo'llanilmoqda. Ular o'qituvchilar va talabalar uchun virtual sinf xonasi vazifasini bajaradi, shuningdek, SCORM paketi ko'rinishidagi tarkibni qabul qilish va almashish hamda xAPI ma'lumotlarini LRSga uzatish kabi standartlarni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda pandemiya davrida Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams singari LMS platformalaridan foydalanish keskin ortgan. Jumladan, 2021-yilda o'qituvchilarning 65 foizdan ko'prog'i raqamli platformalar orqali muntazam ravishda dars o'tgan. LMS yordamida dars jarayonlarini interfaol tarzda tashkil etish, topshiriqlarni avtomatik tekshirish, reytinglar va hisobotlarni shakllantirish kabi imkoniyatlari ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi texnologik standart va tizimlar ta'lim jarayonini raqamlashtirishda **pedagogik jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.** Birinchidan, **SCORM va cmi5 kabi standartlar tufayli ta'lim kontentining qayta foydalanish va platformalararo almashish imkoni oshadi**, o'qituvchilar sifatli elektron resurslarni bir platformadan boshqasiga erkin o'tkazib, yanada keng auditoriyaga yetkazishlari mumkin. Ikkinchidan, **xAPIga asoslangan ta'lim jarayonidagi tizimli tahlil har bir o'quvchining rivojlanishini individual kuzatib borib, ularga mos moslashuvchan o'quv trayektoriyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi**. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan bilim berish va ularda qiyinchilik sezilayotgan nuqtalarida o'z vaqtida qo'shimcha yordam ko'rsatish imkoniyatini ta'minlaydi. Masalan, xAPI tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida tizim o'quvchining qaysi mavzuda ko'p xato qilganini aniqlab, shu mavzu bo'yicha qo'shimcha material tavsiya qilishi mumkin. Uchinchidan, **standartlarning keng qo'llanishi ta'lim texnologiyalari bozorida ochiq ekotizim yaratadi,** turli ishlab chiquvchilar mahsulotlari bir-biri bilan integratsiyalasha oladi, bu esa innovatsion yangi vositalarni tez tatbiq etish, tanlovni kengaytirish va narxlarni pasaytirishga olib keladi.

B. *Raqamli ta'lim resurslari va interfaol xizmatlarning o'rni*

Raqamli ta'lim resurslari – bu elektron darsliklar, videodarslar, interfaol mashqlar, audio materiallar, virtual laboratoriyalar kabi har xil shakldagi o'quv kontenti tushuniladi. Interfaol ta'lim xizmatlari esa onlayn testlar, masofaviy o'qitish platformalari, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot tizimlari, elektron kutubxonalar kabi xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Raqamli resurslar va xizmatlar ta'lim ekotizimining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ularning to'g'ri integratsiyasi ta'lim sifati va qamroviga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida SCORM, xAPI va cmi5 kabi xalqaro standartlar o'quv kontentini turli platformalar va LMSlarda ishlashga moslashtiradi. Masalan, SCORM standarti kursni "har qanday platformada ishlashga imkon beruvchi" texnik me'yorlar to'plamini belgilaydi.

Masalan, elektron darsliklar an'anaviy bosma kitoblarga nisbatan qo'shimcha multimedia elementlariga ega bo'lib, mavzuni chuqurroq tushuntirishga yordam beradi. Misol uchun, Qozog'istonda "TopIQ" nomli raqamli ta'lim portali orqali

1-sinfdan 11-sinfgacha barcha fanlarning interfaol elektron darsliklari joriy qilingan bo'lib, ularning har biri audio, video materiallar, animatsiyalar va interfaol topshiriqlar bilan boyitilgan. TopIQ platformasidagi har bir elektron darslik keng qamrovli multimedia mahsuloti bo'lib, unda audio-vizual materiallar, animatsiyalar va interfaol topshiriqlar bilan boyitilgan. Bu resurslar o'quvchilar uchun qo'shimcha masalalar, testlar va interfaol topshiriqlarni o'z ichiga oladi, bu esa ta'lim jarayonini yanada mustahkamlaydi. Rossiyaning "Elektron maktab" (Российская электронная школа - РЭШ) platformasi 1-sinfdan 11-sinfgacha o'quvchilar uchun to'liq interfaol kurslar, videodarslar va diagnostik testlarni taklif etadi, bu esa o'quvchilarga mustaqil bilim olish jarayonida katta ko'mak beradi.

Interfaol ta'lim xizmatlari esa ta'lim ishtirokchilari o'rtasida samarali aloqa va qo'llab-quvvatlash tizimini yaratadi. Masalan, onlayn forumlar va chatlar orqali o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar orasida doimiy muloqot o'rnatish mumkin. O'zbekistonda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan yaratilgan "eMaktab" platformasi aynan shunday uch tomonlama interfaol muloqotni rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan. eMaktab platformasi orqali o'qituvchi dars jadvali, uy vazifasi, baholar va e'lonlarni o'quvchi hamda ota-onalarga yetkaza oladi, o'quvchilar esa o'z savollarini bevosita o'qituvchiga onlayn yo'llashi mumkin. Bunday uchrashuv va muloqotning raqamli formati, ayniqsa pandemiya davrida va undan keyingi davrda masofaviy ta'limda o'z samaradorligini namoyish etdi. Interfaol xizmatlarning yana bir muhim tomoni shundaki masofaviy ta'lim va qo'shimcha ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishidir. O'zbekistonning "Maktab.uz" loyihasi 2020-yildan boshlab eng yirik onlayn maktab sifatida ishga tushirilib, u yerda umumta'lim maktablari dasturi bo'yicha videodarslar, shuningdek, dasturlash, robototexnika, chet tillari kabi zamonaviy kurslar ham joylashtirilgan. Bu platforma har bir o'quvchiga eng yaxshi o'qituvchilardan virtual tarzda saboq olish imkonini beradi – minglab o'quvchilar ushbu onlayn darslardan foydalanib, bilim va ko'nikmalarini boyitmoqda.

C. Ilg'or xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoiti: qiyosiy tahlil

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida markazlashtirilgan milliy ta'lim platformalari raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishda asosiy rol o'ynamoqda. Quyida ayrim ilg'or platformalarning imkoniyatlari va ularning O'zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlili keltiriladi.

Turkiya – EBA (Eğitim Bilişim Ağı): Turkiyaning Milliy ta'lim vazirligi 2012-yilda EBA ta'lim tarmog'ini ishga tushirgan. EBA platformasi COVID-19 pandemiyasi davrida o'zining hayotiy ahamiyatini to'liq namoyon etdi, xususan **2020-2021 o'quv yilida platformadan 7,38 million o'quvchi va 1,03 million o'qituvchi muntazam foydalangan** va shu davrda EBA orqali 5,95 millionta jonli onlayn dars o'tkazilgan. 2020-yil oktabr oyida EBA veb-sayti dunyoda ta'lim yo'nalishida foydalanuvchilar soni va internet trafik hajmi bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

Platformada 186 xil elektron kitoblar, 270 ta video modul, minglab interfaol testlar va boshqa ta'lim resurslari to'plangan. Shuningdek, Akademik qo'llab-quvvatlash (**"EBA Academic Support"**) nomli maxsus modul orqali o'quvchilarga imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda ko'mak beriladi. Ushbu moduldan 1,17 mln o'quvchi va 189 ming o'qituvchi foydalangan. Turkiya tajribasi davlat darajasida ishlab chiqilgan markazlashgan platforma qisqa muddatda millionlab foydalanuvchilarni qamrab olishi va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Xitoy – Smart Education of China: 2022-yilda ishga tushgan SmartEdu portali 2025-yil apreliga kelib 164 milliondan ortiq foydalanuvchi to'plagan. Platforma bazasida 110 mingdan ziyod boshlang'ich va o'rta maktab o'quv resurslari, 11 300 dan ortiq kasb-hunar kurslari, 31 000 dan ortiq oliy ta'lim kurslari va 2 000 dan ortiq umrbod ta'lim (Life-long learning) kurslari jamlangan. Boshqa funksiyalar safida milliy imtihonlarga tayyorlov va ish bilan ta'minlash bo'limlari ham bor. Eng muhimi, SmartEdu sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan: foydalanuvchilarga individual o'qishni rejalashtiruvchi va savollarga javob beruvchi AI-chatbot xizmatlari mavjud.

SmartEdu tarkibida ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi 8 ta asosiy kategoriya bo'yicha 51 xil turdagi xizmat mavjud bo'lib, jumladan milliy imtihonlarga tayyorgarlik va ishga joylashish bo'yicha ham alohida bo'limlari bor. SmartEdu portaliga sun'iy intellekt modellarining integratsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu integratsiya foydalanuvchilarga virtual yordamchi (AI chatbot) xizmatini taqdim etadi. Mazkur xizmat shaxsiy yondashuvga asoslangan holda o'quv materiallarini tavsiya qiladi va foydalanuvchilarning savollariga javob beradi.

Hindiston – DIKSHA (Digital Infrastructure for Knowledge Sharing): 2017-yilda "bir makon – bir platforma" tamoyili bilan yo'lga qo'yilgan DIKSHA 36 ta hind milliy tili va til aksenti uchun 19 698 dan ortiq elektron kursni taklif qiladi, 182 milliondan ziyod kursga yozilish qayd etilgan. Platformada milliy o'quv dasturiga muvofiq elektron darsliklar, videodarslar, testlar va o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari jamlangan. DIKSHA portalida QR-kodli darsliklar orqali o'quvchilar dars materialidan to'g'ridan-to'g'ri qo'shimcha videomateriallar, mashqlar va interfaol testlarga o'tadi.

O'zbekiston ham xuddi shunday, bir platformaga o'zbek tilidagi kontent bilan birga qolaversa qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi qo'shimcha resurslarni jamlashi mumkin. Shuningdek, DIKSHA kabi O'zbekistonda ham raqamli platformani nafaqat umumta'lim, balki o'qituvchilarning malaka oshirishi uchun ham maydoncha sifatida ishlatish katta samara berishi kutiladi.

Qozog'iston – TopIQ platformasi: Yuqorida tilga olingan TopIQ raqamli ta'lim platformasi Qozog'istonda 2020-yildan boshlab joriy qilinib, "AlmatyKitap" nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan. TopIQ raqamli kutubxonasida barcha elektron darsliklar multimedia formatida interfaol tarzda taqdim etilgan bo'lib, platforma mobil va veb interfeysga ega – ya'ni har qanday smartfonda ham ishlay oladi. 2023-yilga kelib TopIQ mamlakatdagi maktablarning 30% faoliyatini raqamlashtirishda muvaffaqiyatli qo'llanilgani va minglab o'qituvchi hamda o'quvchilardan ijobiy fikr olgani e'lon qilingan.

O'zbekiston uchun ahamiyati, TopIQ misolida nodavlat nashriyot ham raqamli maktab resursini yaratishi va davlat ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham darsliklar nashriyotlari yoki xususiy IT kompaniyalar bilan hamkorlikda kontentni multimedia va interfaol formatga o'tkazish hamda yagona tizimga ulash tajribasini qo'llash maqsadga muvofiq.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro tajribalar O'zbekiston uchun bir qator muhim tajribalarni belgilab beradi. Masalan, Turkiyaning EBA modeli qisqa vaqt ichida millionlab foydalanuvchilarni qamrab olish imkoniyatini ko'rsatdi. Xitoyning SmartEdu platformasi esa sun'iy intellekt va turli xizmatlarni integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish usullarini namoyish etdi. Hindistonning DIKSHA tizimi turli tillar va mahalliy kontentlar bilan ishlashni o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi. O'zbekistonda ham Yagona raqamli ta'lim portali konsepsiyasi asosida shu kabi ishlarni amalga oshirish mumkin. Jumladan, SCORM/xAPI standartlariga mos interfaol elektron darsliklar, o'qituvchilar hamjamiyati, masofaviy ta'lim va sun'iy intellektga asoslangan yordamchi kabi funksiyalarni birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqsad o'quvchilarga teng va yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, shu bilan birga pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirib borishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari O'zbekiston ta'lim sohasida raqamli ekotizimning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu

bilan birga, xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan SCORM, xAPI hamda cmi5 kabi standartlar hozircha mamlakatimiz ta'lim amaliyotida to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi ta'lim jarayonini raqamli muhitga samarali moslashtirish, o'quv jarayonini esa yanada moslashuvchan va ma'lumotlarga asoslangan tarzda boshqarish imkonini berishi kutilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ta'lim resurslari va interfaol xizmatlarning yagona tizim asosida integratsiyalashuvi ta'lim samaradorligini oshirish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va barcha o'quvchilar uchun adolatli hamda barqaror ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston o'zining raqamli ta'lim tizimini yaratish yo'lida allaqachon muhim qadamlar tashlagan. Jumladan, eMaktab va maktab.uz kabi platformalar ishga tushirilgan bo'lib, endi ushbu platformalarni o'zida mujassamlashtirgan Yagona raqamli ta'lim portali mazkur tizimda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Eng muhim xulosalardan biri shundaki, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yechim, balki ijtimoiy loyiha hisoblanadi. Bu har bir o'qituvchidan o'zini innovatsion jarayonning ajralmas qismi sifatida anglashni va mahoratini uzluksiz oshirib borishni talab etadi. Shu bilan birga, har bir o'quvchi texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlar ochilayotganini his qilishi lozim. Bundan tashqari, bu ulkan maqsadga barcha manfaatdor tomonlar - hukumat vakillari, maktablar, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning hamkorligida erishish mumkin. Raqamli texnologiyalar shunchaki zamonaviylik belgisi emas, balki ta'lim sifatini yuksaltirish, tenglikni ta'minlash va kelajak avlodning raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasidir.

Raqamli ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning yangi texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatiga bog'liq. Shu bois, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini uzluksiz ravishda oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarga xalqaro va milliy standartlar asosida raqamli ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyati yaratilishi lozim.

Yangi yaratilayotgan barcha raqamli kontent va platforma elementlari xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Jumladan, mahalliy ishlab chiqilayotgan elektron darslik va kurslar SCORM yoki xAPI formatida paketlanishi, ta'lim portal va LMSlar esa ushbu standartarni qo'llab-quvvatlashi zarur. Bu nafaqat tizim ichidagi muvofiqlikni saqlaydi, balki kelgusida xorijiy platformalar bilan kontent almashishni ham osonlashtiradi.

Portaldan va LMSlardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) ta'lim siyosatini takomillashtirish imkonini beradi. Buning uchun EMIS kabi ta'lim axborot tizimini yagona portal va LMS bilan integratsiya qilib, har bir maktab va hududdagi raqamli faollik ko'rsatkichlarini uzluksiz kuzatib borish lozim. UNESCO tomonidan O'zbekistonda joriy etilgan Ta'lim axborot tizimi monitoringi vositasi (EMIS PATT) bu borada muhim vosita bo'lib, mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib ushbu tizimni tatbiq etdi. Ushbu baholash vositasi ta'lim ma'lumotlari tizimida qaysi sohalar kuchli va zaif ekanini aniqlashga yordam beradi. Masalan, onlayn darslarga ulanish pasaygan hududda internet sifati yoki o'qituvchilar malakasini tekshirib, muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin.

Raqamli ta'lim tizimi barqaror ishlashi uchun uning axborot xavfsizligi yuqori darajada bo'lishi kerak. Portal va LMS ma'lumotlari, shaxsiy profillar va baholar kabi ma'lumotlarni shifrlangan holda saqlash, shuningdek, ishonchli autentifikatsiya tizimlari va foydalanuvchi rollarini joriy etish nihoyatda muhimdir. Xavfsizlik zaifliklari, DDoS-hujumlar va xakerlik hujumlaridan himoyalanish uchun zamonaviy protokollardan foydalanish majburiydir. Har bir foydalanuvchi nosozliklar yuz berganda tizimni zaxiralash va tiklash rejalarini ishlab chiqishi shart. Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilarni kiberxavfsizlik bo'yicha muntazam o'qitib borish (masalan, parol xavfsizligi, shubhali havolalardan chetlashish haqida ma'lumot berish) muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston ta'lim tizimining raqamli ekotizimi yanada mustahkamlanadi. Texnologiyalar va standartlar jarayonni tezlashtiradi hamda uning sifatini oshiradi, biroq ulardan eng samarali foydalanish uchun inson omili, ya'ni o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning tashabbuskorligi va hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ekotizimning yutuqlari shunda namoyon bo'ladiki, har bir o'qituvchi o'zini innovatsion jarayonning ajralmas qismi deb his qiladi, har bir o'quvchi esa texnologiyalar unga yangi imkoniyatlar eshigini ochayotganini chuqur anglab yetadi.

Ta'lim jarayoniga integratsiya qilingan raqamli yechimlar ta'lim sifatini yuksaltiradi, teng imkoniyatlar yaratadi va kelajak avlodning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshiradi. Shu sababli, ulardan to'liq va samarali foydalanish kelajagimizga qo'yilayotgan muhim sarmoya hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[249] Ministry of Education, Saudi Arabia, *E-learning and digital education*

[250] UNESCO. (2021). Global education monitoring report, 2021, Central and Eastern Europe, Caucasus and Central Asia: inclusion and education: all means all, executive summary

[251] OECD. (2021). Education at a Glance 2021. OECD Indicators.

[252] World Bank. (2022). Uzbekistan Digital Development Strategy: Opportunities and Challenges.

[253] Rogers J.W. & Alexander K. (2022). Standards and affordances of 21st-century digital learning: Using the Experience Application Programming Interface and the Augmented Reality Learning Experience Model to track engagement in extended reality. ACTA IMEKO, ISSN: 2221-870X, Vol. 11, Num. 3, 1 – 6.

[254] Reyad R. Aljad (2023). *Analysis of Development Trends and Experience of using LMS in Modern Education: An overview*. E-Learning Innovations Journal 1(2):86-104. DOI:10.57125/ELIJ.2023.09.25.05

[255] Suleymanova R.M. (2024). *Introduction of digital technologies into the educational process in Uzbekistan.* European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). ISSN: 2660-5589. Vol. 5 No.02

[256] Sharipova Z.Sh. (2025). *Digital transformation of the education system in uzbekistan: Challenges, opportunities, and future prospects.* International scientific-electronic journal "Pioneering studies and theories", 1(4), 35-39. https://doi.org/10.5281/zenodo.15046348

[257] Fayzullaeva M. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishda 3d gologramma proyektori va displeyini qo'llash. O'zMU XABARLARI ВЕСТНИК НУУз ACTA NUUz. [1/9] ISSN 2181-7324. Pp. 168-171.

[258] Zou Y., Kuek F., Feng W. and Cheng X. (2025). *Digital learning in the 21st century: trends, challenges, and innovations in technology integration.* Frontiers in Education 10:1562391. doi: 10.3389/feduc.2025.1562391

[259] UNESCO. Financing the digital transformation of education. DIKSHA.

[260] Astana Times. (2023, May 27). Screen vs Print: Kazakhstan's TopIQ Platform Brings Digital Textbooks and Interactive Learning Content to Wider Children's Audience.

[261] Belitsoft. (2024, April 28). *Difference between SCORM, xAPI, LTI and cmi5 eLearning Standards*. (SCORM, xAPI, LTI va cmi5 elektron ta'lim standartlari tafovuti).

[262] *Xinhua*, "Chinese smart education online platform surpasses 164 mln registered users," May 17, 2025.

[263] Ministry of Education, Turkey, "EBA education platform ranked 1st in the world,"

RAQAMLI IQTISODIYOT KONTEKSTIDA OLIY TA’LIM TIZIMIDA XIZMAT KO‘RSATISH MUASSASALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Begmatova Ziyoda Zoxidjon qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya* — Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion va investitsion faoliyatini rivojlantirish, interaktiv davlat xizmatlari tizimi orqali kadrlar bandligi va talabni baholashning zamonaviy modellarini yaratish muhokama qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini va xodimlarning faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. (*Annotatsiya*)**

Kalit so‘lar — Oliy ta’lim, raqamli iqtisodiyot, xizmat ko’rsatish samaradorligi, interaktiv davlat xizmatlari, kadrlar bandligi, innovatsiya, investitsiya, iqtisodiy samaradorlik. (*kalit so‘zlar****)***

CLXVIII. KIRISH

GLOBAL IQTISODIYOT VA IJTIMOIY SOHALAR RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TEZ SUR’ATLARDA RIVOJLANAYOTGANI BUGUNGI KUNDA OLIY TA’LIM TIZIMI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUHIMLIGINI TA’KIDLAYDI. OLIY TA’LIMDA XIZMAT KO‘RSATUVCHI MUASSASALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI NAFAQAT TA’LIM SIFATINI OSHIRISH, BALKI MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH UCHUN ASOSIY MEZONLARDAN BIRIDIR. KO‘PLAB DAVLATLARDA OLIY TA’LIM TIZIMINING MOLIYALASHTIRILISHI DAVLAT TOMONIDAN TA’MINLANADI, AMMO SAMARADORLIKNI OSHIRISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQOBATBARDOSH BO‘LISH UCHUN INNOVATSION YONDASHUVLAR ZARUR. SHU BOIS, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA XODIMLARNING FAOLIYATI VA KADRLAR BANDLIGINI BAHOLASH TIZIMLARI ISHLAB CHIQISH, TA’LIM SIFATINI VA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OPTIMALLASHTIRISH DOLZARB VAZIFALARDAN BIRIDIR.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan ko‘plab strategik hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari u chun o‘zining iqtisodiy salohiyati va ilmiy-pedagogik kadrlar tarkibini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada yuqorida ta’kidlangan kontekst asosida oliy ta’lim tizimida xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, xodimlarning faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida baholash vakolatlari, kadrlar bandligini modellashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari ilmiy yondashuvlar va amaliy tajriba ko‘rsatmalari orqali tahlil qilinadi.

A. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi va quyidagi ilmiy tadqiqot usullari ishlatildi:

- Natijalarni aniqlik bilan baholash uchun iqtisodiy-statistik tahlillar, korrelyatsion-regression tahlil, statistik guruhlash va prognozlash usullari qo‘llanildi;
- Tizimli tahlil orqali oliy ta’lim tizimida inson resurslari, moliyaviy va texnologik resurslarning o‘zaro ta’siri o‘rganildi;
- Analiz va sintez usullari yordamida oliy ta’lim tizimida xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy-analitik materiallar ishlab chiqildi;
- Ekspert baholari va amaliy yorliqlardan foydalangan holda oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar yakunlandi.

B. Adabiyot sharhi

Oliy ta’lim tizimining raqamli iqtisodiyotda samaradorligini oshirish mavzusida xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Misol uchun, O.Graumann, P.Senge va Itel de-Sol Pul kabi olimlar oliy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishda uzluksiz ta’lim va boshqaruv strategiyalarini

o'rganishgan. MDH mamlakatlaridan E.Y.Ignatev va boshqalar ta'lim menejmentining zamonaviy usullarini tahlil qilgan bo'lsa, O'zbekistondagi olimlar, jumladan R.X.Jo'rayev va N.N.Azizxo'jayev, o'zaro bog'liqlik va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yo'llarini ilgari surishgan.

Shuningdek, E.Wagner va J.M. Ferreira oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini strategik boshqarish nuqtai nazaridan o'rganib, xalqaro miqyosda barqaror raqobat ustunligini yaratishning omillarini izohlashgan. Bunda jahon bozoridagi integratsiya, texnologik yangiliklar va marketing strategiyalari asosiy omillar sifatida ko'rsatildi. Xorijiy tajribalar orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimining zamonaviylashtirilishi, raqamli platformalar, big data va sun'iy intellektni qo'llash yo'nalishlari o'rganildi.

O'zbekistonda esa M.Rosenberg va Q.S.Raxmanovning tadqiqotlari raqamli ta'limning ta'sirini va davlat boshqaruvini raqamlashtirishdagi mavjud muammolarni batafsil ko'rib chiqadi. Milliy kontekstda esa personalni rivojlantirish va raqamli texnologiyalar orqali xodimlarning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribadagi Yaponiyaning yuqori samarali kadrlar tayyorlash modeli, Fransiyaning malaka oshirish qonunchilik mexanizmi kabi yondashuvlar O'zbekistonga moslashtirilmoqda.

Bundan tashqari, Kaplan va Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard usuli va Robert Campning Benchmarking yondashuvi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kompleks baholashda keng qo'llanilmoqda. Bu usullar moliyaviy natijalar, mijozlar qoniqishi, ichki jarayonlar samaradorligi va innovatsion rivojlanishni bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi.

CLXIX. TADQIQOT NATIJASI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning raqobatbardoshligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Texnologik infratuzilmani va ilmiy-texnik dasturlarni kengaytirish, bu 2019 yildan 2024 yilgacha texnik dasturlar ko'lamining 72% dan 82% ga oshganligi bilan namoyon bo'ladi.
- Ilmiy-pedagogik xodimlar soni ham sezilarli oshib, 65% dan 78% gacha yetgan.
- Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali ta'lim sifatini yaxshilash va avtomatlashtirish tizimlari joriy qilingan, dasturlardan foydalanish samaradorligi esa 70% dan 83% gacha oshgan.

Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonning 2030 yilga qadar raqamli iqtisodiyotga o'tish va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasiga to'liq mos keladi.

2-jadval. Respublika bo'yicha oliy ta'lim tizimiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar sonining o'sish dinamikasi (2014-2023)[55]

Yil	Oliy ta'lim tashkilotlar soni
2014/2015	68
2015/2016	69
2016/2017	70
2017/2018	72
2018/2019	98
2019/2020	119
2020/2021	127
2021/2022	154
2022/2023	191

Bu raqamlar 2014-2023 yillar oralig'ida oliy ta'lim muassasalari soni 2,8 barobar o'sishini ko'rsatadi. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallari soni esa 7 tadan 26 taga oshgan, bu esa xalqaro hamkorlikning rivojlanganini tasdiqlaydi.

2-jadval. Hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari va talabalar soni

Hududlar	Muassasalar soni (2024)	Talabalar soni (2023)
Toshkent shahri	90	370,253
Andijon	12	58,247
Buxoro	13	55,418
Samarqand	17	88,345
Surxondaryo	8	55,367
Qashqadaryo	11	54,211
Farg'ona	13	82,167
Navoiy	5	28,236

Bu o'sish raqamli transformatsiyani jadallashtirish, ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va ilm-fanni rivojlantirishga yo'naltirilgan "Raqamli O'zbekiston—2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Strategiya doirasida ta'lim infratuzilmasini kengaytirish, raqamli xizmatlar va yangi ta'lim platformalarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida ko'rilgan.

Mazkur strategik yo'nalishlar mamlakatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni

kengaytirish, kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish va o'quv jarayonlarini raqamlashtirishni ta'minlaydi.[56]

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi va hududlarda taqsimlash ta'lim sohasida raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonining muhim qismidir, bu esa O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatuvchi muassasalar iqtisodiy faoliyatining samaradorligini oshirish zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi va sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi holatida, oliy ta'lim tizimi, jumladan unda xizmat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini optimallashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda, xodimlarning mehnat unumdorligini baholash va optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalar muhim vositadir.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun xizmat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyati zamonaviy boshqaruv tizimlari va dasturiy majmualar orqali avtomatlashtirilmoqda. Ushbu usullar mehnat resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish hamda sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Oliy ta'lim tizimiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarda raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari ta'lim sifati, xodimlar malakasi va innovatsion yechimlarga asoslangan.

Bundan tashqari, mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy hamkorlikni kengaytirish, ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish kabi vazifalar hamda sohadagi raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, balki oliy ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xodimlarni boshqarish tizimlari mehnat bozoridagi talab va ta'lim muassasalari imkoniyatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonini raqamlashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada samarali boshqarish imkonini yaratadi. Ta'lim infratuzilmasining kengayishi va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish strategiyasi davlat tomonidan ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bu jarayonda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, shuningdek, xodimlarning faoliyatini tahlil qilish va optimallashtirishga xizmat qiluvchi raqamli dasturiy komplekslar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, xizmat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda samaradorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda sezilarli va tizimli o'zgarishlar amalga oshirildi. Misol uchun, 2014/2015 yilda mamlakatda 68 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida bu ko'rsatkich 213 taga yetdi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 1,3 millionga yetdi, bu esa mamlakat yoshlarining oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasini 2016 yildagi atigi 9 foizdan bugungi kunda taxminan 42 foizga oshishini ta'minladi. Uzoq tarixda kuzatilmagan bu o'sish raqamli iqtisodiyotga o'tish va ta'lim infratuzilmasini kengaytirish strategiyasining samarasi sifatida ko'riladi.

Mazkur kengayish natijasida hududlarda ham ta'lim muassasalari sonining ko'payishi kuzatilmoqda. Toshkent shahrida bugungi kunda 90 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, unda tahsil olayotgan talabalar soni 370 mingdan oshadi. Samarqand va Farg'ona kabi yirik hududlarda 17 va 13 ta muassasa mavjud bo'lib, talabalarning soni keskin oshgan (mos ravishda 88 ming va 82 ming kishi). Bu esa ta'lim xizmatlarining hududlardagi teng taqsimlanishiga, yoshlar o'rtasida ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Oliy ta'lim sohasida raqamli transformatsiya jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. 2019 yildan boshlab barcha oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga (European Credit Transfer and Accumulation System) bosqichma-bosqich o'tmoqda. Bu esa ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini oshirib, talabalar uchun fanlarni tanlash imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, qo'sh diplom dasturlari (Double Degree) joriy etilib, talabalarga xorijiy universitetlar bilan aloqada ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Mazkur integratsion jarayonlar O'zbekiston oliy ta'limining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan muhim strategik qadamdir.

Yana bir muhim yo'nalish ta'lim tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashdir. 2016 yilda oliy ta'lim muassasalari binosining quvvati 274 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 395 mingga yetkazildi. Yotoqxonalarda yashash istagini bildirgan talabalar qamrovi 2019 yildagi 28 foizdan 2023 yilda 52 foizga oshdi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali yangi yotoqxona qurilishi va ta'lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash borasida katta ishlar bajarilmoqda.

Shuningdek, oliy ta'limda sifatni oshirishga qaratilgan ilmiy va metodologik islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari optimallashtirilib, xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan dasturlar soni ortmoqda. Bu esa ta'lim sifatining xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida nafaqat muassasalar soni va talaba qamrovi ortdi, balki sifatni yaxshilash, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ta'limning raqamlashtirilishi bo'yicha ham katta yutuqlarga erishildi. Bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasi bilan uyg'unlashgan holda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashish oliy ta'lim sohasining yetakchi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bularning barchasi mamlakat ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlab, yosh avlodning zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi va iqtisodiy o'sishdagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanish, kengayish va sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. 2014/2015 yildan

boshlab 2023/2024 o‘quv yiliga qadar oliy ta’lim muassasalari soni 68 tadan 213 taga yetib, uch barobarga yaqin o‘sish kuzatildi. Bu o‘z navbatida talabalarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishi darajasining ham oshishiga olib keldi. 2016 yilda oliy ta’lim qamrovi atigi 9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bu ko‘rsatkich 42 foizga yetdi. Bunday o‘sish mamlakatda yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari kengayganidan, ta’lim tizimining hududlarga teng taqsimlanganidan va sifatli ta’lim standartlari joriy etilayotgani natijasidir.

Hududlar bo‘yicha ta’lim infrastrukturasi kengaymoqda, Toshkent shahri 90 ta oliy ta’lim muassasasi va 370 mingdan oshiq talaba bilan yetakchilik qilmoqda. Samarqand va Farg‘ona kabi yirik shaharlar ham so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarining soni ortib, talaba qamrovi „barqaror“ tarzda oshmoqda. Shu bilan birga, Navoiy kabi hududlarda talabalar va muassasalar soni boshqa hududlarga nisbatan past bo‘lsa-da, mintaqaviy rivojlanish istiqbollari mavjud.

Ta’lim tizimining sifat va zamonaviylik darajasini oshirish maqsadida 2019 yildan boshlab kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish boshlandi, shu bilan birga qo‘sh diplom dasturlari kengaytirilmoqda. Bu talabalar uchun turli imkoniyatlarni yaratib, ularni xalqaro ta’lim maydoniga chiqishiga xizmat qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni integratsiyalash „Universitet 3.0“ konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladi, bu esa ilmiy salohiyatni oshirib, intellektual mulkni tijoratlashtirishga zamin yaratmoqda.

3-rasm. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining ayrim asosiy ko‘rsatkichlarini 2014/2015 yildan 2023/2024 yilgacha

Yil	OTM soni	Talabar soni(ming)	Bakalavr bitiruvchilar soni	Magistr bitiruvchilar soni
2014/15	68	264	Noma’lum	Noma’lum
2017/18	72	360	Noma’lum	Noma’lum
2019/20	119	570	65,400	9,362
2021/22	154	912	Noma’lum	Noma’lum
2023/24	213	1,300	197,319	4,943

Infratuzilma va moddiy-texnika bazasining rivojlanishi ham diqqat markazida. Mamlakat bo‘ylab oliy ta’lim muassasalari binosining o‘quv quvvati sezilarli o‘sdi, yotoqxonalarda talabalar qamrovi 28 foizdan 52 foizgacha ko‘tarildi va yangi yotoqxona loyihalari amalga oshirilmoqda.

Davlat tomonidan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar soni oshirilib, davlat va xususiy sektordan moliyaviy yordam bilan ta’minlash mexanizmlari joriy etildi. Bu esa yoshlar orasida ta’limga bo‘lgan motivatsiyalarni kuchaytirib, ta’lim sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi so‘nggi yillardagi islohotlar nafaqat muassasalar soni va talaba qamrovining o‘sishiga, balki ta’lim sifatini yaxshilashga, ilmiy-innovatsion salohiyatni oshirishga va ta’lim infratuzilmasini zamonaviylashtirishga qaratilgan. Bu o‘zgarishlar mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi, yoshlarni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini yaratadi. Shuningdek, ta’lim tizimi raqamli iqtisodiyotga moslashish va xalqaro ta’lim makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

CLXX. XULOSA

O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot natijalari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirish bilan bog‘liq ekanligi tasdiqlandi. Bu esa ta’lim sifatini yaxshilash va muassasalar raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti misolida olib borilgan ekonometrik tahlil esa iqtisodiy ko‘rsatkichlar va kadrlar siyosatining samaradorligini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rosenberg M. “Digital Transformation in Higher Education”, Theoretical & Applied Science, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomalar, 2019-2025.
3. Maksimov U.V. “University Graduate Competitiveness Models”, Journal of Educational Science, 2022.
4. TATU Ilmiy Hisobotlari, 2015-2024.
5. Fisher S. “Human Capital and Higher Education”, Theoretical & Applied Science, 2021.
6. Yevropa Hamkorligi Lissabon Konvensiyasi, 1997.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Normativ Hujjatlari, 2020-2025.